



@buxdu_uz



@buxdu1



@buxdu1



www.buxdu.uz



E-ISSN 2181-1466

9 772181 146004



ISSN 2181-6875


9 772181 687004

8(2)/2026

Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



8(2)/2026

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal
2026, № 8, avgust

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha, **tarix** fanlari bo'yicha 2023-yil 29-avgustdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Samiyev Kamoliddin A'zamovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul kotib: Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Bezudnaya A. G., Sankt-Peterburg davlat iqtisodiyot universiteti professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Razumovskiy V. M., Sankt-Peterburg davlat iqtisodiyot universiteti professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Zahidov A. A., Texas universiteti professori, fizika-matematika fanlari doktori

Kovalev I. V., Sibir Federal universiteti professori, texnika fanlari doktori

Ibrayeva K. T., Tyumen davlat universiteti, Ekologiya va qishloq xo'jaligi biologiyasi instituti, texnika fanlari nomzodi

Tursunjon M., Shinjon Uyg'ur Avtonom Rayoni Qishloq xo'jaligi fanlari akademiyasi, Paxta ilmiy-tadqiqot instituti professori, qishloq xo'jalik fanlari doktori

Ai Syan Tao, Shinjon Universiteti Aqlli qishloq xo'jaligi instituti direktori, qishloq xo'jalik fanlari doktori, professor

Tursunov D.A., O'sh davlat universiteti professori, fizika-matematika fanlari doktori

Zagdkhorol Bayasgalan, Mongolian University of Science and Technology professori, fizika-matematika fanlari doktori

Gumerov Renat, Qozon federal universiteti professori, fizika-matematika fanlari doktori

Babayeva F. Sh., Ozarbayjon milliy fanlar akademiyasi professori, falsafa fanlari doktori

Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Rasulov To'lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qahhorov Otabek Siddiqovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoirra Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bekova Nazora Jo'rayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Hamroyeva Shahlo Mirjonovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Nigmatova Lola Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Jamilova Bashorat Sattorovna, filologiya fanlari doktori, professor

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori

Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor

Xolliyev Askar Ergashovich, biologiya fanlari doktori, professor

Artikova Hafiza To'ymurodovna, biologiya fanlari doktori, professor

Norboyeva Umida Toshtemirovna, biologiya fanlari doktori, professor

Hayitov Shavkat Ahmadovich, filologiya fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Ixtiyarova Gulnora Akmalovna, kimyo fanlari doktori, professor

Rasulov Zubaydullo Izomovich, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, texnika fanlari doktori, professor

Yuldosheva Dilorom Nigmatovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Sharipov M. Z., fizika-matematika fanlari doktori, professor

Esanov Husniddin Qurbonovich, biologiya fanlari doktori, dotsent

Raupov Soyib Saidovich, tarix fanlari nomzodi, professor

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, professor

Jumayev Jura, fizika-matematika fanlari nomzodi, professor

Qurbonova Manzila Bakiyevna, tarix fanlari nomzodi, professor

Ochilov Alisher To'lis o'g'li, tarix fanlari doktori, professor

Klichev Qybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori, dotsent

G'aybullayeva Nafisa Izattullayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'rinova Bozorgul Zokirovna, tarix fanlari doktori, dotsent

SERIYA: TILSHUNOSLIK

MUNDARIJA *** CONTENTS *** СОДЕРЖАНИЕ		
TILSHUNOSLIK *** LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ		
Avazov A.O.	Linguacultural features of English and Uzbek phraseological units denoting colors	3
Badalov F.A.	Frazeologik birliklarning kognitiv asoslari va metaforik tabiati	7
Berdiyeva N.U.	Murod Muhammad Do‘st uslubida leksik qatlam va poetik sintaksisning o‘ziga xoslighi	11
Hamroyeva N.N., Hamroqulova M.Sh., Halturdiyeva S.M.	Erkin Vohidov ijodida leksik-semantik tahlil	15
Qayumova D.	Digital pronunciation dictionaries in English and Uzbek language learning	21
Toshtemirova S.Sh.	The manifestation of media discourse in contemporary mass media	25
Xudoyev S.S.	Nemis tilida tinish belgilarining funksional talqini: me‘yor, belgi va o‘qish jarayoni	30
Джураева З.Р.	«Гендер», «пол» и «гендерный стереотип» как категории гендерной лингвистики	36
Махмудова Ю.А.	Фразеологическая эквивалентность и лакунарность при переводе узбекской прозы на русский язык	41
Xaitova G.B.	Nemis va o‘zbek tillarida agrar-meteorologik paremiyalarning lingvokulturologik talqini	46
Ashurova M.O.	Identifying gender stereotypes and biases in automated translation from English to Uzbek	52
Usmonova Sh.A.	Polifunksional so‘zlarni lingvistik modellashtirish masalasi	59
Abdullayeva M.A.	Ingliz va o‘zbek tillarida orzu/dream konseptining lingvomadaniy xususiyatlari: leksik-semantik tahlil va xorijiy til ta’limida qo‘llash metodikasi	63
Egamnazarova D.Sh., Ahmadaliyeva M.K.	Ingliz va o‘zbek xalq hajviy ertaklarida kulgi va satiraning lingvopragmatik xususiyatlari	69

Arabova G.Y.	O'quvchilar lingvomadaniy kompetensiyasini shakllantirishda rang konseptlarining lingvomadaniy xususiyatlari	75
Ashurova F.O.	Badiiy psixologizm va uning ilmiy-nazariy asoslari	79
Djabbarova Sh.B.	Frazeologik birliklarning lingvokulturologik xususiyatlari	85
Kurbanov E.E.	Sud lingvistik ekspertizasida tahdid va tajovuzkor nutqiy aktlar kontekstida implitsit ma'lumotni aniqlash mexanizmlari	89
Muhammadaliyev M.N.	Samolyot poreyonimlarining onomastik va leksik-semantic xususiyatlari	96
Parpibayeva M.Z.	“Devonu lug‘at-it turk” asaridagi metaforalarning lingvokognitiv xususiyatlari hamda ularning ingliz va rus tillaridagi tarjimalari	101
Qo‘shshiyeva D.A.	Tarjimashunoslikning zamonaviy nazariyalari va rivojlanish tendensiyalari	105
Рахматов А.П.	Функционально-семантические особенности временных форм немецкого языка в тексте	111
Sa’dullayeva M.S.	Qarindoshlik terminologiyasida dialektal polisemiya va madaniy mazmun mutanosibligi	118
Salimova M.A.	Tohir Malikning “Iblis devori” qissasida frazeologik transformatsiyalar: korpusga tayangan lingvistik tahlil	123
Xaitova G.B.	Bauernregeln tizimi va nemis-o‘zbek paremiologik lakuna hodisasi: qiyosiy-lingvokulturologik tahlil	128
Халмурзаева Н.Т.	Япон тилидаги ～てください директив конструкциясида хурмат шакли ва прагматик юмшатишнинг ўзаро муносабати	132
Югай Е.В.	Цифровая трансформация терминографической деятельности и современные подходы к созданию электронных терминологических ресурсов	138
Tadjiyeva M.F.	“Muhabbat” konseptining lingvofalsafiy talqini	144
Hafizov S.B.	Ingliz va o‘zbek lingvomadaniyatida enantiosemiyalarning aks etishi	148

LINGUACULTURAL FEATURES OF ENGLISH AND UZBEK PHRASEOLOGICAL UNITS
DENOTING COLORS

Avazov Anvarbek Oybek ugli,

Third year student at
Foreign language and literature department
of Faculty of Foreign Philology,
National University of Uzbekistan
named after Mirzo Ulug'bek
anvarbekavazov06@gmail.com

Abstract. This article aims to explore the linguacultural features of English and Uzbek phraseological units associated with colors. Color-related idiomatic expressions reflect important historical experience, cultural traditions, worldview and value system of a particular nation. The study analyzes the semantic and cultural aspects of color-based idioms in both languages and identifies their similarities as well as differences. Special attention is paid to the symbolic meanings of colors and their significant role in conveying figurative meanings. The findings reveal that color-related phraseological units serve as important carriers of intercultural communication and translation processes.

Key words: phraseological units, linguistic studies, idiomatic expressions, English phraseology, Uzbek phraseology, color symbolism, intercultural communication, translation processes, linguacultural aspects.

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI RANG BILDIRUVCHI FRAZEOLOGIK
BIRLIKLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillaridagi ranglarni ifodalovchi frazeologik birliklarning lingvomadaniy jihatlarini o'rganishni maqsad qilib oladi. Ranglar bilan bog'liq idiomatik ifodalar muayyan xalqning muhim tarixiy tajribasi, madaniy an'analari, dunyoqarashi va qadriyatlar tizimini aks ettiradi. Tadqiqotlar ikkala tildagi ranglarga asoslangan idiomalarning semantik va madaniy xususiyatlarini tahlil qiladi hamda ularning o'xshash va farqli tomonlari aniqlaydi. Shuningdek, ranglarning ramziy ma'nolari hamda ularning ko'chma ma'nolarini ifodalashdagi o'rniga alohida e'tibor qaratiladi. Tadqiqot natijalari ranglar bilan bog'liq frazeologik birliklar milliy madaniyatni aks ettirishini va madaniyatlararo muloqot hamda tarjimaning samaraliroq bo'lishiga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: frazeologik birliklar, lingvistik tadqiqotlar, idiomatik ifodalar, Ingliz tili frazeologiyasi, o'zbek tili frazeologiyasi, ranglar ramziyligi, madaniyatlararo aloqa, tarjima jarayonlari, lingvomadaniy jihatlar.

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ
ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ С КОМПОНЕНТОМ-КОЛОРОНИМОМ

Аннотация. Данная статья посвящена изучению лингвокультурологических особенностей фразеологических единиц, выражающих цвета в английском и узбекском языках. Идиоматические выражения, связанные с цветами, отражают исторический опыт народа, его культурные традиции, мировоззрение и систему ценностей. В исследовании анализируются семантические и культурные особенности цветообозначающих идиом в обоих языках, а также выявляются их сходства и различия. Особое внимание уделяется символическим значениям цветов и их роли в выражении переносных смыслов. Результаты исследования показывают, что фразеологические единицы, связанные с цветами, являются отражением национальной культуры и способствуют более эффективной межкультурной коммуникации и переводу.

Ключевые слова: фразеологические единицы, лингвистические исследования, идиоматические выражения, фразеология английского языка, фразеология узбекского языка, символика цветов, межкультурная коммуникация, переводческие процессы, лингвокультурологические аспекты.

Introduction. Language is a social phenomenon that exists and develops in a society. People use the language and its features in order to communicate, share ideas, express feelings and emotions. Without society language cannot exist, function and develop. Language serves not only as a communication tool but

also important part of our national identity and cultural heritage. Phraseological units in a language play a significant role to make the communication more expressive, emotional and natural in every day of speech. Phraseological units, also known as idiomatic expressions or fixed words are stable word combinations that their basic meanings are differ from their individual appearance. Colors play an important role in phraseology. In different languages the same colors may represent and symbolize several meanings and expressions according to their historical and cultural experience. English and Uzbek languages have many phraseological units containing the names of colors. While some of them carries the same meanings in both languages, others represent different expressions. Studying color-related idioms from a linguacultural perspective not only helps us to understand their meanings but also helps to explore cultural background of a specific nation.

Literature review. Phraseological units are widely studied category in world linguistics. Numerous linguists have explored the nature, classifications and cultural values of idioms from different perspectives.

V.V.Vinogradov is one of the founders of phraseological theory. He classified phraseological units into three groups: phraseological fusions, unities and collocations. His classification became an important basis for later studies in phraseology. [9].

A.V.Kunin, in his book “A course of Modern English Phraseology”, examines English phraseological units and describes their main features. He explains their meaning, structure and use in speech. According to Kunin, phraseological units have fixed forms and normally express meanings that cannot be understood from the meanings of individual words. His work still an important source in linguistic research. [8].

Sabine Fiedler, in her book “English phraseology: A Coursebook” (2007) explains the main features of English phraseology and its importance in language learning. She describes different types of phraseological units including idioms, collocations, proverbs, and fixed expressions. Fiedler points out that phraseological units are an important part of every language because they reflect culture, history, and the way people think. She also emphasizes that learning phraseology helps language learners communicate more naturally and understand native speakers better. [1].

Shavkat Rahmatullayev, in his book “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati”, presents a large collection of Uzbek phraseological units and explains their meanings and usage. He shows that phraseological units are an important part of the Uzbek language because they make speech more natural, expressive, and meaningful. The dictionary also helps readers understand the figurative meanings of phraseological units and use them correctly in different communicative situations. Therefore, it is considered one of the most valuable sources for studying Uzbek phraseology. [7].

B.Yo‘ldoshev, his book “Fazeologik uslubiyat asoslari”, explains the stylistic features of phraseological units in the Uzbek language. He states that phraseological units make speech more expressive, emotional, and effective. According to the author, they help speakers express their feelings, attitudes, and evaluations more clearly. Yo‘ldoshev also points out that phraseological units are widely used in both literary language and everyday communication because they enrich speech and reflect the national culture of the Uzbek people. [6].

Research methodology. The present study is based on a comparative and linguacultural approach to the analysis of phraseological units. The research focuses on English and Uzbek idiomatic expressions containing color components and explores their semantic and symbolic aspects. The data were gathered from several phraseological dictionaries, scientific researches, articles as well as relying on some kind of personal experience. Special attention was paid to the symbolic meanings of several colors like black, white, blue, red and others. Then the comparative method was used to identify their similarities and differences in both English and Uzbek languages. The expressions and examples are selected according to their frequent occurrence and usage in everyday communication and their significant cultural value.

Research results. Every single color used in word combinations or idioms carries several symbolic meanings and expressions that formed through historical development of a specific nation. Therefore, the perception of colors in the idiomatic expressions may differ from one language to another.

In English phraseology, the color black is commonly connected with negative emotions, feelings and unfavorable conditions. It often represents sadness, evil, fear, illegality and bad fortune. Many English idiomatic expressions carry these meanings. For instance, “black day” describes a bad or unhappy day, misfortune or unlucky incidents in someone’s life. The idiom “black sheep” is used for person in a group or family that causes problems or differ from others. In a similar way, “black market” means illegal trade that buying or selling things or goods outside the government control. [2; p.48].

In Uzbek phraseology, black color also possesses several negative symbolic meanings: [7; p.415].

1. Qora kun – the hard and difficult part of the life
2. Qora terga botmoq – to do hard physical work that makes you sweat a lot

3. Qora yurak – someone who never shows kindness or forgiveness
4. Qora mehnat – describes hard physical work that requires a lot of effort
5. Qora niyat – the intention to do something bad and awful
6. Qora xat – a letter that brings you a bad fortune (used during wars)
7. Qora qismat – a life where happiness is replaced by disappointment

Such idiomatic expressions represent emotional suffering, hard and difficult life circumstances, wrong behavior or bad habits.

The color white normally expresses positive meanings in both English and Uzbek cultures. It carries the meaning of purity, honesty, kindness and peace. In English phraseology, this color is widely connected with purity, safety, and good intentions. For instance, “white lie” refers a small or harmless lie told to avoid hurting someone’s feelings or to be polite, while the phrase “white as snow” is used to describe something perfectly pure and clean. Another well-known expression is “to show white flag” means to give up or stop fighting and it is widely understood as a sign of surrender or peace. However, in English idioms the color white is not always positive – it can also be used to describe negative qualities like fear or uselessness. For example, the expression “white-livered” carries the meaning of a fearful person who lacks courage, while a “white elephant” describes something that is very costly to maintain but has little or no practical value. [2; p. 755].

When it comes to Uzbek phraseological expressions, white color is also connected with purity, kindness, positive intention and respectful meanings. For instance, the phrase “oq yo‘l” is commonly used to wish somebody or someone safety, good fortune or success before a journey or an important event. Another common phrase “oq ko‘ngil” is used for a person who is kind, honest, respected and never has no any negative intentions to others while “oq sutini oqlamoq” means repay mother’s love and care with respect and good actions. The white color in Uzbek traditions is also closely connected with happiness and hopeful beginnings. Special white clothes are often worn in weddings and other important celebrations as a symbol of purity and bright future. [7; p.342].

In English phraseology, the color “blue” is associated with different meanings like sadness, loyalty and trust. Such as, the idiom “feel blue” means to feel sad or depressed. Another common expression, “blue blood” describes a person born in a rich and important family, while “blue collar” means a worker who does physical work in factories, construction or repair services. The idiom “true blue” shows a loyal and trustworthy person. [2; p. 52].

In Uzbek phraseology, the color blue is commonly connected with positive meanings and expressions such as “ko‘k osmon” symbolize peace, hope and stability. In Uzbek culture, blue is traditionally connected with sky, purity. Unlike English phraseology, where blue may express sadness, Uzbek speakers use this color for positive situations. This difference demonstrates how cultural background influences the symbolic meanings of colors in phraseological units. [4; p.249-250].

The color red in English, has wide range of figurative meanings. It is often associated with anger, danger, warning, love, strong emotions and sometimes even embarrassment. For instance, the idiom “see red” mean to become very angry and nervous while “catch someone red-handed” reflects the condition of catching a person while they are committing some kinds of illegal crimes or doing something wrong. Another frequently used idiom “be in the red face” means to have a red face because of feeling embarrassment, anger or physical effort while “Be in the red” gives the meaning of being in debt or having financial problems. [2; p. 552].

In Uzbek phraseological units, the color red has also several symbolic meaning, but they normally different from in English. Red is commonly connected with love, beauty, happiness and respect. For example, “qizil yuz” refers healthy, cheerful and beautiful appearance. “Yuzi qizarmoq” is used for people who is ashamed or embarrassed.

Discussion. The comparison of English and Uzbek color-based phraseological units show that colors have different symbolic meanings in different cultures. Although some symbols carry similar meaning across cultures, their interpretations are often influenced by traditions, social values and people’s perception of the world. The comparison of English and Uzbek phraseological units demonstrates that the same color may express different meanings in different cultural contexts. For example, while certain colors are associated with good and positive expressions in some language, other types of colors reflect neutral and even negative meanings. Such kind of differences usually create challenges or difficulties in translation processes because the real meaning of an idiomatic expressions cannot always be understood by looking at its individual words. Another important finding is that color-related phraseological units show how people understand the world and express their attitudes to people, events and emotions. These expressions enrich communication and

make speech more expressive. Therefore, studying color symbolism from a linguacultural perspective helps reveal the relationship between language, culture and the way people think.

Conclusion. The present study examined the linguacultural features of English and Uzbek phraseological units denoting colors and revealed the importance of color symbolism in reflecting national culture and worldview. The research showed that phraseological units including color components function not only as linguistic expressions but they also serve as carriers of cultural, historical and social information. The findings and examples demonstrated that both English and Uzbek phraseological systems share certain complex associations. For instance, while the color white generally connected with the meanings of purity, honesty, kindness, the color blue carries the meanings of emotional states, calmness, loyalty and others. At the same time, significant differences were explored and analyzed through symbolic meanings of other colors such as black, white and blue. Compared with English, Uzbek phraseological units use the color red frequently to express anger or danger. These differences show that the symbolic meanings of the several colors are influenced by historical developments, cultural experiences, social traditions as well as worldview of each nation. The comparative analysis confirmed that phraseological units serve as an effective means of preserving and transmitting cultural knowledge from one generation to another. Through color-related idiomatic expressions speakers can express emotions, attitudes, beliefs in a brilliant way. Therefore, the study of color symbolism contributes a deeper understanding of the interaction between language and culture

REFERENCES:

1. Sabine Fiedler. *English phraseology: A Coursebook*, - Tübingen: Gunter Narr Verlag, 2007. – 198 pages.
2. McGraw-Hill Education. *McGraw-Hill's "Dictionary of American Idioms and Phraseological verbs"* 2006. – 1098 pages.
3. Karimova D.A. (2021) "Phraseology in English". // *International Journal of Advanced Research in Management and Social Sciences*, P.512-517.
4. Mukhiddinova S.A "Features of Phraseological Units in English and Uzbek" // *Eurasian Scientific Herald*. 2022. 217-220 pages
5. Yusupov O'. "Contrastive linguistics of the English and Uzbek languages". Toshkent, Akademnashr 2013, 31-32 pages.
6. Yo'ldoshev B. "Frazologik uslubiya asoslari". Samarqand – 1998. – 204 bet.
7. Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov, Z.Xolmanova, I.O'razova, K.Rixsiyeva "O'zbek tili frazeologik lug'ati". G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2022. – 636 bet
8. Kunin A.V. *Phraseology course in modern English*. - Moscow: Higher School, 1986. - 336 p.
9. Vinogradov V.V. "Selected works: Lexicology and Lexicography" Moscow: Nauka, 1977.

FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING KOGNITIV ASOSLARI VA METAFORIK TABIATI

Badalov Faxriddin Abdalimovich,

O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada frazeologik birliklarning kognitiv asoslari hamda ularning metaforik tabiati zamonaviy kognitiv lingvistika yondashuvlari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda frazeologizmlarning inson tafakkuri, konseptual tizim va lingvomadaniy omillar bilan o'zaro bog'liqligi yoritiladi. Shuningdek, konseptual metafora, frame semantikasi, konseptual integratsiya hamda embodied cognition nazariyalari nuqtayi nazaridan frazeologik birliklarning semantik motivatsiyasi va metaforik modellashirilishi izohlanadi. O'zbek va fransuz tillaridagi frazeologik birliklarning qiyosiy tahlili asosida ularning universal hamda milliy-madaniy xususiyatlari aniqlanadi. Tadqiqot natijalari frazeologizmlarning til, tafakkur va madaniyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni aks ettiruvchi kognitiv tuzilmalar ekanligini hamda ularni fanlararo yondashuv asosida o'rganish ilmiy jihatdan muhimligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: frazeologiya, frazeologik birlik, kognitiv lingvistika, konseptual metafora, metaforik modellashirish, konsept, konseptual integratsiya, frame semantikasi, embodied cognition, lingvomadaniyat, semantika, pragmatika, diskurs, qiyosiy tilshunoslik, o'zbek tili, fransuz tili, tafakkur.

КОГНИТИВНЫЕ ОСНОВЫ И МЕТАФОРИЧЕСКАЯ ПРИРОДА
ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ

Аннотация. В статье рассматриваются когнитивные основы и метафорическая природа фразеологических единиц с позиций современной когнитивной лингвистики. Особое внимание уделяется взаимосвязи фразеологизмов с концептуальным мышлением, языковой картиной мира и культурными особенностями общества. Анализируются теории концептуальной метафоры, фреймовой семантики, концептуальной интеграции и embodied cognition как основные механизмы формирования и интерпретации фразеологических единиц. На материале узбекского и французского языков выявляются универсальные и национально-культурные особенности фразеологических систем. Полученные результаты подтверждают, что фразеологические единицы являются сложными когнитивными структурами, отражающими особенности человеческого мышления, национальной культуры и коммуникативной деятельности, что определяет их важную роль в современной лингвистике.

Ключевые слова: фразеология, фразеологическая единица, когнитивная лингвистика, концептуальная метафора, концепт, фреймовая семантика, концептуальная интеграция, embodied cognition, семантика, прагматика, дискурс, лингвокультурология, сравнительное языкознание, узбекский язык, французский язык, когнитивная модель, метафорическое моделирование.

THE COGNITIVE FOUNDATIONS AND METAPHORICAL NATURE OF
PHRASEOLOGICAL UNITS

Abstract. This article examines the cognitive foundations and metaphorical nature of phraseological units from the perspective of contemporary cognitive linguistics. The study focuses on the relationship between phraseological expressions, conceptual thinking, metaphorical modelling, and linguistic as well as cultural knowledge. Particular attention is devoted to conceptual metaphor theory, frame semantics, conceptual blending theory, and embodied cognition as theoretical frameworks explaining the formation and interpretation of phraseological units. A comparative analysis of Uzbek and French phraseological systems reveals both universal cognitive patterns and language-specific cultural features. The findings demonstrate that phraseological units represent complex cognitive structures reflecting human conceptualization, cultural experience, and communicative practice, thereby contributing to the further development of phraseological and cognitive linguistic research.

Keywords: phraseology, phraseological unit, cognitive linguistics, conceptual metaphor, conceptualization, conceptual blending, frame semantics, embodied cognition, cognitive model, metaphorical modelling, semantics, pragmatics, discourse, linguoculturology, comparative linguistics, Uzbek language, French language.

Kirish. Frazeologik birliklar nafaqat tilning leksik boyligini ifodalovchi vosita, balki inson tafakkuri va kognitiv jarayonlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan murakkab tizimdir. Zamonaviy kognitiv lingvistika doirasida frazeologizmlar inson ongida shakllanadigan konseptual tuzilmalar asosida yuzaga kelishi ta'kidlanadi. Bu yondashuv frazeologik birliklarni oddiy til birliklari sifatida emas, balki tafakkur mahsuli sifatida o'rganishni nazarda tutadi (1. Lakoff G., 1987. 56).

Frazeologik birliklar til tizimining eng murakkab va ko'p qatlamli birliklaridan biri bo'lib, ular nafaqat tayyor nutq qoliplari, balki xalqning tarixiy tajribasi, madaniy xotirasi hamda konseptual tafakkurini mujassamlashtiruvchi semantik strukturalar hisoblanadi. Zamonaviy tilshunoslikda frazeologizmlar faqat leksik-semantik hodisa sifatida emas, balki inson tafakkurining kognitiv mexanizmlarini aks ettiruvchi konseptual birliklar sifatida ham o'rganilmoqda. Ayniqsa, XXI asr lingvistikasida kognitiv paradigma shakllangach, frazeologik birliklarning hosil bo'lishi, semantik rivojlanishi va kommunikativ vazifalarini inson ongida kechadigan konseptual jarayonlardan ajratgan holda izohlash mumkin emasligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Frazeologik birliklar insonning dunyoni idrok etish modeli, hayotiy tajribasi va milliy madaniy qadriyatlari asosida shakllanadi. Shu sababli ular tilning oddiy nominativ vositasi emas, balki konseptual bilimlarning verbal ifodasidir. Har bir frazeologizm ortida muayyan konsept, obraz, metaforik model va madaniy stereotip mavjud bo'ladi. Mazkur omillar frazeologik birliklarning semantik chuqurligini ta'minlaydi hamda ularni boshqa til birliklaridan farqlaydi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. So'nggi yillarda kognitiv lingvistika, psixolingvistika va lingvomadaniyatshunoslikning rivojlanishi frazeologiyani yangi metodologik asoslarda tadqiq etish imkonini bermoqda. Konseptual metafora nazariyasi, frame semantikasi, konseptual integratsiya nazariyasi va embodied cognition kabi zamonaviy yondashuvlar frazeologik birliklarning mazmuniy tuzilishini chuqurroq tahlil qilishga xizmat qilmoqda. Natijada frazeologizmlar inson ongidagi bilimlarning tashkil topish shakli sifatida qaralmoqda.

Kognitiv lingvistika tilni inson tafakkuridan mustaqil tizim sifatida emas, balki bilish faoliyatining tarkibiy qismi sifatida talqin qiladi. Ushbu yondashuvga ko'ra, til birliklari inson ongida shakllangan konseptlarning verbal namoyon bo'lish shaklidir. Frazeologik birliklar esa ana shu konseptual tizimning eng murakkab qatlamlaridan birini tashkil etadi.

Kognitiv lingvistika nazariyasiga ko'ra, inson tafakkuri abstrakt tushunchalarni tushinishda metaforik mexanizmlardan foydalanadi. Aynan shu jarayon frazeologik birliklarning shakllanishida asosiy rol o'ynaydi. Masalan, ko'plab frazeologizmlar insonning jismoniy tajribasi asosida shakllanadi va keyinchalik abstrakt tushunchalarni ifodalash uchun qo'llaniladi (2. Lakoff G., Johnson M., 1980. 45).

Har qanday frazeologizmining yuzaga kelishi insonning uzoq yillar davomida orttirgan tajribasi bilan bog'liq. Inson atrof-muhitni kuzatadi, hodisalar orasidagi munosabatlarni anglaydi va ularni umumlashtirib konseptual modellarga aylantiradi. Ushbu modellar keyinchalik metaforik fikrlash vositasida tilda mustahkamlanadi. Natijada frazeologik birliklar paydo bo'ladi.

Masalan, o'zbek tilidagi "ko'ngli tog'dek ko'tarildi", "boshi osmonga yetdi", "ko'ngli cho'kdi" kabi frazeologik birliklar insonning ruhiy holatini fazoviy tasavvurlar orqali ifodalaydi. Bu yerda yuqoriga ko'tarilish quvonch, pastga tushish esa tushkunlik konsepti bilan bog'langan. Mazkur model deyarli barcha tillarda uchrashi uning umuminsonga xos konseptual asosga ega ekanligini ko'rsatadi.

Kognitiv nuqtayi nazardan frazeologizmlar tayyor til birligi emas, balki inson ongidagi bilimlarning verbal modeli hisoblanadi. Shu sababli ularni o'rganishda semantik tahlil bilan bir qatorda konseptual tahlil ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Konseptual metafora nazariyasiga ko'ra, metafora badiiy tasvir vositasidan ko'ra kengroq hodisa bo'lib, inson tafakkurining universal mexanizmlaridan biridir. Inson abstrakt tushunchalarni anglashda konkret tajribaga asoslanadi. Aynan shu jarayon frazeologik birliklarning shakllanishiga asos bo'ladi.

Masalan, HAYOT – YO'L konseptual metaforasi quyidagi frazeologik birliklarda namoyon bo'ladi:

- hayot yo'lidan adashmoq;
- to'g'ri yo'lga kirmoq;
- yo'lini topmoq;
- oldinda uzun yo'l turibdi.

Bu birliklarda "yo'l" real fazoviy obyekt emas, balki inson hayotining konseptual modeli sifatida xizmat qiladi.

Xuddi shuningdek, VAQT — QIMMATLI RESURS konsepti:

- vaqtni boy bermoq;
- vaqtni tejamoq;
- vaqtni sarflamoq;

- vaqtni behuda ketkazmoq kabi frazeologik birliklarda aks etadi.

Bunday metaforalar tasodifan yuzaga kelmaydi. Ular insonning kundalik hayotiy tajribasi va iqtisodiy faoliyati bilan bog'liq bo'lib, tafakkur jarayonida umumlashtirilgan konseptual modellar natijasidir.

Frazeologik birliklarning mazmunini izohlashda zamonaviy tilshunoslikda frame semantikasi muhim metodologik yondashuvlardan biri hisoblanadi. Ushbu nazariya Ch. Fillmore tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, til birliklarining ma'nosi inson ongida mavjud bo'lgan bilimlar tizimi – frame (kognitiv ssenariy) orqali shakllanishini asoslaydi. Frame muayyan hodisa yoki vaziyat haqidagi bilimlar majmuasi bo'lib, nutq jarayonida aynan shu bilimlar faollashadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Frazeologik birliklarning aksariyati ham ma'lum bir frame bilan uzviy bog'liq. Masalan, o'zbek tilidagi “qo'li uzun” frazeologizmi anatomik belgini emas, balki ijtimoiy mavqeyi, imkoniyat va ta'sir doirasini ifodalovchi “ijtimoiy kuch” frameini faollashtiradi. Xuddi shuningdek, “boshi qotmoq” iborasi fiziologik holatni emas, murakkab muammoni hal qilish bilan bog'liq intellektual faoliyat frameini yuzaga chiqaradi.

Fransuz tilida ham bunday birliklar keng uchraydi. Masalan, **avoir le bras long** (“qo'li uzun bo'lmoq”) iborasi ham bevosita jismoniy belgini emas, balki ijtimoiy aloqalar va hokimiyatni anglatadigan frame asosida shakllangan. Bu holat turli tillarda ayrim konseptual modellar umumiy bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

Frame semantikasi frazeologik birliklarning ichki tuzilishini, ularning semantik motivatsiyasini hamda milliy tafakkur bilan bog'liqligini chuqurroq izohlash imkonini beradi. Shu jihatdan mazkur nazariya frazeologiyani faqat lug'aviy birliklar yig'indisi emas, balki inson bilimlarini tizimlashtiruvchi vosita sifatida talqin qiladi.

Frazeologik birliklarning metaforik tabiati ularning semantik tuzilishida yaqqol namoyon bo'ladi. Bu birliklar ko'pincha to'g'ridan-to'g'ri ma'noga ega emas, balki ko'chma ma'noni ifodalaydi. Bu esa ularning interpretatsiyasini murakkablashtiradi, biroq shu bilan birga nutqni yanada boy va ifodali qiladi (3. Kövecses Z., 2010. 89).

So'nggi yillarda kognitiv fanlarda keng rivojlanayotgan Embodied Cognition (“jismoniy tajribaga asoslangan tafakkur”) nazariyasi frazeologik birliklarning shakllanishini izohlashda yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Ushbu nazariyaga ko'ra, inson tafakkuri organizmning biologik xususiyatlari, sezgi organlari va jismoniy tajribasi bilan uzviy bog'liq.

Frazeologik birliklarning katta qismi aynan inson tanasi bilan bog'liq tajribalar asosida yuzaga kelgan. O'zbek tilidagi “yuragi orqasiga tortdi”, “ko'ngli yorishdi”, “burni ko'tarildi”, “ko'zi ochildi”, “yelkasidan tog' ag'darilgandek bo'ldi” kabi iboralar insonning emotsional holatini jismoniy his-tuyg'ular orqali ifodalaydi.

Fransuz tilida ham avoir le cœur lourd, ouvrir les yeux, perdre la tête, avoir la tête froide kabi frazeologik birliklar hissiy va intellektual holatlarni tana a'zolari bilan bog'liq konseptlar orqali ifodalaydi. Demak, frazeologik birliklarning semantik motivatsiyasi biologik tajriba bilan bevosita aloqador.

Embodied Cognition nazariyasi frazeologik birliklarning universalligini ham tushuntirib beradi. Chunki barcha insonlar bir xil biologik tuzilishga ega bo'lgani sababli ko'plab konseptual metaforalar turli tillarda o'xshash shakllarda namoyon bo'ladi. Biroq madaniy omillar ushbu umumiy konseptlarning milliy talqinini belgilaydi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Natijada frazeologik birliklar biologik tajriba, madaniy qadriyatlar va ijtimoiy kommunikatsiyaning o'zaro ta'siri mahsuli sifatida shakllanadigan murakkab kognitiv tizim ekanligi ayon bo'ladi.

Shu o'rinda o'zbek va fransuz tillarida frazeologik birliklarning qiyosiy kognitiv tahliliga e'tibor qaratadigan bo'lsak, kognitiv lingvistikaning asosiy tamoyillaridan biri turli tillardagi til birliklarini inson tafakkurining umumiy qonuniyatlari asosida qiyosiy o'rganishdan iborat. Frazeologik birliklar ham ana shunday qiyosiy tahlil uchun qulay material hisoblanadi. Chunki ular nafaqat tilning semantik tizimini, balki xalqning dunyoqarashi, madaniy tajribasi va konseptual tafakkurini ham aks ettiradi.

O'zbek va fransuz tillarida uchraydigan ko'plab frazeologik birliklar mazmun jihatidan o'xshash bo'lsa-da, ularning obrazlilik manbalari ko'pincha farqlanadi. Bu farq har bir xalqning tarixiy taraqqiyoti, yashash muhiti, urf-odatlar va mentaliteti bilan bog'liq.

Masalan, insonning aqliy faoliyatini ifodalovchi frazeologik birliklar har ikki tilda keng tarqalgan. O'zbek tilida “boshi ishlaydi”, “miyasi qaynamoq”, “aqli shoshmoq” kabi iboralar mavjud bo'lsa, fransuz tilida avoir la tête sur les épaules, se creuser la tête, perdre la tête kabi birliklar qo'llaniladi. Ushbu iboralarning barchasi “inson tafakkuri” konseptini ifodalasa-da, ularning obrazlilik mexanizmi turlicha shakllangan.

Shuningdek, emotsional holatlarni ifodalovchi frazeologizmlar ham qiziqarli qiyosiy xususiyatlarga ega. O'zbek tilida qalb, yurak va ko'ngil tushunchalari markaziy o'rin egallaydi. Fransuz tilida esa cœur (yurak), tête (bosh), yeux (ko'z) va bras (qo'l) konseptlari faolroq ishtirok etadi. Bu holat milliy konseptosferaning o'ziga xosligini ko'rsatadi.

1-jadval. O'zbek va fransuz frazeologizmlarining kognitiv qiyosi

Konsept	O'zbek tili	Fransuz tili	Kognitiv model
Quvonch	Boshi osmonga yetdi	Être aux anges	Yuqoriga ko'tarilish – ijobiy holat
Qo'rquv	Yuragi orqasiga tortdi	Avoir la peur au ventre	Tana orqali hissiy tajriba
Tajriba	Ko'zi ochildi	Ouvrir les yeux	Bilim – ko'rish metaforasi
Aql	Boshi ishlaydi	Avoir la tête sur les épaules	Aql bosh bilan bog'lanadi
Hokimiyat	Qo'li uzun	Avoir le bras long	Kuch – qo'l metaforasi

Mazkur jadvaldan ko'rinadiki, ayrim konseptual metaforalar universallikka ega bo'lsa, boshqalari muayyan milliy madaniyat mahsuli hisoblanadi. Shu bois frazeologik birliklarni qiyosiy o'rganish nafaqat lingvistik, balki lingvomadaniy tadqiqotlar uchun ham muhim manba vazifasini bajaradi.

Frazeologik birliklarning shakllanishida insonning tajribasi muhim rol o'ynaydi. Jismoniy tajriba, ijtimoiy muhit va madaniy qadriyatlar frazeologizmlarning mazmunini belgilaydi. Shu sababli har bir frazeologizm ortida muayyan konseptual model yotadi (1. Lakoff G., 1987. 102).

Frazeologik birliklar orqali insonning dunyoni idrok etish usuli ham aks etadi. Ular orqali inson abstrakt tushunchalarni konkret obrazlar orqali ifodalaydi. Bu esa tilning kognitiv funksiyasini namoyon etadi (3. Kövecses Z., 2010. 121).

Frazeologik birliklarning yana bir muhim jihati – ularning universal va milliy xususiyatlarga ega ekanligidir. Ayrim metaforalar turli tillarda umumiy bo'lsa, boshqalari faqat ma'lum bir madaniyatga xos bo'ladi. Bu esa frazeologizmlarning kognitiv va madaniy tabiatini ko'rsatadi (3. Kövecses Z., 2010. 156).

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, frazeologik birliklar inson tafakkuri va til o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettiruvchi muhim vosita hisoblanadi. Tadqiqot natijalari frazeologik birliklarning zamonaviy tilshunoslikda faqat barqaror leksik birikmalar sifatida emas, balki inson tafakkurining konseptual modellarini ifodalovchi murakkab kognitiv tuzilmalar sifatida talqin qilinishi lozimligini ko'rsatdi. Ularning semantikasi individual so'zlarning yig'indisi bilan emas, balki insonning biologik tajribasi, ijtimoiy muhiti, madaniy qadriyatlari va konseptual bilimlar tizimining o'zaro integratsiyasi asosida shakllanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, konseptual metafora, frame semantikasi, konseptual integratsiya va embodied cognition nazariyalari frazeologik birliklarning ichki motivatsiyasini izohlashda o'zaro bir-birini to'ldiradi. Ushbu nazariyalar yordamida frazeologizmlarning paydo bo'lish mexanizmi, semantik rivojlanishi va kommunikativ funksiyalarini yanada chuqurroq tushuntirish mumkin.

O'zbek va fransuz tillari materiallari asosida olib borilgan qiyosiy tahlil ayrim konseptual metaforalarning universalligini, ayrimlarining esa milliy-madaniy xususiyatlarga ega ekanligini ko'rsatdi. Bu esa frazeologik birliklarning bir vaqtning o'zida ham umuminsoniy tafakkur mahsuli, ham muayyan xalqning lingvomadaniy tajribasi natijasi ekanligini tasdiqlaydi. Shuningdek, korpus lingvistikasi, sun'iy intellekt va kompyuter lingvistikasi sohalaridagi zamonaviy yondashuvlar frazeologik birliklarni o'rganishning yangi istiqbollarini ochmoqda. Elektron korpuslar va avtomatik semantik tahlil vositalari frazeologik birliklarning qo'llanish dinamikasi, kontekstual o'zgarishlari va funksional imkoniyatlarini aniq empirik ma'lumotlar asosida tadqiq etish imkonini bermogda.

Kelgusida frazeologik birliklarni neyrolingvistika, raqamli lingvistika va kognitiv modellashtirish asosida tadqiq etish nafaqat nazariy tilshunoslik, balki tarjimashunoslik, sun'iy intellekt, xorijiy tillarni o'qitish metodikasi hamda madaniyatlararo kommunikatsiya rivojiga ham muhim ilmiy hissa qo'shadi.

ADABIYOTLAR:

1. Lakoff G. *Women, Fire, and Dangerous Things*. 1987. Chicago. 614 p.
2. Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. 1980. Chicago. 256 p.
3. Kövecses Z. *Metaphor: A Practical Introduction*. 2010. Oxford. 375 p.

MUROD MUHAMMAD DO'ST USLUBIDA LEKSIK QATLAM VA POETIK
SINTAKSISNING O'ZIGA XOSLIGI

Berdiyeva Nazira Uralovna,
Termiz davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
naziraopa70@gmail.com

Annotatsiya. Badiiy asar tilining serqatlamligi unda qatnashuvchi har bir shaxsning o'ziga xos tili bo'lishi lozimligini taqozo etadi va ularning tipik tili xususiyatlarini nutq vositasida voqelanadi. Til badiiy asarning shakli emas, balki shakl yaratishning universal vositasi bo'lib maydonga kelishi haqida so'z boradi.

Yozuvchi o'z asari uchun umumxalq tili lug'at sostavidan so'z olishda san'atning tipiklashtirish qonuniyatiga amal qilar ekan, ana shundagina haqiqiy san'at asari paydo bo'ladi. Shunisi ham e'tiborliki, har bir yozuvchi asarida so'z qo'llash jarayonida ham o'z uslubini namoyon qiladi – natijada bir yozuvchining tili ikkinchi yozuvchining tilidan ozmi-ko'pmi farqlanadi.

Kalit so'zlar: leksik qatlam, poetik sintaksis, badiiy til, g'oya, mavzu, obraz, xarakter, syujet, kompozitsiya.

СВОЕОБРАЗИЕ ЛЕКСИЧЕСКОГО ПЛАСТА И ПОЭТИЧЕСКОГО
СИНТАКСИСА В СТИЛЕ МУРОДА МУХАММАДА ДОСТА

Аннотация. Многослойная природа языка в художественном произведении требует, чтобы каждый персонаж обладал индивидуальным голосом, а характерные для него языковые особенности находили своё воплощение в речи. В центре обсуждения — мысль о том, что язык — это не просто форма художественного произведения, а универсальный инструмент ее создания.

Подлинное произведение искусства рождается тогда, когда писатель, черпая слова из общеупотребительной лексики, следует художественному принципу типизации. Примечательно также, что каждый писатель раскрывает свой индивидуальный стиль в процессе словоупотребления; как следствие, язык одного писателя в той или иной мере отличается от языка другого.

Ключевые слова: лексический пласт, поэтический синтаксис, художественный язык, идея, тема, образ, персонаж, сюжет, композиция.

THE DISTINCTIVE NATURE OF THE LEXICAL LAYER AND POETIC
SYNTAX IN THE STYLE OF MUROD MUKHAMMAD DOST

Abstract. The multi-layered nature of the language in a literary work necessitates that each participating character possesses a distinctive voice, with their typical linguistic traits being realized through speech. The discussion centers on the idea that language is not merely the form of a literary work, but rather a universal instrument for creating that form.

A genuine work of art is born when a writer, drawing upon the common vocabulary, follows the artistic principle of typification. It is also noteworthy that every writer reveals their individual style through their use of words; consequently, one writer's language differs to some extent from that of another.

Keywords: lexical layer, poetic syntax, artistic language, idea, theme, image, character, plot, composition.

Kirish. Adabiyot va hayotdagi o'zgarishlar haqida: "Adabiyotda yangi bosqich, yuksalish hamisha yangi qahramon bilan yangi ijodiy individualliklarning paydo bo'lishi bilan boshlanadi.

Mustaqillik davri o'zbek adabiyotida yangi qahramonlar yuzaga keldi. Ijtimoiy hayotda bo'lgani kabi, adabiyotda ham eskilik bilan yangilik o'rtasidagi konfliktlar shu davr adabiyoti mavzularidan birini tashkil etdi. O'zbek prozasining yetakchi janrlaridan hisoblangan qissachilikni ham bu mavzu chetlab o'tmadi. Konfliktlarning vujudga kelishida subyektiv va obyektiv omillar sabab bo'ladi. Chunki hayotda yuz bergan o'zgarishlar odamlar tafakkurida silliq kechmaydi. XX asrning 80-90- yillar o'zbek qissachiligiga yosh, zabardast adiblar kirib keldi. Ular realistik qissachiligimizni faqat miqdoriy jihatdan boyishini emas, balki

sifatiy jihatdan rivojlanishini ham ta'minladilar. X.Do'stmuhammad, N.Eshonqul, Sh.Bo'tayevlar ana shularning eng faol namoyandalari hisoblanadi.

O'tgan asrning 80-90- yillari o'zbek qissachiligi tarixida alohida burilish davri bo'ldi. Birinchidan, ayni shu davrda o'zbek qissachiligiga Murod Muhammad Do'st, Tog'ay Murod, E.A'zamov, X.Do'stmuhammad, N.Eshonqul, Sh.Bo'tayev kabi yosh iste'dodli qalamkashlar ushbu badiiy shaklda ancha samarali ijod qilishdi. Bu o'zbek nasrining badiiy maydonini boyitish bilan birga, uning musaffoligini ta'minlashga ko'mak berdi. Bu adiblar o'z qissalariga dolzarb badiiy muammolarni olib kirdilar. Garchi ular uslubiyo'nalishlari, g'oyaviy - badiiy qamrovi nuqtayi nazaridan bir-birlaridan alohida farqlanib tursalar ham, ammo janrning ana shu davrlaridagi ijtimoiy-badiiy faolligini ta'minlash jihatidan olg'a qo'yilgan bir qadam bo'ldi.

- **Materials:** A curated selection of DPDs with diverse features (audio, phonetic transcription, interactive exercises) forms the core materials. Tasks might include listening, imitation, and phonetic transcription.
- **Procedures:** Pre- and post-tests are common to measure improvements in word-level and sentence-level pronunciation. Think-aloud protocols and usability surveys gather qualitative feedback, while log analyses track engagement and accuracy.
- **Measures:** Evaluation metrics include phoneme-level accuracy, correct syllable and lexical stress, speaking rate, and overall user satisfaction. Error analysis helps identify common pronunciation challenges.

An ideal intervention would span 8–12 weeks, providing sufficient time for learners to integrate digital dictionary use into their study routines and demonstrate measurable progress. Participants would typically be university students learning English as a second or foreign language (ESL/EFL) or native English speakers learning Uzbek.

This demographic often possesses a foundational understanding of language learning strategies, making them suitable for evaluating sophisticated digital tools. Assessment would involve pre- and post-tests for pronunciation accuracy (using IPA/ARPA-based scoring), listening comprehension tests, and qualitative data collection through learner journals and semi-structured interviews (e.g., think-aloud protocols). Ethical considerations, including informed consent, confidentiality, and data security, would be paramount throughout the study.

Analysis and Results. Analysis of DPD usage typically reveals quantitative improvements in pronunciation accuracy and fluency among learners. These improvements are often categorized by phoneme-level errors, focusing on vowels, consonants, clusters, and prosodic features like intonation. Qualitative feedback consistently highlights the importance of high-quality audio, clear transcription systems, and intuitive navigation for learner satisfaction. Digital pronunciation dictionaries are invaluable for self-guided language development in both English and Uzbek.

Their effectiveness is maximized when they offer clear audio, consistent phonetic transcription, and user-friendly interfaces. For Uzbek, the most enriching learning outcomes often stem from combining comprehensive bilingual dictionaries with dedicated Uzbek pronunciation resources and web audio platforms. This integrated approach addresses the unique challenges posed by Uzbek phonology and its orthographic history. Recommendations for optimizing DPD design and integration include adopting IPA-consistent transcriptions, ensuring high-quality audio, promoting cross-resource consistency, and integrating DPDs with structured practice exercises, such as drills and minimal pair activities. Continued development, especially for Uzbek-specific content, is crucial to further enhance these tools and support balanced bilingual learning effectively.

The synthesis of quantitative and qualitative data will demonstrate that consistent engagement with digital pronunciation dictionaries significantly enhances both English and Uzbek pronunciation and overall language proficiency. The combination of audio resources (like Forvo, Cambridge, and CMU) with written phonetic guides empowers learners to independently master descriptive pronunciation. This process not only improves their speaking output but also positively impacts their listening comprehension by building stronger sound-symbol connections. Digital pronunciation dictionaries offer a wealth of features that cater to the diverse needs of language learners. Their utility extends beyond basic pronunciation, encompassing vocabulary expansion, improved listening skills, and fostering learner autonomy.

One of the primary benefits is the provision of accurate and reliable pronunciation guidance. By offering audio recordings from native speakers, these dictionaries ensure that learners are exposed to the correct intonation, stress, and rhythm of both English and Uzbek. This direct exposure helps learners internalize authentic speech patterns, significantly reducing the likelihood of developing incorrect pronunciation habits.

The combination of audio pronunciations with phonetic transcriptions (such as IPA for English and corresponding systems for Uzbek) caters to both auditory and visual learners. Visual learners can decipher the phonetic symbols to understand how sounds are formed, while auditory learners can mimic the spoken examples. This dual approach solidifies understanding and retention. Many digital dictionaries incorporate interactive elements that make learning engaging and effective. Features like "record and compare" allow learners to capture their own speech and contrast it with native recordings, providing immediate and

personalized feedback. This active involvement transforms passive listening into an active learning process, accelerating progress. Furthermore, integration with flashcards and quizzes reinforces vocabulary acquisition alongside pronunciation practice. Digital tools are instrumental in promoting self-directed learning. Learners can access pronunciation resources anytime, anywhere, at their own pace. This flexibility is crucial for independent study, enabling individuals to focus on specific sounds or words that pose challenges without the need for constant instructor intervention. The ability to revisit difficult words and practice repeatedly empowers learners to take ownership of their linguistic development.

Conclusion. The landscape of language learning has been profoundly transformed by Digital Pronunciation Dictionaries. These sophisticated tools offer an unparalleled level of accessibility and accuracy, enabling learners of English and Uzbek to master the nuances of pronunciation with greater ease and confidence. By providing clear phonetic transcriptions, authentic native speaker audio, and detailed guidance on stress and intonation, DPDs empower individuals to overcome linguistic barriers and achieve more natural, intelligible speech. As technology continues to advance, the ongoing development and refinement of DPDs, especially for languages like Uzbek, will further solidify their indispensable role in fostering global linguistic proficiency.

Digital pronunciation dictionaries have unequivocally established themselves as indispensable assets for learners of English and Uzbek. Their ability to provide accurate audio pronunciations, comprehensive phonetic transcriptions, and interactive learning experiences fundamentally transforms the process of mastering language sounds. These tools empower learners to develop precise pronunciation, enhance vocabulary acquisition, and cultivate a deeper understanding of linguistic nuances, all while fostering invaluable self-directed learning skills. The continuous evolution of digital technology ensures that these resources will remain at the forefront of language education, offering increasingly sophisticated and accessible pathways to fluency. By embracing these innovative platforms, learners can overcome pronunciation barriers more effectively and confidently navigate the complexities of both English and Uzbek.

REFERENCES:

1. *Oxford English Dictionary*. (2010). *Oxford Dictionary of English* (3rd ed.). Oxford University Press.
2. *Cambridge Dictionary Pronunciation*. (n.d.). *English pronunciation*. Retrieved May 19, 2026, from Cambridge Dictionary website.
3. *Forvo Pronunciation Dictionary*. (n.d.). *The pronunciation dictionary*. Retrieved May 19, 2026.
4. Roach, P. (2009). *English phonetics and phonology: A practical course* (4th ed.). Cambridge University Press.
5. Crystal, D. (2008). *A dictionary of linguistics and phonetics* (6th ed.). Blackwell Publishing.

THE MANIFESTATION OF MEDIA DISCOURSE IN CONTEMPORARY MASS MEDIA

Toshtemirova Sadoqat Shavkat qizi,
 Researcher at Denau Institute of
 Entrepreneurship and Pedagogy
toshado18@gmail.com

Abstract. This article examines the manifestation of media discourse in contemporary mass media from linguistic and pragmatic perspectives. It explores the theoretical foundations of media discourse, its role in mass communication, and the transformational processes occurring within the digital media environment. The study further analyzes the communicative strategies, linguistic features, and audience influence mechanisms employed in television, online news platforms, and social media through discourse analysis. Descriptive, discourse-analytical, linguopragmatic, and comparative methods were employed to achieve the research objectives. The findings indicate that contemporary media discourse performs not only an informative function but also plays a significant role in shaping public opinion, expressing evaluation, and exerting social influence. The results contribute to the development of media discourse theory and provide theoretical and practical insights into the linguistic analysis of mass media language.

Keywords: media discourse, discourse, mass media, media text, communication, pragmatics, linguopragmatics, discourse analysis, internet journalism, social media, digital media.

ПРОЯВЛЕНИЕ МЕДИАДИСКУРСА В СОВРЕМЕННЫХ СРЕДСТВАХ МАССОВОЙ ИНФОРМАЦИИ

Аннотация. В данной статье рассматриваются особенности проявления медиадискурса в современных средствах массовой информации с лингвистической и прагматической точек зрения. Исследуются теоретические основы медиадискурса, его роль в массовой коммуникации, а также трансформационные процессы, происходящие в цифровой медиасреде. Особое внимание уделяется анализу коммуникативных стратегий, языковых особенностей и механизмов воздействия на аудиторию, используемых на телевидении, в интернет-изданиях и социальных сетях, на основе дискурса-анализа. Для достижения поставленных целей применялись описательный, дискурсивно-аналитический, лингвопрагматический и сравнительный методы исследования. Результаты исследования показывают, что современный медиадискурс выполняет не только информативную функцию, но и играет важную роль в формировании общественного мнения, выражении оценочных суждений и оказании социального воздействия. Полученные результаты вносят вклад в развитие теории медиадискурса и служат теоретической и практической основой для лингвистического анализа языка средств массовой информации.

Ключевые слова: медиадискурс, дискурс, средства массовой информации, медиатекст, коммуникация, прагматика, лингвопрагматика, дискурс-анализ, интернет-журналистика, социальные сети, цифровые медиа.

ZAMONAVIY OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA MEDIA DISKURSNING NAMOYON BO'LISHI

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy ommaviy axborot vositalarida media diskursning namoyon bo'lishi lingvistik va pragmatik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda media diskursning nazariy asoslari, uning ommaviy kommunikatsiyadagi o'rni hamda raqamli media muhitida yuz berayotgan transformatsion jarayonlar yoritilgan. Shuningdek, televizion OAV, internet nashrlari va ijtimoiy tarmoqlarda qo'llanilayotgan kommunikativ strategiyalar, lingvistik xususiyatlar hamda auditoriyaga ta'sir mexanizmlari diskurs tahlili asosida o'rganilgan. Tadqiqot maqsadlariga erishishda tavsifiy, diskursiv-tahliliy, lingvopragmatik va qiyosiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqot natijalari zamonaviy media diskursi nafaqat axborot uzatish, balki jamoatchilik fikrini shakllantirish, baholovchi munosabatni ifodalash va ijtimoiy ta'sir ko'rsatishda ham muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi. Olingan natijalar media diskurs nazariyasini rivojlantirishga hissa qo'shadi hamda ommaviy axborot vositalari tilini lingvistik tahlil qilish uchun nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit soʻzlar: media diskurs, diskurs, ommaviy axborot vositalari, media matn, kommunikatsiya, pragmatika, lingvopragmatika, diskurs tahlili, internet jurnalistikasi, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli media.

Introduction. In recent years, information and communication technologies have developed rapidly, leading to a fundamental transformation in the functions and structure of current mass media. The gradual convergence of conventional media, such as television, radio, and newspapers, with digital platforms allows intense information exchange, multimodality, and interactivity. Apart from language use, creation, interpretation, and dissemination of information through cultural, ideological, and pragmatic mechanisms are reflected in media discourse, becoming the most significant object of linguistic study in this context.

Media discourse is commonly regarded as a complex communicative phenomenon that encompasses verbal and non-verbal communication, which is utilized by mass media to shape social reality and influence public awareness. In contrast to ordinary discourse, sociocultural, economic, and political factors influence the formation of the media discourse that functions within institutional settings. Besides conveying factual information, current media texts aim to influence public opinion, attitudes, and identities, integrating manipulative, evaluative, and persuasive linguistic strategies.

The scope of media discourse has substantially expanded because of the emergence of digital journalism, social networking platforms, online news portals, and blogs. Comments, interactive discussions, and reposts have enabled instant audience participation, altering traditional patterns of communication. These played a vital role in the evaluation of media discourse from a one-way transmission of information into a dynamic collaborative meaning-making process. Scholars in media linguistics, sociolinguistics, pragmatics, and discourse studies are paying close attention to this transformation.

Through a linguistic lens, media discourse is defined by a variety of syntactic, stylistic, lexical, and pragmatic features that distinguish it from other discourses. The audience engagement and effective communication are enhanced by strategically using metaphorical expressions, headlines, evaluative vocabulary, modality, intertextual references, and persuasive rhetorical devices. Besides that, digital media requires interdisciplinary approaches to discourse analysis as it often blends verbal language with audio, visual, and graphic elements [1].

In the environment of contemporary Uzbek media, linguistic media discourse manifestation has remained rather unattracted when compared to the growing number of international research on media discourse. Existing studies mostly emphasize journalistic genres, general communication processes, or stylistic devices, while comprehensive research that integrates linguistic-pragmatic approaches with discourse analysis is not sufficient. This gap underscores the necessity for systematic research into adopted linguistic strategies and communicative mechanisms in the modern mass media.

This study aims to analyze the manifestation of media discourse in current mass media from a linguistic and pragmatic lens. The following research tasks help to achieve this objective:

1. To analyze the theoretical foundations of media discourse.
2. To identify the main linguistic characteristics of current media discourse.
3. To examine communicative and pragmatic approaches that are used in digital mass media.
4. To investigate the role of lexical, syntactic, and stylistic devices in forming public opinion.
5. To identify the influence of digital communication technologies on the transformation of media discourse [2].

The object of this study is the current media discourse, which is represented in traditional and digital mass media.

The subject of this study includes communicative, pragmatic, and linguistic features of media texts published in contemporary mass media.

The research utilizes descriptive, linguopragmatic, comparative, and discourse-analytical approaches to examine functional and structural media discourse characteristics. The linguistic analysis of media texts in this study is intended to be helpful in the theoretical development of media linguistics and discourse studies.

Literature review and methodology. As shaping public opinion and social reality are significantly influenced by mass media, media discourse has become one of the central concepts in modern linguistics, communication studies, and media research. The notion of discourse goes beyond linguistic structures, regarding language as a form of social action integrated in certain ideological, cultural, and communicative contexts. As for media discourse, it not only functions as a means of transmitting information but also as a tool for ideological influence, evaluation, and persuasion.

Several scholars, such as Teun A. Van Dijk, Michel Foucault, Norman Fairclough, Ruth Wodak, and Gunther Kress, have established the theoretical foundations of discourse analysis through their works. Their contribution to comprehending the interaction between communication, ideology, society, and language is

considerable. Discourse is considered a multidimensional communicative event that encompasses cognitive processes, linguistic structures, and social contexts. Media discourse plays a decisive role in the formation of beliefs, the reproduction of social ideologies, and the construction of public knowledge according to the socio-cognitive approach of discourse analyst Teun A. van Dijk, whose theory significantly influenced contemporary media discourse analysis [3].

Norman Fairclough developed Critical Discourse Analysis (CDA), emphasizing that language is inseparable from power relations and ideological practices. He argues that media texts should not be interpreted solely as linguistic products but also as social practices influenced by institutional and political factors. Fairclough's three-dimensional model: text, discursive practice, and social practice, provides an effective framework for examining how linguistic choices reflect broader societal structures.

The concept of multimodality has become increasingly significant in media discourse studies. Gunther Kress and Theo van Leeuwen argue that contemporary media texts combine verbal language with visual images, typography, colour, sound, and graphic design to create integrated systems of meaning. Therefore, the interpretation of media discourse requires an interdisciplinary perspective that considers both linguistic and non-linguistic semiotic resources.

Social media platforms such as Facebook, Twitter, Instagram, Telegram, and YouTube have transformed media discourse into an interactive and multimodal process, enabling audiences to participate actively in media communication.

This study employed a qualitative descriptive design supported by quantitative frequency analysis to investigate the manifestation of media discourse in contemporary mass media. Based on discourse analysis and linguopragmatics, the study examined linguistic forms, communicative intentions, and pragmatic functions in media texts while identifying recurring discourse patterns [4].

The corpus consisted of publicly available media texts in standard Uzbek covering political, economic, social, educational, and cultural issues, selected for their high public relevance and frequent use of persuasive linguistic strategies.

Purposive sampling was employed to select texts that met the following criteria:

- a. publication by recognized mass media organizations;
- b. relevance to current public issues;
- c. sufficient linguistic complexity for discourse analysis;
- d. accessibility to the general public;
- e. diversity in communicative purposes and genres.

The study employed descriptive, discourse, linguopragmatic, comparative, and frequency analyses. Descriptive analysis identified the structural and linguistic characteristics of media discourse, while discourse analysis examined the relationship between language, communicative context, ideology, and audience interaction. Linguopragmatic analysis focused on speech acts, modality, presupposition, implication, and persuasive strategies. Comparative analysis explored similarities and differences across online news portals, television media, and social networking platforms. Frequency analysis quantified the occurrence of selected linguistic features, supporting the qualitative findings [5].

Analytical Framework is the analysis focused on six principal categories of linguistic features:

1. Lexical characteristics (evaluative vocabulary, emotionally coloured words, neologisms, terminology);
2. Syntactic structures (simple and complex sentences, passive constructions, rhetorical questions, parallel structures);
3. Stylistic devices (metaphor, repetition, contrast, hyperbole);
4. Pragmatic strategies (speech acts, modality, presupposition, implication, framing);
5. Communicative functions (informative, persuasive, evaluative, and expressive);
6. Audience engagement strategies (personalization, emotional appeal, quotations, direct address, and interactive elements).

Discussion and results. The analysis reveals that current media discourse employs linguistic strategies not only to convey information but also to shape audience perception and construct social reality. Lexical analysis showed that evaluative and emotionally expressive vocabulary is strategically used to enhance the impact of news reports and influence readers' interpretation of events. Positive evaluative language was predominantly used in reports on development and achievements, whereas negative vocabulary was more common in coverage of social, political, and economic problems. The frequent use of specialized terminology reflects the complexity of contemporary media communication, while explanatory language improves its accessibility for general audiences [6].

Table 1. Dominant Lexical Features Identified in the Media Corpus

Lexical feature	Communicative function
Evaluative vocabulary	Expressing attitudes and assessments
Emotional expressions	Increasing audience engagement
Political terminology	Reporting institutional activities
Economic terminology	Explaining financial developments
Neologisms	Reflecting technological innovation
Metaphorical expressions	Enhancing persuasive effect

The predominance of evaluative vocabulary demonstrates that media language extends beyond objective information delivery and actively shapes the interpretation of social events.

The syntactic organization of media discourse reflects the communicative goals of contemporary journalism. Simple declarative sentences dominate breaking news to ensure clarity and rapid comprehension, whereas analytical reports employ more complex structures to explain causal relationships. Rhetorical questions, repetition, and parallel constructions are used to attract readers' attention, emphasize key information, and enhance textual coherence. Headlines are typically brief, informative, and emotionally engaging, maximizing informational impact while maintaining audience interest [7].

The findings reveal that contemporary media discourse relies heavily on pragmatic mechanisms designed to influence audience interpretation.

Among the most frequently observed strategies were:

- a. framing current events through evaluative language;
- b. presupposition of shared background knowledge;
- c. indirect evaluation through quotation;
- d. modality expressing certainty or probability;
- e. strategic selection of expert opinions;
- f. personalization of social issues.

Overall, according to findings, contemporary media discourse is a multifunctional communicative phenomenon in which lexical, syntactic, and pragmatic resources are strategically employed to inform, persuade, evaluate, and engage audiences while shaping public understanding of social reality.

The findings demonstrate that contemporary media discourse extends beyond information transmission by integrating informative, persuasive, evaluative, and interactive functions that shape public opinion and the interpretation of social events. This confirms that media language serves not only as a means of communication but also as a powerful social instrument.

The predominance of evaluative vocabulary supports Teun A. van Dijk's socio-cognitive theory, which emphasizes that media discourse shapes public understanding through strategic lexical choices, framing, and information organization. Similarly, the findings are consistent with Norman Fairclough's Critical Discourse Analysis, demonstrating that lexical, grammatical, and pragmatic resources are employed not only to inform but also to evaluate events and legitimize particular viewpoints while maintaining the appearance of objectivity [8].

Conclusion. The present study examined the manifestation of media discourse from linguistic and pragmatic perspectives. The findings show that contemporary media discourse functions not only to transmit information but also to persuade, evaluate, and shape public opinion under the influence of digital communication and technological innovation.

The analysis revealed that lexical, syntactic, stylistic, and pragmatic devices, such as evaluative vocabulary, modality, metaphor, presupposition, and framing, play a key role in constructing meaning and enhancing communicative effectiveness. The study contributes to media linguistics by integrating discourse analysis with linguopragmatics and highlights the close relationship between linguistic choices and social context.

Despite its contributions, the research is limited by the size of the corpus and its qualitative focus. Future studies should examine larger multilingual corpora and apply comparative and computational approaches to further investigate media discourse in digital communication.

REFERENCES:

1. Isroilova M. J. *The importance of nonverbal communication in teaching process. Academia: An International multidisciplinary research journal*, 10(12), 2020. – P. 1189-1195.

2. Jamolovna I. M. *Comparative Phraseological Units as an Integral Part of Publicistic Texts*. In *International scientific conferences with higher educational institutions* (Vol. 3, No. 08.05, 2023. – pp. 139-143.
3. Kress G., van Leeuwen T. *Reading Images: The Grammar of Visual Design*. 3rd ed. London: Routledge, 2021. 558 p.
4. Sobirjonovna M. S. *Improving the methodology of reading english to elementary school students based on the innovative pedagogical educational cluster*. *journal of multidisciplinary bulletin*, 7(1), 2024. – P. 37-48.
5. Sobirjonovna S. M., Xoliqulovna, B. M., Odiljon, S. D., & Ahror, H. G. *The concept of “loneliness” and “alienation” in the English language*. *Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education* (2994-9521), 2(6), 2024. – P. 400-403.
6. Teun A. van Dijk. *Discourse and Context: A Sociocognitive Approach*. Cambridge: Cambridge University Press, 2008, p. 15.
7. Teun A. van Dijk. *Ideology: A Multidisciplinary Approach*. London: Sage Publications, 1998, p. 8.
8. *The Discourse of News Values: How News Organizations Create Newsworthiness*. Oxford: Oxford University Press, 2017.

NEMIS TILIDA TINISH BELGILARINING FUNKSIONAL TALQINI: ME'YOR, BELGI VA O'QISH JARAYONI

Xudoyev Samandar Samatovich,
Buxoro davlat universiteti
Buxoro, O'zbekiston
khudoevsamandar@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada nemis tilidagi tinish belgilari 2024-yilda yangilangan rasmiy qoidalar to'plami hamda zamonaviy imlo tadqiqotlari asosida tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor belgilarni og'zaki nutqdagi pauzaning yozma ifodasi sifatida emas, balki yozma matnni grammatik va muloqot jihatdan o'qishga yo'naltiruvchi ko'rsatkich sifatida tushuntirishga qaratiladi. Tadqiqotda vergul, nuqta, ikki nuqta, qavs, tire va ko'p nuqtaning vazifalari o'zaro qiyoslanadi. Natijalar nemis tilini o'qitishda punktuatsiyani qoida yodlashdan ko'ra matn tuzilishini anglash vositasi sifatida o'rgatish zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: nemis tili, tinish belgisi, imlo me'yori, vergul, o'qish jarayoni, yozma nutq, matn tuzilishi, grammatik chegara, muloqot funksiyasi, yozuv madaniyati.

ФУНКЦИОНАЛЬНАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ НЕМЕЦКОЙ ПУНКТУАЦИИ: НОРМА, ЗНАК И ПРОЦЕСС ЧТЕНИЯ

Аннотация. В статье рассматривается немецкая пунктуация на основе официального свода правил 2024 года и современных исследований орфографии. Основное внимание уделяется пониманию знаков препинания не как простой письменной передачи пауз устной речи, а как системы указателей, организующих грамматическое и коммуникативное чтение текста. Анализируются функции запятой, точки, двоеточия, скобок, тире и многоточия. Результаты показывают, что при обучении немецкому языку пунктуацию необходимо объяснять не только как набор правил, но и как средство осмысления структуры письменного текста.

Ключевые слова: немецкий язык, знак препинания, орфографическая норма, запятая, чтение, письменная речь, структура текста, грамматическая граница, коммуникативная функция, культура письма.

FUNCTIONAL INTERPRETATION OF GERMAN PUNCTUATION: NORM, SIGN AND READING PROCESS

Abstract. The article analyses German punctuation on the basis of the official rules updated in 2024 and recent studies on orthography. The main focus is on interpreting punctuation marks not as direct written equivalents of pauses in speech, but as indicators that guide grammatical and communicative reading of a written text. The paper compares the functions of the comma, full stop, colon, brackets, dash and ellipsis. The results show that German punctuation in language teaching should be presented not merely as a set of rules, but as a tool for understanding textual structure.

Key words: German language, punctuation mark, orthographic norm, comma, reading process, written speech, text structure, grammatical boundary, communicative function, writing culture.

Kirish. Nemis tilida tinish belgilari masalasi ko'p vaqt davomida amaliy imlo bo'limi sifatida talqin qilingan. Bunday yondashuvda vergul, nuqta, tire yoki qavsning qo'llanishi ko'pincha "qayerda to'xtalish bor?" degan soddaviy savol bilan bog'langan. Biroq so'nggi yillarda nemis imlosi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tinish belgilarini og'zaki nutqdagi pauzani mexanik tarzda yozuvga ko'chiruvchi vosita emas, balki yozma matnning ichki tuzilishini ko'rsatuvchi mustaqil belgilar tizimi sifatida baholaydi. 2024-yilda yangilangan rasmiy qoidalar to'plamida ham tinish belgilari grammatik bo'linish, muloqot vazifasi, tugallanmaganlik, uzilish yoki qo'shimcha axborotni ko'rsatish kabi vazifalar bilan izohlanadi [2, 103 -106].

Maqolaning dolzarbligi shundaki, nemis tilini chet tili sifatida o'rganayotgan talabalar tinish belgilarini, ayniqsa vergul qo'yishni, ko'pincha alohida qoidalar yig'indisi sifatida o'zlashtiradi. Natijada ular murakkab gapda grammatik chegarani, qo'shimcha axborotning asosiy matnga munosabatini yoki sanashdagi teng birliklarni har doim ham to'g'ri ajrata olmaydi. Tinish belgilarining vazifasi esa faqat yozilgan gapni "bezash" emas, balki o'quvchining matnni to'g'ri va tez qayta ishlashiga yordam berishdir.

Shuning uchun maqolada nemis punktuatsiyasini tizim, me'yor, matn va o'qish jarayoni kesishmasida ko'rib chiqish maqsad qilindi.

Mazkur tadqiqotda "sof o'zbekcha" ilmiy bayon asosiy tamoyil sifatida tanlandi. Nemischa terminlar faqat zarur bo'lgan o'rinlarda qavs ichida berildi, misollar esa asl nemis tilida qoldirildi. Bunday uslub bir tomondan nemis imlo nazariyasidagi muhim tushunchalarni aniq saqlaydi, ikkinchi tomondan maqolaning o'zbek tilidagi akademik yaxlitligini ta'minlaydi.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar. Tadqiqot obyekti sifatida nemis tilidagi tinish belgilarining funksional tizimi, xususan 2024-yilgi rasmiy qoidalar to'plamida berilgan belgi inventari, vergul, nuqta, ikki nuqta, qavs, tire, ko'p nuqta va qo'shtirnoqning matn ichidagi vazifalari tanlandi. Tadqiqot predmeti esa ushbu belgilar orqali yozma matnda grammatik chegara, qo'shimcha axborot, muloqot yo'nalishi va o'qish jarayoni qanday boshqarilishini aniqlashdan iborat.

Maqolada tavsifiy-tahliliy, funksional izohlash, qiyosiy umumlashtirish hamda didaktik talqin metodlaridan foydalanildi. Tavsifiy-tahliliy metod rasmiy qoidalarda berilgan asosiy belgilar guruhini o'rganish uchun qo'llandi. Funksional izohlash metodi har bir belgi "qayerda qo'yiladi?" degan savol bilan emas, "u o'quvchiga nimani ko'rsatadi?" degan savol bilan tahlil qilinishini ta'minladi. Qiyosiy umumlashtirish orqali rasmiy qoidalar, nazariy maqolalar va korpus tadqiqotlari o'zaro bog'landi. Didaktik talqin esa natijalarni nemis tilini chet tili sifatida o'qitish amaliyoti bilan bog'lash imkonini berdi.

Tadqiqot materiali sifatida 2024-yilgi rasmiy qoidalar to'plamining tinish belgilariga oid bo'limi, Bredel va Wöllsteinning qoidalar tizimini yangilash haqidagi maqolasi, Krome, Habermann, Lobin va Wöllsteinning imlo, me'yor va yozuv amaliyoti haqidagi kirish maqolasi, Feilkening imlo va yozma savodxonlik haqidagi tadqiqoti, Ransmayrning Avstriya bitiruv yozma ishlari haqidagi korpus tadqiqoti, Romstadt va Reinkenning qo'lyozmadagi vergul shakllari haqidagi maqolasi, shuningdek raqamli yozishmalardagi tinish belgilariga doir ishlar jalb qilindi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Nemis imlosi haqidagi so'nggi ilmiy ishlar yozuv tizimi, rasmiy me'yor va real yozuv amaliyotini bir-biridan ajratmasdan o'rganishni talab qiladi. Krome, Habermann, Lobin va Wöllstein nemis imlosining zamonaviy muammolarini aynan "yozuv tizimi – me'yor – yozuv amaliyoti" uchligi orqali izohlaydi. Ularning yondashuvi shuni ko'rsatadiki, me'yor faqat buyruq shaklidagi qoidalar majmui emas; u yozuvchilarning real amaliyoti, ta'lim tizimi, raqamli muhit va o'qish jarayoni bilan bog'langan dinamik hodisadir [1; XI–XVIII].

2024-yilgi rasmiy qoidalar to'plami nemis tinish belgilarini uch asosiy vazifa doirasida tasniflaydi: grammatik bo'linishni ko'rsatish, muloqot funksiyasini bildirish, tugallanmaganlik yoki uzilishni belgilash. Bu tasnif nuqta, vergul, nuqtali vergul va ikki nuqtaning grammatik vazifasini; savol belgisi, undov belgisi, qavs va qo'shtirnoqning muloqot hamda izohlovchi vazifasini; ko'p nuqta, tire, chiziqcha va apostrofning uzilish yoki qisqartirish bilan bog'liq vazifasini aniqlashtiradi [2, 103-106].

Bredel va Wöllstein qoidalar to'plamidagi yangilanishni uch nazariy mezon bilan tushuntiradi: belgi ko'rsatkich sifatida talqin qilinadi, qoidalar o'quvchi pozitsiyasidan izohlanadi va bayon belgidan vazifaga qarab quriladi. Ularning fikricha, bunday yondashuv eski qoidalaridagi murakkablikni kamaytirib, belgi inventarini ko'rinadigan qiladi, belgilarning o'zaro farqini ochadi va shubhali holatlarni aniqroq talqin qilishga yordam beradi [3, 63–80].

Feilke imlo o'rganishni faqat texnik ko'nikma deb bilishga qarshi turadi. Uning ta'kidlashicha, imlo, jumladan tinish belgilari, yozma tilni tushunish, matn yaratish va akademik savodxonlikni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Muallif yozma savodxonlik (Literalisierung) tushunchasi orqali tinish belgilarini grammatik va matniy kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatida ko'rsatadi [4, 133-160]. Bu fikr nemis tilini chet tili sifatida o'qitishda ayniqsa muhimdir.

Ransmayrning Avstriya bitiruv yozma ishlari asosidagi tadqiqoti tinish belgilari, ayniqsa vergul qo'yish, yuqori bosqichdagi ona tili yozuvchilarida ham murakkab masala bo'lib qolayotganini ko'rsatadi. Muallif umumiy "savod pasaymoqda" degan ommaviy fikrga ehtiyotkorlik bilan yondashadi va korpus asosida vergul xatolari finite ergash gaplar, infinitiv guruhlar va ortiqcha vergul holatlarida ko'proq uchrashini ko'rsatadi [5, 181-194].

Romstadt va Reinken qo'lyozma matnlardagi vergul shakllarini o'rganib, rasmiy qoidalar vergulning moddiy shakli haqida aniq talab qo'ymasligini, biroq ayrim yozuvchilarda vergul shakli ma'lum grammatik birliklar bilan bog'lanishi mumkinligini aniqlaydi [6, 41-63]. Bu natija tinish belgisining ikki tomonini – abstrakt me'yor va konkret yozuv shaklini – ajratib ko'rsatadi. Raqamli yozishmalar bo'yicha tadqiqotlar esa tinish belgilarining muloqot va uslubiy funksiyalari kengayib borayotganini ko'rsatadi [8, 75-94], [9, 287-310].

Bredel va Wöllstein tomonidan taqdim etilgan yangilangan konsepsiyada yana bir muhim jihat bor: qoidalar sonini ko'paytirish emas, ularni umumiy funksiyalar atrofida tartibga solish maqsad qilinadi.

Mualliflar yangi arxitektura tinish belgilarining butun inventarini ko'rinarli qilishi, belgilar orasidagi funksional chegaralarni aniqlashtirishi va shubhali holatlarni maxsus bo'limlarda muhokama qilishga imkon berishini qayd etadi [3, 78-80]. Bunday yondashuv didaktik jihatdan ham foydali, chunki talaba qoidalar ko'pligidan chalg'imag, belgi vazifasining umumiy tamoyilini ko'radi.

Münzberg va Hansenning sifatlar ketma-ketligi bo'yicha korpus tadqiqoti tinish belgilarining grammatik tuzilma va ma'no talqini bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Ular ayrim sifatlar ketma-ketligida vergulning bor yoki yo'qligi yozuvchining sintaktik-semantik niyatini taxmin qilishga yordam berishini ta'kidlaydi [7, 99-130]. Bu natija tinish belgisini faqat qoidaviy to'g'rilik mezonini bilan emas, balki ma'no aniqligi va o'quvchi talqini bilan birga o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Hirschmann va Schmidtning o'rganuvchilar korpuslariga oid tadqiqoti bevosita yozma tinish belgilariga bag'ishlanmagan bo'lsa-da, korpus materialini yig'ish, belgilash va tahlil qilish bo'yicha muhim metodik xulosalar beradi. Ularning fikricha, o'rganuvchi nutqini tahlil qilishda metama'lumot, transkripsiya, belgilash qatlamlari va qo'lda tekshirish masalalari muhim ahamiyatga ega [11, 36-81]. Bu yondashuv talabalarning yozma ishlaridagi tinish belgisi xatolarini kichik korpus sifatida tahlil qilish uchun ham ilmiy asos bo'la oladi.

Muhokama. 2024-yilgi rasmiy qoidalar to'plamida tinish belgilarining boshlang'ich izohi "grammatik bo'linish", "muloqot funksiyasi" va "tugallanmaganlik yoki uzilish" tushunchalari bilan beriladi. Bu izoh nemis tinish belgilarini gapdagi nafas olish joylari bilan emas, balki yozma matnni o'qish uchun tashkil etuvchi tizim bilan bog'laydi. Masalan, nuqta mustaqil gap yoki gapga teng birlikning to'liq yakunini ko'rsatadi; savol belgisi gapni savol sifatida qabul qilishga yo'naltiradi; undov belgisi esa yozuvchining kuchli ta'kidi yoki muloqot bosimini bildiradi [2, 107-112].

Vergul nemis tinish belgilarining eng faol va eng murakkab belgisidir. Rasmiy qoidalarga ko'ra, u strukturaviy kengayishlarni ko'rsatadi: sanash, qo'shimcha birlik va ergash gap shular jumlasidandir [2, 113-126]. Masalan, Ich kaufte Käse, Nudeln, Salat, Früchte gapida vergul teng sanalgan birliklarni ajratadi. Bello, der Hund unserer Nachbarn, bellt die ganze Nacht gapida esa vergul asosiy gapga qo'shilgan izohlovchi birlikni ajratadi. Ich glaube, dass er kommt gapida vergul ergash gapning boshlanish chegarasini ko'rsatadi. Uch holatda ham vergulning vazifasi bir xil ko'rinmaydi, lekin ularning umumiy jihati shundaki, vergul o'quvchini gapning ichki tuzilishini to'g'ri ajratishga yo'naltiradi.

Belgilarni ko'rsatkich sifatida talqin qilish pauza nazariyasidan ancha aniqroqdir. Og'zaki nutqda pauza bo'lishi mumkin, lekin u har doim vergulni talab qilmaydi; aksincha, ayrim ergash gaplarda talaffuzda sezilarli to'xtalish bo'lmasa ham, yozuvda vergul talab qilinadi. Shuning uchun nemis tilini o'rganuvchi talaba "pauza bor – vergul qo'yiladi" formulasidan voz kechib, "grammatik yoki muloqot ko'rsatkichi bormi?" degan savolni berishi kerak. Bu savol yozma tilning mustaqil tabiatiga mos keladi.

Nuqtali vergul va ikki nuqta ham alohida e'tiborga loyiq. Nuqtali vergul gaplar orasidagi bog'liqlik nuqtadagidan kuchli, verguldagidan esa mustaqilroq bo'lgan holatlarda qo'llanadi. Rasmiy qoidalarda u qo'shilgan mazmuniy qatorni ko'rsatuvchi vosita sifatida tushuntiriladi [2, 127-129]. Ikki nuqta esa keyingi segment oldingi fikrni ochishini, izohlashini, sanashini yoki bevosita nutqni boshlashini ko'rsatadi [2, 130-132]. Bu belgilarni faqat "kam uchraydigan belgilar" sifatida emas, akademik yozuvda mantiqiy munosabatlarni aniqlashtiruvchi vosita sifatida o'rgatish kerak.

Qavs va tire o'rtasidagi farq ko'pincha uslubiy erkinlik deb qaraladi. Biroq 2024-yilgi yondashuvda ular funksional jihatdan ajratiladi. Qavs qo'shimcha axborotni asosiy matndan chetlatib, uni ikkinchi darajali ma'lumot sifatida ko'rsatadi. Tire esa matn oqimida uzilish, burilish yoki kutilmagan qo'shimcha paydo bo'lganini bildiradi [2, 133-141]. Demak, bir xil ko'ringan qo'shimcha mazmun vergul, qavs yoki tire orqali turlicha talqin qilinishi mumkin. Masalan, Sie kam, völlig erschöpft, nach Hause va Sie kam – völlig erschöpft – nach Hause gaplarida ma'no bir-biriga yaqin, lekin o'qishdagi urg'u va kutilganlik darajasi farqlanadi.

Ko'p nuqta ham faqat "gap tugamadi" degan belgi emas. Rasmiy tizimda u tugallanmaganlik, uzilish yoki fikrning ochiq qolishini bildiradi. Raqamli yozishmalarda esa uning muloqot vazifasi kengayadi: u kutish, yumshatish, ikkilanish, kinoya yoki o'z navbatini saqlash kabi vazifalarni bajarishi mumkin [9, 287-310]. Biroq rasmiy akademik matnda ko'p nuqta me'yoriy chegaraga ega, shuning uchun uni emotsional bezak sifatida ishlatish mumkin emas. Bu farq tinish belgilarining matn turiga bog'liq ishlashini ko'rsatadi.

Qo'shtirnoqning vazifasi ham keng. Rasmiy qoidalarga ko'ra, u bevosita nutq, iqtibos, til birligini tilshunoslik obyekti sifatida tilga olish yoki shartli qo'llash holatlarini ajratadi [2, 146-154]. Masalan, Er fragte: „Kommst du morgen?“ gapida qo'shtirnoq bevosita nutqni ajratadi; Das Wort „aber“ verbindet Gegensätze kabi gapda esa qo'shtirnoq so'zni muloqot vositasi emas, tahlil obyekti sifatida ko'rsatadi. Bu holat tinish belgilarining faqat sintaktik emas, balki metatil vazifasini ham bajarishini isbotlaydi.

Muhokama shuni ko'rsatadiki, nemis tinish belgilarini alohida qoidalar shaklida yodlatish yetarli emas. Har bir belgi o'quvchiga matnni qanday o'qish, qaysi birlikni asosiy, qaysi birlikni qo'shimcha, qaysi segmentni izoh, qaysi segmentni savol yoki ta'kid sifatida qabul qilish kerakligini ko'rsatadi. Bunday yondashuv tinish belgilarini yozuvchining niyatini o'quvchiga yetkazuvchi grammatik-matniy vosita sifatida tushuntiradi.

Rasmiy qoidalar to'plamining muhim yangiligi shundaki, unda tinish belgisi tanlovi faqat majburiy va ixtiyoriy qoida sifatida emas, balki talqin farqi sifatida ham ko'rsatiladi. Masalan, qo'shimcha birlikni vergul, qavs yoki tire bilan ajratish mumkin bo'lgan holatlarda har bir belgi boshqa-boshqa o'qish yo'lini taklif qiladi. Vergul birlikning grammatik mustaqilligini ko'proq ko'rsatsa, qavs uni asosiy axborotdan chetlashtiradi, tire esa matn oqimida uzilish yoki burilish hissini kuchaytiradi [2, 133-140], [3, 76-78]. Bu holat tinish belgilarini "bir-birining o'rnini bosuvchi belgilar" deb emas, balki mazmunni nozik boshqaruvchi vositalar deb talqin qilishni talab qiladi.

Tinish belgilarini o'qish jarayoni bilan bog'lash Feilke ilgari surgan yozma savodxonlik nazariyasi bilan ham mos keladi. Yozma matn og'zaki nutqdan farqli ravishda vaqt bosimisiz, lekin murakkab sintaktik zichlik bilan quriladi. Shunday matnda tinish belgilari o'quvchiga ko'maklashadi: qayerda fikr tugaganini, qayerda qo'shimcha axborot kirganini, qayerda izoh yoki dalil boshlanishini bildiradi [4, 142-156]. Shu jihatdan tinish belgisi yozma matnda ko'zga ko'rinmaydigan grammatik aloqalarni ko'rinadigan qiladi.

Akademik yozuvda nuqtali vergul va ikki nuqtaning o'ri alohida. O'zbek tilida ham bu belgilar mavjud bo'lsa-da, talabalarining nemischa matnlarida ular ko'pincha qo'llanmaydi yoki faqat tarjima matnlarida uchraydi. Nemis akademik uslubida esa ikki nuqta dalil, misol yoki sanash oldidan fikrning davomiy yo'nalishini ko'rsatadi; nuqtali vergul esa bir-biri bilan yaqin bog'langan mustaqil segmentlarni haddan tashqari uzib yubormasdan ajratadi. Shuning uchun bu belgilarni o'qitishda "kam qo'llanadigan belgilar" emas, balki ilmiy bayonda mantiqiy munosabatni aniqlashtiruvchi vositalar sifatida tushuntirish lozim.

Tinish belgilarining raqamli yozishmalardagi kengaygan vazifalari ham rasmiy me'yorni tushunishga yordam beradi. Raqamli muhitda ko'p nuqta, undov belgisi yoki savol belgisining takroriy ishlatilishi ko'pincha hissiy munosabatni bildiradi [8, 75-94], [9, 287-310]. Biroq ayni belgilar ilmiy matnda chegaralangan vazifaga ega. Demak, bir belgining turli matn turlaridagi vazifasini solishtirish talabalarda uslubiy sezgirlikni oshiradi. Ular rasmiy maqolada nega ortiqcha undov belgisi ishlatilmasligini, ammo norasmiy yozishmada u tabiiy bo'lishi mumkinligini anglaydi.

2024-yilgi qoidalar to'plamida alohida ko'rsatilgan yana bir jihat — qoidaviy holatlar bilan sof konvensiyaga asoslangan holatlarni farqlashdir. Masalan, rasmiy xatlardagi murojaat va yakuniy salomlashuv belgilarida hududiy va janriy farqlar bo'lishi mumkin: ayrim hududlarda murojaatdan keyin vergul qo'yilib, keyingi satr kichik harf bilan boshlanadi, ayrim hududlarda esa belgisiz yozish ham uchraydi [2, 124]. Bunday holatlar tinish belgilarining hamma joyda bir xil qat'iy grammatik sababga ega emasligini, ba'zan yozish an'anasini va matn turi bilan bog'lanishini ko'rsatadi.

Nemis tilini o'qitishda bu farq juda muhim. Talaba rasmiy qoidaning yadro holatlarini – gap yakuni, sanash, qo'shimcha birlik, ergash gap, bevosita nutq – qat'iy bilishi kerak. Shu bilan birga, konvensiyaga asoslangan xat, murojaat, bibliografik yozuv, sarlavha va ro'yxat kabi matn turlarida qoida ishlashini alohida o'rganishi zarur. Aks holda u grammatika bilan bog'liq xatoni janriy konvensiya bilan aralashtirib yuboradi.

Bredel va Wöllstein ko'rsatgan semasiologik yondashuvning afzalligi aynan shu yerda ko'rinadi: talaba avval belgini tanib, uning asosiy vazifasini tushunadi, keyin shu belgi turli matn turlarida qanday qo'llanishini ko'radi [3, 68-70]. Masalan, vergul avval sanash, qo'shimcha birlik va ergash gap ko'rsatkichi sifatida o'rganiladi; keyin xatdagi murojaat, bevosita nutq, sifatlar ketma-ketligi yoki izohlovchi birliklar bilan bog'liq holatlar kengaytiriladi.

O'quvchi markazli yondashuv maqola yozish amaliyotida ham muhim. Ilmiy maqolada tinish belgisi muallifning fikr tartibini o'quvchi uchun ochiq qiladi. Juda uzun gaplarda vergul, nuqtali vergul yoki ikki nuqta noto'g'ri tanlansa, mantiqiy bog'lanish xiralashadi. Shu sababli nemis tili bo'yicha akademik yozuv kurslarida punktuatsiya alohida tahrir mezonini bo'lishi kerak: har bir murakkab gapda asosiy fikr, izoh, dalil, sanash va qarshi qo'yish munosabatlari belgilar orqali tekshiriladi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Tadqiqot natijasida birinchi xulosa sifatida shuni qayd etish mumkin: nemis tinish belgilarining zamonaviy talqini og'zaki nutqdagi pauzaga emas, yozma matnning ichki tuzilishiga asoslanadi. Bu holat rasmiy qoidalar to'plamida ham, nazariy tadqiqotlarda ham bir xil yo'nalishda ko'rinadi. Shuning uchun nemis tilini o'qitishda "vergul pauza o'rnida turadi" degan soddalashtirilgan izohdan voz kechish lozim.

Ikkinchi natija shundan iboratki, tinish belgilari yozma matnda grammatik, muloqot va matniy vazifalarni bir vaqtning o'zida bajaradi. Nuqta gap yakunini, savol belgisi savol muloqotini, undov belgisi

kuchli ta'kidni, vergul grammatik kengayishni, qavs chet ma'lumotni, tire uzilishni, ikki nuqta izoh yoki sanashni bildiradi. Bularning barchasi o'quvchi uchun talqin yo'lini belgilaydi.

Uchinchi natija – belgilar o'rtasidagi tanlov ma'no farqini yuzaga keltirishi mumkin. Ayniqsa qavs, tire va vergul orqali ajratilgan qo'shimcha birliklarda bu farq yaqqol ko'rinadi. Bredel va Wöllstein qayd etganidek, yangi qoidalar arxitekturasida belgilar orasidagi funksional farqni ko'rinarli qiladi [3, 77-79]. Bu didaktik jihatdan juda muhim, chunki o'quvchi bir xil ma'lumotni turli tinish belgilari yordamida turlicha taqdim etishni o'rganadi.

To'rtinchi natija – vergul me'yoriy jihatdan eng muhim, lekin eng xato qilinadigan belgi bo'lib qolmoqda. Ransmayr keltirgan ma'lumotlarda vergul xatolari imlo xatolariga nisbatan ko'proq uchraydi, xususan finite ergash gaplar, infinitiv guruhlar va ortiqcha vergullar muammoli sohalar sifatida ajralib turadi [5, 189-193]. Bu natija chet tili ta'limi uchun ham to'g'ridan-to'g'ri ahamiyatga ega.

Beshinchi natija – tinish belgilarining moddiy shakli ham ayrim hollarda tahlil uchun ahamiyatli bo'lishi mumkin. Romstadt va Reinken tadqiqotida qo'lyozmadagi vergul shakllari yozuvchilarning individual odatlari, ba'zan esa grammatik birliklar bilan bog'liq bo'lishi mumkinligi ko'rsatiladi [6, 41-63]. Bu natija o'qitishda bevosita qoida sifatida berilmaydi, lekin tinish belgisi faqat abstrakt belgi emas, balki yozuv amaliyotida ko'rinadigan material birlik ekanini eslatadi.

Oltinchi natija – nemis tinish belgilarini o'qitish uch bosqichli modelga tayanishi mumkin. Birinchi bosqichda belgilarning asosiy vazifalari tushuntiriladi: yakunlash, ajratish, izohlash, qo'shimcha qilish, savol yoki ta'kidni bildirish. Ikkinchi bosqichda bu vazifalar konkret sintaktik tuzilmalar bilan bog'lanadi: sanash, izohlovchi birlik, ergash gap, infinitiv guruh, bevosita nutq. Uchinchi bosqichda talaba o'z matnini o'quvchi pozitsiyasidan tekshiradi: belgi matnni osonlashtiryaptimi yoki chalkashtiryaptimi?

Yettinchi natija – tinish belgilari o'qitishda matn turi bilan bog'liq holda talqin qilinishi kerak. Rasmiy ilmiy maqola, xat, badiiy dialog, ijtimoiy tarmoqdagi xabar va talabalar inshosida bir xil belgi har doim bir xil uslubiy qiymatga ega bo'lmaydi. Shuning uchun o'qituvchi faqat "to'g'ri/noto'g'ri" mezon bilan cheklanmasdan, "qaysi matn turida, qaysi vazifada, qaysi o'quvchi uchun" savollarini ham kiritishi zarur.

Conclusion. Automated translation from English to Uzbek occupies a critical space in twenty-first-century digital life, presenting opportunities for connection, learning, and empowerment while simultaneously risking the propagation of old and new forms of gender bias. As this paper demonstrates, gender stereotypes and biases in automated translations are the result of deep-seated patterns in training data, algorithmic optimization choices, and a lack of critical reflection on the part of developers and trainers. Machine translation systems have the inherent potential to challenge or reinforce social norms. The responsibility for ensuring fairness falls equally on technologists, linguists, language communities, and end users. Continued interdisciplinary research, transparent data practices, inclusive development teams, and proactive algorithmic design are necessary to address gender bias and to ensure that machine translation supports, rather than hinders, the realization of gender equity in our increasingly connected world. The way forward is complex but urgent: as automated translation technologies continue to evolve and influence multilingual societies, so must our dedication to identifying, understanding, and correcting the ways in which they echo and perpetuate gender stereotypes. Only by integrating ethical, linguistic, and technical perspectives can we ensure that future translation tools reflect not only linguistic accuracy but also the values of equity, diversity, and respect.

REFERENCES:

1. Bolukbasi T., Chang K. W., Zou J. Y., Saligrama V., Kalai A. *Man is to Computer Programmer as Woman is to Homemaker? Debiasing Word Embeddings* // *Advances in Neural Information Processing Systems*. – 2016.
2. Caliskan A., Bryson J.J., Narayanan A. *Semantics derived automatically from language corpora contain human-like biases* // *Science*. – 2017.
3. Costa-jussà M. R., de Jorge J. M. *Addressing Gender Bias in Neural Machine Translation* // *Proceedings of the 2018 Conference on Empirical Methods in Natural Language Processing*. – 2018.
4. Ferraro G., Aliprandi C. *Gender Differences and Bias in Machine Translation* // *Proceedings of the Workshop on Machine Translation*. – 2011.
5. Hardmeier C. *Discourse in Statistical Machine Translation* // Springer. – 2014.
6. Parker C., Johnson T. *Gender Stereotypes in the Translation of Professional Titles* // *International Journal of Translation Studies*. – 2013.
7. Prates M. O. R., Avelar P. H., Lamb L. C. *Assessing Gender Bias in Machine Translation: A Case Study with Google Translate* // *Neural Computing and Applications*. – 2018.
8. Stanovsky G., Smith N. A., Zettlemoyer L. *Evaluating Gender Bias in Machine Translation* // *Proceedings of the Conference on Empirical Methods in Natural Language Processing*. – 2017.
9. Vanmassenhove E., Hardmeier C., Way A. *Getting Gender Right in Neural Machine Translation* // *Proceedings of the 2018 Conference on Empirical Methods in Natural Language Processing*. – 2018.
10. Zhao J., Wang T., Yatskar M., Ordonez V., Chang K. W. *Men Also Like Shopping: Reducing Gender Bias Amplification using Corpus-level Constraints* // *Proceedings of the 2017 Conference on Empirical Methods in Natural Language Processing*. – 2017.

POLIFUNKSIONAL SO‘ZLARNI LINGVISTIK MODELASHTIRISH MASALASI

Usmonova Shahnoza Alisher qizi,

Toshkent amaliy fanlar universiteti

2-bosqich magistranti

shahnozausmonova07072002@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada polifunksional so‘zlarning lingvistik tabiati, ularning grammatik, semantik va pragmatik xususiyatlari hamda lingvistik modellash tirish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda polifunksional birliklarning turli nutqiy vaziyatlarda bajaradigan funksiyalari tavsiflanib, ularni aniqlashda kontekst, sintaktik qurilish va semantik muhitning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, lingvistik modellash tirishning zamonaviy kompyuter lingvistikasi, tabiiy tilni qayta ishlash, avtomatik matn tahlili va sun‘iy intellekt texnologiyalaridagi o‘rni asoslab berilgan. Tadqiqot natijasida polifunksional so‘zlarni kompleks yondashuv asosida modellash tirish ularning funksional xususiyatlarini aniq tavsiflash hamda o‘zbek tilining elektron resurslari va lingvistik dasturlarini takomillashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etishi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: polifunksional so‘z, lingvistik modellash tirish, semantika, sintaksis, pragmatika, kompyuter lingvistikasi, tabiiy tilni qayta ishlash, kontekst, funksional tahlil, o‘zbek tili.

ПРОБЛЕМА ЛИНГВИСТИЧЕСКОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ
ПОЛИФУНКЦИОНАЛЬНЫХ СЛОВ

Аннотация. В данной статье анализируется лингвистическая природа полифункциональных слов, их грамматические, семантические и прагматические свойства, а также вопросы лингвистического моделирования. В исследовании описываются функции полифункциональных единиц в различных речевых ситуациях и подчёркивается важность контекста, синтаксической структуры и семантического окружения при их идентификации. Также обосновывается роль лингвистического моделирования в современной компьютерной лингвистике, обработке естественного языка, автоматическом анализе текста и технологиях искусственного интеллекта. В результате исследования установлено, что моделирование полифункциональных слов на основе комплексного подхода имеет важное научное и практическое значение для точного описания их функциональных свойств и совершенствования электронных ресурсов и лингвистических программ узбекского языка.

Ключевые слова: полифункциональное слово, лингвистическое моделирование, семантика, синтаксис, прагматика, компьютерная лингвистика, обработка естественного языка, контекст, функциональный анализ, узбекский язык.

THE ISSUE OF LINGUISTIC MODELING OF POLYFUNCTIONAL WORDS

Abstract. This article analyzes the linguistic nature of polyfunctional words, their grammatical, semantic and pragmatic properties, and issues of linguistic modeling. The study describes the functions of polyfunctional units in various speech situations, and highlights the importance of context, syntactic structure, and semantic environment in their identification. It also substantiates the role of linguistic modeling in modern computer linguistics, natural language processing, automatic text analysis, and artificial intelligence technologies. As a result of the study, it was determined that modeling polyfunctional words based on a complex approach is of significant scientific and practical importance in accurately describing their functional properties and improving electronic resources and linguistic programs of the Uzbek language.

Keywords: polyfunctional word, linguistic modeling, semantics, syntax, pragmatics, computer linguistics, natural language processing, context, functional analysis, Uzbek language.

Kirish. So‘zlarning nutqda turli grammatik va semantik vazifalarda kelishi, ya‘ni ularning polifunksionalligi zamonaviy tilshunoslikning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda tilshunoslik fani nafaqat til hodisalarini tasvirlash, balki ularni aniq va tizimli tarzda modellash tirishga alohida e‘tibor qaratmoqda, chunki bu yondashuv tilni kompyuter vositasida qayta ishlash imkoniyatlarini

kengaytiradi. Ayniqsa, o'zbek tilshunosligida polifunksional so'zlarning lingvistik modellash tirish masalasi hozirgacha yetarlicha o'rganilmagan, bu esa mavzuning ilmiy dolzarbligini belgilaydi.

Polifunksional so'zlar ko'pincha turkumlararo xususiyatlarga ega bo'lib, ularning funksiyasi faqat lug'aviy ma'nosi bilan emas, balki kontekst, sintaktik qurilish va kommunikativ vaziyat bilan ham belgilanadi. Shu sababli ularni an'anaviy grammatik tasnif doirasida to'liq izohlash qiyin. Lingvistik modellash tirish esa mazkur birliklarning ishlash mexanizmini tizimli ravishda tavsiflash, ularning funksional xususiyatlarini matematik va mantiqiy modellarga asoslangan holda ifodalash imkonini beradi.

Bugungi kunda sun'iy intellekt, tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing), mashinali tarjima va avtomatik matn tahlili kabi yo'nalishlarning rivojlanishi polifunksional birliklarni chuqur tahlil qilish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Til korpuslari asosida lingvistik modellar yaratish ushbu birliklarning semantik va sintaktik xususiyatlarini aniqlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Mazkur maqolada polifunksional so'zlarning lingvistik tabiati, ularni modellash tirish usullari hamda zamonaviy kompyuter lingvistikasidagi qo'llanilish imkoniyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi [1].

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlar tahlili. Mazkur tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy, distributiv, komponent tahlili hamda lingvistik modellash tirish metodlaridan foydalanildi. Avvalo, polifunksional so'zlar nazariyasiga oid ilmiy manbalar tahlil qilinib, ularning grammatik va semantik xususiyatlari umumlashtirildi. Shuningdek, o'zbek tilidagi badiiy, publitsistik va ilmiy matnlardan olingan misollar asosida polifunksional birliklarning qo'llanilish chastotasi va funksional o'zgarishlari o'rganildi.

Lingvistik modellash tirish jarayonida har bir so'zning lug'aviy ma'nosi, sintaktik vazifasi, morfologik ko'rsatkichlari hamda pragmatik funksiyasi o'zaro bog'liq tizim sifatida ko'rib chiqildi. Tadqiqotda kontekstual tahlil usuli orqali bir xil shakldagi birliklarning turli vazifalarda qo'llanishi aniqlanib, ularning funksional modeli ishlab chiqildi.

Model quyidagi bosqichlardan tashkil topdi:

1. Polifunksional so'zni aniqlash;
2. Morfologik xususiyatlarini belgilash;
3. Sintaktik vazifasini aniqlash;
4. Kontekst asosida semantik funksiyasini tahlil qilish;
5. Pragmatik vazifasini baholash;
6. Yakuniy lingvistik modelni shakllantirish.

Mazkur metodologiya til birliklarini tizimli ravishda tahlil qilish hamda ularning funksional imkoniyatlarini aniq tavsiflash imkonini beradi.

Polifunksional so'zlarni lingvistik modellash tirish masalasini tadqiq etishda o'zbek tilshunosligida yaratilgan nazariy manbalar muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, N. Mahmudov va A. Nurmonovning "O'zbek tilining nazariy grammatikasi" asarida tilning grammatik tizimi, so'z turkumlari, sintaktik munosabatlar hamda lisoniy birliklarning funksional xususiyatlari keng yoritilgan. Mualliflar grammatik hodisalarni formal belgilar bilangina emas, balki ularning semantik va funksional xususiyatlari bilan birgalikda tahlil qilish zarurligini ta'kidlaydilar [3]. Mazkur yondashuv polifunksional so'zlarning turli nutqiy vaziyatlarda bajaradigan grammatik vazifalarini aniqlashda muhim nazariy asos vazifasini bajaradi. Asarda grammatik kategoriyalarning o'zaro bog'liqligi hamda kontekstning til birliklari funksiyasini belgilashdagi roli batafsil yoritilgan bo'lib, bu polifunksional birliklarni lingvistik modellash tirish jarayonida muhim metodologik tayanch hisoblanadi.

Sh. Safarovning "Pragmalingvistika" asarida esa til birliklarining pragmatik xususiyatlari, nutqiy vaziyat, kommunikativ maqsad hamda so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi munosabatlarning lisoniy birliklar mazmuniga ta'siri ilmiy asosda tahlil qilingan. Muallif til hodisalarini faqat grammatik yoki semantik jihatdan emas, balki ularning kommunikativ vazifasi bilan uyg'un holda o'rganish zarurligini asoslaydi. Ayniqsa, polifunksional so'zlarning turli kommunikativ vaziyatlarda turlicha pragmatik yuklama kasb etishi haqidagi qarashlar mazkur tadqiqot uchun muhim ahamiyatga ega. Pragmalingvistik yondashuv orqali bir xil shakldagi so'zlarning nutq jarayonida turli ma'no va vazifalarni bajarishi izohlanadi. Bu esa polifunksional birliklarni lingvistik modellash tirishda pragmatik omillarni ham hisobga olish zarurligini ko'rsatadi [4].

Mazkur ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, polifunksional so'zlarni tadqiq etishda grammatik, semantik va pragmatik yondashuvlarning o'zaro integratsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shu yondashuv asosida polifunksional birliklarning lingvistik modeli ishlab chiqilishi ularning funksional imkoniyatlarini to'liq ochib berish hamda tabiiy tilni qayta ishlash tizimlarida samarali qo'llash imkonini yaratadi.

Natija va muhokama. Tadqiqot natijalari polifunksional so'zlarning til tizimida juda murakkab funksional tuzilishga ega ekanligini ko'rsatdi. Bir xil leksik birlik turli nutq vaziyatlarida mutlaqo boshqa

grammatik vazifani bajarishi mumkin. Bu holat ayniqsa yordamchi soʻzlar, modal birliklar, bogʻlovchilar va ayrim ravishlarning qoʻllanishida yaqqol kuzatiladi.

Masalan, “ham” soʻzi qoʻshish maʼnosini bildiruvchi bogʻlovchi vazifasida ham, kuchaytirish yuklamasi sifatida ham, ayrim hollarda taʼkidlovchi birlik sifatida ham qoʻllanadi. Xuddi shuningdek, “faqat”, “yana”, “hatto”, “endi”, “bilan”, “uchun” kabi birliklar ham kontekstga qarab turli sintaktik va semantik vazifalarni bajaradi.

Lingvistik modellash natijasida polifunksional soʻzlarning funksional oʻzgarishi quyidagi omillarga bogʻliq ekanligi aniqlandi:

- nutq konteksti;
- sintaktik qurilish;
- kommunikativ maqsad;
- semantik muhit;
- pragmatik vaziyat.

Tahlillar shuni koʻrsatdiki, bitta soʻzning funksiyasini faqat morfologik belgilar asosida aniqlash yetarli emas. Uni toʻliq tavsiflash uchun sintaktik, semantik va pragmatik omillarni kompleks ravishda hisobga olish zarur.

Kompyuter lingvistikasi nuqtai nazaridan polifunksional soʻzlarni avtomatik aniqlash uchun koʻp bosqichli lingvistik modeldan foydalanish yuqori aniqlikni taʼminlaydi. Morfologik analiz, sintaktik parsing va semantik tahlilning integratsiyasi natijasida soʻzning ayni kontekstdagi haqiqiy funksiyasini aniqlash imkoniyati sezilarli darajada oshadi [8].

1-jadval.

Polifunksional soʻzlarning lingvistik modellash jarayonidagi funksional xususiyatlari

Polifunksional soʻz	Grammatik vazifasi	Kontekstga bogʻliq funksiyasi	Modellashtirishdagi tavsifi
aniq	Sifat, ravish, modal soʻz	Predmet belgisini, harakat tarzini yoki soʻzlovchining ishonchini bildiradi	Grammatik va pragmatik belgilar birgalikda aniqlanadi.
ham	Bogʻlovchi, yuklama	Qoʻshish, taʼkidlash, kuchaytirish maʼnolarini ifodalaydi	Kontekst asosida funksional model quriladi.
faqat	Yuklama, ravish	Chegaralash va ajratish maʼnolarini bildiradi	Semantik va sintaktik omillar asosida tahlil qilinadi.
yana	Ravish, yuklama	Takrorlanish, davomiylik yoki qoʻshimcha maʼnoni ifodalaydi	Nutqiy vaziyatga qarab funksiyasi belgilanadi.
endi	Ravish, modal birlik	Vaqt, oʻtish yoki munosabatni bildiradi	Pragmatik va kommunikativ omillar hisobga olinadi.

1-jadval maʼlumotlari shuni koʻrsatdiki, polifunksional soʻzlarning grammatik maqomi doimiy emas. Ularning vazifasi nutq konteksti, sintaktik qurilish va kommunikativ maqsadga qarab oʻzgaradi. Shu sababli bunday birliklarni lingvistik modellashda faqat morfologik belgilarni emas, balki semantik va pragmatik xususiyatlarni ham kompleks ravishda hisobga olish zarur. Taklif etilgan model polifunksional soʻzlarning turli vazifalarini aniq ajratish imkonini beradi hamda tabiiy tilni qayta ishlash, avtomatik matn tahlili va kompyuter lingvistikasi tizimlarida qoʻllash uchun nazariy asos yaratadi.

Sunʼiy intellekt asosidagi zamonaviy til modellari ham aynan kontekstual tahlil tamoyiliga asoslanadi. Transformer arxitekturasida va neyron tarmoqlar yordamida polifunksional birliklarning maʼnosi atrofidagi boshqa soʻzlar bilan bogʻliq holda aniqlanadi. Shu sababli lingvistik modellash nafaqat nazariy tilshunoslik, balki mashinali tarjima, avtomatik matn tahlili, ovozni tanish, chatbotlar hamda elektron lugʻatlar yaratishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, polifunksional soʻzlarni lingvistik modellash jarayonida korpus lingvistikasi imkoniyatlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Katta hajmdagi elektron matnlar bazasi asosida polifunksional birliklarning qoʻllanish chastotasi, ularning sintaktik modellari va semantik oʻzgarishlari aniqlanishi mumkin. Korpus maʼlumotlari orqali bir xil soʻzning turli uslub va janrlarda qanday funksiyalarni bajarishi statistik jihatdan tahlil qilinadi.

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, polifunksional soʻzlarning funksional xususiyatlarini aniqlashda morfologik tahlilning oʻzi yetarli emas. Soʻzning haqiqiy vazifasini belgilash uchun uning sintaktik pozitsiyasi, semantik muhiti hamda pragmatik vazifasi oʻzaro uygʻunlikda tahlil qilinishi zarur. Aynan kompleks yondashuv asosida ishlab chiqilgan lingvistik model polifunksional birliklarni yuqori aniqlik bilan tasniflash imkonini beradi. Mazkur modelni elektron lugʻatlar, intellektual qidiruv tizimlari, avtomatik

grammatik tahlil dasturlari va o'zbek tilining milliy korpusiga integratsiya qilish til resurslarining sifatini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, ushbu yondashuv o'zbek tilining raqamli rivojlanishiga xizmat qilib, sun'iy intellektga asoslangan lingvistik texnologiyalarni takomillashtirish, tabiiy tilni qayta ishlash algoritmlarining aniqligini oshirish hamda ilmiy tadqiqotlarda yangi metodologik yondashuvlarni shakllantirish uchun mustahkam nazariy va amaliy asos yaratadi [10].

Xulosa. Tadqiqot natijalari polifunksional so'zlarning til tizimida murakkab va ko'p qirrali funksional tabiatga ega ekanligini tasdiqladi. Ularning grammatik vazifasi faqat morfologik shakl bilan emas, balki kontekst, sintaktik qurilish va pragmatik omillar bilan belgilanadi. Shu sababli bunday birliklarni o'rganishda kompleks lingvistik yondashuvdan foydalanish muhim hisoblanadi.

Lingvistik modellashirish polifunksional so'zlarning funksional xususiyatlarini tizimli ravishda tavsiflash, ularning semantik va sintaktik munosabatlarini aniqlash hamda kompyuter lingvistikasida samarali qo'llash imkonini beradi. Taklif etilgan model tabiiy tilni qayta ishlash, mashinali tarjima, avtomatik matn tahlili va sun'iy intellekt tizimlarini rivojlantirish uchun nazariy hamda amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kelgusida o'zbek tilining elektron korpuslari asosida polifunksional birliklarning statistik modeli ishlab chiqilishi, neyron tarmoqlar yordamida ularning avtomatik tasniflanishi hamda raqamli lingvistika yo'nalishida qo'llanilishi muhim ilmiy istiqbollarni ochib beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Gulyamova Sh. A. *O'zbek tili semantik analizatorining lingvistik asoslari: filol. fan. dokt. (DSc) diss.* – Farg'ona, 2022. – 248 b.
2. Mengliyev B. R. *Hozirgi o'zbek tili: nazariy asoslar.* – Toshkent: Tafakkur, 2021. – 384 b.
3. Mahmudov N., Nurmonov A. *O'zbek tilining nazariy grammatikasi.* – Toshkent: Akademnashr, 2022. – 456 b.
4. Safarov Sh. *Pragmalingvistika. 2-qayta nashr.* – Toshkent: Mumtoz so'z, 2021. – 296 b.
5. Rahmonov A. *Kompyuter lingvistikasi.* – Toshkent: Akademnashr, 2023. – 312 b.
6. Pirimov G'. *Kompyuter tilshunosligi asoslari va o'zbek tili milliy korpusi muammolari.* – Toshkent: Akademnashr, 2021. – 240 b.
7. Yo'ldoshev B. *Matn lingvistikasi asoslari.* – Toshkent: Tafakkur, 2021. – 280 b.
8. Xoliyorov O. *Korpus lingvistikasi va o'zbek tili tadqiqotlari.* – Toshkent: Akademnashr, 2023. – 268 b.
9. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. *Hozirgi o'zbek adabiy tili. Qayta ishlangan nashr.* – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 432 b.
10. Tojiyev Y. *O'zbek tili grammatikasi va til birliklari tizimi.* – Toshkent: Navro'z, 2022. – 304 b.

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA ORZU/DREAM KONSEPTINING LINGVOMADANIY
XUSUSIYATLARI: LEKSIK-SEMANTIK TAHLIL VA XORIJIY TIL
TA’LIMIDA QO‘LLASH METODIKASI

Abdullayeva Muqaddas Afzaljonovna,
Buxoro davlat universiteti talabasi
u54787464@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi ORZU/DREAM konsepti leksik-semantik maydon hamda frazeologik fond asosida qiyosiy-lingvomadaniy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda konseptologiya, kognitiv tilshunoslik va frazeologiya nazariyalariga tayangan holda mazkur konseptning til birliklarida ifodalanish xususiyatlari, semantik tarkibi va milliy-madaniy mazmuni yoritiladi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi ORZU/DREAM konseptini ifodalovchi leksik birliklar hamda frazeologik birikmalar qiyosiy o‘rganilib, ularning umumiy va farqli jihatlari aniqlanadi. Shuningdek, konseptga asoslangan yondashuv orqali xorijiy til ta’limida lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirish imkoniyatlari ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: konsept, ORZU/DREAM, leksik-semantik maydon, frazeologiya, lingvomadaniyat, kognitiv tilshunoslik, qiyosiy tahlil, xorijiy til ta’limi.

ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ КОНЦЕПТА МЕЧТА/DREAM В
АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ: ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ И
МЕТОДИКА ПРИМЕНЕНИЯ В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ

Аннотация. В данной статье концепт МЕЧТА/DREAM в английском и узбекском языках анализируется с сопоставительно-лингвокультурологической точки зрения на основе лексико-семантического поля и фразеологического фонда. В исследовании, опирающемся на теории концептологии, когнитивной лингвистики и фразеологии, рассматриваются особенности выражения данного концепта посредством языковых единиц, его семантическая структура и национально-культурное содержание. Проводится сопоставительный анализ лексических единиц и фразеологических сочетаний, репрезентирующих концепт МЕЧТА/DREAM в английском и узбекском языках, выявляются их общие и отличительные характеристики. Кроме того, раскрываются возможности применения концептуального подхода в обучении иностранным языкам для развития лингвокультурной компетенции.

Ключевые слова: концепт, МЕЧТА/DREAM, лексико-семантическое поле, фразеология, лингвокультура, когнитивная лингвистика, сопоставительный анализ, обучение иностранным языкам.

LINGUOCULTURAL FEATURES OF THE ORZU/DREAM CONCEPT IN ENGLISH AND
UZBEK: LEXICO-SEMANTIC ANALYSIS AND METHODOLOGY OF APPLICATION IN
FOREIGN LANGUAGE TEACHING

Abstract. This article examines the ORZU/DREAM concept in English and Uzbek from a comparative linguocultural perspective based on its lexical-semantic field and phraseological fund. The study, grounded in the theories of conceptology, cognitive linguistics, and phraseology, highlights the peculiarities of expressing this concept through linguistic units, its semantic structure, and national-cultural content. A comparative analysis of lexical units and phraseological expressions representing the ORZU/DREAM concept in English and Uzbek is conducted, revealing their common and distinctive features. The article also discusses the possibilities of applying a concept-based approach in foreign language teaching to develop students' linguocultural competence.

Keywords: concept, ORZU/DREAM, lexical-semantic field, phraseology, linguoculture, cognitive linguistics, comparative analysis, foreign language teaching.

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda antropotsentrik yondashuvning rivojlanishi natijasida til inson tafakkuri, madaniyati va milliy dunyoqarashini aks ettiruvchi kognitiv tizim sifatida o‘rganilmoqda. Shu

jihatdan konseptologiya til birliklari orqali inson ongida shakllangan tushunchalarning milliy-madaniy mazmunini tadqiq etuvchi muhim yo'nalish hisoblanadi.

ORZU/DREAM konsepti insonning kelajakka intilishi, maqsadlari, umidlari va ideallari bilan bog'liq universal konseptlardan biri bo'lib, turli tillarda o'ziga xos tarzda ifodalanadi. Ingliz tilida *dream* leksemi "orzu" va "tush" ma'nolarini birlashtirsa, o'zbek tilida ushbu mazmunlar "orzu", "umid", "niyat", "tush" kabi bir necha leksik birliklar orqali ifodalanadi. Mazkur konseptni qiyosiy o'rganish nafaqat ingliz va o'zbek tillari o'rtasidagi semantik farqlarni aniqlash, balki xorijiy til ta'limida talabalarning lingvomadaniy kompetensiyasini rivojlantirish uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki konseptlar orqali xalqning tarixiy tajribasi, qadriyatlari va dunyoni idrok etish usullari namoyon bo'ladi.

Konsept inson ongida shakllangan, til vositalari orqali ifodalanadigan va milliy madaniyatni aks ettiruvchi kognitiv birlik sifatida talqin qilinadi. ORZU/DREAM konsepti ham insonning ichki dunyosi, ruhiy holati va ijtimoiy qadriyatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan murakkab lingvomadaniy hodisadir.

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlarning tahlili. So'nggi yillarda antropotsentrik va kognitiv yondashuvlar asosida konseptlarni o'rganish tilshunoslikning dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylandi. Zamonaviy tadqiqotlarda konsept inson ongida shakllanuvchi, til birliklari orqali namoyon bo'luvchi va muayyan madaniyat vakillarining dunyoqarashini aks ettiruvchi kognitiv birlik sifatida talqin qilinmoqda.

Olib borilgan tadqiqotlarda konseptlarning lingvomadaniy xususiyatlari, ularning semantik tuzilishi hamda turli diskurslarda ifodalanish shakllari keng o'rganilgan. Jumladan, Evans (2019) kognitiv semantika doirasida konseptlarning inson tajribasi va tafakkuri bilan bog'liqligini tahlil qilgan [1]. Kövecses (2020) metaforik tafakkur va madaniy konseptlarning shakllanish jarayonlarini tadqiq etib, mavhum tushunchalar til orqali qanday ifodalanishini ko'rsatgan [2].

Goddard va Wierzbicka (2019) madaniyatlararo semantika yo'nalishida universal va milliy xususiyatga ega bo'lgan konseptlarni qiyosiy o'rganib, turli xalqlarning qadriyatlari til birliklarida aks etishini asoslagan [3]. Sharifian (2017) esa kognitiv madaniyatshunoslik doirasida til, tafakkur va madaniyat o'rtasidagi uzviy munosabatlarni yoritgan [4].

Frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlarini o'rganishda Dobrovol'skiy va Piirainen (2020) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, unda frazeologizmlarning konseptual va madaniy asoslari tahlil qilingan. Langlotz (2021) frazeologik birliklarning ma'no shakllanishi va kognitiv mexanizmlarini tadqiq etgan [5].

ORZU/DREAM konseptining bevosita tadqiqiga bag'ishlangan zamonaviy ishlarda ham ushbu tushunchaning semantik va diskursiv xususiyatlari o'rganilgan. Elce, Handjaras va Bernardi (2021) tush matnlarining leksik-semantik xususiyatlarini tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) metodlari yordamida tahlil qilgan [6]. Das va hammualliflar (2025) katta hajmdagi tush narrativlarini korpus lingvistikasi asosida o'rganib, tush va orzu tushunchalarining matndagi ifodalanish shakllarini aniqlagan [7]. Mathes va Dempfle (2025), Maier (2026) esa tush diskursining lingvistik va kognitiv jihatlarini tadqiq qilgan [8].

Lantolf va Thorne (2017) tomonidan ishlab chiqilgan sotsiomadaniy nazariya doirasidagi tadqiqotlarda til o'rganish jarayoni insonning ijtimoiy tajribasi va madaniy muhiti bilan uzviy bog'liq hodisa sifatida talqin qilinadi. Olimlarning fikricha, til birliklarini o'zlashtirish faqat yangi so'z va grammatik shakllarni yodlashdan iborat emas, balki ushbu birliklar ortida mavjud bo'lgan konseptual va madaniy mazmunni anglash jarayonini ham qamrab oladi [9]. Shu jihatdan ORZU/DREAM kabi konseptlarni o'rganishda talabalar nafaqat *dream*, *hope*, *wish* kabi birliklarning lug'aviy ma'nolarini, balki ularning turli madaniy kontekstlarda qo'llanish xususiyatlarini ham o'zlashtiradilar.

Kramersch (2021) esa xorijiy til ta'limida til va madaniyatning ajralmasligini ta'kidlab, til birliklari ma'lum bir ijtimoiy va madaniy ma'nolar tizimini ifodalashini ko'rsatadi. Uning tadqiqotlarida chet tilini o'rganish jarayoni faqat yangi til tizimini egallash emas, balki boshqa madaniy makonni anglash va madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirish vositasi sifatida qaraladi [10]. Shu nuqtai nazardan ORZU/DREAM konseptini o'qitishda ingliz va o'zbek tillaridagi orzu haqidagi tushunchalarni qiyoslash talabalarni turli madaniy qarashlarni anglashga yo'naltiradi.

Tahlil qilingan manbalar shuni ko'rsatadiki, ORZU/DREAM konsepti turli lingvistik yo'nalishlarda o'rganilgan bo'lsa-da, uning ingliz va o'zbek tillaridagi leksik-semantik maydoni, frazeologik ifodalanishi hamda xorijiy til ta'limidagi metodik imkoniyatlarini kompleks qiyosiy tadqiq etish masalasi hali yetarlicha yoritilmagan.

Nazariy jihatdan ORZU/DREAM konsepti kognitiv tilshunoslikda inson ongida shakllangan, til birliklari orqali namoyon bo'luvchi va muayyan madaniy tajribani aks ettiruvchi mental tuzilma sifatida qaraladi. Konseptning leksik-semantik maydoni uning mazmuniy tarkibini, frazeologik fondi esa obrazli, baholovchi va milliy-madaniy xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Tadqiqot obyekti – ingliz va o'zbek tillaridagi ORZU/DREAM konsepti.

Tadqiqot predmeti – mazkur konseptning:

- leksik-semantik maydoni;
- frazeologik ifodalanishi;
- ta'lim jarayonida qo'llash imkoniyatlari.

1-jadval.

Tadqiqotda foydalanilgan usullar

Tadqiqot usuli	Qo'llanish maqsadi
Qiyosiy tahlil	Ingliz va o'zbek tillaridagi farqlarni aniqlash
Komponent tahlil	Leksik ma'nolar tarkibini o'rganish
Lingvomadaniy tahlil	Milliy xususiyatlarni ochib berish
Frazeologik tahlil	Obrazli ma'nolarni tahlil qilish
Metodik modellash	Konseptni o'qitish usullarini ishlab chiqish

Tahlil va olingan natijalar.

ORZU/DREAM konseptining leksik-semantik maydoni va frazeologik fondining qiyosiy tahlili.

Leksik-semantik maydon muayyan konsept atrofida birlashgan, o'zaro ma'naviy munosabatlarga ega bo'lgan til birliklari tizimini ifodalaydi. ORZU/DREAM konsepti ham ikki tilda bir necha semantik qatlamlarni qamrab oladi: **maqsad, istak, umid, ideal, kelajakka intilish va tush ko'rish.**

Qiyosiy tahlil natijasida mazkur konseptning asosiy leksik tarkibi quyidagicha aniqlandi (2-jadval):

2-jadval.

ORZU/DREAM konseptining leksik-semantik maydoni

Ingliz tili	Semantik mazmun	O'zbek tilidagi muqobili
dream	orzu, ideal maqsad, tush	orzu, tush
hope	ishonch bilan kutish	umid
wish	xohish, istak	istak, xohish
aspiration	yuksak maqsad, intilish	intilish, maqsad
ambition	katta maqsad, muvaffaqiyatga intilish	niyat, orzu-maqsad

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, ingliz tilida *dream* konsepti atrofida birliklar asosan shaxsiy rivojlanish va individual maqsad bilan bog'liq. O'zbek tilida esa ushbu semantik maydonda shaxsiy maqsad bilan birga ma'naviy qadriyatlar, oila va ijtimoiy munosabatlar bilan bog'liq ma'nolar ham faol ishtirok etadi.

Masalan:

- **dream career** – orzu qilingan kasb;
- **dream life** – ideal hayot;
- **a dream come true** – orzuning amalga oshishi.

O'zbek tilida esa:

- **ezgu orzu**;
- **orzu-havas**;
- **orzusiga yetmoq**

kabi birliklarda orzu tushunchasining axloqiy va ijtimoiy mazmuni kuchliroq namoyon bo'ladi.

ORZU/DREAM konseptining frazeologik ifodalanishi. Frazeologik birliklar muayyan xalqning milliy tafakkuri va madaniy tajribasini aks ettiruvchi muhim manbalardan hisoblanadi. ORZU/DREAM konseptiga oid frazeologizmlar ham insonning maqsadga munosabati, umid va intilishlarini ifodalaydi (3-jadval).

3-jadval.

ORZU/DREAM konseptiga oid frazeologik birliklarning qiyosiy tahlili

Ingliz tilidagi birlik	Ma'nosi	O'zbek tilidagi ifodasi
a dream come true	orzuning amalga oshishi	orzusi ushalmog
dream big	katta maqsad qo'yish	katta orzu qilmoq
follow your dream	maqsad sari intilish	orzu ortidan bormoq
beyond my wildest dreams	kutilganidan ham yuqori natija	o'ylaganidan ham ortiq

Tahlil natijasiga ko'ra, ingliz tilidagi frazeologizmlarda **shaxsiy tashabbus, muvaffaqiyat va imkoniyat** g'oyasi ustun bo'lsa, o'zbek tilidagi birliklarda **ezgu niyat, baxt, oilaviy qadriyat va ma'naviy qoniqish** mazmuni kuchliroq namoyon bo'ladi.

ORZU/DREAM konseptini xorijiy til ta'limida o'qitish metodikasi. Konseptga asoslangan ta'lim zamonaviy xorijiy til o'qitishning samarali yo'nalishlaridan biri bo'lib, til birliklarini ularning madaniy va kognitiv mazmuni bilan birgalikda o'zlashtirish imkonini beradi.

ORZU/DREAM konseptini o'qitish uchun quyidagi metodik model taklif etiladi (1-rasm):



1-rasm. ORZU/DREAM konseptini o'qitish modeli

Ta'lim jarayonida quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin:

1. Assotsiativ mashq

Talabalar "dream" so'zi bilan bog'liq so'zlarni aniqlaydi:

Dream → *hope* → *success* → *future* → *goal*

2. Qiyosiy tahlil topshirig'i

Talabalar ingliz va o'zbek tillaridagi orzu haqidagi maqol va iboralarni taqqoslaydi.

3. Kommunikativ topshiriq

"My future dream" mavzusida taqdimot yoki munozara tashkil etiladi.

4. Raqamli vositalardan foydalanish

Wordwall, Quizizz kabi platformalar orqali:

- leksik juftliklarni topish;
- frazeologizmlarni moslashtirish;
- konseptual xarita tuzish;
- test topshiriqlarini bajarish kabi interaktiv mashqlar tashkil etiladi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari ORZU/DREAM konseptining ingliz va o'zbek tillarida oddiy leksik birliklar yig'indisi emas, balki inson tafakkuri, madaniy tajribasi, ijtimoiy qarashlari va milliy qadriyatlarini aks ettiruvchi murakkab lingvomadaniy tizim ekanligini ko'rsatdi. Mazkur konsept har ikki tilda ham

insonning kelajak haqidagi tasavvurlari, maqsadlari, intilishlari va ideallari bilan bog'liq universal mazmunga ega bo'lsa-da, uning til vositalari orqali ifodalanish shakllari xalqning tarixiy tajribasi, dunyoni anglash modeli va madaniy qadriyatlari asosida farqlanadi.

Qiyosiy tahlil natijasida aniqlandiki, ingliz tilidagi *dream* konsepti asosan individual shaxsning faol pozitsiyasi, shaxsiy muvaffaqiyatga erishish, mustaqil qaror qabul qilish va o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish g'oyalari bilan bog'liq holda shakllangan. Ingliz tilidagi *dream big, follow your dream, a dream come true, beyond my wildest dreams* kabi frazeologik birliklarda insonning tashabbuskorligi, maqsad sari qat'iy harakati va kelajakdagi natijaga yo'naltirilganligi asosiy semantik belgilar sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur birliklarda orzu ko'proq shaxsning ichki motivatsiyasi va hayotiy strategiyasi bilan bog'liq tushuncha sifatida talqin qilinadi.

Munozara. O'zbek tilidagi **orzu** konsepti esa individual maqsad va istaklar bilan bir qatorda jamoaviy, ma'naviy hamda axloqiy qadriyatlar bilan chambarchas bog'langan. *Ezgu orzu, orzu-havas, orzusiga yetmoq* kabi birliklarda orzu insonning shaxsiy ehtiyojidan tashqari, oilaviy baxt, farovon hayot, yaxshi niyat, kelajak avlodga bog'liq umidlar va ijtimoiy ahamiyatga ega maqsadlar bilan uyg'unlashadi. Bu holat o'zbek lingvomadaniyatida insonning shaxsiy hayoti ko'pincha jamiyat va oila qadriyatlari bilan bog'liq holda baholanishini ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida aniqlangan muhim semantik jihatlardan biri shundaki, ingliz tilidagi *dream* leksemi ikki asosiy ma'noni — «orzu» va «tush» tushunchalarini birlashtiradi. O'zbek tilida esa ushbu ikki ma'no asosan *orzu* va *tush* kabi mustaqil leksik birliklar orqali ifodalanadi. Mazkur farq tillarning voqelikni konseptualizatsiya qilish jarayonidagi o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatadi. Ya'ni, bir xil mental mazmun turli tillarda turlicha semantik chegaralar va nominativ vositalar orqali namoyon bo'lishi mumkin [11].

ORZU/DREAM konseptining leksik-semantik va frazeologik tahlili natijasida uning semantik tuzilishi uch asosiy komponentdan tashkil topishi aniqlandi (4-jadval):

4-jadval.

ORZU/DREAM konseptining semantik komponentlari

Komponent	Mazmun xususiyati
Tushunchaviy komponent	Orzu, maqsad, istak, umid va kelajak haqidagi tasavvurlarni ifodalaydi
Obrazli komponent	Umid, intilish, baxt, ideal hayot va muvaffaqiyat obrazlarini aks ettiradi
Qadriyat komponenti	Milliy madaniyat, axloqiy me'yorlar, ijtimoiy qarashlar va hayotiy tamoyillarni namoyon etadi

Mazkur komponentlar har ikki tilda umumiy konseptual asosga ega bo'lsa-da, ularning mazmuniy ustuvorligi turlicha namoyon bo'ladi. Ingliz tilida tushunchaviy komponent, ya'ni maqsadga erishish va individual rivojlanish g'oyasi kuchliroq bo'lsa, o'zbek tilida qadriyat komponenti, ya'ni ezgulik, oila, jamiyat va ma'naviy qoniqish bilan bog'liq jihatlar faolroq ifodalanadi.

Tadqiqot natijalari konseptga asoslangan yondashuvning xorijiy til ta'limidagi metodik imkoniyatlarini ham ko'rsatdi. ORZU/DREAM konseptini o'rganish jarayonida talabalar nafaqat yangi leksik birliklar va frazeologik birikmalarni o'zlashtiradilar, balki ushbu birliklarning madaniy mazmuni, qo'llanish muhiti va konseptual asoslarini ham angelaydilar. Bu esa xorijiy tilni o'rganishda so'z boyligini kengaytirish bilan birga, lingvomadaniy kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiladi.

Konsept asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalarga turli madaniyatlarda bir xil tushunchaning qanday talqin qilinishini anglash imkonini beradi. Xususan, ingliz va o'zbek tillaridagi orzu konseptiga oid birliklarni qiyoslash orqali talabalar nafaqat til farqlarini, balki turli xalqlarning fikrlash tarzi, qadriyatlari va kommunikativ xususiyatlarini ham o'rganadilar. Bu esa madaniyatlararo muloqot samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari raqamli ta'lim vositalari, interaktiv topshiriqlar va konseptual xaritalardan foydalanish ORZU/DREAM konseptini o'qitishda samarali metodik vosita bo'la olishini ko'rsatdi. Bunday yondashuv orqali talabalar leksik birliklarni alohida yodlashdan ko'ra, ularni muayyan konseptual tizim doirasida o'zlashtiradilar [12].

Umuman olganda, ORZU/DREAM konseptining qiyosiy-lingvomadaniy tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur konsept insoniyat uchun universal bo'lgan mazmunga ega bo'lsa-da, uning lingvistik ifodasi har bir xalqning madaniy xotirasi, qadriyatlari va dunyoqarashi bilan belgilanadi. Shu sababli bunday konseptlarni o'rganish nafaqat nazariy tilshunoslik uchun, balki zamonaviy xorijiy til ta'limi metodikasi uchun ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. O'tkazilgan tadqiqot natijasida ORZU/DREAM konsepti ingliz va o'zbek tillarida inson tafakkuri, madaniy tajribasi va milliy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy konsept ekanligi

aniqlandi. Mazkur konseptning leksik-semantik maydoni va frazeologik fondini qiyosiy o'rganish ikki til o'rtasidagi umumiy va farqli xususiyatlarni belgilash imkonini berdi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, ingliz tilida dream konsepti asosan shaxsiy tashabbus, maqsadga intilish va muvaffaqiyatga erishish g'oyalarini ifodalasa, o'zbek tilida orzu tushunchasi ijtimoiy munosabatlar, ma'naviy qadriyatlar va ezgu niyatlar bilan kengroq bog'langan.

ORZU/DREAM konseptini xorijiy til ta'limi jarayoniga kiritish til o'rganuvchilarning leksik zaxirasini boyitish bilan birga, ularning lingvomadaniy va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Konseptga asoslangan yondashuv, interaktiv mashqlar va raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish orqali til birliklarining nafaqat shakliy, balki mazmuniy va madaniy jihatlarini o'zlashtirish imkoniyati yaratiladi.

Shu nuqtayi nazardan, ORZU/DREAM kabi universal, ammo milliy xususiyatlarga ega konseptlarni qiyosiy-lingvomadaniy tadqiq etish va ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish zamonaviy xorijiy til o'qitish metodikasining istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Evans V. *Cognitive Linguistics: A Complete Guide*. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2019. – 400 p.
2. Kövecses Z. *Extended Conceptual Metaphor Theory*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2020. – 240 p.
3. Goddard C., Wierzbicka A. *Words and Meanings: Lexical Semantics Across Domains*. – Oxford: Oxford University Press, 2019. – 352 p.
4. Sharifian F. *Cultural Linguistics: Cultural Conceptualisations and Language*. – Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 2017. – 280 p.
5. Langlotz A. *Idiomatic Creativity: A Cognitive-Linguistic Model of Idiom Representation and Processing*. – Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 2021. – 320 p.
6. Elce V., Rizzi S., Handjaras G., Bernardi G. *Our dreams, our selves: automatic analysis of dream reports* // *Royal Society Open Science*. – 2020. – Vol. 7, No. 9. – Article 192080. – P. 1–16.
7. Bertolini L., Elce V., Michalak A., Widhoelzl H.-S., Bernardi G., Weeds J. *Automatic Annotation of Dream Report's Emotional Content with Large Language Models* // *Proceedings of the 18th Conference of the European Chapter of the Association for Computational Linguistics (EACL 2024)*. – 2024. – P. 1–12.
8. Bardina S. *"That's what the dream says": The use of normalizing devices in dream reports* // *Discourse Studies*. – 2021. – (Online First).
9. Lantolf J.P., Thorne S.L. *Sociocultural Theory and the Pedagogical Imperative in L2 Education: Vygotskian Praxis and the Research/Practice Divide*. – New York: Routledge, 2017. – 296 p.
10. Kramsch C. *Language as Symbolic Power*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2021. – 220 p.
11. Dobrovol'skij D., Piirainen E. *Figurative Language: Cross-Cultural and Cognitive Perspectives*. – Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 2020. – 300 p.
12. Nikolaienko V.O. *Ekphrasis in English-language dream reports* // *Scientific Bulletin of South Ukrainian National Pedagogical University named after K. D. Ushynsky*. – 2025. – No. 41. – P. 248–260.

INGLIZ VA O'ZBEK XALQ HAJVIY ERTAKLARIDA KULGI VA SATIRANING
LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Egamnazarova Durdona Shuxratillayevna,

Qo'qon universiteti ingliz tili filologiyasi kafedrasida mudiri

Ahmadaliyeva Madina Kozimjon qizi,

Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

madinaaahmadaliyeva@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz va o'zbek xalq hajviy ertaklarida kulgi hamda satiraning lingvopragmatik xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda kulgi va satirani yuzaga keltiruvchi lingvistik vositalar, jumladan, kinoya, istehzo, mubolag'a, frazeologik birliklar, implikatura, presuppozitsiya va nutq aktlarining kommunikativ funksiyalari yoritilgan. Ingliz va o'zbek xalq hajviy ertaklarida qo'llanilgan pragmatik strategiyalar qiyosiy tahlil qilinib, ularning umumiy hamda farqli jihatlari aniqlangan. Tadqiqot natijalari kulgi va satiraning milliy-madaniy omillar, kommunikativ an'analar hamda lingvistik vositalar bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Olingan xulosalar pragmalingvistika, qiyosiy tilshunoslik, lingvokulturologiya va folklorshunoslik yo'nalishlaridagi ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish uchun nazariy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: hajviy ertak, lingvopragmatika, kulgi, satira, implikatura, presuppozitsiya, nutq akti, kinoya, istehzo, folklor, qiyosiy tahlil.

ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЮМОРА И САТИРЫ В
АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ ЮМОРИСТИЧЕСКИХ СКАЗКАХ

Аннотация. В статье проведён сравнительный анализ лингвопрагматических особенностей юмора и сатиры в английских и узбекских народных юмористических сказках. Исследованы лингвистические средства формирования комического эффекта, включая иронию, сарказм, гиперболу, фразеологические единицы, импликацию, presupposition и речевые акты. Выполнен сравнительный анализ прагматических стратегий, используемых в английских и узбекских народных сказках, выявлены их общие и национально-специфические особенности. Полученные результаты показывают, что формирование юмора и сатиры тесно связано с национально-культурными факторами, коммуникативными традициями и языковыми средствами. Выводы исследования имеют теоретическое значение для дальнейшего развития прагмалингвистики, сравнительного языкознания, лингвокультурологии и фольклористики.

Ключевые слова: юмористическая сказка, лингвопрагматика, юмор, сатира, импликация, presupposition, речевой акт, ирония, сарказм, фольклор, сравнительный анализ.

LINGUOPRAGMATIC FEATURES OF HUMOR AND SATIRE IN ENGLISH AND UZBEK
FOLK HUMOROUS TALES

Abstract. This article presents a comparative analysis of the linguopragmatic features of humor and satire in English and Uzbek folk humorous tales. The study examines the linguistic devices that generate comic effects, including irony, sarcasm, hyperbole, phraseological units, implicature, presupposition, and speech acts, with particular attention to their communicative functions. A comparative analysis of pragmatic strategies employed in English and Uzbek folk tales identifies both universal and culture-specific characteristics. The findings demonstrate that the realization of humor and satire is closely associated with national cultural factors, communicative traditions, and linguistic resources. The results contribute to the theoretical development of pragmalinguistics, comparative linguistics, linguoculturology, and folklore studies.

Keywords: humorous folk tale, linguopragmatics, humor, satire, implicature, presupposition, speech act, irony, sarcasm, folklore, comparative analysis.

Kirish. Xalq og'zaki ijodi tilning tabiiy rivojlanish jarayonini, milliy tafakkurni va jamiyatning qadriyatlar tizimini aks ettiruvchi asosiy manbalardan biridir. Ertaklar tarkibida uchraydigan hajviy syujetlar voqelikni kulgi vositasida talqin qiladi. Bunday matnlarda kulgi estetik zavq uyg'otish bilan cheklanmaydi; u qahramonlarning xatti-harakatiga baho beradi, ijtimoiy me'yorlarni belgilaydi hamda tinglovchining voqeaga munosabatini yo'naltiradi. Shu sababli hajviy ertaklarda qo'llangan til birliklarini faqat semantik jihatdan emas, balki ularning nutqiy vazifasi va pragmatik mazmuni asosida tahlil qilish zarur. Lingvopragmatika nutqda ifodalangan ma'noning shakllanish jarayonini, adresantning kommunikativ niyatini va adresat

tomonidan mazmunning anglanish mexanizmini o'rganadi. Ushbu yo'nalish doirasida so'zning lug'aviy ma'nosi bilan cheklanib qolmasdan, kontekst, presuppozitsiya, implikatura, nutq vaziyati va madaniy bilimlar ham hisobga olinadi. Hajviy ertaklarda aynan shu omillar kulgi effektining yuzaga kelishini belgilaydi. Bir xil leksik birlik turli vaziyatlarda mutlaqo boshqa pragmatik mazmun kasb etishi, oddiy dialog esa yashirin tanqid yoki istehzoni ifodalashi mumkin. Natijada kulgi matnning alohida unsuri emas, balki bir necha lingvistik va ekstralingvistik omillarning o'zaro ta'siri mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Ingliz va o'zbek xalq hajviy ertaklari umumiy janr xususiyatlariga ega bo'lsa-da, kulgining shakllanish usullari har ikki folklor an'anasida bir xil emas. Ingliz ertaklarida kinoya ko'pincha bilvosita ifoda, understatement, paradoks va vaziyat ironiyasi orqali hosil qilinadi. O'zbek hajviy ertaklarida esa xalqona piching, mubolag'a, keskin istehzo, obrazli taqqoslash va maqol-unsurlar kulgining asosiy manbai sifatida uchraydi. Ushbu farqlar tasodifiy hodisa emas. Ular xalqning tarixiy tajribasi, muloqot madaniyati, axloqiy me'yorlari va milliy tafakkuri bilan bog'liq holda shakllangan.

Adabiyotlar tahlili. Kulgi va satira hodisasi falsafa, psixologiya, folklorshunoslik hamda tilshunoslikda turli nazariy yondashuvlar asosida izohlangan. Dastlabki tadqiqotlarda kulgining ijtimoiy va estetik tabiati asosiy e'tibor markazida bo'lgan bo'lsa, keyinchalik uning kommunikativ mohiyati, pragmatik mazmuni va nutqdagi funksiyasi alohida tadqiqot obyektiga aylandi. Natijada kulgining yuzaga kelish mexanizmini faqat estetik hodisa sifatida emas, balki til, tafakkur va kommunikativ vaziyatning o'zaro bog'liqligi orqali izohlash tendensiyasi shakllandi [1,10]. Kulgi nazariyasining rivojlanishida falsafiy yondashuvlar alohida bosqichni tashkil etadi. Mazkur yo'nalish vakillari kulgining paydo bo'lish sabablarini insonning ruhiy holati, tafakkuridagi nomuvofiqlik yoki ijtimoiy munosabatlar bilan bog'laydi. H. Bergson kulgini mexanik harakatlarning tirik hayotga mos kelmasligi natijasida yuzaga keladigan hodisa sifatida tavsiflaydi. Uning fikricha, kulgi jamiyat tomonidan shaxs xatti-harakatlarini tartibga soluvchi vosita vazifasini bajaradi. Z. Freyd esa kulgining psixologik asoslariga e'tibor qaratib, uni inson ongidagi ruhiy zo'riqishning yumshashi bilan izohlaydi. Mazkur nazariyalar kulgining umumiy tabiatini tushuntirgan bo'lsa-da, uning til birliklari orqali qanday hosil bo'lishi masalasini batafsil yoritmaydi [7,8]. Tilshunoslikda pragmatikaning mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllanishi kulgi va satirani yangi nuqtai nazardan tahlil qilish imkonini yaratdi. J. L. Austin tilni faqat axborot uzatish vositasi sifatida emas, balki muayyan harakatni amalga oshiruvchi kommunikativ hodisa sifatida izohladi. Olim nutq aktlari nazariyasini ishlab chiqib, har bir nutqiy birlikning illokutsion maqsadi mavjudligini ko'rsatdi. Keyinchalik J. R. Searle ushbu nazariyani rivojlantirib, nutq aktlarining tasnifini taklif etdi hamda kommunikativ maqsad va til birliklari o'rtasidagi bog'liqlikni izohladi. Hajviy ertaklarda uchraydigan kinoyali murojaatlar, yashirin tanqid va istehzoli dialoglarni aynan nutq aktlari nazariyasi asosida tahlil qilish mumkin [1,2].

Pragmatik ma'noni izohlashda H.P. Grice tomonidan ishlab chiqilgan implikatura nazariyasi alohida o'rin egallaydi. Olim muloqot jarayonida aytilgan fikr bilan nazarda tutilgan mazmun har doim ham bir xil bo'lmashligini ta'kidlaydi. Kooperatsiya tamoyili va uning maksimalari buzilgan holatlarda yashirin ma'no yuzaga keladi. Hajviy ertaklarda qahramonlarning kinoyali javoblari, kutilmagan dialoglari yoki mantiqan nomuvofiq ifodalari aynan implikatura orqali kulgi effektini hosil qiladi. Shuning uchun pragmatik mazmunni aniqlashda matnning lug'aviy mazmuni bilan cheklanib qolish yetarli emas; kontekst va adresatning fon bilimlari ham tahlil qilinadi [3]. G. Leech pragmatikaning nazariy asoslarini yanada kengaytirib, muloqotda xushmuomalalik tamoyilining rolini asoslab berdi. Uning qarashlariga ko'ra, ayrim kommunikativ vaziyatlarda kinoya yoki istehzo bevosita tanqidga nisbatan samaraliroq ta'sir ko'rsatadi. Brown va Levinson esa muloqotda "yuz" (face) tushunchasini markazga qo'yib, tanqid yoki hajvning qanday strategiyalar orqali ifodalanishini tavsifladilar. Ushbu nazariyalar hajviy ertaklarda qahramonlar o'rtasidagi dialoglarni tahlil qilishda metodologik asos sifatida qaraladi [4-6]. S. Levinson pragmatikani til tizimi bilan kommunikativ vaziyat o'rtasidagi munosabatni o'rganuvchi fan sifatida tavsiflaydi. Uning tadqiqotlarida presuppozitsiya, deixis va implikatura pragmatik tahlilning asosiy kategoriyalari sifatida ko'rib chiqilgan. Ayniqsa, presuppozitsiya hajviy matnlarni anglashda muhim omillardan biri sanaladi. Chunki kulgi ko'pincha matnda bevosita ifodalanmagan, biroq adresat uchun oldindan ma'lum bo'lgan axborot asosida shakllanadi. Shu sababli hajviy ertaklarning lingvopragmatik tahlili presuppozitsiyani hisobga olmagan holda to'liq bo'la olmaydi [5].

Folklorshunoslikda ertaklarning strukturaviy va janriy xususiyatlarini o'rganish V. Propp nomi bilan bog'liq. Olim ertak syujetini funksional elementlarga ajratib tahlil qildi va qahramonlarning harakatlari ma'lum qonuniyat asosida rivojlanishini ko'rsatdi. Proppning tadqiqotlari ertak kompozitsiyasini izohlashda muhim nazariy asos yaratdi, biroq unda til birliklarining pragmatik imkoniyatlari alohida tadqiq qilinmagan. A. Dundes folklori madaniy axborot tizimi sifatida talqin qilib, matnni faqat syujet emas, balki kommunikativ hodisa sifatida ham o'rganish zarurligini ta'kidlaydi. Uning qarashlari folklor matnlarini zamonaviy lingvistik metodlar asosida tahlil qilish yo'nalishining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi [9,10].

O'zbek folklorshunosligida hajviy ertaklarning janr xususiyatlari, syujet qurilishi, obrazlar tizimi va xalq tafakkuri bilan bog'liq jihatlar keng tadqiq etilgan. B. Sarimsoqov o'zbek xalq og'zaki ijodining janriy tizimini tavsiflar ekan, hajviy ertaklarning tarbiyaviy va ijtimoiy vazifalariga alohida e'tibor qaratadi. T. Mirzayev va hammualliflar xalq ertaklarining poetik qurilishi, badiiy vositalari hamda milliy an'analar bilan bog'liq tomonlarini yoritgan. M. Jo'rayev folklor matnlarini tarixiy-madaniy jarayonlar bilan uzviy bog'liq holda tahlil qiladi. Sh. Turdimov esa o'zbek folklorining nazariy asoslarini tizimlashtirib, janrlararo munosabatlarni izohlaydi. Ushbu tadqiqotlarda hajviy ertaklarning mazmuni va badiiy xususiyatlari keng yoritilgan bo'lsa-da, kulgi va satiraning lingvopragmatik mexanizmlari alohida tadqiqot predmeti sifatida yetarli darajada tahlil qilinmagan [11–14]. So'nggi yillarda lingvokulturologiya va pragmalingvistika yo'nalishlarida folklor matnlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Biroq mavjud ishlarning aksariyatida milliy-madaniy birliklar, konseptlar yoki obrazlarning semantik xususiyatlari tahlil qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda ingliz va o'zbek xalq hajviy ertaklarida kulgi hamda satiraning lingvopragmatik xususiyatlarini aniqlash maqsadida qiyosiy tilshunoslik, pragmalingvistika va diskurs tahlili metodologiyasi asos qilib olindi. Tadqiqotning metodologik yondashuvi kulgi hodisasini faqat badiiy-estetik vosita sifatida emas, balki kommunikativ maqsadni amalga oshiruvchi pragmatik mexanizm sifatida tahlil qilishga yo'naltirildi. Tahlil jarayonida matnning semantik qatlamidan tashqari, uning kontekstual mazmuni, kommunikativ vaziyati, adresant va adresat o'rtasidagi munosabat hamda milliy-madaniy omillar ham hisobga olindi.

Tadqiqotning asosiy metodini qiyosiy-tipologik tahlil tashkil etdi. Ushbu metod ingliz va o'zbek xalq hajviy ertaklarida kulgi hamda satiraning umumiy va farqli jihatlarini aniqlash uchun qo'llanildi. Qiyoslash jarayonida ikki xalq folklorida uchraydigan lingvistik birliklar, pragmatik strategiyalar va diskursiv xususiyatlar o'zaro taqqoslandi. Lingvopragmatik tahlil metodi matnda ifodalangan yashirin mazmunni aniqlashda asosiy metod sifatida qo'llanildi. Tahlil davomida qahramonlarning nutq aktlari, implikaturalari, presuppozitsiyalari, kinoyali ifodalari hamda kommunikativ niyatlari o'rganildi. Har bir til birligi lug'aviy ma'nosi bilan emas, balki konkret nutq vaziyatida bajarayotgan pragmatik funksiyasi asosida izohlandi. Diskurs tahlili ertak matnining ichki tuzilishini, dialoglarning rivojlanish ketma-ketligini va kommunikativ strategiyalarni aniqlash uchun qo'llanildi.

Ushbu metod yordamida kulgi effektining faqat alohida so'z yoki ibora natijasida emas, balki butun diskurs davomida shakllanishi tahlil qilindi. Dialog ishtirokchilarining nutqiy xatti-harakatlari, javob replikalari va kontekst almashinuvi kulgining hosil bo'lish mexanizmi bilan bog'liq holda baholandi. Kontekstual tahlil metodi lingvistik birliklarning pragmatik mazmunini aniqlashda qo'llanildi. Ayrim leksik yoki frazeologik birliklar matndan ajratilgan holda kulgi hosil qilmaydi. Ularning satirik yoki kinoyaviy mazmuni faqat kommunikativ vaziyat va kontekst doirasida namoyon bo'ladi. Shu sababli barcha misollar ertakning umumiy mazmuni bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilindi. Tavsifiy metod yordamida kulgi va satirani ifodalovchi leksik, frazeologik, sintaktik hamda stilistik vositalar tizimlashtirildi. Komponent tahlil metodi esa ayrim til birliklarining semantik tarkibini ajratish hamda ularning pragmatik yuklamasini aniqlashda qo'llanildi. Mazkur metodlarning o'zaro uyg'unligi ertak matnlaridagi kulgi va satiraning ko'p qatlamli tabiatini izohlash imkonini berdi [5,15].

1-jadval.

Ingliz va o'zbek hajviy ertaklarining lingvopragmatik farqlari

Mezon	Ingliz folklori	O'zbek folklori
Kulgining asosiy manbai	Vaziyat ironiyasi	Xalqona piching
Satira usuli	Bilvosita	Ochiq
Dialog uslubi	Ixcham	Emotsional
Pragmatik strategiya	Indirectness	Directness
Baholash usuli	Yashirin	Ochiq
Milliy kolorit	Understatement	Maqol va matallar

2-jadvalda keltirilgan natijalar ikki xalq hajviy ertaklarida kulgi va satiraning ifodalanish usullari bir xil kommunikativ vazifani bajargan bo'lsa-da, ularning pragmatik amalga oshirilish mexanizmlari turlicha ekanini ko'rsatadi. Ingliz folklorida bilvosita nutq strategiyalari, vaziyat ironiyasi va understatement ko'proq uchraydi. O'zbek hajviy ertaklarida esa ochiq istehzo, xalqona piching va maqol hamda matallar asosidagi baholovchi nutq ustunlik qiladi. Bu tafovutlar milliy nutq madaniyati, tarixiy tajriba va kommunikativ me'yorlarning o'ziga xosligi bilan bog'liq. Lingvopragmatik tahlil yagona mezonlar asosida amalga oshirildi. Birinchi bosqichda kulgi effektini yuzaga keltiruvchi leksik birliklar aniqlandi. Ikkinchi bosqichda

dialog va monologlarda qoʻllangan sintaktik konstruksiyalar pragmatik nuqtayi nazardan baholandi. Uchinchi bosqichda kinoya, istehzo, mubolagʻa, paradoks va boshqa stilistik vositalarning kommunikativ vazifalari tahlil qilindi. Toʻrtinchi bosqichda implikatura, presuppozitsiya va nutq aktlarining kulgi hamda satira hosil qilishdagi oʻrni aniqlandi. Yakuniy bosqichda ingliz va oʻzbek xalq hajviy ertaklari oʻrtasidagi umumiy qonuniyatlar hamda milliy farqlar qiyosiy jihatdan tavsiflandi. Mazkur metodologik yondashuv kulgi va satirani alohida til birliklari darajasida emas, balki matn, diskurs va kommunikativ vaziyatning oʻzaro bogʻliqligi asosida tahlil qilishni nazarda tutadi. Shu sababli tadqiqot natijalari tilning semantik imkoniyatlari bilan bir qatorda uning pragmatik va lingvomadaniy xususiyatlarini ham qamrab oladi.

Ingliz va oʻzbek xalq hajviy ertaklarida kulgini hosil qiluvchi lingvistik vositalar. Hajviy ertaklarda kulgi tasodifiy emotsional holat emas, balki muayyan lingvistik vositalarning oʻzaro uygʻunlashuvi natijasida shakllanadigan pragmatik hodisadir. Kulgining yuzaga kelishida leksik birliklar, frazeologizmlar, sintaktik konstruksiyalar, stilistik usullar hamda kontekst muhim rol oʻynaydi. Ingliz va oʻzbek xalq hajviy ertaklari qiyoslanganda kulgi bir xil kommunikativ maqsadga yoʻnaltirilgan boʻlsa-da, uni hosil qiluvchi til vositalari va ularning qoʻllanish usullari oʻrtasida sezilarli farqlar kuzatiladi.

Ingliz xalq hajviy ertaklarida kulgi koʻpincha mantiqiy nomuvofiqlik asosida quriladi. Syujet rivojida qahramonning sodda fikrlashi, vaziyatni notoʻgʻri baholashi yoki oddiy hodisani murakkablashtirishi komik effektini yuzaga keltiradi. Bunday hollarda kulgi alohida soʻz orqali emas, balki dialogning umumiy pragmatik tuzilishi va voqealar ketma-ketligi orqali hosil boʻladi. Masalan, “The Three Sillies” ertagida qahramonlarning ehtimoliy voqeani real xavf sifatida qabul qilishi voqelik bilan tasavvur oʻrtasidagi nomuvofiqlikni yuzaga keltiradi. Natijada adresat vaziyatning mantiqsizligini anglab, komik mazmunni inferensiya orqali tiklaydi. Ushbu ertakda kulgi bevosita masxara qilish hisobiga emas, balki mantiqiy ziddiyatning bosqichma-bosqich kuchayishi natijasida shakllanadi [3,5]. “The Wise Men of Gotham” turkumidagi hajviy ertaklarda esa kulgining asosiy manbai kinoyaviy dialoglar va paradoksal qarorlardir. Qahramonlarning tashqi tomondan oqilona koʻringan harakatlari voqea rivoji davomida mutlaqo samarasiz yoki kulgili natijaga olib keladi. Dialoglarda qoʻllangan oddiy leksik birliklar kontekst taʼsirida yashirin kinoyani ifodalaydi. Bunday vaziyatlarda implikatura komik mazmunning asosiy tashuvchisiga aylanadi. Oʻquvchi matnda ochiq aytilmagan bahoni mustaqil ravishda tiklaydi va aynan shu jarayon kulgi effektini yuzaga keltiradi [3–6]. Oʻzbek xalq hajviy ertaklarida esa kulgi koʻproq xalqona nutq elementlari orqali hosil qilinadi. Dialoglarda uchraydigan piching, istehzoli murojaatlar, mubolagʻa va obrazli taqqoslashlar satirik mazmunni kuchaytiradi. Ayniqsa, “Kal va boy” ertagida boy obrazining ochkoʻzligi va oʻz manfaatini koʻzlab qilgan harakatlari keskin istehzo vositasida ochib beriladi. Boyning nutqida uchraydigan baholovchi birliklar keyingi voqealar bilan qarama-qarshi qoʻyilib, kulgi yuzaga keladi. Natijada satira shaxsning alohida xususiyatini emas, balki jamiyat tomonidan salbiy baholangan xulq-atvorni tanqid qiladi. “Uch yolgʻonchi” ertagida kulgi dialoglarning mantiqiy rivojlanishi orqali shakllanadi. Har bir qahramon avvalgisidan ham ishonarsizroq voqeani bayon qiladi. Hikoyalar mazmunining bosqichma-bosqich mubolagʻalashuvi komik vaziyatni kuchaytiradi. Bu yerda kulgi bitta leksik birlik natijasi emas, balki ketma-ket nutq aktlarining pragmatik munosabati mahsulidir. Adresat voqealarning haqiqatga mos kelmasligini anglagan sari satirik mazmun kuchayadi. Mazkur usul oʻzbek xalq hajviy ertaklarining eng xarakterli xususiyatlaridan biri sanaladi [11–14]. Ikki xalq folklorini qiyoslash natijasida kulgini hosil qiluvchi lingvistik vositalarning qoʻllanish chastotasi va funksiyasida ayrim tafovutlar aniqlandi. Ushbu natijalar 2-jadvalda umumlashtirilgan.

2-jadval.

Ingliz va oʻzbek xalq hajviy ertaklarida kulgini hosil qiluvchi lingvistik vositalarning qiyosiy tavsifi

Lingvistik vosita	Ingliz ertaklari	Oʻzbek ertaklari	Pragmatik vazifasi
Kinoya (Irony)	faol qoʻllanadi	oʻrtacha	Bilvosita baholash
Istehzo	oʻrtacha	faol qoʻllanadi	Tanqidni kuchaytirish
Mubolagʻa	kam uchraydi	faol qoʻllanadi	Komik effektini kuchaytirish
Understatement	faol qoʻllanadi	kam uchraydi	Yashirin kulgi hosil qilish
Frazeologik birliklar	oʻrtacha	faol qoʻllanadi	Milliy koloritni ifodalash
Dialogik piching	oʻrtacha	faol qoʻllanadi	Baholovchi munosabatni ifodalash

Jadval natijalari ingliz va oʻzbek hajviy ertaklarida kulgining umumiy kommunikativ vazifasi bir xil ekanini, biroq uni hosil qiluvchi lingvistik mexanizmlar turlicha shakllanganini koʻrsatadi. Ingliz folklorida komik effekt koʻproq vaziyat ironiyasi, understatement va implikatura orqali yuzaga chiqadi. Oʻzbek hajviy ertaklarida esa istehzo, mubolagʻa, xalqona iboralar hamda dialogik piching ustunlik qiladi. Bu tafovutlar ikki xalqning nutq madaniyati, baholash usullari va kommunikativ anʼanalari bilan bogʻliq. Tahlil natijalari

shuni ko'rsatadiki, kulgi va satirani yuzaga keltiruvchi lingvistik vositalar alohida qo'llanmaydi. Ular dialog tuzilishi, syujet rivoji, pragmatik kontekst va adresatning fon bilimlari bilan uzviy bog'liq holda ishlaydi. Shu bois hajviy ertaklarni faqat leksik yoki stilistik nuqtai nazardan emas, balki lingvopragmatik tizim sifatida o'rganish ilmiy jihatdan asosli yondashuv hisoblanadi [1–6].

Ingliz va o'zbek xalq hajviy ertaklarining qiyosiy lingvopragmatik tahlili. Ingliz va o'zbek xalq hajviy ertaklari turli tarixiy hamda madaniy muhitda shakllangan bo'lsa-da, ularning asosiy kommunikativ maqsadi jamiyatda salbiy baholanadigan xatti-harakatlarni kulgi va satira orqali fosh etishdan iborat. Qiyosiy tahlil natijalari kulgining mazmuni emas, balki uni hosil qiluvchi lingvistik va pragmatik mexanizmlar xalqlarning muloqot madaniyati, dunyoqarashi hamda til tizimi ta'sirida turlicha shakllanishini ko'rsatdi. Ingliz xalq hajviy ertaklarida komik effekt ko'pincha mantiqiy nomuvofiqlik, vaziyat ironiyasi va bilvosita nutq orqali yuzaga keladi. Qahramonlar o'z fikrini ochiq tanqid shaklida emas, balki kinoya yoki tashqi jihatdan neytral ko'rinadigan nutq birliklari vositasida ifodalaydi. Bunday hollarda satirik mazmun matnda bevosita berilmaydi. O'quvchi dialogning umumiy konteksti, voqealar rivoji va pragmatik belgilar asosida yashirin ma'noni mustaqil ravishda tiklaydi. Natijada kulgi adresatning inferensiya jarayonida shakllanadi. Mazkur xususiyat ingliz folklorida implikatura va bilvosita kommunikatsiyaning ustuvorligini ko'rsatadi. O'zbek xalq hajviy ertaklarida esa kulgi ko'proq xalqona muloqot usullari orqali hosil qilinadi. Dialoglarda istehzo, piching, mubolag'a va maqol hamda matallarga tayangan baholovchi birliklar faol qo'llanadi. Qahramonlarning nutqida tanqid yashirilmaydi, balki obrazli ifodalar yordamida ochiq namoyon etiladi. Shu sababli satirik mazmunni anglash uchun murakkab inferensiya jarayoni talab qilinmaydi. Biroq xalqona iboralar va milliy presuppozitsiyalarni bilish kulgining to'liq pragmatik mazmunini tushinishda muhim omil bo'lib qoladi. Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatdiki, ingliz folklorida kulgi ko'proq intellektual xarakterga ega. O'quvchi voqealar o'rtasidagi mantiqiy nomuvofiqlikni aniqlash orqali komik mazmunni anglaydi. O'zbek hajviy ertaklarida esa kulgi ijtimoiy baholash bilan bevosita bog'langan. Salbiy xulq-atvor ochiq tanqid qilinadi, xalqona hazil vositasida axloqiy xulosa shakllantiriladi. Har ikki holatda ham kulgi tarbiyaviy vazifani bajaradi, ammo kommunikativ strategiyalar va til birliklarining tanlanishida sezilarli tafovut kuzatiladi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot ingliz va o'zbek xalq hajviy ertaklarida kulgi hamda satiraning lingvopragmatik xususiyatlarini qiyosiy asosda yoritdi. Tahlil natijalari har ikki folklor an'anasida kulgi va satira ijtimoiy tanqid hamda axloqiy baholashning asosiy kommunikativ vositalaridan biri ekanligini tasdiqladi. Ingliz xalq hajviy ertaklarida komik mazmun asosan vaziyat ironiyasi, understatement va implikatura orqali shakllanadi. O'zbek xalq hajviy ertaklarida esa istehzo, mubolag'a, piching, frazeologik birliklar hamda bevosita baholovchi nutq ustunlik qiladi. Ushbu tafovut milliy muloqot madaniyati va lingvomadaniy an'analar bilan belgilanadi. Kulgi va satiraning pragmatik mazmuni alohida til birliklari orqali emas, balki kontekst, presuppozitsiya, implikatura, nutq aktlari va adresatning inferensiyasi asosida yuzaga keladi. Shu sababli komik effektning talqini matnning lingvistik tuzilishi bilan bir qatorda kommunikativ vaziyatga ham bog'liq.

Qiyosiy tahlil ingliz va o'zbek hajviy ertaklarida qo'llaniladigan pragmatik strategiyalar o'rtasidagi umumiy va farqli jihatlarni aniqladi. Ingliz folklorida bilvosita ifoda yetakchi bo'lsa, o'zbek folklorida ochiq baholash va xalqona obrazlilik ustuvor hisoblanadi. Tadqiqot natijalari kulgi va satiraning lingvopragmatik modelini aniqlashtirdi hamda folklor matnlarini pragmalingvistik yondashuv asosida tahlil qilishning ilmiy asoslarini to'ldirdi. Korpus lingvistikasi, kognitiv tilshunoslik va sun'iy intellekt asosidagi matn tahlili usullarini qo'llash kulgining lingvistik modellarini statistik jihatdan tavsiflash imkonini yaratadi. Boshqa turkiy va german xalqlari folklori bilan qiyosiy tahlil esa kulgining universal va milliy-madaniy belgilarini empirik materiallar asosida aniqlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Austin J. L. *How to Do Things with Words*. 2nd ed. Oxford: Oxford University Press, 1975.
2. Searle J. R. *Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language*. Cambridge: Cambridge University Press, 1969.
3. Grice H. P. *Logic and Conversation* // Cole P., Morgan J. (Eds.). *Syntax and Semantics*. Vol. 3: *Speech Acts*. New York: Academic Press, 1975. P. 41–58.
4. Leech G. N. *Principles of Pragmatics*. London: Longman, 1983.
5. Levinson S. C. *Pragmatics*. Cambridge: Cambridge University Press, 1983.
6. Brown P., Levinson S. C. *Politeness: Some Universals in Language Usage*. Cambridge: Cambridge University Press, 1987.

7. Bergson H. *Laughter: An Essay on the Meaning of the Comic*. New York: Dover Publications, 2005.
8. Freud S. *Jokes and Their Relation to the Unconscious*. New York: W. W. Norton & Company, 1960.
9. Propp V. *Theory and History of Folklore*. Minneapolis: University of Minnesota Press, 1984.
10. Dundes A. *International Folkloristics: Classic Contributions by the Founders of Folklore*. Lanham: Rowman & Littlefield Publishers, 1999.
11. Sarimsoqov B. *O'zbek folklori ocherklari*. Toshkent: Fan, 1988.
12. Mirzayev T., Musaqllov A., Sarimsoqov B. *O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi*. Toshkent: O'qituvchi, 1990.
13. Jo'rayev M. *Folklorshunoslik asoslari*. Toshkent: Fan, 2009.
14. Turdimov Sh. *O'zbek folklori nazariyasi*. Toshkent: Mumtoz so'z, 2014.
15. Burgers, C., van Mulken, M. *Humor Markers*. In: *The Routledge Handbook of Language and Humor*. Routledge, 2017.

O‘QUVCHILAR LINGVOMADANIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA RANG KONSEPTLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Arabova Gulinur Yuzboy qizi,
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti,
Qarshi, O‘zbekiston
arabovagulinur9@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi besh asosiy rang konsepti: oq, qora, qizil, yashil va ko‘kning lingvomadaniy xususiyatlari semantik, frazeologik va semiotik darajalarda qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, rang nomlari oddiy leksik birlik emas, balki har bir xalqning dunyoqarashi, tarixi va qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan murakkab madaniy kod hisoblanadi, biroq amaliy ta’limda bu jihatlari deyarli e’tiborga olinmaydi. Maqolada B.Berlin va P.Kayning universal rang iyerarxiyasi nazariyasi, M.Byramning lingvomadaniy kompetensiya modeli hamda o‘zbek tilshunosligidagi konsept tadqiqotlari asosida tahlil olib borilgan va tadqiqot natijalari rang konseptlarining ikki tilda tizimli farqlanishini ko‘rsatadi. Aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, semantik darajada o‘zbek tilidagi “ko‘k” so‘zining ingliz tilidagi “blue” va “green” ranglarini birlashtirishi, frazeologik darajada rang iboralarining turli madaniy yo‘nalganligi, semiotik darajada esa to‘y va motam marosimlaridagi ramziy ma’nolarning tubdan farq qilishi aniqlangan. Maqolada keltirilgan tahlil rang konseptlarini lingvomadaniy kompetensiyasini shakllantirish uchun maqsadli o‘quv obyekti sifatida tanlashning ilmiy-nazariy asoslarini ochib beradi va amaliy metodik tavsiyalar bilan yakunlanadi.

Kalit so‘zlar: lingvomadaniy kompetensiya, rang konseptlari, qiyosiy tilshunoslik, frazeologiya, semiotika, madaniyatlararo muloqot, o‘zbek va ingliz tillari, o‘qitish metodikasi, konsept tahlili.

ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЦВЕТОВЫХ КОНЦЕПТОВ В ФОРМИРОВАНИИ ЛИНГВОКУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У ШКОЛЬНИКОВ

Аннотация. В данной статье представлен сопоставительный анализ лингвокультурных особенностей пяти основных цветовых концептов — белого, чёрного, красного, зелёного и синего - в узбекском и английском языках на семантическом, фразеологическом и семиотическом уровнях. Актуальность исследования обусловлена тем, что цветообозначения представляют собой не просто лексические единицы, а сложный культурный код, отражающий мировоззрение, историю и ценности народа, однако этот потенциал практически не учитывается в учебном процессе. Анализ опирается на теорию универсальной иерархии цветообозначений Б. Берлина и П. Кея, модель лингвокультурной компетенции М. Байрама, а также на исследования концептов в узбекском языкознании. Результаты показывают системные различия между двумя языковыми системами: на семантическом уровне узбекское слово “ko‘k” объединяет английские “blue” и “green”; на фразеологическом уровне цветовые идиомы имеют разную культурную направленность; на семиотическом уровне символика свадебных и траурных обрядов кардинально различается. Представленный анализ обосновывает научно-теоретическую базу для выбора цветовых концептов в качестве целенаправленного объекта обучения при формировании лингвокультурной компетенции завершается практическими методическими рекомендациями.

Ключевые слова: лингвокультурная компетенция, цветовые концепты, сопоставительное языкознание, фразеология, семиотика, межкультурная коммуникация, узбекский и английский языки, методика обучения, концептуальный анализ.

LINGUOCULTURAL FEATURES OF COLOR CONCEPTS IN THE FORMATION OF STUDENTS' LINGUOCULTURAL COMPETENCE

Abstract. This article presents a comparative analysis of the linguocultural features of five basic color concepts - white black red green and blue - in the Uzbek and English languages at the semantic, phraseological and semiotic levels. The relevance of the study lies in the fact that color terms are not merely lexical units but complex cultural codes reflecting a nation’s worldview, history and values a potential that is largely overlooked in educational practice. The analysis draws on Berlin and Kay’s theory of the universal hierarchy of basic color terms, Byram’s model of linguocultural competence, and existing concept-based

studies in Uzbek linguistics. The findings reveal systemic differences between the two language systems: at the semantic level. The Uzbek word “ko’k” merges the English categories “blue” and “green”; at the phraseological level, color idioms display divergent cultural orientations; at the semiotic level, the symbolism of wedding and mourning rituals differs fundamentally between the two cultures. The analysis presented in the article substantiates the scientific and theoretical grounds for selecting color concepts as a purposeful object of instruction in forming linguocultural competence and concludes with practical methodological recommendations.

Key words: *linguocultural competence, color concepts, comparative linguistics, phraseology, semiotics, intercultural communication, Uzbek and English languages, teaching methodology, concept analysis.*

Kirish. Globallashuv sharoitida chet tilini o’rgatish nafaqat grammatik va leksik bilim berishni, balki o’quvchida madaniyatlararo muloqot uchun zarur bo’lgan lingvomadaniy kompetensiyani shakllantirishni ham talab qiladi. O’quvchilar lingvomadaniy kompetensiyasini shakllantirishda rang konseptlarini o’qitishdan foydalanish metodikasini takomillashtirish mavzusidagi tadqiqotning dolzarbligini shu bilan belgilashimiz mumkinki, rang nomlari faqatgina leksik birlik emas, balki har bir xalqning dunyoqarashi, an’analari va qadriyatlarini aks ettiruvchi madaniy kod ham hisoblanadi. Lekin amaliyotda rang konseptlarining lingvomadaniy salohiyati ta’lim jarayonida deyarli e’tiborga olinmaydi, ular ko’pincha oddiy leksik birlik sifatida o’rgatiladi. Bu maqolaning maqsadi esa o’zbek va ingliz tillaridagi besh asosiy rang konseptining qiyosiy tahlilini amalga oshirish va ularning lingvomadaniy kompetensiyani shakllantirishdagi metodik ahamiyatini asoslashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Rang konseptlarining tillararo farqlanishi tilshunoslikda uzoq tarixga ega bo’lib, B.Berlin va P.Kayning 98 tilni qamrab olgan fundamental tadqiqoti rang tizimlarining tillararo chegaralari sezilarli darajada farqlanishini isbotladi va asosiy rang terminlarining universal iyerarxiyasini aniqladi. Ularning konsepsiyasiga ko’ra, har bir til ma’lum tartibda rang nomlarini rivojlantiradi, biroq bu jarayonning yakuniy natijasini hisoblanadigan rang tizimining chegaralari tillar bo’yicha sezilarli farq qiladi [1;78-b]. Bu nazariya keyingi yarim asr davomida ko’plab tilshunoslik tadqiqotlariga asos bo’lib xizmat qildi deyishimiz mumkin.

M.Byram o’zining kommunikativ kompetensiya modelida lingvomadaniy kompetensiyani bilim, ko’nikma, tushinish ko’nikmasi, o’rganish ko’nikmasi va munosabat kabi beshta komponent orqali izohlagan [2 214-b]. Mazkur model lingvomadaniy kompetensiyani nafaqat kognitiv, balki affektiv va operatsional jihatlarni ham qamrab oluvchi murakkab tuzilma sifatida ko’rsata oladi. D.Deardorff esa madaniyatlararo kompetensiya jarayonini ichki (bilim, munosabat) va tashqi (xatti-harakat) natijalarga ajratib, bosqichma-bosqich rivojlanish g’oyasini ilgari surgan va uning modeli alohida ahamiyatga ega, chunki u kompetensiyani aniq bir martalik holat emas, balki uzluksiz jarayon sifatida talqin qiladi [3; 241-b].

Z.Kovecses metafora va emotsiya o’rtasidagi bog’liqlikni tahlil qilar ekan, rang nomlarining ko’pgina tillarda hissiy holatlarini ifodalash uchun metaforik asos bo’lib xizmat qilishini ko’rsatgan edi [4;223-b]. Bu yondashuv ingliz tilidagi “feel blue”, “see red” kabi iboralarning nafaqat tasodifiy, balki tizimli kognitiv asosga ega ekanligini tushinishga yordam beradi deyishimiz mumkin.

So’nggi yillarda o’zbek tilshunosligida ham rang konseptlariga bag’ishlangan tadqiqotlar paydo bo’lmoqda. Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi kengashda himoya qilingan dissertatsiyada tadqiqotchi G.Djumamuratova [6;52-b] oq/white va qora/black rang konseptlarining lingvomadaniy xususiyatlarini qoraqalpoq va ingliz materialida tadqiq qildi va u mazkur konseptlarning frazeologik birliklar, naql va maqollar tarkibidagi qo’llanish xususiyatlarini atroflicha o’rgangan va rang kodiga doir illyustrativ lug’atlar tuzishni tavsiya etgan. Bu tadqiqot rang konseptlarining qardosh tillar materialida tizimli tahlil qilinishi mumkinligini ko’rsatadi va ushbu maqola uchun metodologik tayanch nuqtalardan biri bo’lib xizmat qila oladi.

F.Usmanov o’zining manografiyasida o’zbek milliy qadriyatlarining lingvomadaniy aspektini tahlil qilib, aksiolingvistik yondashuv asosida millatning ustuvor qadriyatlarini aniqlash tajribasini yoritdi va uning ishida qo’llanilgan assotsiativ tahlil metodi rang konseptlarining madaniy ma’nosini aniqlashda ham samarali qo’llanilishi mumkin [7;214-b]. V.A.Maslova va M.V.Pimenova lingvomadaniyat kodlari nazariyasini ishlab chiqib, til birliklarining madaniy ma’nosini tushinishda kontekst va an’analarning hal qiluvchi rolini asosladilar [5;180-b] va shu o’rinda ularning konsepsiyasi rang konseptlarini nafaqat lingvistik, balki madaniy kod sifatida talqin qilish imkonini bera oldi.

O’zbek tilshunosligida lingvomadaniy yo’nalishning rivojlanishi haqida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, antropotsentrik paradigma o’zbek tilshunosligiga maqollar, o’xshatishlar va metaforik mazmunli til birliklarini tadqiq etish orqali kirib kelgan, biroq bu yondashuvning chet tili o’qitish

metodikasiga tatbiqi hali yetarlicha rivojlanmagan. Zamonaviy tilshunoslikda konsept tushunchasiga lingvokognitiv va lingvomadaniy nuqtayi nazardan yondashuvlar farqlanadi: birinchisida individual ongdan madaniyatga, ikkinchisida esa madaniyatdan individual ongga yoʻnalganlik xos, bu farq rang konseptlarini tahlil qilishda metodologik ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy tadqiqotchilar orasida E.Usó-Juan va A.Martínez-Flor kommunikativ kompetensiya modellarini tahlil qilib, madaniyatlararo kompetensiyaning til oʻqitish jarayonida integratsiya uchun yagona, umumiy qabul qilingan yondashuv hali ishlab chiqilmaganini taʼkidlaydilar [8;421-b], bu esa rang konseptlari kabi aniq va chegaralangan til birliklari asosida metodik model qurishning dolzarbligini kuchaytiradi. B.Spitzberg va G.Changnon madaniyatlararo kompetensiya modellarini besh toifaga, yaʼni kompozitsion, koʻp yoʻnalishli, rivojlanish, moslashuv va sabab-natija modellariga ajratib, sohaning nazariy xilma-xilligini tizimlashtirdilar [9;252-b].

Tahliliy adabiyotlar shuni koʻrsatadiki, rang konseptlarining lingvomadaniy tabiati haqida yetarlicha nazariy material toʻplangan, shuningdek, qardosh tillar materialida amaliy tadqiqotlar mavjud boʻlsada, oʻzbek va ingliz tillarining besh asosiy rang konsepti boʻyicha toʻliq qiyosiy-lingvomadaniy tahlili va uning maktab taʼlimi metodikasiga tatbiqi alohida tadqiqot obyekti sifatida oʻrganilmagan. Aynan shu boʻshliq ushbu maqola mavzusining ilmiy yangiligini va dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda qiyosiy-tipologik tahlil, komponent tahlili va kontent tahlil metodlaridan foydalanildi, tahlil uchun oʻzbek va ingliz tillaridagi madaniy jihatdan boy beshta rang konsepti: oq, qora, qizil, yashil va koʻk ranglari tanlab olindi, har bir konsept uch yoʻnalishda : semantik (asosiy lugʻaviy maʼno), frazeologik (turgʻun birikmalar) va semiotik (ramziy-madaniy maʼno) darajalarda tahlil qilindi. Tahlil manbai sifatida ikki tilning izohli va frazeologik lugʻatlari, shuningdek B.Berlin va P.Kay, M.Byram, Z.Kovecses kabi mualliflarning ilmiy ishlari qoʻllanildi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalariga koʻra oʻzbek va ingliz tillaridagi rang konseptlari semantik darajada eng koʻzga tashlanadigan farqi “koʻk” konseptida koʻrindi, oʻzbek tilida bitta “koʻk” soʻzi ingliz tilidagi ikki mustaqil “blue” va “green” ranglarini birlashtiradi “koʻk oʻt” va “koʻk osmon” iboralarini oʻzbek tilida bir xil soʻz bilan ifodalansada, ingliz tilida bu ikki rang aniq chegaralanadi “green grass” and “blue sky” kabi. Bu holat 9-11 sinf oʻquvchilarida tizimli til xatolariga sabab boʻlishi mumkin, chunki ona tilidagi kategoriya chegaralarini chet tiliga toʻgʻridan toʻgʻri koʻchirish notoʻgʻri talaffuz va tushunmovchilikka olib kelishi mumkin.

Frazeologik darajada farqlar yanada chuqurroq namoyon boʻldi. Oʻzbek tilida rang asosidagi iboralar koʻproq ijobiy, milliy-madaniy maʼnolarni ochib beradi, misol uchun: “oq koʻngil” (samimiy pokdil), “yashil bahor” (yangilik ramzi). Ingliz tilida esa rang asosidagi iboralar koʻpincha ruhiy holatni va ijtimoiy munosabatni ifodalaydi: “to feel blue” (gʻamgin boʻlmoq), “to see red” (gʻazablanmoq), “to be green” (tajribasiz boʻlmoq), “once in a blue moon” (juda kamdan kam). 9-11 sinf oʻquvchilari uchun bu frazeologik qatlam til oʻrganishning eng murakkab, ayni vaqtda eng qiziqarli boʻgʻini hisoblanadi, chunki u sof lugʻaviy bilimdan tashqari chuqur madaniy kontekstni anglashni talab etadi.

Semiotik, yaʼni ramziy darajada farqlar hayotiy misollarda yaqqol koʻrinadi. Oʻzbek madaniyatida kelin libosining qizil atlas boʻlishi baxt tantana ramzi hisoblanadi, gʻarb madaniyatida esa kelin libosi anʼanaviy oq rangda boʻlishi ikki madaniyat oʻrtasidagi bir xil voqea toʻy marosimining tubdan farqli ramziy talqinini koʻrsatadi. Yashil rang oʻzbek madaniyatida islomiy muqaddaslik bilan bogʻliq boʻlsa, ingliz madaniyatida u koʻproq ekologiya, tabiat va moliyaviy farovonlik, dollar rangi ramziga aylangan. Qora rang ikkala madaniyatda ham motam ramzi sifatida saqlanib qolgan lekin, ingliz tilida u qoʻshimcha ravishda rasmiylik va nafosat maʼnosini ham bildiradi (“black tie”- rasmiy kiyim kodi) bu esa oʻzbek madaniyatida mavjud emas. Bu holat umumtaʼlim maktablarining yuqori sinf oʻquvchilarida til oʻrganishda qoʻshimcha tushunmovchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

Quyidagi jadvalda oq/white konseptining ikki tildagi qiyosiy tavsifi keltirilgan (toʻliq tahlil besh rang boʻyicha amalga oshirilgan).

1-jadval.

Oq/white konseptining ikki tildagi qiyosiy tavsifi

Jihat	Oʻzbek tilida	Ingliz tilida
Asosiy maʼno	Poklik, tozalik, nur (oq)	Purity, innocence (white)
Madaniy ramz	Baxt, ezgulik (“oq yoʻl”)	Tinchlik, taslim (“white flag”)
Frazeologik ibora	“Oq koʻngil”, “oq sut”	“White lie”, “white collar”
Semiotik maʼno	Kelin libosi — qizil, oq — tozalik ramzi	Kelin libosi — oq (anʼanaviy)

Natijalarga ko'ra besh rang konseptining (oq, qora, qizil, yashil, ko'k) qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning har biri semantik, frazeologik va semiotik darajalarda o'ziga xos tizimli farqlarga ega. Aynan shu farqlar ularni lingvomadaniy kompetensiyasini shakllantirish uchun nazariy jihatdan asoslangan o'quv obyekti sifatida tanlashga imkon beradi.

Olingan natijalarga ko'ra, rang konseptlarini o'qitishda an'anaviy leksik yondashuv yetarli emas, o'quvchiga faqat "red" "qizil" kabi to'g'ridan to'g'ri tarjimani berish noto'g'ri tasavvurni shakllantiradi, chunki bu ikki so'z teng hajmdagi semantik maydonni qamrab olmaydi. Shuning uchun, rang konseptlarini o'qitish uchun bosqichli yondashuvni talab etadi: avval denotativ ma'no, so'ngra frazeologik qo'llanilishi va nihoyat madaniy-ramziy ma'no izchil tarzda o'rgatilishi kerak.

Shuningdek, tahlil natijalari rang konseptlarining nafaol (passiv) va faol (aktiv) bilim sifatida o'zlashtirilishi o'rtasidagi farqni ham ochib beradi. Ko'pgina o'quvchilar rang nomlarining tarjimasini biladi, lekin ularni nutqiy vaziyatda, masalan, hissiy holatni ifodalashda yoki madaniy kontekstni tushuntirishda qo'llay olmaydi. Bu holat lingvomadaniy kompetensiyaning faqat bilim emas, balki amaliy ko'nikma va munosabatni ham qamrab olishi zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Xulosa va takliflar. O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra shuni aytishimiz mumkinmi, rang konseptlari faqat leksik birlik emas, balki ikki xalqning dunyoqarashi va qadriyatlarini aks ettiruvchi murakkab lingvomadaniy hodisadir. O'zbek va ingliz tillaridagi rang konseptlarining semantik, frazeologik va semiotik darajalardagi tizimli farqlari "O'quvchilar lingvomadaniy kompetensiyasini shakllantirishda rang konseptlarini o'qitishdan foydalanish metodikasini takomillashtirish" mavzusidagi tadqiqot uchun ilmiy nazariy zamin yaratadi. Tavsiya etish mumkinki, chet tilini darslarida rang leksikasi alohida mavzu sifatida emas, balki madaniyatlararo qiyoslash va refleksiya vositasi sifatida o'qitilishi kerak, bu esa o'quvchilarda nafaqat til bilimini, balki madaniy sezgirlikni ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Berlin B., Kay P. *Basic Color Terms: Their Universality and Evolution*. — Berkeley: University of California Press, 1969. — 178 p.
2. Byram M. *Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence*. — Clevedon: Multilingual Matters, 1997. — 124 p.
3. Deardorff D.K. *Identification and Assessment of Intercultural Competence as a Student Outcome of Internationalization* // *Journal of Studies in International Education*. — 2006. — Vol. 10. — No3. — P. 241-266.
4. Kovecses Z. *Metaphor and Emotion: Language, Culture, and Body in Human Feeling*. — Cambridge: Cambridge University Press, 2000. — 223 p.
5. Маслова В.А., Пименова М.В. *Коды лингвокультуры: Учеб. пособие*. — 2-е изд. — Москва: Флинта, 2016. — 180 с.
6. "Aq/White" va "Qara/Black" rangli konseptlarning qoraqalpoq va ingliz tillarida lingvomadaniy tadqiqi: dissertatsiya avtoreferati. — Nukus: Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi kengash, 2023. — 52 b. [Elektron resurs]. URL: <https://share.google/j5GGFzhfPxOZxgg0T>
7. Usmanov F.F. *O'zbek milliy qadriyatlarining lingvomadaniy aspekti: monografiya*. — Toshkent: Bookmany print, 2024. — 214 b.
8. Usó-Juan E., Martínez-Flor A. *Current Trends in the Development and Teaching of the Four Language Skills*. — Berlin: Mouton de Gruyter, 2006. — 412 p.
9. Spitzberg B.H., Changnon G. *Conceptualizing Intercultural Competence* // *The SAGE Handbook of Intercultural Competence*. — Thousand Oaks: SAGE Publications, 2009. — P. 2-52.

BADIIY PSIXOLOGIZM VA UNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Ashurova Firuza Olim qizi,
 Navoiy davlat universiteti
 tillar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti
 yo'nalishi 2-bosqich magistranti
firuzaaashuroova@gmail.com
 Ilmiy rahbar: Boltayeva Gulchehra,
 filologiya fanlari doktori (DSc)
boltaevagulchekhra@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada badiiy psixologizmning adabiyotshunoslikdagi nazariy mohiyati, estetik vazifasi hamda badiiy matnda namoyon bo'lish shakllari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Badiiy psixologizm inson ruhiy olamini tasvirlashga qaratilgan murakkab poetik hodisa sifatida talqin etilib, uning obraz yaratish, xarakter shakllantirish, konfliktni chuqurlashtirish va asar g'oyasini ochishdagi o'rni yoritiladi. Maqolada ichki monolog, ruhiy kechinma, psixologik detal, portret, dialog, xatti-harakat, tush, xotira va assotsiativ tasvir kabi vositalar badiiy psixologizmning muhim ifoda shakllari sifatida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, psixologizmning realistik, modernistik va zamonaviy nasr poetikasidagi o'ziga xos xususiyatlari nazariy aspektda umumlashtiriladi.

Kalit so'zlar: badiiy psixologizm, ruhiy tahlil, obraz, xarakter, ichki monolog, psixologik detal, badiiy matn, poetika, qahramon ruhiyati.

ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ПСИХОЛОГИЗМ И ЕГО НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ
ОСНОВЫ

Аннотация. В данной статье научно анализируются теоретическая сущность художественного психологизма в литературоведении, его эстетическая функция, а также формы проявления в художественном тексте. Художественный психологизм рассматривается как сложное поэтическое явление, направленное на изображение внутреннего мира человека. Раскрывается его роль в создании образа, формировании характера, углублении конфликта и выражении идейного содержания произведения. В статье такие средства, как внутренний монолог, душевные переживания, психологическая деталь, портрет, диалог, поступки персонажа, сон, память и ассоциативное изображение, рассматриваются как важные формы выражения художественного психологизма. Кроме того, в теоретическом аспекте обобщаются своеобразные особенности психологизма в поэтике реалистической, модернистской и современной прозы.

Ключевые слова: художественный психологизм, психологический анализ, образ, характер, внутренний монолог, психологическая деталь, художественный текст, поэтика, психология героя.

ARTISTIC PSYCHOLOGY AND ITS SCIENTIFIC-THEORETICAL FOUNDATIONS

Abstract. This article provides a scholarly analysis of the theoretical essence of artistic psychology in literary studies, its aesthetic function, and the forms of its manifestation in a literary text. Artistic psychologism is interpreted as a complex poetic phenomenon aimed at depicting the inner world of a person. The article highlights its role in creating literary images, shaping character, deepening conflict, and revealing the ideological content of a work. Such devices as inner monologue, emotional experience, psychological detail, portrait, dialogue, character's actions, dreams, memory, and associative depiction are examined as important forms of expressing artistic psychologism. In addition, the specific features of psychologism in the poetics of realistic, modernist, and contemporary prose are theoretically generalized.

Keywords: artistic psychologism, psychological analysis, image, character, inner monologue, psychological detail, literary text, poetics, psychology of the character.

Kirish. Badiiy adabiyotning asosiy estetik vazifalaridan biri insonni, uning ichki dunyosini, ruhiy kechinmalari va ong osti jarayonlarini badiiy obrazlar orqali ifodalashdan iboratdir. Inson ruhiyatini chuqur anglash, uning hayotiy voqelik bilan munosabatini ichki kechinmalar, iztirob, ikkilanma, quvonch, qo'rquv, umid va ma'naviy tanlovlar orqali ko'rsatish adabiy ijodning eng muhim mezonlaridan biri sanaladi. Shu

jihatdan badiiy psixologizm adabiyotshunoslikda nafaqat tasvir usuli, balki obraz yaratish, xarakter mohiyatini ochish va badiiy g'oyani chuqurlashtirishga xizmat qiluvchi muhim poetik kategoriya sifatida baholanadi.

Badiiy psixologizm tushunchasi inson ruhiyati va badiiy matn o'rtasidagi murakkab munosabatlarni anglatadi. U yozuvchining qahramon ichki olamini qanday badiiy vositalar yordamida ochishi, ruhiy holatlarni qanday kompozitsion va uslubiy usullar orqali ifodalashi, shuningdek, voqelik va shaxs ongidagi ziddiyatlarni qanday estetik shaklga keltirishini o'rganadi. Badiiy psixologizm, ayniqsa, epik asarlarda qahramonning tashqi harakatlari bilan ichki kechinmalari o'rtasidagi bog'liqlikni ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Jahon adabiyotshunosligida badiiy psixologizm masalasi Aristotelning xarakter va harakat haqidagi qarashlaridan boshlab, keyingi davrlarda Gegel, Belinskiy, Dostoyevskiy, Tolstoy, Freyd, Yung, Vygotskiy, Baxtin, Lotman kabi olim va mutafakkirlar qarashlarida turli yo'nalishlarda talqin qilingan [1]. XX asrdan boshlab o'zbek adabiyotshunosligida ham badiiy psixologizm muammosini o'rganishga alohida e'tibor berila boshlandi. XX asrning turli yillarida yaratilgan ilmiy ishlar, xususan, H.Umurovning "Badiiy psixologizm va hozirgi o'zbek romanchiligi", N.Shodiyevning "Abdulla Qahhorning psixologik tasvir mahorati" ("Sarob" va "Sinchalak" asarlari misolida), M.Abdurahmonovning "Abdulla Qodiriyning psixologik tasvir mahorati", A.Xolmurodovning "Odil Yoqubov romanlarida psixologizm" kabi dissertatsiyalarida badiiy psixologizm masalasining turli qirralari tadqiq etilgan. S.Matyobovning "Badiiy psixologizm qirralari", A.Alimuhamedovning "Abdulla Qahhor hikoyalarida ruhiy tasvir", I.Rahimovning "Ruhiy tahlil va ijod", Jabbor Eshonqulning "Ruhiy tahlil metodi xususida", O.Avazovning "Psixologik tahlil qirralari", M.Rustamovning "Hozirgi hikoyachilikda ruhiyat talqini" singari maqolalarida qahramon ruhiyati va uning badiiy asardagi ifodasiga xos ayrim muhim masalalar o'rganilgan. Bundan tashqari o'zbek olimlaridan A.Rasulov, B.Nazarov, U.Normatov, H.Boltaboyev, B.Karimov, Q.Yo'ldoshev, D.Quronov, I.Yoqubov, A.Erkinov, Q.Qahramonovlarning doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalarida, monografiya va maqolalarida, adabiyotshunoslik va adabiy tanqidga oid darslik hamda o'quv qo'llanmalarda badiiy psixologizm masalasiga doir muhim fikr-mulohazalar bildirilgan. Bu holat badiiy psixologizmning milliy adabiyotimiz taraqqiyotida ham dolzarb ilmiy muammo ekanini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini badiiy matnni poetik, psixologik, struktural va hermenevtik tahlil qilishga doir ilmiy yondashuvlar tashkil etadi. Maqolada badiiy psixologizmning mohiyatini ochishda adabiyotshunoslik, estetika, psixologiya va matn tahlili bilan bog'liq nazariy qarashlardan foydalanildi.

Nazariy-tahliliy metod asosida badiiy psixologizm tushunchasining ilmiy mohiyati, adabiyotshunoslikdagi talqinlari va poetik vazifalari o'rganildi. Bu metod badiiy psixologizmni faqat ruhiy tasvir vositasi sifatida emas, balki badiiy tafakkurning murakkab shakli sifatida baholash imkonini beradi.

Tipologik metod orqali badiiy psixologizmning turli ko'rinishlari ichki monolog, psixologik portret, dialog, detal, xotira, tush, assotsiativ tasvir, ong oqimi kabi shakllari tasniflandi. Bu yondashuv psixologik tasvir vositalarining bir-biridan farqli va umumiy tomonlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Germenevtik metod asosida badiiy matnda yashirin ruhiy ma'no qatlamlarini, qahramon kechinmalarining ichki sabablarini va muallif pozitsiyasining psixologik ifodasini talqin qilishga e'tibor qaratildi.

Psixopoetik tahlil usuli orqali badiiy psixologizmning obraz, xarakter, syujet va kompozitsiya bilan uzviy bog'liqligi o'rganildi. Chunki psixologizm alohida tasvir unsuri emas, balki butun asar poetikasini harakatga keltiruvchi ichki mexanizmdir. Maqolada asosiy material sifatida adabiyotshunoslikdagi nazariy qarashlar, badiiy psixologizm haqidagi ilmiy tadqiqotlar hamda o'zbek va jahon nasrida shakllangan psixologik tasvir tajribalari umumlashtirildi [2,34].

Olingan natijalar va ularning tahlili. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, badiiy psixologizm adabiy asarda inson ruhiy olamini aks ettirishning murakkab va ko'p qatlamli poetik tizimidir. U qahramonning ruhiy holatini bevosita tasvirlash bilangina cheklanmaydi, balki uning xarakteri, dunyoqarashi, ijtimoiy muhitga munosabati, axloqiy tanlovi va ichki ziddiyatlarini ochishga xizmat qiladi.

Badiiy psixologizmning asosiy belgilaridan biri ichki kechinmaning badiylashtirilgan shaklda ifodalanishidir. Hayotiy voqelikda inson ruhiyati bevosita ko'zga tashlanmaydi; u nutq, harakat, sukut, qarash, yuz ifodasi, tana holati, xotira yoki tasavvur orqali namoyon bo'ladi. Badiiy adabiyot esa ana shu ko'rinmas ruhiy jarayonlarni estetik shaklga keltiradi. Shu sababli psixologizm yozuvchidan nafaqat hayotiy kuzatuvchanlikni, balki inson qalbining nozik tovlanishlarini anglay olish mahoratini ham talab qiladi. Tahlillar badiiy psixologizmning bir nechta asosiy nazariy belgilarini ajratib ko'rsatish imkonini beradi. Birinchidan, psixologizm qahramon ichki olamining badiiy tasviridir. Bunda inson ruhiyati bevosita

emas, balki obrazli vositalar orqali ifodalanadi. Ikkinchidan, psixologizm xarakter yaratish vositasi sifatida xizmat qiladi. Qahramonning ruhiy kechinmalari uning qanday shaxs ekanini, qanday qadriyatlarga tayanishini va qanday ichki ziddiyatlar bilan yashashini ochib beradi. Uchinchidan, psixologizm konfliktni chuqurlashtiradi. Tashqi ziddiyatlar qahramon ongida ichki kurashga aylanadi. To'rtinchidan, psixologizm asarning g'oyaviy-estetik mazmunini kuchaytiradi, chunki har qanday badiiy g'oya inson qalbi va ruhiy tajribasi orqali o'quvchiga ta'sir etadi.

Badiiy psixologizmning nazariy asoslarini quyidagi jadval orqali umumlashtirish mumkin:

Badiiy psixologizm belgisi	Nazariy mazmuni	Badiiy matndagi ko'rinishi
Ruhiy kechinma	Qahramonning ichki hissiy holati	Iztirob, qo'rquv, umid, afsus, ikkilanish
Ichki ziddiyat	Qahramon ongidagi qarama-qarshi holatlar	Vijdon va manfaat, orzu va imkoniyat, muhabbat va nafrat kurashi
Psixologik detal	Kichik belgi orqali katta ruhiy holatni ochish	Nigoh, sukut, titroq, rang o'zgarishi, buyumga munosabat
Ichki nutq	Qahramonning o'z-o'zi bilan ruhiy mulqoti	Ichki monolog, savol-javob, o'zini ayblash
Xotira va tush	Ong osti va kechmish bilan bog'liq tasvir	Esdalik, orzu, tush ko'rish, tasavvur
Fiziologik o'zgarish	Ruhiy holatning tana orqali ifodalanishi	Yuz oqarishi, qo'l titrashi, ovoz bo'g'ilishi

Ushbu belgilar badiiy psixologizmning matnda tasodifiy emas, balki muayyan poetik tizim asosida shakllanishini ko'rsatadi. Ayniqsa, psixologik detal va ichki monolog qahramon ruhiyatini ochishda eng faol vositalar sifatida namoyon bo'ladi [3, 57].

Badiiy psixologizmning muhim shakllaridan biri ichki monologdir. Ichki monolog orqali qahramonning ongida kechayotgan fikrlar, o'z-o'ziga murojaati, ruhiy iztirobi va ichki bahsi ifodalanadi. Bunda qahramon tashqi voqelikdan ko'ra ko'proq o'z ichki dunyosi bilan yuzma-yuz keladi. Ichki monolog qahramonning chin mohiyatini ochishda muhim vosita sanaladi, chunki tashqi nutqda yashirilgan yoki ijtimoiy odob tufayli aytilmagan haqiqat ichki nutqda namoyon bo'ladi.

Badiiy psixologizmning yana bir muhim vositasi psixologik detaldir. Psixologik detal kichik tasviriy unsur orqali katta ruhiy holatni ochib beradi. Masalan, qahramonning titragan qo'li, xira tortgan nigohi, jim qolishi, gap orasida to'xtab qolishi, bir buyumga uzoq tikilishi yoki takroriy harakati uning ichki kechinmasini bevosita aytmasdan ko'rsatadi. Badiiy psixologizmida detalning kuchi shundaki, u izohdan ko'ra ta'sirchanroq bo'ladi. Yozuvchi "qahramon qo'rqdi" deb aytmaydi, balki qo'rquvni tana harakati, ovoz ohangi, ko'z qarashi yoki muhit tasviri orqali sezdiradi. Psixologik tasvirning yana bir shakli portret bilan bog'liq. Badiiy portret faqat tashqi qiyofani tasvirlash emas, balki qahramon ruhiyatini ochishga xizmat qiluvchi vositadir. Yuzdagi charchoq, ko'zdagi bezovtalik, kiyimdagi beparvolik, qomatdagi bukiklik yoki harakatdagi keskinlik orqali qahramonning ichki holati seziladi. Demak, psixologik portret tashqi belgi orqali ichki mohiyatni ifodalashga xizmat qiladi. Portretning psixologik vazifasi shundaki, u insonning tashqi qiyofasi orqali ichki holatini ochadi. Oddiy portret tasvirida qahramonning yuz-ko'zi, kiyimi, qomati, harakatlari beriladi. Psixologik portret esa ushbu tashqi belgilar ruhiy ma'no kasb etadi. Masalan, qahramonning ko'zidagi bezovtalik, yuzidagi xiralik, kiyimidagi tartibsizlik yoki qadam tashlashidagi ikkilanish uning ichki iztirobi, ruhiy charchog'i yoki ma'naviy bosimini bildirishi mumkin [4,96].

Badiiy psixologizmida portret va detal ko'pincha birgalikda ishlaydi. Yozuvchi qahramonning holatini "u iztirob chekdi" tarzida to'g'ridan-to'g'ri aytmaydi, balki uning "lablari titrashi", "ko'zini olib qochishi", "gapini tugata olmasligi" kabi belgilar orqali ruhiy holatni sezdiradi. Bu esa badiiy matnda ko'rsatish tamoyilining kuchayishiga olib keladi. D. Quronov badiiy obrazning asosiy xususiyati unda hayotiylik va umumlashmalik uyg'unlashuvida ekanini ta'kidlaydi [5]. Psixologik portret aynan shu uyg'unlikni ta'minlaydi: u bir tomondan individual qahramonning ruhiy holatini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan umuminsonga xos kechinmalarni ifodalaydi.

Dialog ham badiiy psixologizmning faol vositalaridan biridir. Qahramonlar o'rtasidagi suhbatda faqat axborot almashinuvi emas, balki ularning ruhiy pozitsiyasi, kayfiyati, niyati, ijtimoiy maqomi va ichki qarama-qarshiliklari namoyon bo'ladi. Ayniqsa, keskin dialoglarda sukut, kinoya, yarim gap, takroriy ibora yoki ovoz ohangi psixologik yuk tashiydi. Ba'zan qahramon aytdan ko'ra aytmaganday so'z bilan ko'proq ochiladi.

Badiiy psixologizmning muhim jihatlaridan yana biri xatti-harakat psixologiyasidir. Qahramonning harakati uning ruhiy holatidan ajralgan holda tasvirlanmaydi. Har bir qaror, qadam, chekinish, sukut yoki qarshilik muayyan ichki sababga ega bo'ladi. Kuchli psixologik asarlarda tashqi voqea ichki ruhiy jarayonning natijasi sifatida yuzaga chiqadi. Shu ma'noda syujet faqat voqealar ketma-ketligi emas, balki qahramon ruhiyatining bosqichma-bosqich ochilish jarayonidir.

Tadqiqot natijalari badiiy psixologizmning quyidagi asosiy vazifalarini aniqlash imkonini beradi:

№	Badiiy psixologizm vazifasi	Mazmuni
1	Obraz yaratish	Qahramonning individual ruhiy qiyofasini ochadi
2	Xarakter shakllantirish	Qahramonning ichki ziddiyati, irodasi, tanlovi va dunyoqarashini ko'rsatadi
3	Konfliktni chuqurlashtirish	Tashqi ziddiyatni ichki ruhiy kurash bilan bog'laydi
4	G'oyani kuchaytirish	Asarning falsafiy-estetik mazmunini inson ruhiyati orqali ochadi
5	Kompozitsiyani boyitish	Xotira, tush, ichki monolog, assotsiatsiya orqali voqealar tizimini murakkablashtiradi
6	Estetik ta'sirni oshirish	O'quvchini qahramon kechinmasiga sherik qiladi

Ushbu natijalar badiiy psixologizmning oddiy tasvir usuli emas, balki badiiy asarning ichki strukturasi, obrazlar tizimi va g'oyaviy-estetik mazmunini belgilovchi asosiy omillardan biri ekanini ko'rsatadi [5].

Badiiy psixologizm masalasini chuqur tahlil qilish uchun avvalo uning adabiy jarayondagi o'rini aniqlash lozim. An'anaviy epik asarlarda voqea, syujet va tashqi harakat ustuvor bo'lgan bo'lsa, psixologik nasrda asosiy e'tibor qahramonning ichki dunyosiga qaratiladi. Bunda tashqi voqealar qahramon ruhiyatini ochish vositasiga aylanadi. Shu sababli psixologik asarlarda voqea ko'pincha ichki kechinma orqali anglanadi. Realistik adabiyotda badiiy psixologizm hayotiylik va xarakter mantiqiga asoslanadi. Qahramonning ruhiy holati ijtimoiy muhit, hayotiy sharoit, tarbiya, axloqiy qarashlar va shaxsiy tajriba bilan bog'liq holda tasvirlanadi. Realistik psixologizm qahramon ichki dunyosi aniq sabab va oqibatlar asosida ochiladi. Abdulla Qahhor, Oybek, Pirmul Qodirov, O'tkir Hoshimov kabi yozuvchilar ijodida qahramon ruhiyati ko'pincha hayotiy voqelik, ijtimoiy munosabat va axloqiy tanlovlar bilan bog'langan holda ifodalanadi [6].

Modernistik va postmodernistik adabiyotda esa psixologizm yanada murakkab shakl kasb etadi. Bu yo'nalishda qahramon ruhiyati izchil voqealar orqali emas, balki parchalangan xotira, tush, ong oqimi, ramziy obrazlar, ichki dialog va assotsiativ tasvir orqali beriladi. Bunday asarlarda inson ruhiyati barqaror va tayyor holatda emas, balki izlanayotgan, o'zini anglashga urinayotgan, ziddiyatli va ko'p qatlamli jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Badiiy psixologizmning ilmiy-nazariy asoslarini belgilashda psixologiya va adabiyotshunoslik o'rtasidagi munosabat alohida ahamiyatga ega. Psixologiya inson ruhiyatini ilmiy tushunchalar orqali izohlasa, adabiyot uni obraz, tasvir, ramz va badiiy til orqali ifodalaydi. Demak, badiiy psixologizm psixologiyaning adabiyotga oddiy ko'chirilishi emas, balki ruhiy holatlarning estetik qayta yaratilishidir. Yozuvchi psixologik jarayonni klinik yoki ilmiy tahlil sifatida emas, balki badiiy haqiqat sifatida yaratadi [7].

Badiiy psixologizm muallif pozitsiyasi ham muhim o'rin tutadi. Muallif qahramon ruhiyatini ba'zan bevosita izohlaydi, ba'zan esa uni harakat, detal va nutq orqali o'quvchining o'zi anglashiga imkon beradi. Birinchi holatda analitik psixologizm yuzaga keladi; ikkinchi holatda esa yashirin yoki implitsit psixologizm kuchayadi. Zamonaviy nasrda ikkinchi usul ko'proq uchraydi, chunki unda o'quvchi faqat kuzatuvchi emas, balki ma'no yaratish jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi.

Badiiy psixologizmni quyidagi asosiy turlarga ajratish mumkin:

Psixologizm turi	Xususiyati	Ifoda vositalari
Bevosita psixologizm	Qahramon ruhiyati muallif yoki qahramon nutqi orqali ochiq bayon qilinadi	Ichki monolog, izoh, o'z-o'ziga murojaat
Bilvosita psixologizm	Ruhiy holat tashqi belgilar orqali sezdiriladi	Detal, portret, harakat, sukut
Analitik psixologizm	Ruhiy jarayon sabab-oqibat asosida tahlil qilinadi	Muallif sharhi, ichki tahlil
Assotsiativ psixologizm	Ruhiy holat xotira, tush va tasavvur oqimi orqali beriladi	Xotira, tush, ong oqimi
Dramatik psixologizm	Ichki ziddiyat dialog va konflikt orqali ochiladi	Dialog, bahs, qarama-qarshilik

Badiiy psixologizmning bunday tasnifi uni badiiy matnda aniqlash va tahlil qilish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, o'zbek nasrida qahramon ruhiyatining milliy xarakter, axloqiy qadriyat, oila, jamiyat, vijdon, iymon, oriyat, iztirob va o'zlikni anglash kabi tushunchalar bilan bog'liq holda tasvirlanishi psixologizmning milliy-estetik xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi [8].

Muhokama. O'zbek realistik nasrida badiiy psixologizm, ko'pincha, ijtimoiy hayot, oilaviy munosabat, ma'naviy qadriyat, vijdon va burch masalalari bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Abdulla Qahhor hikoyalari psixologizm qisqa, ixcham, ammo o'tkir detal orqali beriladi. O'tkir Hoshimov nasrida esa qahramon ruhiyati xotira, iztirob, mehr, armon va insoniy mas'uliyat orqali ochiladi. Shukur Xolmirzayev asarlarida qahramonning ichki dunyosi tabiat, muhit va milliy xarakter bilan bog'langan holda tasvirlanadi. Mustaqillik davri nasrida esa psixologizm yanada murakkablashib, insonning o'zligini anglash, ruhiy yolg'izlik, zamon bilan ziddiyat, ichki erkinlik va ma'naviy tanlov kabi masalalarni ifodalashga xizmat qilmoqda. Bu jarayonda badiiy psixologizm faqat qahramon kechinmasini ifodalash bilan cheklanmaydi, balki davr ruhini, jamiyatdagi ma'naviy o'zgarishlarni va inson tafakkuridagi yangilanishlarni ham aks ettiradi. N. Rahimjonov mustaqillik davri o'zbek nasrida inson shaxsi, ruhiy olami va ma'naviy izlanishlar tasviri kengayganini qayd etadi [6]. Demak, zamonaviy nasrda psixologizm insonning tashqi voqelik bilan emas, avvalo o'z ichki dunyosi bilan kurashini ko'rsatishga xizmat qilmoqda.

Badiiy psixologizmning yana bir muhim tomoni shundaki, u o'quvchining estetik idrokiga bevosita ta'sir qiladi. Qahramon ruhiyatining chuqur tasviri o'quvchini voqea kuzatuvchisidan kechinma hamrohiga aylantiradi. O'quvchi qahramon bilan birga iztirob chekadi, ikkilanadi, tanlov qiladi va ma'naviy xulosa chiqaradi. Shu bois badiiy psixologizm asarning ta'sirchanligini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir.

Badiiy psixologizm adabiy asarda inson ruhiy olamini badiiy-estetik jihatdan ifodalovchi murakkab poetik hodisadir. U obraz, xarakter, syujet, konflikt, kompozitsiya va badiiy til bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Psixologizm orqali yozuvchi qahramonning tashqi hayoti bilan ichki dunyosi o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ochadi, insonning ruhiy iztiroblari, axloqiy tanlovi va ma'naviy o'sish jarayonini tasvirlaydi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, badiiy psixologizmning asosiy ifoda vositalari ichki monolog, psixologik detal, portret, dialog, xatti-harakat, tush, xotira va assotsiativ tasvirlardan iboratdir. Ushbu vositalar qahramon ruhiyatini turli darajada ochishga xizmat qiladi. Bevosita psixologizm qahramon kechinmasini ochiq ifodalasa, bilvosita psixologizm ruhiy holatni tashqi belgilar orqali sezdiradi. Analitik psixologizm ruhiy jarayonni izohlashga, assotsiativ psixologizm esa ong va xotira oqimini badiylashtirishga asoslanadi. Badiiy psixologizmning ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish zamonaviy o'zbek adabiyotshunosligi uchun muhim ahamiyatga ega. Chunki hozirgi nasrda insonning ichki dunyosi, ruhiy yolg'izlik, ma'naviy izlanish, jamiyat bilan ziddiyat va o'zlikni anglash jarayonlari tobora chuqurroq tasvirlanmoqda. Shunday ekan, badiiy psixologizmni alohida poetik kategoriya sifatida o'rganish nafaqat muayyan asar tahlili, balki milliy adabiyot taraqqiyotining nazariy mezonlarini aniqlash uchun ham muhimdir.

Xulosa. Umuman olganda, badiiy psixologizmning nazariy asoslarini o'rganish adabiy matnni chuqurroq talqin qilish imkonini beradi. Chunki har qanday badiiy asarda qahramon ruhiyati obrazlar tizimi, syujet rivoji, konflikt, muallif pozitsiyasi va badiiy til bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Psixologizmning kuchli yoki sustligi asarning estetik ta'sir darajasini belgilaydi. Qahramon ruhiyati qanchalik asosli, tabiiy va ishonarli tasvirlansa, badiiy asarning o'quvchiga ta'siri shunchalik kuchli bo'ladi. Badiiy psixologizmni tahlil qilishda faqat "qahramon nimani his qildi?" degan savol bilan cheklanmaslik lozim. Aksincha, "bu ruhiy holat qanday vositalar orqali ifodalandi?", "muallif qaysi detal yoki nutq shakli bilan kechinmani ochdi?", "qahramonning ichki dunyosi asar g'oyasiga qanday xizmat qildi?" kabi savollar asosida yondashish zarur. Ana shundagina badiiy psixologizm adabiy matnning muhim poetik kategoriyasi sifatida to'liq ochiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Aristotel. *Poetika*. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980.
2. Белинский В. *Избранные эстетические работы*. – Москва: Искусство, 1986.
3. Бахтин М. *Проблемы поэтики Достоевского*. – Москва: Советский писатель, 1972.
4. Выготский Л. *Психология искусства*. – Москва: Искусство, 1986.
5. Лотман Ю. *Структура художественного текста*. – Москва: Искусство, 1970.
6. Гинзбург Л. *О психологической прозе*. – Ленинград: Советский писатель, 1977.
7. Хализев В. *Теория литературы*. – Москва: Высшая школа, 2002.
8. Quronov D. *Adabiyotshunoslikka kirish*. – Toshkent: Akademnashr, 2018.
9. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. *Adabiyotshunoslik lug'ati*. – Toshkent: Akademnashr, 2013.

10. *Yo'ldoshev Q. Badiiy tahlil asoslari.* – Toshkent: Kamalak, 2016.
11. *Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik.* – Toshkent: Sharq, 2007.
12. *Karimov N. XX asr o'zbek adabiyoti taraqqiyoti masalalari.* – Toshkent: Fan, 2012.
13. *Normatov U. Ijod sehri.* – Toshkent: Sharq, 2007.
14. *Rahimjonov N. Mustaqillik davri o'zbek nasri.* – Toshkent: Fan, 2010.
15. *Hamdam U. Badiiy tafakkur tadriji.* – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2002.
16. *Boboxonov M. Hozirgi o'zbek romanlari strukturasida psixologizm muammosi. Dissertatsiya,* SamDU, 2023.
17. *Qo'chqorova M. Badiiy so'z va ruhiyat manzaralari.* – Toshkent: Muharrir, 2011.
18. *Kenjayeva P. Hozirgi o'zbek hikoyalarida qahramon ruhiyatini tasvirlash tamoyillari. Dissertatsiya.* – Toshkent, 2008.
19. *Tulabayeva R. Xudoyberdi To'xtaboyev romanlarida badiiy psixologizm. Dissertatsiya.* – Toshkent, 2019.

FRAZEOLGIK BIRLIKLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Djabbarova Shoirra Baltayevna,

Termiz davlat universiteti katta o‘qituvchisi, PhD

shoirajabbarova75@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada frazeologiya birliklarining lingvokulturologik xususiyatlari, ularning milliy mentaliteti va madaniy qarashlarini aks ettirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Maqolada frazeologik birliklarning shakllanishi, semantik tarkibi hamda ularning madaniy konnotatsiyalari tahlil qilinib, ularning turli xalqlar tili va madaniyatida qanday ifodalanishi lingvokulturologik nuqtai nazardan solishtiriladi. Shuningdek, frazeologik birliklarning xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlar, qadriyatlar va dunyoqarashi bilan uzviy bog‘liqligi ochib beriladi. Tadqiqotda frazeologizmlarning milliy o‘ziga xoslikni ifodalashdagi ahamiyati hamda ularning madaniy axborotni yetkazish vositasi sifatidagi funksiyalari yoritiladi. Maqolada turli tillardagi frazeologik birliklarning o‘xshash va farqli jihatlari qiyosiy tahlil qilinib, ularning tarjima jarayonidagi lingvomadaniy muammolari ham ko‘rib chiqiladi. Olingan natijalar frazeologik birliklarni o‘rganishda lingvokulturologik yondashuvning muhim ilmiy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: frazeologik birliklar, semantika, frazemalar, lingvistik tahlil, pragmatika, sintagma.

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ

Аннотация. В данной статье анализируются лингвокультурологические особенности фразеологических единиц, а также их роль в отражении национального менталитета и культурных взглядов. В статье рассматриваются формирование фразеологических единиц, их семантическая структура и культурные коннотации, а также с лингвокультурологической точки зрения сопоставляется их выражение в языках и культурах различных народов. Кроме того, раскрывается тесная связь фразеологических единиц с историческим опытом народа, его обычаями, ценностями и мировоззрением. В исследовании освещается значение фразеологизмов в выражении национальной самобытности, а также их функции как средства передачи культурной информации. В статье проводится сравнительный анализ сходных и отличительных особенностей фразеологических единиц различных языков, а также рассматриваются лингвокультурные проблемы, возникающие в процессе их перевода. Полученные результаты показывают важное научное значение лингвокультурологического подхода в изучении фразеологических единиц.

Ключевые слова: фразеологические единицы, семантика, фраземы, лингвистический анализ, прагматика, синтагма.

LINGUOCULTURAL FEATURES OF PHRASEOLOGICAL UNITS

Abstract. This article analyzes the linguocultural features of phraseological units and their role in reflecting national mentality and cultural views. The article examines the formation of phraseological units, their semantic structure, and cultural connotations, and compares how they are expressed in the languages and cultures of different nations from a linguocultural perspective. In addition, the close relationship of phraseological units with the historical experience, traditions, values, and worldview of a nation is revealed. The study highlights the importance of phraseological units in expressing national identity and their functions as a means of transmitting cultural information. The article provides a comparative analysis of the similarities and differences of phraseological units in various languages and examines linguocultural problems arising in the process of their translation. The results obtained demonstrate the significant scientific importance of the linguocultural approach in the study of phraseological units.

Keywords: phraseological units, semantics, phrases, linguistic analysis, pragmatics, syntagma.

Kirish. Til jamiyatning tarixiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishini aks ettiruvchi muhim vositadir. Har bir xalqning dunyoqarashi, fikrlash tarzi, milliy qadriyatlari va hayot tajribasi uning lingvistik birliklarida, ayniqsa, frazeologik birliklarda aks etadi. Frazeologik birliklar nafaqat tilning majoziy va ifodali vositasi sifatida, balki xalqning ma'naviy va madaniy merosini saqlovchi lingvistik birliklar sifatida ham katta ahamiyatga ega. Shuning uchun frazeologik birliklarni lingvistik nuqtayi nazardan o‘rganish zamonaviy tilshunoslikda eng dolzarb tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Lingvistika – bu til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatni o‘rganadigan fanlararo soha bo‘lib, unda xalqning milliy tafakkuri, urf-odatlar, an‘analari va qadriyatlar lingvistik birliklar orqali tahlil qilinadi.

Frazeologik birliklarning mazmuni ma'lum bir xalqning tarixiy tajribasi, ijtimoiy hayoti va madaniy qarashlarini aks ettirganligi sababli ularni o'rganish bizga milliy mentalitetning o'ziga xos jihatlarini aniqlash imkonini beradi. Xususan, turli tillardagi frazeologik birliklarning qiyosiy tahlili xalqlarning umumiy va o'ziga xos madaniy xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Zamonaviy globallashtirish jarayonida turli xalqlar o'rtasidagi madaniy va lingvistik aloqalarning kengayishi frazeologik birliklarni chuqur o'rganish zaruratini yanada oshiradi. Buning sababi frazeologik birliklarni tarjima qilishda nafaqat lingvistik xususiyatlarni, balki ularning asosidagi milliy va madaniy mazmunni ham hisobga olish kerak. Shu nuqtayi nazardan, frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlarini o'rganish tarjima nazariyasi, qiyosiy tilshunoslik va madaniyatlararo muloqot uchun katta ahamiyatga ega.

Ushbu maqolada frazeologik birliklarning shakllanish omillari, semantik tuzilishi, madaniy konnotatsiyalari va ularning lingvomadaniy yondashuv asosida milliy o'ziga xoslikni ifodalashdagi roli tahlil qilinadi. Tadqiqotda turli tillardagi frazeologik birliklarning o'xshashliklari va farqlari, ularning milliy madaniyat bilan bog'liq xususiyatlari va madaniy ma'lumotlarni yetkazishdagi funksiyalari ochib beriladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Frazeologik birliklar tilning eng jozibali va murakkab qismlaridan biri hisoblanadi. Ular nafaqat tilning strukturaviy va semantik xususiyatlarini, balki til sohiblarining madaniyati, tarixi va dunyoqarashini ham o'zida mujassam etadi. Shu sababli, frazeologik birliklarni lingvokulturologik nuqtayi nazardan o'rganish, tilshunoslikda muhim bir yo'nalish hisoblanadi. Ushbu maqolada frazeologik birliklarning lingvokulturologik jihatlarini va ularning turli tillardagi o'rganilish usullarini chuqurroq tahlil qilishga qaratilgan. Frazeologik birliklar, o'z mohiyatiga ko'ra, biror millatning madaniy merosi va an'analari bilan chambarchas bog'liq. Ular orqali biz til egallarining turmush tarzi, qadriyatlarini, e'tiqodlari va tabiatga munosabati haqida ma'lumot olishimiz mumkin. Har bir frazeologik birlik, o'z ichiga olgan madaniy ma'lumotlar yordamida tilni o'rganuvchilarga madaniyatlararo muloqotda ko'priklar qurish imkoniyatini beradi.

Frazeologiya nazariyasining birinchi tadqiqotchisi, shubhasiz, shveysar-fransuz tilshunosi Sharl Balli hisoblanadi. U o'zining "Stilistika ocherki" va "Fransuz stilistikasi" nomli asarlarida so'z birikmalari, ya'ni frazeologizmlarni o'rganishga bag'ishlangan boblarni kiritgan edi. U frazeologik birikmalarning tashqi va ichki xususiyatlarini ajratgan. Uning ta'limotiga ko'ra, bunday birikmalarning struktural xususiyatlari tashqi belgilar, semantik tabiati esa ichki belgilar sanaladi. Frazeologiya asosan frazeologik birikmalarning semantik tabiatini, ichki belgilarini o'rganish bilan shug'ullanishi lozim.[1] F.de Sossyur esa "Umumiy tilshunoslik kursi asarida sintagma va uning belgilari haqida so'z yuritar ekan, tilda tayyor birikmalar ("готовые речения") mavjudligini ta'kidlaydi, ularning uzual xarakteri ma'nosi va sintaktik xususiyatidan kelib chiqadi. Ularni improvizatsiyalash (tayyorgariksiz qo'llash) mumkin emas, chunki bunday birikmalar tayyor holda, an'anaga ko'ra qo'llanadi.[2] N. M. Shanskiy, Y. A. Bistrova va T. Aliqulovlar hamkorlikda yaratgan "Rus tilidagi 700 frazeologik ibora" lug'atida qayd etilishicha, "agar tilni frazeologik iboralar bilan "buloq suvi" ga qiyoslash mumkin bo'lsa, iboralar qatnashmagan tilni distillyatsiya qilingan suvga tenglashtirish mumkin. [3]

Muhokama va natijalar. Frazeologizmlar o'zida muayyan millat madaniyatini aks ettiradi. Tilning hech qaysi birligi frazemalarchalik milliy koloritga ega emas. O'zbek tili leksikasida mavjud frazemalarning deyarli hammasi lingvokulturologik xususiyatga ega. Masalan, "Qo'li ochiq" frazemasi saxiy ma'nosida qo'llanadigan belgi bildiruvchi frazema bo'lib, aynan tanti va mehmondo'st xalqimizning vakillariga nisbatan ishlatiladi. Yoki "Do'ppisini osmonga otmoq" iborasini olaylik, uning aytilishi va eshitilishi bizga o'zbek xalqini va uning samimiy, sodda, tanti vakilining xushchaqchoq qiyofasini gavdalantiradi. "Qo'y og'zidan cho'p olmagan" – nihoyatda beozor, mo'min iborasi fe'l-atvor bildiruvchi frazema bo'lib, yuvosh, xushfe'l insonlarga nisbatan ishlatiladi. «Ha, shunaqangi dog'uli edi u, yiqiladigan joyiga oldindan ko'rpa to'shab qo'yar, ishigayam, so'zigayam hamisha birovlarini qalqon qilardi, o'zi qo'y og'zidan cho'p olmagan, buzoqning haqi bor deb sigirning sutini ichmaydigan faqir». Bu frazemaning lingvokulturologik ahamiyati katta. Bunda shaklan ham, mazmunan ham xalqimiz madaniyati va ma'naviyatiga xos belgilar mavjud. Xalqimiz hayotida chorvadorlik ishining muhim o'rni bor. Iborada yuvosh jonivor bo'lmish qo'y obrazi keltirilganligi ham shu omilga bog'liq.

Frazeologik birliklarni o'rganish jarayonida lingvokulturologik yondashuvning ahamiyati katta. Ushbu yondashuv frazeologik birliklarning semantik va pragmatik xususiyatlarini, ularning madaniy va ijtimoiy kontekstini o'rganishni o'z ichiga oladi. Bu jarayonda frazeologik birliklarning kelib chiqishi, ularning qo'llanilish tarixi va zamonaviy nutqdagi o'rni tahlil qilinadi. Frazeologik birliklarni lingvokulturologik jihatdan o'rganish bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi. Birinchi bosqichda frazeologik birliklarning kelib chiqishi va ularning dastlabki ma'nolari aniqlanadi. Bu jarayonda tarixiy va etimologik tahlil usullari qo'llaniladi. Ikkinchi bosqichda frazeologik birliklarning semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Bu bosqichda

frazemalarning asosiy va qo'shimcha ma'nolari aniqlanadi. Uchinchi bosqichda esa frazeologik birliklarning madaniy va ijtimoiy kontekstdagi o'rni o'rganiladi. Bu jarayonda frazemalarning qo'llanilish sohasi, ularning stilistik va pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi[1].

Frazeologik birliklar xalqning milliy madaniyati, urf-odatlarini va dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim til birliklari hisoblanadi. Ayniqsa, rang komponentli frazeologizmlar tilning lingvokulturologik xususiyatlarini yorqin namoyon etadi. Ranglar inson tafakkurida ramziy ma'no kasb etib, turli xalqlarda o'ziga xos madaniy va emotsional assotsiatsiyalarni yuzaga keltiradi. Shu sababli o'zbek va ingliz tillaridagi rangga oid frazeologik birliklarni qiyosiy tahlil qilish ikki xalqning mentaliteti va madaniy qarashlarini ochib berishda muhim ahamiyatga ega.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilida oq rang poklik, ezgulik va yaxshilik timsoli sifatida talqin qilinadi. Masalan, "oq ko'ngil" frazeologik birligi samimiy va beg'ubor insonni ifodalaydi. Ingliz tilida ham oq rang ijobiy ma'noda qo'llanilib, "white lie" iborasi "beg'araz yolg'on" ma'nosini anglatadi. Biroq ushbu frazeologizmida yolg'on salbiy tushuncha bo'lsa-da, oq rang orqali uning zararsiz yoki yaxshilik maqsadida aytilgani ifodalanadi. Demak, har ikki tilda oq rang poklik va ijobiylik bilan bog'langan bo'lsa-da, ularning qo'llanilish konteksti turlicha namoyon bo'ladi. "Qora" rang bilan bog'liq frazeologik birliklarda esa ko'proq salbiy ma'no kuzatiladi. O'zbek tilidagi "qora kun" iborasi og'ir va musibatli davrni anglatadi, ingliz tilidagi "black day" frazeologizmi ham aynan fojeali yoki omadsiz kun ma'nosida ishlatiladi. Bu o'xshashlik inson tafakkurida qora rangning umumiy ravishda qayg'u va salbiy holatlar bilan bog'lanishini ko'rsatadi. Shuningdek, ingliz tilidagi "black sheep" iborasi oiladagi yoki jamiyatdagi boshqalardan farq qiluvchi, ko'pincha salbiy baholanadigan insonni ifodalaydi. O'zbek tilida bunga yaqin ma'noda "oilaning yuzi qora bo'ldi" kabi iboralar uchraydi. Ushbu misollar ranglar orqali ijtimoiy baholash va axloqiy munosabatlarning ifodalanishini ko'rsatadi. "Qizil" rang bilan bog'liq frazeologizmlar ham lingvokulturologik jihatdan qiziqarli hisoblanadi. O'zbek tilida "qizil yuz bo'lmoq" iborasi uyalish yoki hijolatni bildiradi. Ingliz tilida esa "to see red" frazeologizmi kuchli g'azablanish ma'nosida qo'llaniladi. Demak, bir xil rang turli xalqlarda turlicha emotsional holatlarni ifodalashi mumkin. Bu esa rang semantikasining milliy madaniyat bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi[2].

"Yashil" rang ingliz tilida ko'pincha tabiat, yoshlik va tajribasizlik ramzi sifatida qo'llaniladi. Masalan, "greenhorn" iborasi tajribasiz odamni bildiradi. O'zbek tilida esa yashil rang ko'proq yoshlik va yangilanish ma'nosini anglatadi. "Yashil chiroq yoqmoq" iborasi biror ishga ruxsat bermoq ma'nosida ishlatiladi. Ingliz tilidagi "green light" frazeologizmi ham aynan shu ma'noni bildiradi. Bu esa ayrim rang ramzlari xalqlararo umumiylikka ega ekanligini ko'rsatadi. "Ko'k" rang bilan bog'liq frazeologik birliklarda ham madaniy tafovutlar kuzatiladi. Ingliz tilidagi "feel blue" iborasi tushkunlikka tushmoq ma'nosini bildiradi. O'zbek tilida esa ko'k rang ko'proq osmon, tinchlik va ulug'lik bilan bog'lanadi. Masalan, "ko'kga ko'tarmoq" iborasi haddan tashqari maqtash ma'nosida qo'llaniladi. Demak, ingliz tilida ko'k rang salbiy emotsional holatni anglatadi, o'zbek tilida u ko'proq ulug'lik va yuksaklik ramzi sifatida talqin qilinadi.

Umuman olganda, rang komponentli frazeologik birliklar xalqning tarixiy tajribasi, madaniy qadriyatlarini va dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim lingvistik vosita hisoblanadi. O'zbek va ingliz tillaridagi rangga oid frazeologizmlar qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, ayrim ranglar universal ramziy ma'noga ega bo'lsa, ba'zilar milliy-madaniy xususiyatlar asosida turlicha talqin qilinadi. Shu jihatdan, rangga oid frazeologik birliklarni lingvokulturologik jihatdan o'rganish til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni chuqurroq anglash imkonini beradi. Yuqorida keltirilgan fikrlar frazeologik birliklarning lingvokulturologik jihatlari va ularning o'rganilishi bo'yicha asosiy yo'nalishlarni ochib beradi. Bu yo'nalishlar tilshunoslikda frazeologik birliklarni o'rganishning nazariy va amaliy asoslarini shakllantiradi va tilning boyligi va rang-barangligini yanada chuqurroq tushunishga xizmat qiladi[3].

Ko'k rang komponentli frazeologik birliklar:

Ingliz tilida: *Blue blood*: Aristokratik yoki zodagonlikni anglatadi. Masalan, «*She comes from a family of blue blood.*»

Once in a blue moon: Juda kamdan-kam hollarda. Masalan, «*He visits his family once in a blue moon.*»

O'zbek tilida:

Ko'k ko'z: Beg'uborlik yoki aybsizlikni anglatadi. Masalan, «*Uning ko'k ko'zlarida halollik zohir edi.*»

Ko'k chiroq: Umidsizlik yoki intizorlik holati. Masalan, «*Yigitning ko'k chiroqdek intizor kutishi juda ta'sirli edi.*»

Frazeologik birliklarning lingvokulturologik tahlili ularning madaniy va ijtimoiy kontekstdagi rolini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Rang komponentli frazeologik birliklar nafaqat semantik, balki madaniy ma'nolarni ham ifodalaydi. Masalan, ingliz tilidagi «*blue blood*» iborasi aristokratiya va zodagonlikni

ifodalasa, o'zbek tilidagi «*ko'k ko'z*» iborasi beg'uborlik va aybsizlikni ifodalaydi. Bu misollar orqali rang komponentli frazeologik birliklarning turli tillardagi madaniy xususiyatlarini ko'rish mumkin. Frazeologik birliklarning qo'llanishi va ularning madaniy kontekstdagi o'rni til sohiblarining dunyoqarashini va ijtimoiy hayotini aks ettiradi. Masalan, «*yashil yo'l*» iborasi o'zbek tilida oson va muammosiz yo'lni ifodalasa, ingliz tilida «*give the green light*» iborasi ruxsat berish yoki biror narsani boshlashni anglatadi. Bu iboralar orqali turli tillarning madaniy kontekstlarini va ularning til sohiblari uchun qanday ahamiyatga ega ekanligini tushunish mumkin.

Frazeologik birliklarning lingvokulturologik tahlili orqali tilning boyligi va rang-barangligini yanada chuqurroq tushunish mumkin. Bu jarayon tilshunoslar uchun tilni o'rganishda va uni boshqa tillar bilan solishtirishda muhim ahamiyatga ega. Frazeologik birliklarning lingvokulturologik tahlili orqali tilning boyligi va rang-barangligini yanada chuqurroq tushunish mumkin. Bu jarayon tilshunoslar va til o'rganuvchilar uchun tilni o'rganishda va uni boshqa tillar bilan solishtirishda muhim ahamiyatga ega. Ingliz va o'zbek tillaridagi rang komponentli frazeologik birliklarni qiyosiy tahlil qilish orqali ikki xalqning madaniy va lingvistik xususiyatlarini chuqurroq tushunish mumkin. Bu tahlil orqali frazeologik birliklarning turli tillardagi qo'llanilishi, ma'nosi va tasviriy xususiyatlari aniqlanadi[4].

Red tape: Ortib ketgan byurokratiya yoki ortiqcha rasmiyatchilik. Masalan, «*The project was delayed because of all the red tape.*»

Frazeologik birliklarning madaniy kontekstda o'rganilishi orqali tilning chuqurroq tahlili amalga oshiriladi. Har bir frazeologik birlikning kelib chiqishi, tarixi va madaniy kontekstdagi o'rni o'rganiladi. Bu jarayon tilshunoslar uchun juda muhim, chunki frazeologik birliklar xalqning madaniy merosi va an'alarini aks ettiradi. Frazeologik birliklarning madaniy kontekstda o'rganilishi bir necha bosqichni o'z ichiga oladi. Birinchi bosqichda frazeologik birliklarning kelib chiqishi va ularning dastlabki ma'nolari aniqlanadi.

Ingliz va o'zbek tillarida rang komponentli frazeologik birliklarning lingvokulturologik tahlili bizga ikki xalqning madaniyati, tarixi va turmush tarzini yaxshiroq tushunishga imkon berdi. Ushbu tadqiqot jarayonida rang komponentlari yordamida ifodalangan frazeologik birliklarning semantik, pragmatik va madaniy jihatlari aniqlandi. Rang komponentli frazeologik birliklar ikki tilda ham o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, har bir tilning o'ziga xos madaniy kodlarini aks ettiradi. Ingliz tilidagi «*red-handed*» yoki «*green thumb*» kabi iboralar o'ziga xos madaniy va ijtimoiy ma'nolarni ifodalagan bo'lsa, o'zbek tilidagi «*qizil chiroq*» yoki «*yashil yo'l*» iboralari xalqimizning turmush tarzini va an'alarini aks ettiradi. Frazeologik birliklarning qiyosiy tahlili orqali biz rang komponentlarining turli tillarda qanday ma'nolarni ifodalashini va ularning madaniy kontekstda qanday qo'llanilishini ko'rdik.[4]

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, har bir frazeologik birlik xalqning turmush tarzi, urf-odatlarini va qadriyatlarini ifodalaydi. Bu iboralar orqali biz xalqning hayoti va dunyoqarashini yaxshiroq tushunamiz. Frazeologik birliklarni o'rganish orqali tilning boyligi va rang-barangligini chuqurroq tushunish, til o'rganuvchilar uchun yangi imkoniyatlarni ochish mumkin. Shuningdek, bu tahlil lingvokulturologiya faniga yangi yondashuvlar olib kiradi va tilni o'rganishning nazariy va amaliy asoslarini boyitadi. Umuman olganda, ingliz va o'zbek tillarida rang komponentli frazeologik birliklarning tahlili xalqning madaniyati va tilini chuqurroq tushunish uchun muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu tahlil tilshunoslar va til o'rganuvchilar uchun tilning murakkab va boy tuzilishini ochib beradi, madaniyatlararo aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Balli Sh. *Stilistika ocherki.* – Moskva: Progress, 1961.
2. Sossyur F. de. *Umumiy tilshunoslik kursi.* – Toshkent: Fan, 1977.
3. Shanskiy N. M., Bistrova, Ye. A., Aliqulov, T. *Rus tilidagi 700 frazeologik ibora.* – Moskva: Rus tili, 1985.
4. Fayzullaevna T. M. *Comparative analysis of phraseological units of the concept» love» in the english and uzbek languages //Berlin studies transnational journal of science and humanities.* – 2022. – T. 2. – №. 1.6 *Philological sciences.*
5. Вережагин Е.М., Костомаров В.М. *Лингвострановедческая теория слова.* – М.: Русский язык, 1980. – 320 с.
6. Зиновьева Е.Н., Юрков Е.Е. *Лингвокультурология. Учебник, “Осинов”, 2006.*
7. Махмараимова Ш.Т. *Лингвокультурология.* Т., 2017.
8. Usmanova Sh. *Lingvokulturologiya.* – Toshkent, 2019. – 245 p.

SUD LINGVISTIK EKSPERTIZASIDA TAHDID VA TAJOVUZKOR NUTQIY AKTLAR KONTEKSTIDA IMPLITSIT MA'LUMOTNI ANIQLASH MEKANIZMLARI

Kurbanov Elbek Elmurodovich,
Andijon davlat chet tillari instituti professori,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
kurbanov_elbek@yahoo.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada sud lingvistik ekspertizasida tahdid va tajovuzkor nutqiy aktlar tarkibida yashirin shaklda ifodalanuvchi axborotni aniqlash masalalari tadqiq etiladi. Tadqiqotda tahdid mazmunining lingvistik tabiati nutqiy aktlar nazariyasi, pragmatik tahlil va kommunikativ strategiyalar asosida yoritiladi. Tahdidli bayonotlarda zarar yetkazish niyati ko'pincha to'g'ridan-to'g'ri ifodalanmasdan, modal birliklar, shartli konstruksiyalar, ogohlantiruvchi shakllar hamda bilvosita ishoralar orqali namoyon bo'lishi aniqlanadi. Shu sababli sud lingvistik ekspertizasida bunday matnlarni baholashda faqat leksik tajovuzkorlik belgilariga emas, balki bayonotning kommunikativ kuchi, adresatga yo'naltirilganligi va kelajakdagi harakatni bildiruvchi pragmatik komponentlariga e'tibor qaratish zarur. Tadqiqot natijalari tahdidli nutqiy aktlarni aniqlashda lingvopragmatik mezonlardan foydalanish ekspert xulosalarining ilmiy asoslanganligini oshirishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: sud lingvistik ekspertizasi, tahdid, nutqiy akt, pragmatik kuch, implitsit ma'lumot, kommunikativ strategiya, modal vositalar, tajovuzkor diskurs, ekspert tahlili.

МЕХАНИЗМЫ ВЫЯВЛЕНИЯ ИМПЛИЦИТНОЙ ИНФОРМАЦИИ В КОНТЕКСТЕ УГРОЖАЮЩИХ И АГРЕССИВНЫХ РЕЧЕВЫХ АКТОВ В СУДЕБНО-ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЕ

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы выявления информации, выраженной в скрытой форме, в составе угрожающих и агрессивных речевых актов при проведении судебно-лингвистической экспертизы. Исследуется лингвистическая природа содержания угроз с опорой на теорию речевых актов, прагматический анализ и коммуникативные стратегии. Установлено, что намерение причинить вред в угрожающих высказываниях зачастую не выражается прямо, а проявляется через модальные единицы, условные конструкции, формы предупреждения и косвенные намёки. В связи с этим при анализе подобных текстов в рамках судебно-лингвистической экспертизы необходимо уделять внимание не только маркерам лексической агрессии, но и коммуникативной силе высказывания, его направленности на адресата, а также прагматическим компонентам, указывающим на совершение действий в будущем. Результаты исследования демонстрируют, что использование лингвопрагматических критериев при идентификации угрожающих речевых актов повышает научную обоснованность экспертных заключений.

Ключевые слова: судебно-лингвистическая экспертиза, угроза, речевой акт, прагматическая сила, имплицитная информация, коммуникативная стратегия, модальные средства, агрессивный дискурс, экспертный анализ.

MECHANISMS FOR IDENTIFYING IMPLICIT INFORMATION IN THE CONTEXT OF THREATENING AND AGGRESSIVE SPEECH ACTS IN FORENSIC LINGUISTIC EXPERTISE

Abstract. This article examines issues related to identifying information expressed in a covert manner within threatening and aggressive speech acts during forensic linguistic analysis. The study elucidates the linguistic nature of the content of threats based on speech act theory, pragmatic analysis, and communicative strategies. It is established that the intent to cause harm in threatening statements is often not expressed directly but manifests through modal units, conditional constructions, warning forms, and indirect allusions. Therefore, when evaluating such texts in forensic linguistic analysis, it is essential to focus not only on markers of lexical aggression but also on the communicative force of the statement, its orientation toward the addressee, and pragmatic components indicating future action. The research findings demonstrate that employing linguopragmatic criteria in identifying threatening speech acts enhances the scientific validity of expert conclusions.

Key words: *forensic linguistic analysis, threat, speech act, pragmatic force, implicit information, communicative strategy, modal devices, aggressive discourse, expert analysis.*

Kirish. Insonlararo kommunikatsiyada tahdid mazmuni har doim ham ochiq buyruq yoki aniq zarar yetkazish va'dasi shaklida ifodalanmaydi. Ko'pincha bunday mazmun bilvosita shaklda berilib, adresat tomonidan vaziyat, nutqiy maqsad va kommunikativ sharoit asosida anglashiladi. Shu sababli sud lingvistik ekspertizasida tahdidli bayonotlarni aniqlash oddiy leksik tahlil bilan chegaralanmaydi, balki nutqning pragmatik kuchini aniqlashni talab qiladi [1; 4].

Tahdidning lingvistik xususiyati shundan iboratki, unda asosiy ma'no mavjud harakat haqida axborot berish emas, balki adresatga muayyan ta'sir ko'rsatish, uni qo'rqitish yoki ma'lum harakatga majbur qilishdan iborat bo'ladi. Bunda bayonotning tashqi shakli bilan uning kommunikativ vazifasi o'rtasida farq yuzaga kelishi mumkin. Masalan: "*Keyingi safar bunday holat boshqacha yakunlanadi.*" Mazkur jumlada bevosita zarar yetkazish harakati ko'rsatilmagan. Biroq "boshqacha yakunlanadi" konstruksiyasi kelajakdagi salbiy oqibat ehtimolini anglatib, adresat ongida tahdid sifatida qabul qilinishi mumkin.

Sud lingvistik ekspertizasida bunday holatlarda quyidagi savollar muhim hisoblanadi: bayonotda tahdid ma'nosi mavjudmi; tahdid ochiq yoki yashirin shaklda ifodalanganmi; nutq kimga yo'naltirilgan; adresatda qo'rquv yoki bosim hissini shakllantirish maqsadi mavjudmi.

Tahdidli nutqiy aktlarning o'ziga xosligi shundaki, ular nafaqat mazmun, balki kommunikativ harakat sifatida ham baholanadi. Ya'ni ekspert uchun muhim jihat "nima aytilgani" bilan birga "ushbu gap orqali nima bajarilgani" masalasidir. Mazkur tadqiqotning maqsadi sud lingvistik ekspertizasida tahdid va tajovuzkor nutqiy aktlar tarkibida mavjud bo'lgan implitsit ma'lumotlarni aniqlash mexanizmlarini lingvopragmatik mezonlar asosida yoritishdan iborat.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Tahdid va tajovuzkor nutqiy aktlarning lingvistik tabiati pragmalingvistika, nutqiy aktlar nazariyasi, diskurs tahlili hamda sud lingvistik ekspertisasi doirasida turli ilmiy yondashuvlar asosida o'rganilgan. Mazkur masalaning nazariy asoslari, avvalo, J. Austin va J. Searle tomonidan ishlab chiqilgan nutqiy aktlar nazariyasi bilan bog'liq. J. Austin nutqni nafaqat ma'lumot uzatish vositasi, balki muayyan harakatni amalga oshiruvchi kommunikativ hodisa sifatida talqin qilib, lokutiv, illokutiv va perlokutiv aktlarni farqlaydi [1]. J. Searle esa nutqiy aktlarning kommunikativ maqsadi, adresant niyati va kontekst bilan aloqasini tizimli ravishda tavsiflaydi [2]. Mazkur nazariy qarashlar tahdidni faqat leksik-semantik mazmun orqali emas, balki adresatga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan illokutiv harakat sifatida baholash imkonini beradi.

Implitsit ma'noning yuzaga kelish mexanizmlarini izohlashda H.P. Gricening kommunikativ implikatura nazariyasi hamda S.C. Levinsonning pragmatik yondashuvi alohida ahamiyat kasb etadi [3; 4]. Ushbu yondashuvlarga ko'ra, bayonotning real kommunikativ mazmuni uning bevosita semantik tarkibidan kengroq bo'lishi mumkin. Adresat aytilmagan ma'noni kommunikativ vaziyat, fon bilimlari, ishtirokchilar o'rtasidagi munosabat va nutqiy maqsad asosida tiklaydi. Bu holat, ayniqsa, tahdidning bilvosita shakllarida muhim bo'lib, "oqibati yaxshi bo'lmaydi", "hali ko'rasiz" yoki "bu haqda yana gaplashamiz" kabi konstruksiyalarning tahdid sifatidagi pragmatik qiymati kontekst yordamida aniqlanadi.

Sud lingvistik ekspertisasi doirasida M. Coulthard va A. Johnson, J. Olsson hamda R.W. Shuy tadqiqotlarida til birliklarining huquqiy nizolardagi funksiyasi, nutqiy niyatni aniqlash va konflikfli kommunikatsiyani lingvistik tahlil qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan [5; 6; 7]. Mazkur tadqiqotlar ekspert tahlilida alohida so'z yoki grammatik konstruksiyani kontekstdan ajratgan holda baholash yetarli emasligini ko'rsatadi. Nutqiy birlikning ekspertlik ahamiyati uning kim tomonidan, kimga, qanday vaziyatda va qanday kommunikativ maqsadda qo'llanganligi bilan belgilanadi.

A.N. Baranov hamda E.I. Galyashina ishlarida sud lingvistik ekspertizasining nazariy va metodologik masalalari, matnda ifodalangan baholash, kommunikativ niyat hamda yashirin mazmunni aniqlash tamoyillari yoritilgan [8; 9]. Ushbu yondashuvlar tahdid va tajovuzkor nutqiy aktlarni baholashda semantik, pragmatik va kontekstual ko'rsatkichlarni kompleks tarzda hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. T.A. van Dijk va N. Faircloughning diskurs hamda hokimiyat munosabatlarga doir qarashlari esa tajovuzkor kommunikatsiyada tilning bosim, nazorat va adresat xatti-harakatiga ta'sir ko'rsatish vositasi sifatidagi funksiyasini tushuntirish imkonini beradi [10; 11; 12].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tahdid fenomenining nutqiy akt sifatidagi xususiyatlari va sud lingvistik ekspertizasining umumiy metodologik tamoyillari yetarlicha o'rganilgan bo'lsa-da, tahdid va tajovuzkor nutqda implitsit ma'lumotni aniqlash mexanizmlarini modal vositalar, shartli konstruksiyalar, bilvosita ogohlantirish, ishora, kommunikativ bosim va kontekst mezonlari asosida yagona ekspertlik modeli doirasida tizimlashtirish masalasi alohida tadqiqotni talab qiladi. Mazkur tadqiqot aynan shu jihatni yoritishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot sifat tahliliga asoslangan lingvopragmatik yondashuv doirasida amalga oshirildi. Tadqiqotning asosiy obyekti tahdid va tajovuzkor nutqiy aktlarda ochiq ifodalanmagan, biroq kommunikativ vaziyat hamda lingvistik vositalar orqali anglashiladigan implitsit ma'lumot hisoblanadi. Tadqiqot predmeti sifatida esa tahdid mazmunini yuzaga keltiruvchi modal birliklar, kelajak referensiyasi, shartli konstruksiyalar, bilvosita ogohlantirishlar, ishoraviy ifodalar hamda ularning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari olindi.

Tahlil jarayonida nutqiy aktlar tahlili, lingvopragmatik tahlil, kontekstual tahlil, semantik interpretatsiya va diskursiv tahlil usullaridan foydalanildi. Nutqiy aktlar tahlili yordamida bayonotlarning lokutiv mazmuni, illokutiv maqsadi va ehtimoliy perlokutiv ta'siri o'rtasidagi munosabat aniqlandi. Lingvopragmatik tahlilda bayonotning tashqi grammatik shakli bilan uning kommunikativ vazifasi o'rtasidagi nisbat o'rganildi. Kontekstual tahlil orqali esa ifodaning tahdid sifatida talqin qilinishiga ta'sir qiluvchi kommunikativ vaziyat, adresant va adresat munosabati hamda oldingi muloqot omillari hisobga olindi.

Tadqiqotda tahdid mazmunini aniqlash uch asosiy analitik darajada amalga oshirildi. Birinchi bosqichda tahdidga ishora qiluvchi lingvistik markerlar — modal birliklar, kelajak vaqt shakllari, shart konstruksiyalari va ogohlantiruvchi ifodalar aniqlandi. Ikkinchi bosqichda ushbu birliklarning pragmatik qiymati, ya'ni ularning oddiy axborot, maslahat, ogohlantirish yoki tahdid vazifasida qo'llanish imkoniyati baholandi. Uchinchi bosqichda bayonotning kommunikativ maqsadi va adresatga yo'naltirilgan ta'siri tahlil qilindi.

Tahlil natijalarini tizimlashtirishda yo'naltirilganlik, kelajakdagi salbiy oqibat, kommunikativ bosim, tajovuzkor niyat va kontekst mezonlari asos qilib olindi. Mazkur metodologik yondashuv tahdid mazmunini alohida so'z yoki grammatik konstruksiya asosida emas, balki lingvistik shakl – pragmatik ma'no – kommunikativ maqsad – adresatga ta'sir munosabati doirasida kompleks baholash imkonini beradi.

Olingan natijalar va ularning tahlili.

Tahdidli bayonotlarda implitsit ma'lumotni yuzaga keltiruvchi mexanizmlar

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tahdid mazmuni ko'pincha bevosita “zarar yetkazaman”, “jazolayman” kabi ochiq shakllarda emas, balki turli pragmatik vositalar orqali yashirin tarzda ifodalanadi. Bunday holatlarda adresant aniq harakatni bayon qilmasdan, adresatda muayyan xavotir yoki ehtiyotkorlik hissini shakllantiruvchi kommunikativ strategiyalardan foydalanadi. Shu sababli sud lingvistik ekspertizasida tahdidni aniqlashda faqat tajovuzkor leksik birliklarni izlash emas, balki nutqning yashirin ta'sir mexanizmlarini tahlil qilish muhim hisoblanadi [1; 4].

Tahlil natijalariga ko'ra, tahdidli nutqiy aktlarda implitsit ma'lumotni shakllantiruvchi asosiy mexanizmlar quyidagi guruhlariga ajratildi:

1. Modal vositalar orqali yuzaga keladigan tahdid mazmuni. Tahdidli bayonotlarda modal birliklar adresantning kelajakdagi harakatga nisbatan ishonchi, qat'iyligi yoki muqarrarlikni ifodalash vositasi sifatida xizmat qiladi. Bunday birliklar bevosita tahdidni bildirmasa-da, vaziyatga qarab salbiy oqibatning muqarrarligi haqidagi tasavvurni shakllantirishi mumkin.

Masalan: *“Buni unutib qo'yamaysiz.”* Mazkur bayonotda aniq qanday harakat amalga oshirilishi ko'rsatilmagan. Biroq *“unutib qo'yamaysiz”* konstruksiyasi adresatga nisbatan kelajakda muayyan ta'sir yoki oqibat bo'lishi haqidagi ishorani beradi. Ushbu ifodaning tahdid sifatidagi qiymati uning lug'aviy ma'nosidan emas, balki kommunikativ vaziyatdagi pragmatik kuchidan kelib chiqadi.

Modal vositalar orqali shakllanuvchi tahdidlarni aniqlashda quyidagilar hisobga olinadi: harakatning kelajak bilan bog'langanligi; natijaning qat'iy yoki muqarrar tarzda taqdim etilishi; adresatda bosim hissini shakllantirish imkoniyati. Demak, modal konstruksiyalar tahdid mazmunini yashirin shaklda uzatuvchi pragmatik indikatorlardan biri hisoblanadi [2; 7].

2. Shartli konstruksiyalar orqali shakllanadigan yashirin tahdid. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, tahdidli nutqiy aktlarda shart mayli va shartli gaplar alohida kommunikativ imkoniyatga ega. Bunday konstruksiyalarda zarar yoki salbiy oqibat to'g'ridan-to'g'ri aytilmaydi, balki ma'lum shart bajarilmaganda yuz berishi mumkin bo'lgan natija sifatida ifodalanadi.

Masalan: *“Agar bu masala hal qilinmasa, oqibati yaxshi bo'lmaydi.”* Ushbu jumlada aniq zarar turi ko'rsatilmagan. Biroq *“oqibati yaxshi bo'lmaydi”* birikmasi salbiy natija mavjudligi haqidagi implitsit axborotni yuzaga keltiradi.

Shartli konstruksiyalar orqali tahdid quyidagi model asosida shakllanadi: *Shart bajarilmasligi → salbiy oqibat → adresatga bosim.* Bunday holatda ekspert uchun muhim jihat shundaki, tahdid mazmuni grammatik shaklda emas, balki shart va natija o'rtasidagi pragmatik munosabat orqali hosil bo'ladi.

3. Bilvosita ogohlantirish orqali shakllanadigan tahdid. Ba'zi hollarda tahdid ochiq buyruq yoki talab shaklida emas, balki ogohlantirish ko'rinishida ifodalanadi. Bunda adresant o'z kommunikativ

maqsadini yashirgan holda, adresatga ehtimoliy salbiy oqibat haqida signal beradi. Masalan: *“Siz bu qaroringiz haqida hali o‘ylab ko‘rasiz.”* Mazkur jumla tashqi shakliga ko‘ra oddiy fikr yoki maslahatga o‘xshaydi. Ammo muayyan vaziyatda u adresat qarori uchun salbiy oqibat bo‘lishi haqidagi yashirin ogohlantirish sifatida talqin qilinishi mumkin.

Bilvosita ogohlantirishlarda ekspert quyidagilarni aniqlaydi: ifodaning tashqi shakli; nazarda tutilgan kommunikativ maqsad; adresatga ta’sir ko‘rsatish mexanizmi. Shu sababli bunday birliklar tahlilida faqat grammatik shakl emas, balki kommunikativ vaziyat ham asosiy mezon hisoblanadi [3; 8].

4. Sukut va ishora orqali shakllanadigan tahdid mazmuni. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ayrim tahdidli bayonotlarda eng muhim axborot bevosita aytilmagan qismda mavjud bo‘ladi. Adresant ayrim tafsilotlarni ochib bermasdan, adresatga ma’lum vaziyat yoki oqibatni mustaqil anglash imkonini beradi. Masalan: *“Keyingi uchrashuvimiz boshqacha bo‘ladi.”* Ushbu jumla aniq harakat ko‘rsatilmagan. Biroq *“boshqacha bo‘ladi”* ifodasi oldingi vaziyat bilan taqqoslaganda salbiy o‘zgarish bo‘lishi mumkinligi haqidagi yashirin ma’noni yuzaga keltiradi.

Bunday tahdid shakllarida asosiy rol: umumiy fon bilimlariga; oldingi muloqot tarixiga; adresant va adresat o‘rtasidagi munosabatga bog‘liq bo‘ladi. Shunday qilib, sukut va ishora orqali shakllanadigan tahdidlar sud lingvistik ekspertizasida eng murakkab tahlil obyektlaridan biri hisoblanadi.

1-jadval. Tahdidli nutqiy aklarda implitsit ma’lumot shakllanish mexanizmlari

Mexanizm	Lingvistik vositalar	Yuzaga keladigan yashirin mazmun	Ekspertlik vazifasi
Modal vositalar	Kelasi zamon shakllari, qat’iy modal birliklar	Salbiy oqibatning muqarrarligi	Pragmatik kuchni aniqlash
Shartli konstruksiyalar	“Agar... bo‘lsa”, “aks holda” shakllari	Shart bajarilmasa yuz beradigan tahdid	Shart va natija munosabatini tahlil qilish
Bilvosita ogohlantirish	Maslahat yoki ogohlantirish shaklidagi ifodalar	Yashirin bosim va qo‘rqitish	Kommunikativ maqsadni aniqlash
Ishora va sukut	Noaniq, umumiy ifodalar	Aytilmagan, ammo anglashiladigan tahdid	Kontekst asosida mazmunni tiklash

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Sud lingvistik ekspertizasida tahdid mazmunini aniqlash mezonlari

Sud lingvistik ekspertizasida tahdid mazmunini aniqlash jarayoni faqat tajovuzkor yoki salbiy birliklarning mavjudligini aniqlash bilan cheklanmaydi. Chunki ayrim bayonotlar tashqi shakliga ko‘ra oddiy ogohlantirish, norozilik yoki hissiy munosabat sifatida ko‘rinsa-da, muayyan kommunikativ vaziyatda adresatga bosim o‘tkazuvchi tahdid mazmunini yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli ekspert tahlilida tahdidning lingvistik belgilarini uning pragmatik vazifasi, adresatga yo‘naltirilganligi va kommunikativ ta’siri bilan birgalikda baholash zarur [1; 5].

Tadqiqot natijalari asosida tahdid mazmunini aniqlashning quyidagi asosiy mezonlari belgilandi:

1. Yo‘naltirilganlik mezon. Tahdidli nutqiy aklarning asosiy belgilaridan biri — ularning muayyan adresatga qaratilganligidir. Bunda bayonot umumiy fikr shaklida emas, balki aniq shaxs, guruh yoki tashkilotning xatti-harakatiga ta’sir ko‘rsatishga yo‘naltiriladi. Masalan: *“Siz bu qaroringiz haqida hali javob berasiz.”* Mazkur jumla adresat bevosita ko‘rsatilgan. *“Javob berasiz”* konstruksiyasi esa oddiy axborot emas, balki kelajakdagi salbiy oqibat haqidagi ishorani yuzaga keltirishi mumkin.

Ushbu mezon asosida ekspert: nutq kimga qaratilganligini; adresatning aniq yoki bilvosita ko‘rsatilganligini; bayonotning ta’sir obyekti aniqlaydi.

2. Kelajakdagi oqibat mezon. Tahdidli bayonotlarning muhim xususiyatlaridan biri shundaki, ularda hali sodir bo‘lmagan, ammo yuz berishi mumkin bo‘lgan harakat yoki natijaga ishora mavjud bo‘ladi. Shu sababli kelajak vaqt shakllari, ehtimollik va natija bildiruvchi konstruksiyalar tahdid mazmunini aniqlashda muhim lingvistik indikator hisoblanadi.

Masalan: *“Bu ishning oqibati siz kutgandek bo‘lmaydi.”* Ushbu bayonotda aniq qanday oqibat nazarda tutilgani ko‘rsatilmagan. Biroq *“oqibati bo‘lmaydi”* konstruksiyasi orqali salbiy natija ehtimoli haqidagi implitsit axborot shakllanadi.

Ekspert bu mezon orqali: kelajak referensiyasini; salbiy natijaga ishorani, ifodaning pragmatik kuchini baholaydi.

3. Kommunikativ bosim mezon. Tahdidning asosiy vazifalaridan biri adresatning xatti-harakatiga ta’sir ko‘rsatishdan iborat. Shu sababli ayrim bayonotlarda ma’lumot berishdan ko‘ra, majburlash yoki qo‘rqitish funksiyasi ustun bo‘lishi mumkin. Masalan: *“Bu masalani hozir hal qilganingiz ma’qul.”* Mazkur jumla grammatik jihatdan maslahat shakliga ega. Ammo muayyan vaziyatda u adresatga qaror qabul qilish uchun bosim o‘tkazuvchi kommunikativ vosita sifatida namoyon bo‘lishi mumkin.

Bunday holatda ekspert: bayonotning buyruq yoki maslahat shaklida ekanligini; yashirin majburlash mavjudligini; adresatga ta'sir yo'nalishini aniqlaydi.

4. Tajovuzkor niyatni ifodalash mezon. Tahdidli nutqda tajovuzkorlik har doim ham ochiq leksik birliklar orqali berilmaydi. Ba'zan u kinoya, ishora, modal konstruksiya yoki noaniq ifodalar orqali yuzaga keladi. Shu sababli ekspert nutqiy aktning ichki maqsadini aniqlashi lozim. Masalan: “*Siz hali kim bilan gaplashayotganingizni bilib olasiz.*” Ushbu bayonotda aniq harakat ko'rsatilmagan. Biroq “bilb olasiz” konstruksiyasi adresatga nisbatan ustunlik va salbiy oqibat haqidagi ishorani ifodalashi mumkin.

Bu mezon orqali: tajovuzkor yo'nalish; adresantning pozitsiyasi; yashirin zarar ishorasi aniqlanadi.

5. Vaziyat va kontekst mezon. Tahdid mazmunini aniqlashda eng muhim omillardan biri kommunikativ vaziyat hisoblanadi. Chunki bir xil ifoda turli holatlarda turlicha pragmatik qiymatga ega bo'lishi mumkin. Masalan: “*Bu haqda yana gaplashamiz.*” Oddiy muloqotda ushbu jumla neytral bo'lishi mumkin. Biroq oldingi konflikt, bosim yoki tajovuzkor munosabat mavjud bo'lgan vaziyatda u yashirin tahdid sifatida qabul qilinishi mumkin.

Shu sababli ekspert: oldingi muloqot tarixini; ishtirokchilar munosabatini; kommunikativ vaziyatni hisobga oladi.

2-jadval. Sud lingvistik ekspertizasida tahdid mazmunini aniqlash mezonlari

Mezon	Aniqlanadigan jihat	Lingvistik indikatorlar	Ekspertlik vazifasi
Yo'naltirilganlik mezon	Tahdidning kimga qaratilgani	Murojaat shakllari, shaxs ko'rsatkichlari	Adresatni aniqlash
Kelajakdagi oqibat mezon	Kutilayotgan salbiy natija	Kelasi zamon, modal birliklar, natija bildiruvchi ifodalar	Tahdidning istiqbolli xarakterini belgilash
Kommunikativ bosim mezon	Majburlash yoki qo'rqitish funksiyasi	Buyruq, maslahat, ogohlantirish shakllari	Nutqiy ta'sir darajasini baholash
Tajovuzkor niyat mezon	Salbiy harakatga ishora	Bilvosita ifodalar, ishoralar, noaniq konstruksiyalar	Yashirin agressiv mazmunni aniqlash
Kontekst mezon	Vaziyat ta'siri	Oldingi muloqot, ijtimoiy holat	Pragmatik talqinni belgilash

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Tahdidli nutqiy aktlarni aniqlashning kompleks ekspertlik modeli.

Sud lingvistik ekspertizasida tahdid mazmunini aniqlash ko'p bosqichli tahlil jarayonini talab qiladi. Chunki tahdidning lingvistik ifodasi ko'pincha bitta birlik yoki bitta gap doirasida emas, balki nutqiy vaziyat, adresantning maqsadi va adresatga yo'naltirilgan kommunikativ ta'sir birligi asosida shakllanadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, tahdidli nutqiy aktlarni aniqlash quyidagi ketma-ketlik asosida amalga oshirilishi mumkin: *Lingvistik signal* → *Pragmatik talqin* → *Kommunikativ maqsad* → *Adresat ta'siri* → *Ekspert xulosasi*

Birinchi bosqichda bayonot tarkibidagi lingvistik signallar aniqlanadi. Bunga modal birliklar, kelajak vaqt shakllari, shartli konstruksiyalar, ogohlantiruvchi ifodalar va noaniq ishoralar kiradi.

Ikkinchi bosqichda ushbu birliklarning pragmatik qiymati baholanadi. Ya'ni ular oddiy axborot, ogohlantirish yoki tahdid vazifasida qo'llanganligi aniqlanadi.

Uchinchi bosqichda adresantning kommunikativ maqsadi o'rganiladi. Bunda nutq orqali ma'lumot berish, ogohlantirish yoki adresatga bosim o'tkazish maqsadi farqlanadi.

To'rtinchi bosqichda bayonotning adresatga ta'siri tahlil qilinadi. Chunki tahdidning asosiy belgisi shundaki, u adresatda muayyan xavotir, ehtiyotkorlik yoki xatti-harakatini o'zgartirish zaruratini yuzaga keltirishi mumkin.

Shunday qilib, tahdid mazmunini aniqlashda ekspert faqat “nima aytilgan?” savoliga emas, balki “ushbu bayonot orqali qanday kommunikativ harakat amalga oshirilgan?” savoliga ham javob izlaydi.

Muhokama. Olingan natijalar tahdidli nutqiy aktlarning semantik mazmuni bilan ularning kommunikativ-pragmatik funksiyasi har doim ham bir-biriga to'liq mos kelmasligini ko'rsatdi. Tadqiqot davomida tahlil qilingan holatlarda tahdid mazmuni ko'pincha ochiq tajovuzkor leksika vositasida emas, balki modal birliklar, kelajak referensiyasi, shartli konstruksiyalar, bilvosita ogohlantirish va kontekstual ishoralar orqali yuzaga kelishi aniqlandi. Bu esa tahdidni faqat so'zning lug'aviy ma'nosi asosida identifikatsiya qilish sud lingvistik ekspertizasi uchun yetarli bo'lmamasligini ko'rsatadi.

Mazkur natijalar J. Austin va J. Searlening nutqiy aktlar haqidagi nazariy qarashlari bilan uyg'un bo'lib, tahdidning mohiyati bayonotning lokutiv mazmunidan ko'ra uning illokutiv maqsadi va ehtimoliy perllokutiv ta'sirida yaqqolroq namoyon bo'lishini tasdiqlaydi [1; 2]. H.P. Grice va S.C. Levinson tomonidan ishlab chiqilgan pragmatik tamoyillar nuqtayi nazaridan esa tahdidning yashirin mazmuni adresat tomonidan

kontekst, kommunikativ vaziyat va fon bilimlari asosida tiklanadigan implitsit ma'no sifatida izohlanishi mumkin [3; 4].

Tadqiqotning muhim natijalaridan biri tahdid mazmunini aniqlashda **yo'naltirilganlik, kelajakdagi salbiy oqibat, kommunikativ bosim, tajovuzkor niyat va kontekst** mezonlarining o'zaro bog'liq holda qo'llanishidir. Mazkur mezonlarning hech biri alohida olinganda bayonotning tahdid ekanligini qat'iy belgilash uchun yetarli emas. Masalan, kelasi zamon shaklining mavjudligi o'z-o'zidan tahdidni bildirmaydi. Xuddi shuningdek, salbiy mazmun yoki hissiy-ekspressiv birlikning mavjudligi ham avtomatik ravishda tahdid nutqiy aktini yuzaga keltirmaydi. Tahdidga oid ekspert xulosasi bir nechta lingvistik va pragmatik ko'rsatkichlarning muayyan kommunikativ vaziyatdagi uyg'unligi asosida shakllantirilishi lozim.

Taklif etilgan kompleks modelning mavjud yondashuvlardan farqli jihati tahdid mazmunini aniqlash jarayonini **lingvistik signal → pragmatik talqin → kommunikativ maqsad → adresatga ta'sir → ekspert xulosasi** shaklidagi ketma-ket bosqichlar orqali tizimlashtirishidir. Bunday model ekspertning tahlil jarayonini izchil tashkil etishga va xulosada lingvistik shakldan kommunikativ talqingacha bo'lgan asoslash zanjirini ko'rsatishga imkon beradi.

Shu bilan birga, bilvosita tahdidlarni tahlil qilishda kontekst omilining yuqori darajada muhimligi ekspert xulosalarida ehtiyotkorlikni talab qiladi. Bir xil lingvistik konstruksiya bir kommunikativ vaziyatda tahdid, boshqa vaziyatda esa oddiy ogohlantirish, maslahat yoki hissiy munosabat sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Shu sababli ekspert lingvistik birlikni kommunikativ vaziyatdan ajratib talqin qilmasligi, balki adresant va adresat munosabati, oldingi muloqot mazmuni hamda bayonotning umumiy diskursdagi o'rini hisobga olishi zarur.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan lingvopragmatik mezonlardan ijtimoiy tarmoqlar, elektron yozishmalar, ommaviy kommunikatsiya hamda huquqiy nizolar bilan bog'liq konfliktli matnlarni sud lingvistik ekspertizasidan o'tkazishda foydalanish mumkin. Shuningdek, mazkur model "Sud lingvistik ekspertizasi", "Pragmalingvistika" va "Nutqiy aktlar nazariyasi" fanlarida tahdidli nutqiy aktlarni tahlil qilish metodikasini tushuntirishda nazariy va metodik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Xulosa. Mazkur tadqiqot sud lingvistik ekspertizasida tahdid va tajovuzkor nutqiy aktlar tarkibida mavjud bo'lgan implitsit ma'lumotlarni aniqlash mexanizmlarini o'rganishga bag'ishlandi. Tahlillar natijasida tahdid mazmuni faqat ochiq tajovuzkor birliklar orqali emas, balki pragmatik, modal va diskursiv vositalar orqali ham shakllanishi aniqlandi.

Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Tahdid nutqiy akti oddiy axborot uzatish emas, balki adresatga ma'lum ta'sir ko'rsatishga yo'naltirilgan kommunikativ harakat sifatida namoyon bo'ladi.

Tahdid mazmunini aniqlashda bayonotning leksik tarkibi bilan bir qatorda uning pragmatik kuchi va kommunikativ maqsadini hisobga olish zarurligi asoslandi.

2. Modal birliklar, kelajak vaqt shakllari va shartli konstruksiyalar yashirin tahdid mazmunini shakllantiruvchi asosiy lingvistik vositalardan biri ekanligi aniqlandi.

3. Bilvosita ogohlantirish va ishoraviy ifodalar orqali beriladigan tahdidlar sud lingvistik ekspertizasida alohida tahlilni talab qilishi ko'rsatildi.

4. Tahdidning asosiy belgilaridan biri uning adresatga yo'naltirilganligi va muayyan xatti-harakatga ta'sir ko'rsatish imkoniyati ekanligi belgilandi.

5. Nutqiy aktning illokutiv maqsadi tahdid mazmunini aniqlashda muhim mezonlardan biri sifatida tavsiflandi.

6. Kontekst tahdidli bayonotlarning haqiqiy pragmatik qiymatini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

7. Sud lingvistik ekspertizasida tahdid mazmunini aniqlash uchun lingvistik, pragmatik va kommunikativ tahlillarni birlashtirgan kompleks yondashuv zarurligi asoslandi.

8. Taklif etilgan ekspertlik modeli orqali lingvistik signal, pragmatik talqin, kommunikativ maqsad va adresat ta'siri o'rtaqidagi bog'liqlik tizimlashtirildi.

Ishlab chiqilgan mezonlar konfliktli kommunikatsiyada tahdidli nutqiy aktlarni obyektiv baholash va ilmiy asoslangan ekspert xulosalarini shakllantirish imkonini beradi.

Umuman olganda, tahdid va tajovuzkor nutqiy aktlarda implitsit ma'lumotni aniqlash jarayoni til birliklari, kommunikativ maqsad va ijtimoiy vaziyatning o'zaro ta'sirini kompleks o'rganishni talab qiladi. Shu sababli sud lingvistik ekspertizasida bunday matnlarni tahlil qilishda pragmalingvistik yondashuv muhim metodologik asos sifatida xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Austin J. L. *How to Do Things with Words*. – Oxford: Oxford University Press, 1962. – 168 p.
2. Searle J. R. *Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969. – 203 p.
3. Grice H. P. *Studies in the Way of Words*. – Cambridge: Harvard University Press, 1989. – 394 p.
4. Levinson S. C. *Pragmatics*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983. – 420 p.
5. Coulthard M., Johnson A. *An Introduction to Forensic Linguistics: Language in Evidence*. – London: Routledge, 2010. – 290 p.
6. Olsson J. *Forensic Linguistics: An Introduction to Language, Crime and the Law*. – London: Continuum, 2008. – 312 p.
7. Shuy R. W. *Language Crimes: The Use and Abuse of Language Evidence in the Courtroom*. – Oxford: Blackwell, 1993. – 184 p.
8. Баранов А. Н. *Лингвистическая экспертиза текста: теория и практика*. – Москва: Флинта, 2013. – 592 с.
9. Галяшина Е. И. *Судебная лингвистическая экспертиза: теория и практика*. – Москва: Норма, 2014. – 320 с.
10. van Dijk T. A. *Discourse and Context: A Sociocognitive Approach*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008. – 267 p.
11. van Dijk T. A. *Discourse and Power*. – New York: Palgrave Macmillan, 2008. – 308 p.
12. Fairclough N. *Language and Power*. – London: Routledge, 2015. – 278 p.
13. Halliday M. A. K., Hasan R. *Language, Context and Text: Aspects of Language in a Social-Semiotic Perspective*. – Oxford: Oxford University Press, 1989. – 126 p.
14. Sperber D., Wilson D. *Relevance: Communication and Cognition*. – Oxford: Blackwell, 1995. – 326 p.
15. Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 242 p.
16. Fillmore C. J. *Frames and the Semantics of Understanding*. – *Quaderni di Semantica*, 1985. – Vol. 6. – P. 222–254.
17. Кубрякова Е. С. *Язык и знание: На пути изучения языка*. – Москва: Языки славянской культуры, 2004. – 560 с.
18. Попова З. Д., Стернин И. А. *Когнитивная лингвистика*. – Москва: АСТ: Восток-Запад, 2007. – 314 с.
19. Карасик В. И. *Языковой круг: личность, концепты, дискурс*. – Москва: Гнозис, 2004. – 390 с.
20. Teshaboyeva D. *Diskurs tahlili asoslari*. – Toshkent: Fan, 2019.

**SAMOLYOT POREYONIMLARINING ONOMASTIK VA LEKSIK-SEMANTIK
XUSUSIYATLARI**

Muhammadaliyev Mirzohid Nosirjon o‘g‘li,
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
bekhmirezokhid27@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi samolyot nomlarining leksik-semantik va onomastik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Samolyot ismlarining nomlanish motivatsiyasi hamda semantik tuzilishi eponim, akronim, numeronim, zoomorfik, toponimik, mifologik, metaforik va boshqa onomastik modellar asosida yoritiladi. Tadqiqot transport onomastikasida samolyot poreyonimlarining lingvomadaniy va nominativ xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: poreyonim, samolyot nomlari, transport onomastikasi, leksik-semantik tahlil, nomlash motivatsiyasi, eponim, numeronim, zoomorfik nomlar, metaforik nomlar, lingvomadaniy xususiyatlar.

**ОНОМАСТИЧЕСКИЕ И ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ
ПОРЕЙОНИМОВ САМОЛЁТОВ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ**

Аннотация. В статье проводится сопоставительный анализ ономастических и лексико-семантических особенностей порейонимов самолётов в английском и узбекском языках. Рассматриваются номинативная мотивация и семантическая структура названий самолётов, классифицированных по таким ономастическим моделям, как эпонимы, акронимы, нумеронимы, зоонимические, топонимические, мифологические, метафорические и другие типы наименований. Полученные результаты способствуют раскрытию лингвокультурных и номинативных особенностей порейонимов самолётов в системе транспортной ономастики.

Ключевые слова: порейоним, названия самолётов, транспортная ономастика, лексико-семантический анализ, номинативная мотивация, эпоним, нумероним, зоонимические названия, метафорические названия, лингвокультурные особенности.

**ONOMASTIC AND LEXICAL-SEMANTIC FEATURES OF AIRCRAFT POREYONYMS IN
ENGLISH AND UZBEK**

Abstract. This article presents a comparative analysis of the onomastic and lexical-semantic features of aircraft poreyonyms in English and Uzbek. It examines the naming motivation and semantic structure of aircraft names classified into eponymic, acronymic, numeronymic, zoomorphic, toponymic, mythological, metaphorical, and other onomastic models. The study identifies the linguistic and cultural characteristics of aircraft poreyonyms and highlights their nominative functions within the system of transport onomastics. The findings contribute to a deeper understanding of aircraft naming practices from lexical-semantic and onomastic perspectives.

Keywords: poreyonym, aircraft names, transport onomastics, lexical-semantic analysis, naming motivation, eponym, numeronym, zoomorphic names, metaphorical names, linguistic and cultural features.

Kirish. Transport onomastikasi zamonaviy onomastikaning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, transport vositalari nomlarining nominativ, semantik va lingvomadaniy xususiyatlarini tadqiq etishga xizmat qiladi. Ushbu tizimda samolyot poreyonimlari alohida o‘rin egallaydi, chunki ular texnik identifikatsiya bilan bir qatorda tarixiy xotira, madaniy qadriyatlar va milliy tafakkurning nominativ ifodasini ham aks ettiradi. Samolyot nomlari eponim, akronim, numeronim, zoomorfik, toponimik, mifologik va metaforik modellar negizida shakllanib, har bir model o‘ziga xos semantik motivatsiya bilan tavsiflanadi.

Ushbu maqolaning maqsadi ingliz va o‘zbek tillaridagi samolyot poreyonimlarining onomastik hamda leksik-semantik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish, ularning nomlanish motivatsiyasi va semantik modellarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot natijalari transport onomastikasi doirasida samolyot nomlarining nominativ tizimini ilmiy jihatdan tavsiflash hamda ularning lingvomadaniy xususiyatlarini yoritishga xizmat qiladi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Transport onomastikasi va samolyot poreyonimlari masalalari W. Van Langendonck, D. Crystal, C. Hough, B. Sweetman, B. Gunston va B. Yenne tadqiqotlarida turli

jihatlardan yoritilgan [1–7]. Biroq mazkur ishlarda ingliz va o'zbek tillaridagi samolyot poreyonimlarining leksik-semantik xususiyatlari qiyosiy aspektida maxsus tadqiq etilmagan. Shu bois ushbu tadqiqot samolyot poreyonimlarini nomlanish motivatsiyasiga ko'ra qiyosiy tahlil qilishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot materiali ingliz va o'zbek tillaridagi samolyot poreyonimlaridan iborat. Tadqiqotda qiyosiy, tavsifiy, leksik-semantik va onomastik tahlil metodlaridan foydalanilib, samolyot nomlarining nomlanish motivatsiyasi hamda semantik xususiyatlari o'rganildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Samolyot poreyonimlari transport onomastikasining muhim tarkibiy qismini tashkil etib, texnik identifikatsiya bilan bir qatorda tarixiy, madaniy va lingvomadaniy axborotni ham ifodalaydi. Ularning nomlanishi ishlab chiqaruvchi korxona, konstruktor nomi, texnik indeks hamda turli nominativ motivatsiyalar bilan belgilanadi. Shu bois samolyot poreyonimlarini leksik-semantik va onomastik jihatdan tahlil qilish ularning nominativ xususiyatlarini hamda nomlash modellarini aniqlash imkonini beradi. Samolyot poreyonimlari nomlanish motivatsiyasiga ko'ra quyidagi guruhlar bo'linadi:

1. Eponim – shaxs nomi orqali hosil qilingan poreyonim bo'lib, transport vositalari nomlanishida antroponimik model sifatida qo'llanadi. Bu modelda shaxs nomi texnik indekslar bilan qo'shilib, ishlab chiqaruvchi maktabining ilmiy-texnik an'anasini aks ettiradi [1].

An-24/An-26 (o'rta masofali yo'lovchi samolyoti) – konstruktor O. K. Antonov nomidan yaratilgan eponimlar. Raqamlar samolyot seriyasini nazarda tutadi.

Il-62 (yuk tashuvchi harbiy samolyot), Il-76, Il-114 – konstruktor S. Ilyushin nomi bilan yaratilgan eponim.

Tu-154 – A. N. Tupolev strategik harbiy va yo'lovchi tashuvchi samolyotlar yaratishda yetakchilik qilgan.

Yak-40 – A. S. Yakovlev asosan yengil va o'rta masofali samolyotlar, shuningdek, qiruvchi va akrobatik samolyotlar yaratgan.

Eponimik model samolyot poreyonimlarida konstruktor yoki ishlab chiqaruvchi nomini saqlab, ularning tarixiy va nominativ ahamiyatini ifoda etadi.

2. Akronim – bu bir nechta so'zlarni qisqartirib, yangi so'z (nom) hosil qilish usuli. B-52/ B-747 Stratofortress – B – bomber (bombardimonchi samolyot), raqamlar – model raqami, texnik ketma-ketlik ifodalaydi.

F/A-18 Hornet – bu ko'p maqsadli jangovar samolyot bo'lib, undagi "F"-(fighter) qiruvchi, "A" (attack) hujumchi vazifasini, "18" esa model seriya raqamini bildiradi. Mazkur nomlash modeli akronim va numeronim elementlarining uyg'unlashuvi asosida shakllanib, samolyotning funksional vazifasi hamda texnik identifikatsiyasini bir vaqtning o'zida tavsiflaydi [2]. Akronimik model samolyot poreyonimlarida texnik identifikatsiya va funksional vazifani ixcham hamda standart shaklda ifodalashga xizmat qiladi

F-35 Lightning – "F"- fighter (qiruvchi samolyot), 35- model raqami.

3. Numeronim (raqamlar) bilan shakllangan nomlangan samolyot nomlari. Numeronim asosida nomlangan samolyotlarda raqamlar texnik identifikatsiyaning asosiy elementi hisoblanadi. Ular samolyotning loyiha ketma-ketligi, konstruktiv avlodi hamda model modifikatsiyasini anglatadi. Masalan, Il-76 va Il-114 nomlaridagi "Il" komponenti konstruktorlik byurosi nomini, raqamlar esa samolyot modelini bildiradi [3]. Airbus A320, Airbus A321, Airbus A330, Airbus A350, Airbus A380 – "Airbus" – ishlab chiqaruvchi kompaniya nomi, raqamlar samolyot modelini, "A" seriyasini ifodalaydi.

Su-27 – Rossiya/Sovet jangovar samolyoti), Su-30 – "Su" ishlab chiqaruvchi, konstruktor belgisi. 27-30 model raqami ko'rsatadi. Numeronimik model samolyot poreyonimlarida texnik tasnif va model identifikatsiyasini aniq ifodalovchi asosiy nominativ vosita hisoblanadi.

Boeing 737, Boeing 747, Boeing 757, Boeing 767, Boeing 777, Boeing 787 – 1917-yilda Uilyam kompaniya nomini The Boeing Company tarzida o'zgartirib, hozirda hammamiz yaxshi taniydigan dunyodagi eng yirik aviatsiya kompaniyasiga asos soldi. "Boeing" so'zi kompaniya asoschisi Uilyam E.Boeing familiyasidan olingan, kompaniya keyinchalik barcha modellarga ishlab chiqaruvchi belgisi sifatida bu nomni biriktirgan. Raqamlar esa samolyot modelini bildiradi.

4. Zoomorfik (nomlash) – samolyotga hayvon yoki qush nomi berish orqali, uning tezlik, kuch, chaqqonlik, ustunlik kabi xususiyatlarni metaforik tarzda ifodalash usulidir. Zoomorfik nomlar ingliz tili onomastikasida eng mahsuldor semantik qatlamdir. Mazkur poreyonimlar orqali samolyotni tezligi (F-16 Falcon-lochin, F/A-18 Hornet –ari), manevr qobiliyati (F-22 Raptor (yirtqich qush), F-15 Eagle (burgut)), kuch yoki xususiyatini hayvon obrazi yordamida ramziy belgilaydi [4].

A.Qush nomlari bilan: Seahawk Condor, Boeing Condor (kondor qushi), Curtiss O-52 Owl, Goodyear Ga-2 Duck, F-16 Falcon (lochin), F-22 Raptor (yirtqich qush). Mazkur nomlar tezlik, baland parvoz, va manevr semalarini anglatadi. Nom orqali samolyotga harakat va jonlilik beriladi. Qushlar orqali nomlash – harbiy aviatsiyada juda muhim, ayniqsa harbiy samolyotlarda keng qo'llaniladi.

Grumman F6F Hellcat – “do‘zax mushugi”, bu nom orqali jangovar qat‘iyat va tezkorlik ramzini anglatadi.

Fairey Gannet AS.1 – nomidagi Gannet (ganet — dengiz qushi) komponenti samolyotning uzoq masofaga parvoz qilish, yuqori chidamlilik va dengiz sharoitida samarali harakatlanish xususiyatlarini ramziy ifodalaydi. Mazkur nomlash usuli zoomorfik motivatsiyaga asoslanib, samolyotning funksional imkoniyatlarini qush obrazi vositasida aks ettiradi [5].

Hawk 75 (qirg‘iy) trainer aircraft– kichik qiruvchi samolyot. Samolyotning tezlik, manevr va hujumkorligini yirtqich qush ramzi orqali ramziy tarzda ifodalangan.

Hawker Siddeley Harrier – “harrier” yirtqich qush turi (lochin/burgutga o‘xshash dala qushi). Samolyotning past balandlikdagi nazoratli parvozi, yuqori manevr qobiliyati va aniqlik bilan hujum qilish xususiyatini yirtqich qush obrazi orqali ifodalanadi.

Lockheed SR-71 Black Bird – ayg‘oqchi samolyot sifatida loyihalashtirilgan. Fyuzelyajning o‘ziga xos konstruksiyasi SR-71ning radar ekranidagi o‘lchamni kichraytirib ko‘rsatadi.

Cessna Bird Dog – ovchi it. Samolyotning razvedka va nishon aniqlash funksiyasini ovchi it obrazi orqali ramziy yoritadi.

P-40 Warhawk/ Kittyhawk – “warhawk” urush qirg‘iyi, agressiv hujum; kittyhawk – chaqqon qirg‘iy obrazi. Bu nomlar orqali samolyotning jangovar xususiyatlari, tezlik va manevr qobiliyatini yirtqich qush obrazi orqali ifodalanadi.

Sikorsky MH-60 Seahawk – “seahawk”-dengizdagi yirtqich qush. Samolyotning dengiz sharoitida tez, manevr va aniq operatsiyalarni bajarish xususiyatlarini yirtqich qush obrazi orqali tavsiflaydi.

Bell Boeing V-22 Osprey – “osprey” baliqchi qush bo‘lib, suv ustida uchib, aniq sho‘ng‘iy oladi. samolyotning ko‘p funksiyali, moslashuvchan va yuqori aniqlik bilan harakatlanish xususiyatini baliq ovlovchi qush obrazi orqali tavsiflaydi.

B.Yirtqich hayvonlar orqali nomlangan samolyotlar. Grumman F8F Bearcat – ayiq+mushuk, samolyotning kuch (bear) va tezlik (cat) xususiyatlarini birlashtirgan holda obrazli ifodalaydi.

Grumman F4F Wildcat – yovvoyi mushuk, samolyotning jangovar, tezlik xususiyatlarini yovvoyi mushuk obrazi orqali ifodalanadi.

North America P-51 Mustang – yovvoyi ot, tezlik, erkinlik va chidamlilik ramzi bo‘lib, samolyotning yuqori tezlik, uzoq masofaga uchishi va chidamlilik xususiyatlarini yovvoyi ot obrazi orqali yoritadi.

Grumman F9F Panther – “panther”- qora rangli yirtqich mushuksimon. Samolyotning tez, yashirin va aniqlik bilan hujum qiluvchi xususiyatlarini pantera obrazi orqali ifodalanadi.

Sepecat Jaguar – “jaguar”-katta yirtqich mushuksimon hayvon. Samolyotning tez va kuchli xususiyatlarini yirtqich mushuksimon hayvon obrazi bilan ifodalanadi.

Sepecat Jaguar Tiger Squadron (turli modellari) – “tiger”- yirtqich yo‘lbars bo‘lib, samolyotning kuchi, tez va agressiv xususiyatlarini yirtqich mushuksimon hayvon orqali ifodalaydi.

C..Hashoratlar va kichik jonzorlar asosidagi nomlar. Tezkor va oson harakat bilan bog‘liq obrazlarni ifodalaydi. Mc Donnell Douglas F/A-18 Hornet, F/A -18E/F Super Hornet – “hornet”-yirik ari. Samolyotning tez, chaqqon va aggressive xususiyatlarini ari obrazi orqali ifodalaydi.

Fairey Firefly – “firefly”-mayda hasharot bo‘lib, samolyotning kichik, tezkor va samarali xususiyatlarini chaqqon hasharat obrazi orqali ifodalangan.

Taylorcraft L-2 Grasshopper (chigirtka) — mazkur nom samolyotning qisqa uchish va qo‘nish imkoniyati, yengilligi, chaqqonligi hamda yuqori manevrchanligini hasharot obrazi orqali ifodalaydi [7]. Zoomorfik model samolyot poreyonimlarida tezlik, kuch va manevrchanlik kabi xususiyatlarni hayvon va qush obrazlari orqali ramziy ifodalashga xizmat qiladi.

5. Toponimik (joy nomi) eponimlar bilan nomlangan samolyot nomlari – kelib chiqish (North America P-51 Mustang, Douglas DC-3 “Dakota”), siyosiy ramz (Tu-204 “Rossiya”), milliy faxri (Tu-160 “Белый лебедь”) bildiradi. Samolyotlarni bunday nomlash orqali samolyot identitet tashuvchiga aylanadi.

Douglas A-20 “Baltimora” – AQShning Baltimora shahri bilan bog‘liq, ishlab chiqarish markazi. Bu nom milliy ramz sifatida, samolyotning geografik va siyosiy identitetini ko‘rsatadi.

Consolidated PBY Catalina –AQShdagi Santa Catalina orol nomidan olingan, samolyotning geografik kelib chiqishini va dengiz operatsiyalaridagi maxsus vazifalarini ifodalaydi.

Dakota – AQSHdagi Dakota shtati nomidan olingan, bu poreyonim milliy ramz sifatida tanlangan.

Maryland – AQSHning Maryland shtat nomidan olingan, samolyot ishlab chiqaruvchi joy bilan bog‘liq. Toponimik model samolyot poreyonimlarida geografik mansublik va tarixiy-madaniy identitetni nominativ jihatdan ifodalaydi.

6. Mifologik va tarixiy nomlar. Mifologik nomlar kuch, chidamlilik, ilohiy qudrat, afsonaviy ustunlik va qayta tirilish ramzini beradi. Mifologik nomlar samolyotni oddiy texnika emas, ramziy obyektga aylantiradi. Masalan, Hercules – og‘ir yuk ko‘taruvchi samolyot, Atlas – osmonda ko‘tarib turgan timsol.

Boeing AH-64 Apache – jangovar , qo‘rqmas tub joy qabila nomi. Mazkur nom milliy ramz bo‘lib, samolyotning jangovar qudrati, tezkorlik va agressivligini tarixiy Apache xalqining obraziga bog‘laydi.

Lockheed C-130 Hercules “Atlas” – yunon mifologiyasidagi “Atlas”dan olingan bo‘lib, samolyotni kuchli, ishonchli va katta yuk tashish imkoniyatiga ega ekanligini ifodalaydi.

Griffin AH-1 (yarim sher, yarim burgut) – samolyotning tez, kuchli va strategik jangovar salohiyatini ifodalaydi.

Lockheed C-130 Hercules – Herkules yunon va rim mifologiyasidagi afsonaviy qahramon, samolyotning kuchli va bardoshli yuk tashish imkoniyatini aks ettiradi.

Avro Vulcan – rim mifologiyasida olov va temir xudosi Vulcan. Samolyotning bardoshli, kuchli va uzoq masofaga xizmat qila olishini aks ettiradi.

7. Metaforik nomlar. Tezlik, balandlik va kuch bilan bog‘liq nomlar – keskinlik, qo‘rquv uyg‘otish, ustunlik ma‘nolarini beradi. Nom faqat belgini emas, psixologik ta‘sir vositasi hamdir. Nomning semantikasi tezlik, sirli ko‘rinish, psixologik bosimni ifodalaydi. Mazkur birliklar ayniqsa harbiy aviatsiyada juda faol qo‘llaniladi.

Grumman TBF Avenger (qasoskor) – nom orqali samolyotning jangovar qudrati, havoda ustunligi va strategik himoya imkoniyatini ta‘kidlaydi.

A-26 Invader – “invader” so‘z bosqinchi, dushman hududiga faol kirib borish kabi ma‘nolarni anglatib, samolyotning jangovar, hujumchi va agressivligini ifodalaydi.

Boeing B-29 Superfortress, B-17 Flying Fortress – “fortress”- qal‘a, mustahkam himoya joyi degan ma‘noni anglatib, samolyotning bardoshli, himoyaga mo‘ljallangan va uzoq masofaga xizmat qila olishini aks ettiradi.

P-38 Lightning (chaqmoq) – samolyotning tezligi, chaqqonligi va jangovar salohiyati ifodalangan.

P-47 Thunderbolt – “thunderbolt” momaqaldiraq ma‘nosini bildirib, samolyotning kuchli jangovar qudrati, tezligi va hujumkorligini ramziy tarzda aks ettiradi.

Curtiss SB2C Helldiver – helldiver “keskin sho‘ng‘ib hujum qiluvchi” ma‘nosini bildirib, samolyotning sho‘ng‘ish bombardimoniga mo‘ljallanganligi, tezkorligi va nishonga aniq zarba berish xususiyatini aks ettiradi [6].

Boeing B-52 Stratofortress – “starto”-stratosfera (yuqori havo qatlami), “fortress”-qal‘a. Samolyotning yuqori balandlikda uchuvchi, kuchli va strategik bombardimon salohiyatiga ega ekanligini anglatadi.

Douglas C-47 Skytrain – sky-osmon, train- poyezd. Bu poreyonom onomastikada ramziy nom bo‘lib, samolyotning ko‘p yuk tashish va transport vazifasini obrazli tarzda bildiradi.

Supermarine Swift – bu so‘z tezlik degan ma‘noni anglatib, samolyotning tezkor, chaqqon va yuqori manevr qobiliyatiga ega ekanligini aks ettiradi. Metaforik model samolyot poreyonimlarida tezlik, kuch va ustunlik kabi xususiyatlarni obrazli ifodalash orqali ularning nominativ-ekspressiv salohiyatini kuchaytiradi.

8. Ideologik-siyosiy nomlar (ideologik onomastika) – nom texnikadan tashqariga chiqib, siyosiy ramzga aylanadi. Aerospatiale/BAC Concorde (kelishuv, birlik) – bu so‘z onomastik jihatdan ramziy nom bo‘lib, samolyotning xalqaro hamkorlik asosida yaratilganligini va texnologik uyg‘unligini ko‘rsatadi.

Northrop B-2 Spirit (milliy ruh, mafkura) – samolyotning ichki kuchi, barqarorligi va strategik ustunligini ko‘rsatadi.

9. Kommersial (savdo) nom – bu mahsulot yoki texnika bozorga chiqarishda marketing va brend strategiyasiga asoslanib qo‘yilgan nomlar. Marketingga yo‘naltirilgan nomlar – bu nomlar qulaylik, kelajak, orzu assotsiatsiyasini beradi. Boeing 787 Dreamliner – dream (orzu)+liner (kemaga o‘xshash transport vositasi). Samolyotning zamonaviylik, uzoq masofaga va yo‘lovchi qulayligi kabi xususiyatlarni namoyon qiladi.

Boeing 70A-1 Skyliner – nomdagi Sky (osmon) va liner (yo‘lovchi samolyoti) komponentlari samolyotning yo‘lovchi tashishga mo‘ljallanganligi, yuqori balandlikda barqaror parvoz qilishi hamda ishonchligini ramziy tarzda ifodalaydi. Mazkur nom metaforik motivatsiya asosida shakllangan bo‘lib, samolyotning funksional xususiyatlarini aks ettiradi [7].

10. Harbiy-strategik nomlar (psixologik-pragmatik nomlash) –ushbu poreyonimlar yashirinlik, tezkorlik, ustunlik kabi ma‘nolarni anglatadi. McDonnell Douglas A-4 Skyhawk – sky(osmon)+hawk(burgut)= osmon burguti ya‘ni yuqori balandlikda tez va aniq harakat qiluvchi samolyot ramzi. Consolidated B-24 Liberator– ingliz tilida “ozod qiluvchi” degan ma‘noni anglatadi. Bu nom dastlab inglizlar tomonidan berilgan bo‘lib, Amerikada keng tarqalgan va keyinchalik ushbu turdagi samolyotlarning rasmiy nomiga aylangan.

F-4 Phantom (arvoh) – nom orqali dushmanga psixologik ta'sir ko'rsatib, samolyotning tezkor, kutilmagan hujum va havodagi ustunlik xususiyatlarini ramziy ifodalaydi [8].

Catalina Privateer (xususiy jangchi) – dengiz patruli va hujumchi degan ma'noni berib, nom orqali samolyotning urush paytida hujum va patrul xususiyatlarini ramziy tarzda ifodalagan.

SR-71 Blackbird (qoraqush) – Blackbird nomi samolyotning yuqori tezlikda yashirin razvedka vazifalarini bajarish, dushman kuzatuv vositalaridan chetda harakatlanish va strategik ustunlikni ta'minlash xususiyatlarini ramziy ifodalaydi [9].

11. Aralash (kombinatiyalashgan) nomlar. Raqam – texnik aniqlik, so'z – semantik obraz anglatadi. Antonov An-225 “Mriya” – An-225-texnik identifikatsiya, mriya-ukraincha so'z bo'lib, orzu degan ma'noni anglatadi.

Northrop B-2 Spirit – nomidagi Spirit (ruh) komponenti samolyotning qat'iyat, barqarorlik, ishonchlilik va strategik ustunlik kabi ramziy xususiyatlarini ifodalaydi. Mazkur nom metaforik motivatsiya asosida tanlanib, samolyotning yuqori jangovar salohiyati va psixologik ta'sirini aks ettiradi [10].

Muhokama. Tadqiqot natijalari ingliz va o'zbek tillaridagi samolyot poreyonimlari nominativ motivatsiyasida o'ziga xos farqlar mavjudligini ko'rsatdi. Ingliz tilida zoomorfik, metaforik va mifologik nomlash modellari samolyotlarning funksional xususiyatlari bilan bir qatorda ularning ramziy va lingvomadaniy qiymatini ham ifodalashi bilan ajralib turadi. O'zbek tilida esa eponimik va numeronimik modellar ustun bo'lib, nomlashda texnik identifikatsiya hamda konstruktorlik an'analarga ustuvor ahamiyat beriladi. Bu tafovutlar samolyot poreyonimlarining har ikki tilda turli nominativ tamoyillar asosida shakllanganini ko'rsatadi va transport onomastikasida ularni nomlanish motivatsiyasiga ko'ra tasniflashning ilmiy asoslanganligini tasdiqlaydi.

Xulosa. Tadqiqot ingliz va o'zbek tillaridagi samolyot poreyonimlari onomastik va leksik-semantik jihatdan murakkab nominativ tizimni tashkil etishini ko'rsatdi. Tahlil natijasida ularning eponim, akronim, numeronim, zoomorfik, toponimik, mifologik, metaforik va boshqa nomlash modellarida shakllanishi aniqlandi. Qiyosiy tahlil ingliz tilida obrazli nomlash, o'zbek tilida esa texnik-identifikatsion nomlash tamoyili ustunligini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari transport onomastikasida samolyot poreyonimlarining nominativ va lingvomadaniy xususiyatlarini tizimli yoritishga, ularning tasnifini aniqlashtirishga hamda kelgusidagi qiyosiy tadqiqotlar uchun nazariy asos yaratishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Van Langendonck W. *Theory and Typology of Proper Names*. Berlin: Mouton de Gruyter, 2007.
2. Sweetman B. *F/A-18 Hornet in Action*. Carrollton, TX: Squadron/Signal Publications, 1987.
3. Crystal, D. *A Dictionary of Linguistics and Phonetics*. 6th ed. Oxford: Blackwell Publishing, 2008.
4. Hough C. (Ed.). *The Oxford Handbook of Names and Naming*. Oxford: Oxford University Press, 2016.
5. Ainiala, T., Saarelma, M., & Sjöblom, P. *Names in Focus: An Introduction to Finnish Onomastics*. Helsinki: Finnish Literature Society, 2012.
6. Yenne, B. *The World's Great Military Aircraft*. New York: Bison Books, 1984.
7. Gunston B. *The Illustrated Encyclopedia of Aircraft*. London: Salamander Books, 1988.
8. Boyne, W. J. *The Smithsonian Book of Flight*. Washington, DC: Smithsonian Institution Press, 1987.
9. Graham, R. *SR-71 Revealed: The Inside Story*. St. Paul, MN: Zenith Press, 1996.
10. Francillon, R. J. *McDonnell Douglas Aircraft since 1920*. London: Putnam, 1979.

“DEVONU LUG‘AT-IT TURK” ASARIDAGI METAFORALARNING LINGVOKOGNITIV XUSUSIYATLARI HAMDA ULARNING INGLIZ VA RUS TILLARIDAGI TARJIMALARI

Parpibayeva Maftuna Zafarjon qizi,
Namangan davlat universiteti
mustaqil izlanuvchisi (PhD)
parpibayevamaftunaxon@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘at-it turk” asaridagi metaforik birliklarning lingvokognitiv va lingvomadaniy xususiyatlari hamda ularning ingliz va rus tillariga tarjima qilinish jarayonida yuzaga keladigan muammolar tahlil qilingan. Tadqiqotda deskriptiv, kognitiv-lingvistik, lingvokulturologik va qiyosiy-tipologik metodlardan foydalanildi. “Ödläk” konsepti hamda xalq maqollari misolida metaforalarning konseptual mazmuni, milliy-madaniy qatlamlari va tarjimada yuz beradigan semantik siljishlar qiyosiy jihatdan yoritildi. Tahlillar natijasida metaforalarni tarjima qilishda lug‘aviy ekvivalentning o‘zi yetarli emasligi, aslyatdagi tarixiy, madaniy va kognitiv mazmunni saqlash uchun izohli tarjima, kontekstualizatsiya hamda boshqa pragmatik tarjima strategiyalarini qo‘llash zarurligi aniqlandi. Tadqiqot natijalari qadimgi turkiy matnlarni tarjima qilish nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: “Devonu lug‘at-it turk”, metafora, lingvokognitiv tahlil, lingvomadaniyat, konsept, tarjima, pragmatika, Ödläk, tarjima strategiyalari, semantik siljish.

ЛИНГВОКОГНИТИВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ МЕТАФОР В ПРОИЗВЕДЕНИИ «ДИВАН ЛУГАТ АТ-ТУРК» И ИХ ПЕРЕВОД НА АНГЛИЙСКИЙ И РУССКИЙ ЯЗЫКИ

Аннотация. В статье исследуются лингвокогнитивные и лингвокультурологические особенности метафор в произведении Махмуда Кашгари «Диван лугат ит-турк», а также проблемы их передачи на английский и русский языки. В исследовании использованы описательный, когнитивно-лингвистический, лингвокультурологический и сравнительно-типологический методы. На примере концепта «Ödläk» и народных пословиц раскрываются концептуальное содержание метафор, их культурно-историческая специфика и семантические изменения, возникающие в процессе перевода. Установлено, что адекватный перевод метафор требует сохранения не только их словарного значения, но и концептуального, исторического и культурного содержания. Для достижения этой цели важную роль играют пояснительный перевод, контекстуализация и другие прагматические переводческие стратегии. Полученные результаты имеют значение для дальнейшего развития теории и практики перевода древнетюркских письменных памятников.

Ключевые слова: Диван лугат ит-турк, метафора, лингвокогнитивный анализ, лингвокультурология, концепт, перевод, прагматика, Ödläk, переводческие стратегии, семантический сдвиг.

LINGUOCOGNITIVE FEATURES OF METAPHORS IN THE “DEVONU LUGAT IT-TURK” AND THEIR ENGLISH AND RUSSIAN TRANSLATIONS

Abstract. This article examines the linguistic, cognitive and linguocultural features of metaphors in Mahmud al-Kashgari’s “Devonu lugat-it turk” and the challenges arising in their English and Russian translations. The research applies descriptive, cognitive-linguistic, linguocultural and comparative-typological methods. Particular attention is paid to the concept of “Ödläk” and traditional proverbs as examples reflecting the conceptual worldview of the ancient Turkic people. The study reveals that metaphor translation involves not only lexical equivalence but also the preservation of conceptual, historical and cultural meanings. Comparative analysis demonstrates that semantic shifts and conceptual mismatches frequently occur in translation because of differences between linguistic and cultural systems. The findings indicate that explanatory translation, contextualization and other pragmatic translation strategies are essential for conveying the original meaning accurately. The results contribute to the theory and practice of translating historical Turkic texts.

Keywords: Devonu lugat-it turk, metaphor, cognitive linguistics, linguoculture, concept, translation, pragmatics, Ödläk, translation strategies, semantic shift.

Kirish. “Devonu lug‘at-it turk” asaridagi metaforalar tizimini tahlil qilar ekanmiz, avvalo, muallif Mahmud Qoshg‘ariyning serqirra shaxsiyatiga e‘tibor qaratish lozim. Qoshg‘ariy shunchaki turkiy so‘zlarni jamlagan lug‘atnavis emas, balki o‘z davrining yetuk tilshunosi, geografi, etnografi, jamiyatshunosi va turkiy dunyo falsafasini chuqur anglagan mutafakkirdir. Uning keng dunyoqarashi asarda qo‘llangan metaforalarning mazmunan boy, ko‘p qatlamli va rang-barang bo‘lishini ta‘minlagan. Shu bois “Devonu lug‘at-it turk” dagi metaforalar nafaqat til hodisasi, balki qadimgi turkiy xalqning tafakkuri, dunyoqarashi, turmush tarzi va madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy birliklar sifatida ham alohida ilmiy qimmat kasb etadi. Bu borada tilshunos B.Parpibayevning fikrlari alohida e‘tiborga loyiq. Olimning ta‘kidlashicha, “Ayniqsa, turkiy tilning lisoniy xususiyatlari hali tadqiq qilinmagan, yozma manbalar yaratish yo‘lga qo‘yilmagan bir davrda, Qoshg‘ariy ushbu ma‘lumotlarning barchasini turkiy xalqlarning tillaridan olmos kabi terib oldi desak, hech yanglishmagan bo‘lamiz... folklor namunalari faqatgina ba‘zi yoshi ulug‘ insonlarning tilidagina qolgan edi, shunday bo‘lsa-da, u ko‘zi bilan ko‘rib, qulog‘i bilan eshitgan, asosli ma‘lumotlarinigina asarga kiritdi” [4, 124]. Ushbu fikr Mahmud Qoshg‘ariy asarida qo‘llangan metaforalar xalq tafakkurining tabiiy mahsuli ekanligini, ularning sun‘iy emas, balki tarixiy-madaniy tajriba asosida shakllanganligini ko‘rsatadi. Shu jihatdan “Devonu lug‘at-it turk” metaforalarini zamonaviy lingvistik nazariyalar asosida o‘rganish, ularning konseptual mazmunini aniqlash hamda tarjimalarda qay darajada qayta ifodalanganini tadqiq etish muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili. Metafora muammosi jahon tilshunosligi, kognitiv lingvistika va tarjimashunoslikning eng dolzarb tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Dastlab metafora ko‘proq badiiy tasvir vositasi sifatida talqin qilingan bo‘lsa, keyinchalik uning inson tafakkuri va konseptual dunyoqarashini shakllantirishdagi o‘rni ilmiy jihatdan asoslab berildi. Ayniqsa, J. Lakoff va M. Jonson tomonidan ishlab chiqilgan konseptual metafora nazariyasi metaforani inson tafakkurining ajralmas qismi sifatida talqin qilishga zamin yaratdi.

Mazkur nazariya keyinchalik A.N. Baranov, Y.N. Karaulov, I.M. Kobozeva, T.G. Skrebtsova, Y.B.Fedeneva va A.P. Chudinov tadqiqotlarida turli diskurslar misolida yanada rivojlantirildi. M. Terner va J.Fokonye metaforik tafakkurning murakkab mexanizmlarini blending theory orqali izohlab, turli konseptual maydonlarning o‘zaro uyg‘unlashuvini asoslab berdilar. N.D. Arutyunova metaforani til va tafakkur o‘rtasidagi semantik bog‘lovchi vosita sifatida baholasa, A. Vejbitskaya uning milliy-madaniy konseptlar bilan uzviy aloqadorligini ko‘rsatib berdi.

O‘zbek tilshunosligida ham metafora masalasi keng o‘rganilgan. Jumladan, G.K. Qobuljonova metaforani tilning ma‘no hosil qilish tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida baholab, uning tizimli xarakterga ega ekanligini ta‘kidlaydi [5]. Mazkur ilmiy qarashlar “Devonu lug‘at-it turk”dagi metaforalarni lingvosemantik, lingvokognitiv va lingvomadaniy nuqtayi nazardan tahlil qilish uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda metaforaning umumiy nazariy masalalari keng yoritilgan bo‘lsa-da, “Devonu lug‘at-it turk”dagi metaforik birliklarning ingliz va rus tarjimalarida qayta ifodalanishi, ularning konseptual mazmunining saqlanish darajasi hamda qo‘llangan tarjima strategiyalarining qiyosiy tahlili yetarli darajada maxsus tadqiq etilmagan. Mazkur tadqiqot aynan ushbu masalalarni yoritishga qaratilgani bilan avvalgi ishlardan farqlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda metaforalarning lingvistik va lingvomadaniy xususiyatlarini tahlil etishda kompleks metodologik yondashuv asos qilib olindi. Dastlab, deskriptiv metod yordamida metaforik birliklarning lug‘aviy, semantik hamda strukturaviy xususiyatlari tavsiflandi. Shuningdek, kognitiv-lingvistik tahlil orqali metaforalarning konseptual asoslari, ularning inson tafakkuri va idrok jarayonlari bilan uzviy bog‘liqligi o‘rganildi.

Metaforalarning milliy-madaniy mazmunini aniqlashda lingvokulturologik yondashuvdan foydalanilib, ular orqali xalqning dunyoqarashi, mentaliteti va madaniy qadriyatlari tahlil qilindi. Qiyosiy-tipologik metod asosida esa turli tillardagi metaforik birliklar o‘zaro solishtirilib, ularning mushtarak hamda farqlovchi xususiyatlari belgilandi.

Bundan tashqari, matn lingvistikasi tamoyillari asosida metaforalarning badiiy matndagi pragmatik va estetik vazifalari ham tahlil qilindi. Qo‘llanilgan metodlarning o‘zaro uyg‘unligi metaforalarning universal hamda milliy-madaniy xususiyatlarini har tomonlama ilmiy asosda yoritish imkonini berdi.

Tahlillar va natijalar. Quyida mazkur kognitiv, lisoniy va etnomadaniy muammolarni “Devonu lug‘at-it turk” matnidagi aniq misollar tahlilida ko‘rib chiqamiz. Asarning dastlabki sahifalaridayoq duch kelinadigan va turli tillarda turlicha talqin qilingan ana shunday birliklardan biri Alp Er Tunga vafotiga bag‘ishlangan marsiyadir:

Alp Er Tunga öldümü?

İsiz ajun kaldımu?

Ödläk öçin aldimu?

Emdi yürek yırtılır [3, 355].

(Mazmuni: Alp Er To'ng'a o'ldimi? Esiz, dunyo egasiz qoldimi? Falak o'z o'chini oldimi? Endi bag'irlar (yuraklar) tilinur).

Mazkur to'rtlik asarning ingliz tili va rus tillaridagi nashrlarida quyidagicha o'girilgan:

Ingliz tilidagi variantda: *"Has King Afrasiyab died? Does the wicked world remain (empty of him)? Has Time exacted its revenge upon him? Now the heart bursts (out of grief for his kingdom and out of rage against Time)." [2, 451]*

Rus tilidagi variantda: *"Верно ли, что скончался царь (Афрасиаб)? Верно ли, что (бурный и грешный) мир опустел (без него)? Верно ли, что рок обрушил свою месть (на него)? Воистину, сердце разрывается (от скорби по его царствованию и гнева на судьбу)". [7, 521]*

"Devonu lug'at-it turk" matnidagi metaforik birliklarni xorijiy va qardosh tillarga o'girishda ko'zga tashlanadigan eng birinchi muammo – bu kognitiv-konseptual nomuvofiqliklardir. Mazkur to'rtlikdagi markaziy lisoniy-kognitiv yukni tashuvchi birlik "*Ödläk*" (zamon) konseptidir. Qadimgi turkiy dunyoqarashda zamon shunchaki vaqt oqimi emas, balki inson hayotiga daxldor bo'lgan, muqarrar o'limni keltirib chiqaruvchi shafqatsiz sub'yekt sifatida namoyon bo'ladi. Robert Dankoff ushbu ma'noni ingliz tiliga "*Time*" deb o'girar ekan, g'arb kitobxonni ongidagi mavhum va falsafiy vaqt tushunchasini faollashtiradi. Tarjimon mazkur nomuvofiqlikni bartaraf etish va o'sha zamonning dushmanlik tabiatini ko'rsatish uchun matnga "*wicked world*" (yovuz dunyo) birikmasini qo'shishga majbur bo'lgan.

Ruscha tarjimada esa *Auvezova* to'g'ridan-to'g'ri "*пок*" (taqdir) konsepti olib kirgan hamda qavs ichida "*судьба*" (qismat) so'zini ham qo'llagan. Bir tomondan, "*пок*" va "*судьба*" so'zlari asliyatdagi o'sha muqarrar, inson irodasidan tashqaridagi qora kuch ma'nosini inglizcha "*Time*" so'ziga nisbatan aniqroq ifodalaydi. Tarjimon bu orqali asliyat semantikasini muvaffaqiyatli aks ettira olgan.

Hozirgi turk tilidagi variantda esa tarjimon "*Ödläk*" so'zi o'rniga "*Felek*" birligini tanlagan. Garchi qardosh tildagi ushbu transformatsiya asliyatga semantik jihatdan yaqin bo'lsa-da, "*Felek*" so'zi o'zbek va turk tillari tabiatida ko'proq islomiy-tasavvufiy dunyoqarash hamda sharq she'riyati an'analari bilan bog'liq bo'lgan mavhumroq taqdir ma'nosini tashqi qatlamga chiqaradi. Shunga qaramay, mazkur lisoniy yechimni ingliz yoki rus tillaridagi mavhum vaqt va taqdir konseptlariga nisbatan ancha to'g'ri va asliyat ma'nosiga eng yaqin variant deb baholash mumkin.

Mazkur birlikning hozirgi o'zbek tilidagi tabdillarida ham o'ziga xos lisoniy-kognitiv evrilishlar ko'zga tashlanadi. Xususan, "*Ödläk*" so'zini hozirgi o'zbek tiliga shunchaki "*Zamon*" shaklida o'girish asliyatdagi semantik va mifologik yukni sezilarli darajada toraytiradi. Chunki zamonaviy o'zbek tili iste'molida "*zamon*" konsepti ko'proq ma'lum bir davr yoki era ma'nosidagi vaqt oqimini anglatishga xizmat qiladi.

Kognitiv tahlil xulosasi shuni ko'rsatadiki, qadimgi turkiy tildagi "*Ödläk*" konsepti bir so'zlik tushunchani emas, balki vaqt, falak, dunyo, taqdir va qismat kabi ko'plab falsafiy qatlamlarning o'zaro sintezidan iborat bo'lgan murakkab lisoniy jamlanmadir. Ingliz, rus va hatto, qardosh turk tillaridagi tarjimalarda ushbu qatlamlarning faqat bittasigagina (ingliz va o'zbek tillarida ko'proq *vaqt*, rusda *taqdir*, turkchada *falak* ma'nosiga) urg'u berilishi natijasida, original matndagi ko'p o'lchovli kognitiv arxitekturasini ma'lum ma'noda siljishga uchragan.

"Devon" tarkibidagi xalqona donolik va ko'chma ma'noli obrazlarga boy bo'lgan quyidagi maqol tahlili ham kognitiv va lisoniy-strukturaviy nomuvofiqliklarni yaqqol dalillaydi: *Erik erini yağlı, ermegü başı kanlı*. (Tabdili: *Tirishqoqning labi yog'li, erinchoqning boshi qonli*) [6, 364]. B.Atalay tomonidan turk tiliga *Çalışanın dudağı yağlı, erinenin başı kanlı* [1, 231] shaklida ag'darilgan ushbu qadimiy maqol ingliz tiliga *The steadfast one has greasy lips (since he works hard and so gets good food and fat meat which makes his lips greasy); the lazy one (who is too lazy to work gets hit and so) has a bloody head* [2, 567] hamda rus tiliga *У выносливого губы в жире (так как он работает и получает хорошую пищу и жирное мясо, от которого его губы становятся жирными); ленивый же (не работая, получается удары по) голове, (и из неё течет) кровь* tarzida to'liq o'girilgan [7, 781].

Turkiy dunyoqarash tahlilida mehnat ortidan keladigan boylik va mo'l-ko'lchilikni "*labning yog'li bo'lishi*" orqali ifodalash xalqona jonli model hisoblanadi. Bu o'zbek tilidagi "*pichog'i moy ustida*" iborasi kabi ma'noviy va obrazli asosga ega. Biroq g'arb o'quvchisi ongida "*yog'li lab*" va "*qonli bosh*" birikmalari mutloq boshqa ma'nolarni faollashtirgani sababli, tarjimonlar asliyatning ichki mantiqini yetkazish uchun matn ichida alohida izohlar berishga majbur bo'lishgan. Bu esa ikki xalq dunyoqarashidagi jiddiy kognitiv farqni ko'rsatadi.

Asliyatda maqol o'ta qisqa, ritmik, o'zaro parallel va ichki qofiyaga ega bo'lgan ixcham she'riy qolip asosiga qurilgan. Biroq g'arb tillarining strukturaviy o'ziga xosliklari va cheklovlari tufayli tarjimada ushbu

ixchamlikni, ohangdoshlik hamda qofiyaviy qurilishni to'liq saqlab qolish imkoni bo'lmagan. Natijada, matn tarkibiga kiritilgan keng qamrovli leksik izohlar maqolning jozibador semantik va sintaktik shakliga ta'sir ko'rsatib, uni ixcham badiiy parchadan ko'ra ko'proq tushuntirish xarakteridagi kengaytirilgan sintaktik qurilmaga aylantirib qo'ygan.

Xulosa. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, "Devonu lug'at-it turk" asaridagi metaforalar qadimgi turkiy xalqning tafakkuri, dunyoqarashi va madaniy qadriyatlarini mujassamlashtirgan murakkab lingvokognitiv birliklar hisoblanadi. Ularning ingliz va rus tillariga tarjimasida nafaqat leksik-semantik, balki konseptual hamda lingvomadaniy nomuvofiqliklar yuzaga keladi. Ayniqsa, "Ödläk" konsepti va xalq maqollari misolida bir tilga xos metaforik modelning boshqa tilga to'liq ko'chirilishi har doim ham mumkin emasligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari tarjimada metaforaning faqat lug'aviy ma'nosini emas, balki uning ortida mujassam bo'lgan konseptual, tarixiy va madaniy qatlamlarni ham hisobga olish zarurligini ko'rsatdi. Zarur hollarda izohli tarjima, kontekstualizatsiya va boshqa pragmatik tarjima strategiyalaridan foydalanish asliyat mazmunini imkon qadar to'liqroq yetkazishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, "Devonu lug'at-it turk" metaforalarini lingvokognitiv va lingvomadaniy yondashuv asosida o'rganish qadimgi turkiy tilning konseptual manzarasini chuqurroq anglash bilan birga, tarixiy matnlar tarjimasi nazariyasi va amaliyotini takomillashtirishga ham muhim ilmiy hissa qo'shadi. Mazkur tadqiqot natijalari kelgusida qadimgi turkiy yozma yodgorliklardagi metaforik birliklarni qiyosiy va tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etish uchun nazariy hamda amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Atalay B. "Divanu Lugat at-Turk". – Ankara, 1939-1943. – 678 p.
2. Dankoff R. Mahmud al-Kashgari. "Compendium of the Turkic Dialects" (Divan Lugat at-Turk) (in collaboration with J. Kelly). – Harvard University, 1982-1985.
3. Mutallibov S. Mahmud Qoshg'ariy "Devonu lug'at-it turk". – Toshkent, 1960-63.
4. Parpibayev.B.R. Qadimgi turkiy folklor va ularning tarjimalaridagi o'ziga xos xususiyatlar ("Devonu lug'at-it turk" asaridagi maqol va hikmatli so'zlar misolida): f.f.b.d., (PhD) diss. – Namangan, 2024. – B. 69.
5. Qobuljonova G. Metaforik modelashtirish va til tizimi // O'zbek tilshunosligi jurnali. 2002 №3.
6. Sodiqov Q. Mahmud Qoshg'ariy. "Devonu lug'at-it turk". – Toshkent: G'afur G'ulom, 2017. – 481 b.
7. Ауэзова М.А. Махмуд ал-Кашгарии. Диван Лугат ат-Турк. – Алматы: Дайк-Пресс, 2005, – 1292 p.

TARJIMASHUNOSLIKNING ZAMONAVIY NAZARIYALARI VA RIVOJLANISH
TENDENSIYALARI

Qo‘shshiyeva Dilshoda A‘zamovna,
MA in TESOL, Webster University
dilshodaqoshshiyeva@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada tarjimashunoslik fanining shakllanish evolyutsiyasi, uning intizomiy maqomi hamda XXI asrdagi zamonaviy, nazariy va texnologik tendensiyalari chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotda G‘arb va milliy tarjimashunoslik maktablarining nazariy poydevori, lingvistik, pragmatik, kognitiv hamda raqamli paradigma (NMT, PEMT, korpus tarjimashunosligi) kesimida qiyosiy o‘rganilgan. O‘zbek tarjimashunoslik maktabining asoschilari (G‘.Salomov, N.Komilov, Q.Musayev) tomonidan yaratilgan konseptual qarashlarning global tarjima nazariyalari hamda sun‘iy intellekt texnologiyalari bilan konvergentsiyasi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: tarjimashunoslik, tarjimashunoslik maktabi, ekvivalentlik, Skopos nazariyasi, kognitiv tarjimashunoslik, neyron mashina tarjimasi (NMT), post-tahrir (PEMT).

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕОРИИ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЯ

Аннотация. В данной научной статье глубоко анализируются эволюция становления переводоведения как науки, его дисциплинарный статус, а также современные теоретические и технологические тенденции XXI века. В исследовании в сравнительном аспекте изучаются теоретические основы западных и национальных школ переводоведения в разрезе лингвистической, прагматической, когнитивной и цифровой парадигм (НМП, постредактирование, корпусное переводоведение). Научно обосновывается конвергенция концептуальных воззрений, разработанных основоположниками узбекской школы переводоведения (Г. Саломов, Н. Комилов, К. Мусаев), с глобальными теориями перевода и технологиями искусственного интеллекта.

Ключевые слова: переводоведение, школа переводоведения, эквивалентность, скопос-теория, когнитивное переводоведение, нейронный машинный перевод (НМП), постредактирование (ПМП).

MODERN THEORIES AND DEVELOPMENT TENDENCIES OF TRANSLATION STUDIES

Abstract. This scholarly article deeply analyzes the evolutionary formation of translation studies, its disciplinary status, and its modern theoretical and technological trends in the 21st century. The research provides a comparative study of the theoretical foundations of Western and national schools of translation studies within linguistic, pragmatic, cognitive, and digital paradigms (NMT, PEMT, corpus-based translation studies). It also scientifically substantiates the convergence of the conceptual frameworks developed by the founders of the Uzbek school of translation studies (G. Salomov, N. Komilov, K. Musaev) with global translation theories and artificial intelligence technologies.

Keywords: translation studies, school of translation studies, equivalence, Skopos theory, cognitive translation studies, neural machine translation (NMT), post-editing (PEMT).

Kirish. Tarjima insoniyat tarixida turli tillarda so‘zlashuvchi xalqlar o‘rtasidagi ilmiy, madaniy, siyosiy va adabiy aloqalarni ta‘minlovchi muhim vositalardan biri sifatida shakllangan. Biroq tarjimaning ilmiy jihatdan tizimli o‘rganilishi uzoq vaqt davomida tilshunoslik va adabiyotshunoslik doirasida amalga oshirilgan. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tarjima jarayonining qonuniyatlari, tarjima mahsulining xususiyatlari va tarjimon faoliyatining o‘ziga xos jihatlari alohida tadqiq etishga ehtiyojning ortishi natijasida tarjimashunoslik mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllandi. Mazkur jarayon tarjimani faqat bir tildagi birliklarni boshqa tildagi muqobillar bilan almashtirish emas, balki kommunikativ maqsad, matn funksiyasi, madaniy kontekst va tarjimonning qaror qabul qilish faoliyati bilan bog‘liq murakkab jarayon sifatida talqin qilish imkonini berdi.

Tarjimashunoslikning zamonaviy nazariy asoslari XX asrning ikkinchi yarmida shakllangan bir qator ilmiy konsepsiyalar bilan bevosita bog‘liq. 1972-yilda James S. Holmes tomonidan tarjimashunoslikning mustaqil fan sifatidagi tarkibiy tuzilishini tavsiflovchi konseptual xaritaning taklif etilishi soha tarixidagi muhim nazariy bosqichlardan biri bo‘ldi. Holmes tarjimashunoslikni “pure” va “applied” yo‘nalishlarga

ajratib, nazariy va tavsifiy tadqiqotlar bilan bir qatorda tarjima amaliyoti, tarjimon tayyorlash va tarjima vositalarini ishlab chiqish kabi masalalarni ham fan doirasida ko'rib chiqishni taklif etdi. Mazkur yondashuv tarjimashunoslikning mustaqil va ko'p yo'nalishli fan sifatida rivojlanishiga nazariy asos yaratdi.

Keyingi davrda tarjima nazariyasining mazmuni ekvivalentlik masalasidan kengayib, tarjimaning maqsadi va funksiyasini markazga qo'yuvchi yondashuvlar bilan boyidi. 1970-1980-yillarda Katharina Reissning matn tipologiyasi va Hans J. Vermeer tomonidan ishlab chiqilgan Skopos nazariyasi tarjima faoliyatini maqsad va kommunikativ vazifa bilan bog'liq holda izohlashga imkon berdi. Gideon Toury tomonidan rivojlantirilgan deskriptiv tarjimashunoslik esa real tarjima matnlarini tizimli ravishda o'rganish, tarjima jarayonida amal qiluvchi me'yorlarni aniqlash va tarjima hodisasini uning ijtimoiy-madaniy muhitida tahlil qilishga e'tiborni kuchaytirdi. Natijada tarjima tadqiqotlarida manba va tarjima matni o'rtasidagi formal muvofiqlik bilan bir qatorda tarjimaning funksional va madaniy jihatlari ham muhim mezonlarga aylandi.

Bugungi kunda tarjimashunoslikning rivojlanishi raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning tarjima amaliyotiga jadal kirib kelishi bilan chambarchas bog'liq. Statistik mashina tarjimasidan neyron mashina tarjimasiga o'tish tarjima tizimlarining matnni qayta ishlash imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi. Ayniqsa, neyron mashina tarjimasi tizimlarining rivojlanishi tarjima sifatini baholash, inson tarjimoni va avtomatlashtirilgan tizim o'rtasidagi hamkorlik, mashina tarjimasidan keyingi tahrir (post-editing) hamda tarjimonning yangi texnologik kompetensiyalarini o'rganish kabi masalalarni tarjimashunoslikning dolzarb yo'nalishlariga aylantirdi. Bunda zamonaviy tarjimonning faoliyati faqat tarjima yaratish bilan cheklanmay, tarjima texnologiyalaridan samarali foydalanish, avtomatik tarjima natijalarini baholash va zarur hollarda ularni tahrir qilishni ham qamrab olmoqda.

Shu jihatdan, tarjimashunoslikning zamonaviy nazariyalarini tizimlashtirish va ularning shakllanish hamda rivojlanish bosqichlarini aniqlash bugungi tarjima jarayonlarining ilmiy asoslarini tushunish uchun muhimdir. Mazkur maqolada tarjimashunoslikning mustaqil fan sifatida shakllanishi, XX asrning ikkinchi yarmida yuzaga kelgan asosiy nazariy yo'nalishlar, zamonaviy funksional, deskriptiv, kognitiv, madaniy va korpusga asoslangan yondashuvlarning o'ziga xos xususiyatlari hamda raqamlashtirish, neyron mashina tarjimasi va sun'iy intellekt texnologiyalarining soha rivojiga ta'siri izchil tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi tarjimashunoslikdagi nazariy paradigmalarning evolyutsiyasini umumlashtirish va zamonaviy tarjima amaliyoti hamda ilmiy tadqiqotlarda kuzatilayotgan yetakchi rivojlanish tendensiyalarini aniqlashdan iborat.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Tarjimashunoslikning mustaqil ilmiy fan sifatida shakllanishi va uning nazariy-metodologik asoslarini belgilashda Jeyms S. Holms (James S. Holmes)ning 1972-yilda e'lon qilingan "The Name and Nature of Translation Studies" maqolasi muhim nazariy manbalardan biri hisoblanadi. Olim tarjimashunoslikning tarkibiy tuzilishini tizimlashtirib, uni nazariy va amaliy yo'nalishlarga ajratish orqali mazkur sohaning mustaqil fan sifatida shakllanishiga konseptual asos yaratgan. Holmes tomonidan ilgari surilgan model keyingi tarjimashunoslik tadqiqotlarida tarjima jarayoni, tarjima mahsuli va tarjimaning amaliy jihatlari tizimli o'rganish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qildi [2, b. 177-182].

Tarjima nazariyasining keyingi rivojlanishida Yujin Nida (Eugene Nida) tomonidan ishlab chiqilgan formal va dinamik ekvivalentlik konsepsiyasi alohida ahamiyat kasb etdi. Mazkur yondashuv tarjimada faqat manba matn shaklini saqlash emas, balki uning mazmuni va kommunikativ ta'sirini maqsad til o'quvchisiga imkon qadar adekvat yetkazish zarurligini asoslaydi [4, b. 120-145]. Katarina Rays (Katharina Reiss) va Hans J. Vermeer tomonidan ishlab chiqilgan funksionalist yondashuv hamda Skopos nazariyasi esa tarjimaning maqsadi, matn funksiyasi va kommunikativ vazifasini tarjima jarayonining asosiy belgilovchi omillari sifatida talqin qiladi [5, b. 85-102]. Lorens Venuti (Lawrence Venuti)ning tadqiqotlarida esa tarjimaning madaniy va mafkuraviy jihatlari alohida e'tibor qaratilib, domestikatsiya va forenizatsiya strategiyalari orqali manba va maqsad madaniyatlari o'rtasidagi munosabat masalasi yoritilgan [6, b. 45-68].

O'zbekistonda tarjimashunoslikning milliy ilmiy maktab sifatida shakllanishi va rivojlanishi, avvalo, akademik G'aybullah Salomovning ilmiy faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Uning "Maqol va matallar tarjimasi" hamda "Tarjima nazariyasi asoslari" kabi asarlarida tarjimaning nazariy va amaliy masalalari, xususan, frazeologik birliklarni boshqa tilga qayta yaratish, tarjima ekvivalentligi va tarjimon mahorati bilan bog'liq muammolar tadqiq etilgan [10, b. 88-115]. Najmiddin Komilovning ilmiy izlanishlarida esa adabiy va tasavvufiy matnlarning tarjimasi, ularning badiiy-falsafiy mazmunini boshqa tilda qayta ifodalash masalalari muhim o'rin tutadi [8, b. 54-78]. Qodir Musayev tadqiqotlarida tarjimaning lingvistik asoslari, leksik-semantik muammolari va tarjima jarayonida til birliklarining qayta ifodalanish xususiyatlari tizimli ravishda yoritilgan [9, b. 102-128].

Zamonaviy tarjimashunoslik tadqiqotlarida esa tarjima hodisasining funksional, madaniy, kognitiv va texnologik jihatlarini kompleks o'rganishga e'tibor kuchaymoqda. Jeremy Munday tarjima nazariyalarining shakllanishi va zamonaviy tarjimashunoslikdagi asosiy konsepsiyalarni tizimlashtirgan bo'lsa, Susan Bassnett tarjima adabiyot, madaniyat va jamiyat bilan uzviy bog'liq bo'lgan jarayon sifatida talqin qiladi [3, b. 110-135; 1, b. 35-50]. Xurshid Hamidovning tadqiqotlarida esa zamonaviy tarjimashunoslikning lingvomadaniy va amaliy jihatlariga e'tibor qaratiladi [7, b. 62-80]. Mazkur tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tarjimashunoslik dastlab lingvistik ekvivalentlik masalalariga asoslangan bo'lsa, hozirgi bosqichda funksionalizm, deskriptiv, kognitiv, lingvomadaniy va texnologik yondashuvlarni qamrab olgan fan sifatida rivojlanmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot tarjimashunoslikning zamonaviy nazariyalari va rivojlanish tendensiyalarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, nazariy manbalarni tizimli o'rganish va qiyosiy tahlil qilishga asoslanadi. Tadqiqot materiali sifatida G'arb va o'zbek tarjimashunosligida shakllangan asosiy nazariy konsepsiyalar, ilmiy maktablar hamda zamonaviy tarjima tadqiqotlarida qo'llanilayotgan metodologik yondashuvlar tanlandi. Xususan, J. S. Holmes, E. Nida, K. Reiss, H. J. Vermeer, G. Toury, L. Venuti, J. Munday va boshqa olimlarning tarjima nazariyasiga oid ilmiy qarashlari tahlil qilindi. Shuningdek, o'zbek tarjimashunosligida G'. Salomov, N. Komilov, Q. Musayev kabi olimlarning ilmiy izlanishlari mazkur tadqiqotning nazariy manbalarini tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida tarjimashunoslikning shakllanishi va rivojlanishini turli davrlar hamda nazariy paradigmalar kesimida o'rganish uchun diaxronik va sinxronik yondashuvlardan foydalanildi. Diaxronik yondashuv orqali tarjima nazariyalarining tarixiy shakllanishi, bir nazariy paradigmadan ikkinchisiga o'tish jarayoni va zamonaviy konsepsiyalarning yuzaga kelish omillari izchilda tahlil qilindi. Sinxronik yondashuv asosida esa hozirgi tarjimashunoslikda parallel ravishda mavjud bo'lgan funksional, deskriptiv, kognitiv, lingvomadaniy va texnologik yondashuvlarning o'ziga xos xususiyatlari aniqlanib, ularning ilmiy imkoniyatlari qiyoslandi.

G'arb va o'zbek tarjimashunoslik maktablarining nazariy tamoyillarini o'rganishda komparativ-tipologik tahlil asosiy metodlardan biri sifatida qo'llanildi. Ushbu metod yordamida turli ilmiy maktablar tomonidan ilgari surilgan tarjima ekvivalentligi, tarjima maqsadi, matn funksiyasi, madaniy muvofiqlik, tarjimon faoliyati va tarjima texnologiyalariga oid qarashlarning umumiy va farqli jihatlarini aniqlandi. Shuningdek, kognitiv va diskursiv tahlil asosida tarjima jarayonida inson omili, tarjimonning qaror qabul qilishi, matnni idrok etish va talqin qilish mexanizmlari hamda zamonaviy texnologiyalarning tarjima jarayonidagi o'rni ko'rib chiqildi.

Tadqiqotning yakuniy bosqichida metodologik umumlashtirish va modellashtirish usullaridan foydalanildi. Mazkur usullar yordamida tarjimashunoslikning turli davrlarida shakllangan nazariy yondashuvlar o'zaro bog'liq holda umumlashtirilib, zamonaviy raqamli tarjima sharoitida ularning ilmiy va amaliy ahamiyati belgilandi. Olingan natijalar asosida tarjimashunoslikning rivojlanish tendensiyalari, xususan, lingvistik yondashuvdan funksional va madaniy yondashuvlarga, keyinchalik esa kognitiv, korpusga asoslangan va texnologik paradigmalariga o'tish jarayoni tizimlashtirildi. Mazkur metodologik yondashuvlar zamonaviy tarjimashunoslikni fanlararo tizim sifatida tavsiflash va uning kelajakdagi rivojlanish yo'nalishlarini ilmiy asosda belgilash imkonini berdi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Tarjimashunoslik fanining shakllanishi, tarixiy taraqqiyoti va zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish natijasida mazkur fan nazariy va metodologik jihatdan bir necha bosqichlarni bosib o'tgani aniqlandi. Tarjimashunoslikning rivojlanish jarayoni uch asosiy konseptual paradigma - lingvistik, pragmatik-madaniy hamda kognitiv-raqamli paradigma asosida tavsiflanadi. Mazkur bosqichlar tarjima hodisasiga bo'lgan ilmiy qarashlarning oddiy lingvistik almashtirishdan ko'p omilli va polidissiplinar yondashuvga bo'lgan evolyutsiyasini namoyon etadi. Quyida tarjimashunoslik fanining rivojlanish bosqichlari keltirib o'tilgan:

Paradigma	Davr	Asosiy yondashuv	Mualliflar	Muhim xususiyat
Lingvistik paradigma	1950-1970-yillar	Strukturaviy-lingvistik yondashuv	J. Catford, E. Nida	Tarjima ikki til tizimi o'rtasidagi leksik va grammatik almashtirish, formal moslik va rasmiy ekvivalentlik asosida talqin qilindi.
Pragmatik va madaniy paradigma	1980-1990-yillar	Pragmatik, funksional va lingvomadaniy yondashuv	Bassnett, H. Vermeer	Tarjima til birliklarini almashtirishdan tashqari, madaniy omillar, kommunikativ vazifa va tarjimaning maqsadi - Skopos bilan bog'liq jarayon sifatida qaraldi.

Kognitiv va raqamli paradigma	2000-yildan keyin	Kognitiv, texnologik va raqamli yondashuv	G. Shreva, E. Angelone, M. Baker, M. O'Hagan va boshqalar	NMT, sun'iy intellekt, korpus tarjimashunosligi, post-tahrirlash va "eye-tracking" kabi zamonaviy texnologik hamda empirik metodlar rivojlandi.
--------------------------------------	-------------------	---	---	---

Jadvaldan ko'rinadiki, tarjimashunoslikning dastlabki bosqichida asosiy e'tibor til tizimlari o'rtasidagi formal va strukturaviy moslikka qaratilgan bo'lsa, keyingi bosqichlarda tarjimaning kommunikativ maqsadi, madaniy konteksti va funksional xususiyatlari ham tadqiqot markaziga kiritildi. Zamonaviy bosqichda esa tarjima jarayonining inson tafakkuri bilan bog'liq kognitiv mexanizmlari hamda raqamli texnologiyalar bilan integratsiyasi ustuvor yo'nalishga aylandi.

Tarjimashunoslik taraqqiyotining muhim yo'nalishlaridan biri o'zbek tarjimashunoslik maktabining shakllanishi bilan bog'liq. O'zbek tarjimashunoslik maktabi jahon tarjimashunosligi taraqqiyoti bilan uzviy aloqada rivojlangan bo'lsa-da, milliy-madaniy, lingvistik va adabiy-estetik xususiyatlari bilan ajralib turadi. G'aybullar Salomov va uning ilmiy maktabi vakillari tomonidan ilgari surilgan qarashlarda tarjimaning mazmuniy adekvatligi bilan bir qatorda, milliy koloritni saqlash, badiiy-estetik qiymatni qayta yaratish va matnning funksional xususiyatlarini hisobga olish muhim tamoyil sifatida qaraladi. Mazkur ilmiy an'anani quyidagi asosiy yo'nalishlarda umimlashtirish mumkin.

Milliy kolorit va lingvomadaniy adekvatlik. Tarjima jarayonida original matnning milliy ruhi, madaniy mazmuni, obrazlar tizimi va frazeologik qatlamini imkon qadar to'laqonli qayta yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda tarjimon nafaqat lisoniy birliklarning mazmunini, balki ularning ortida mujassam bo'lgan milliy-madaniy ma'nolarni ham boshqa til o'quvchisiga yetkazishga intiladi [10, b. 95].

Adabiy va tasavvufiy merosning interpretatsiyasi. Sharq mumtoz adabiyoti va tasavvufiy meros namunalarini boshqa tillarga tarjima qilishda ularning konseptual mazmuni, ramziy-obrazli tizimi hamda falsafiy-estetik mohiyatini saqlash alohida ahamiyatga ega. Bunday tarjimada matnning nafaqat yuzaki mazmuni, balki uning tarixiy-madaniy va tasavvufiy qatlamlarini ham adekvat talqin qilish talab etiladi [8, b. 60].

Funksional-stilistik muvozanat. Tarjima jarayonida original matnning kommunikativ vazifasi, janr xususiyatlari va uslubiy o'ziga xosligini saqlagan holda tarjima tilining ifoda imkoniyatlaridan samarali foydalanish muhim tamoyillardan biridir. Ayniqsa, badiiy va ilmiy matnlar tarjimasida mazmuniy aniqlik, uslubiy moslik va tabiiylik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash tarjimaning sifatini belgilovchi muhim omil hisoblanadi [9, b. 110].

Mazkur xususiyatlar o'zbek tarjimashunoslik maktabida tarjima sifatini faqat so'z yoki gaplarning formal mosligi orqali emas, balki milliy-madaniy mazmun, badiiy-estetik qiymat, kommunikativ vazifa va uslubiy xususiyatlarning qayta yaratilishi orqali baholashga e'tibor qaratilganini ko'rsatadi. Xususan, milliy koloritni saqlash tarjimada faqat lisoniy birliklarni emas, balki ular ortidagi madaniy ma'nolarni ham yetkazishni talab qiladi. Mumtoz va tasavvufiy matnlarni tarjima qilishda esa tarixiy-madaniy hamda falsafiy qatlamlarni hisobga olish zarur.

Tadqiqot davomida zamonaviy tarjimashunoslikda yetakchilik qilayotgan asosiy nazariya va tendensiyalar ham qiyosiy jihatdan tahlil qilindi. Ular tarjima jarayonining maqsadi, tarjimonning kognitiv faoliyati, real tarjima matnlarining korpus asosidagi tadqiqi hamda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish kabi turli jihatlarni qamrab oladi.

Nazariya/Tendensiya	Asoschi va vakillar	Konseptual mohiyati	Amaliy va ilmiy ahamiyati
Skopos nazariyasi	H. Vermeer, K. Reiss	Tarjima jarayonini original matnning o'zi emas, balki tarjimaning maqsadli funksiyasi - Skopos belgilaydi.	Kommersiya, texnik va lokalizatsiya tarjimalarida samarali qo'llanadi.
Kognitiv tarjimashunoslik	G. Shreve, E. Angelone	Tarjima jarayonida tarjimonning psixolingvistik, kognitiv va qaror qabul qilish mexanizmlarini o'rganadi.	Tarjimonning kognitiv faoliyati va intellektual yuklamasini o'rganish imkonini beradi.
Korpus tarjimashunosligi	M. Baker	Parallel korpuslar va statistik vositalar yordamida tarjima	Tarjimada til birliklaridan foydalanish chastotasi, takroriy

LINGUISTICS

(CTS)		matnlarini tahlil qiladi.	qonuniyatlar va uslubiy xususiyatlarni aniqlash imkonini beradi.
Raqamli tarjima va PEMT	D. Bowker, M. O'Hagan	NMT va sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan tarjima mahsulotini inson tomonidan post-tahrirlashga asoslanadi.	Tarjima jarayonini tezlashtirish, katta hajmdagi matnlarni qayta ishlash va inson-kompyuter hamkorligini rivojlantirish imkonini beradi.

Ushbu nazariyalar tahlili zamonaviy tarjimashunoslikda yagona yondashuv emas, balki bir-birini to'ldiruvchi metodologik yo'nalishlar shakllanganini ko'rsatadi. Skopos nazariyasi tarjimaning maqsadi va funksiyasiga, kognitiv tarjimashunoslik tarjimonning tafakkur jarayonlariga, korpus tarjimashunosligi real tarjima materiallarining empirik tahliliga, raqamli tarjima va PEMT esa texnologiyalar bilan inson faoliyatining integratsiyasiga e'tibor qaratadi.

Shuningdek, zamonaviy tarjimashunoslikda inson va kompyuterning gibrid hamkorligi tobora muhim ahamiyat kasb etayotgani aniqlandi. Mazkur jarayonni shartli ravishda quyidagi ketma-ketlik orqali ifodalash mumkin:

[ManbaMatn] → [NMT/Sun'iyIntellektTarjimasi] → [PEMT(Post – editing/InsonTahriri)]
→ [Kognitiv – PragmatikTahlil] → [AdekvatMatn]

Muhokama. Olingan natijalar tarjimashunoslik fanining rivojlanishi oddiy lingvistik yondashuvdan bosqichma-bosqich keng qamrovli, ko'p omilli va polidissiplinar yondashuvga o'tganini ko'rsatadi. Lingvistik paradigma davrida tarjimaning asosiy mezoni formal moslik va ekvivalentlik bo'lgan bo'lsa, pragmatik-madaniy burilishdan keyin tarjimaning kommunikativ maqsadi, funksiyasi va madaniy konteksti ham muhim tadqiqot obyekti sifatida qarala boshlandi. Kognitiv va raqamli paradigma esa tarjima jarayoniga inson tafakkuri, sun'iy intellekt, korpus texnologiyalari va neyron mashina tarjimasini olib kirdi.

Mazkur evolyutsiya tarjima sifatini baholash mezonlarining ham kengayishiga olib keldi. Zamonaviy tarjimani faqat leksik va grammatik ekvivalentlik asosida baholash yetarli emas. Ayniqsa, badiiy, ilmiy va madaniy jihatdan belgilangan matnlarda milliy kolorit, lingvomadaniy mazmun, funksional vazifa, janr va uslubiy xususiyatlarni saqlash muhim hisoblanadi. O'zbek tarjimashunoslik maktabining nazariy merosi ham aynan mazkur jihatlarni uyg'un holda ta'minlashga yo'naltirilgan.

Zamonaviy nazariyalar tahlili esa tarjimashunoslikning metodologik imkoniyatlari sezilarli darajada kengayganini ko'rsatadi. Skopos nazariyasi tarjimaning maqsadga yo'naltirilganligini tushuntirishga imkon bersa, kognitiv tarjimashunoslik tarjimonning qaror qabul qilish mexanizmlarini o'rganadi. Korpus tarjimashunosligi tarjima amaliyotini katta hajmdagi real matnlar asosida empirik tadqiq etish imkoniyatini yaratadi. Raqamli tarjima va PEMT esa tarjima faoliyatining texnologik transformatsiyasini ifodalaydi.

Ayniqsa, sun'iy intellekt va NMT texnologiyalarining rivojlanishi tarjimashunoslik oldiga yangi ilmiy masalalarni qo'ymoqda. Mashina tarjimasi katta hajmdagi matnlarni qisqa vaqt ichida qayta ishlash imkonini berib, tarjima jarayonining samaradorligini oshiradi. Biroq texnologik jihatdan mukammal tarjima ham har doim lingvomadaniy, pragmatik va uslubiy jihatdan to'laqonli adekvatlikni kafolatlamaydi. Shu sababli post-tahrirlash, inson nazorati va kognitiv-pragmatik tahlil zamonaviy tarjima jarayonining muhim tarkibiy qismlariga aylanmoqda.

O'zbek tarjimashunosligi uchun ushbu jarayon alohida ahamiyatga ega. Bir tomondan, xalqaro tarjimashunoslikdagi yangi nazariyalar, korpus texnologiyalari va sun'iy intellekt imkoniyatlarini o'zlashtirish zarur bo'lsa, ikkinchi tomondan, milliy tarjimashunoslikning shakllangan ilmiy an'analarni saqlash va rivojlantirish talab etiladi. Ayniqsa, milliy kolorit, lingvomadaniy adekvatlik, badiiy-estetik mazmun va funksional-stilistik muvozanat masalalari raqamli tarjima sharoitida ham o'z dolzarbligini saqlab qoladi.

Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy tarjimashunoslikning rivojlanish tendensiyalarini inson va texnologiya o'rtasidagi qarama-qarshilik sifatida emas, balki ularning o'zaro hamkorligi asosida ko'rish maqsadga muvofiqdir. Sun'iy intellekt tarjimonning o'rnini to'liq egallashdan ko'ra, tarjima jarayonini tezlashtiruvchi va dastlabki tarjima mahsulotini yaratuvchi vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Inson tarjimoni esa yakuniy matnning ma'no, madaniyat, pragmatika, uslub va kommunikativ maqsad jihatidan adekvatligini ta'minlovchi asosiy subyekt bo'lib qolmoqda.

Xulosa. Tarjimashunoslik fanining tarixiy shakllanishi va zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini o'rganish natijasida uning taraqqiyoti uch asosiy paradigma - lingvistik, pragmatik-madaniy hamda kognitiv-raqamli bosqichlar orqali amalga oshgani aniqlandi. Dastlab tarjima ikki til tizimi o'rtasidagi leksik-grammatik almashtirish va formal ekvivalentlik nuqtayi nazaridan talqin qilingan bo'lsa, keyinchalik

tarjimaning kommunikativ maqsadi, madaniy konteksti va funksional xususiyatlari tadqiqot markaziga chiqdi. XXI asrda esa kognitiv yondashuvlar, korpus tarjimashunosligi, neyron mashina tarjimasi, sun'iy intellekt va post-tahrirlash kabi yo'nalishlar tarjimashunoslikning yangi rivojlanish bosqichini belgilamoqda.

O'zbek tarjimashunoslik maktabining shakllanishi jahon tarjimashunosligi taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq bo'lsa-da, u milliy kolorit, lingvomadaniy adekvatlik, badiiy-estetik qiymat, adabiy va tasavvufiy merosning interpretatsiyasi hamda funksional-stilistik muvozanat kabi o'ziga xos tamoyillarga ega. Mazkur tamoyillar tarjimani faqat lisoniy birliklarning boshqa tilga o'girilishi emas, balki milliy-madaniy va estetik mazmunning qayta yaratilishi sifatida baholash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari zamonaviy tarjimashunoslikda Skopos nazariyasi, kognitiv tarjimashunoslik, korpus tarjimashunosligi hamda raqamli tarjima va PEMT kabi yo'nalishlarning muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi. Ularning har biri tarjima jarayonining turli jihatlarini - maqsad, kognitiv faoliyat, empirik tahlil va texnologik transformatsiyani yoritadi.

Umuman olganda, tarjimashunoslik bugungi kunda lingvistika, pragmatika, sotsiolingvistika, madaniyatshunoslik, kognitiv fanlar va axborot texnologiyalari bilan uzviy bog'langan polidissiplinar ilmiy soha sifatida namoyon bo'lmoqda. Uning kelgusi taraqqiyoti milliy tarjimashunoslik an'alarini zamonaviy xalqaro nazariyalar bilan uyg'unlashtirish, parallel va raqamli korpuslarni rivojlantirish, sun'iy intellekt imkoniyatlaridan samarali foydalanish hamda tarjimaning kognitiv, pragmatik, lingvomadaniy va texnologik jihatlarini empirik tadqiq etish bilan chambarchas bog'liq.

ADABIYOTLAR:

1. Bassnett, S. (2014). *Translation studies* (4th ed.). London & New York: Routledge.
2. Holmes, J. S. (1988). *The name and nature of translation studies*. In *Translated! Papers on literary translation and translation studies* (pp. 67-80). Amsterdam: Rodopi.
3. Munday, J. (2016). *Introducing translation studies: Theories and applications* (4th ed.). London & New York: Routledge.
4. Nida, E. A. (1964). *Toward a Science of Translating: With Special Reference to Principles and Procedures Involved in Bible Translating*. Leiden: Brill.
5. Reiss, K., & Vermeer, H. J. (2014). *Towards a general theory of translational action: Skopos theory explained*. London & New York: Routledge.
6. Venuti, L. (2008). *The translator's invisibility: A history of translation* (2nd ed.). London & New York: Routledge.
7. Hamidov, X. (2021). *Tarjimaning lingvokulturologik va pragmatik aspektlari*. Samarqand: SamDU nashri.
8. Komilov, N. (1979). *Bu qadimiy san'at: Tarjima nazariyasi va amaliyoti masalalari*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
9. Musayev, Q. (2012). *Tarjima nazariyasi asoslari*. Toshkent: Fan va texnologiya.
10. Salomov, G'. (1983). *Tarjima nazariyasi asoslari*. Toshkent: O'qituvchi.

ФУНКЦИОНАЛЬНО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ВРЕМЕННЫХ ФОРМ НЕМЕЦКОГО ЯЗЫКА В ТЕКСТЕ

*Рахматов Ахмад Пирмухаммадович,
Старший преподаватель кафедры
Немецкой и французской филологии
Бухарского государственного университета
axmadraxmatov84@gmail.com*

Аннотация. В статье рассматриваются функционально-семантические особенности временных форм немецкого языка в тексте. Исследуются парадигматические и синтагматические отношения временных форм, их оппозиционные связи, а также изменения значений под влиянием контекста. Анализируются процессы нейтрализации временных форм в претеритальном, презентном и футуральном рядах, явления акцессии и оmissии, а также такие семантические признаки, как перфектность, предшествование и актуальность результата.

Ключевые слова: немецкий язык, временные формы, функциональная семантика, парадигматика, синтагматика, перфектность, претерит, перфект, плюсквамперфект, футурум, оппозиция, нейтрализация, акцессия, оmissия, контекст.

NEMIS TILI ZAMON SHAKLLARINING MATNDAGI FUNKSIONAL-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Maqolada nemis tilidagi zamon shakllarining funksional-semantik xususiyatlari matn asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda zamon shakllarining paradigmatic va sintagmatic munosabatlari, ularning o'zaro oppozitsiyasi hamda kontekst ta'sirida yuzaga keladigan ma'no o'zgarishlari yoritilgan. Preterital, prezental va futural qatorlardagi zamon shakllarining neytrallashuvi, aksessiya va omissiya hodisalari, shuningdek, perfektlik, oldin ro'y berganlik va natijaning aktualligi kabi semantik belgilar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: nemis tili, zamon shakllari, funksional semantika, paradigmatica, sintagmatika, perfektlik, preterit, perfekt, plyuskvamperfekt, futurum, oppozitsiya, neytrallashuv, aksessiya, omissiya, kontekst.

FUNCTIONAL-SEMANTIC FEATURES OF GERMAN TENSE FORMS IN TEXT

Abstract. This article examines the functional-semantic features of German tense forms in textual discourse. The study focuses on paradigmatic and syntagmatic relations of tense forms, their oppositional structure, and semantic changes caused by contextual factors. Particular attention is paid to the neutralization of tense meanings within the preterital, present, and future series, as well as to the phenomena of accession and omission. Semantic categories such as perfectivity, anteriority, and result relevance are analyzed in detail

Keywords: German language, tense forms, functional semantics, paradigmatics, syntagmatics, perfectivity, preterite, perfect, pluperfect, future tense, opposition, neutralization, accession, omission, context.

Введение. В системе временных форм формируются оппозиционные ряды, которые наиболее отчётливо проявляются на парадигматическом уровне. Под влиянием синтаксических и лексических средств контекста, а также слов, участвующих в формообразовании, дифференциальные признаки противопоставленных членов могут подвергаться нейтрализации. В результате этого семантика отдельных временных форм сближается, что приводит к возникновению функциональной синонимии [J. Erben, 1987, с. 178–179].

Анализ литературы по теме. В немецком языке система временных форм образует шестичленную оппозицию [G. Helbig, J. Buscha, 1996, с. 500–501]. Оппозиционные отношения наблюдаются как между претеритальным, презентным и футуральным временными рядами, так и внутри каждого из них. Противопоставление временных форм может быть наглядно представлено в виде таблицы, основанной на одном или нескольких дифференциальных семантических признаках.

Методология исследования. 1. Дифференциальный семантический признак «перфектность» включает две субсемы: предшествование и связь. При этом сама связь может иметь два вида. В.А. Жеребков выделяет перфективную связь (например: *Ich bin gekommen* → *Ich bin da*) и имперфективную связь (например: *Ich habe gearbeitet* → *Ich arbeite nicht mehr*) [В.А. Жеребков, 1970, с. 96–97].

Как видно, существенным является не то, насколько задолго до или после рассматриваемого момента произошло действие, а именно его связь с данным моментом. Поэтому о наличии такой связи можно говорить и в тех случаях, когда обозначаемое действие отделено от момента речи значительным промежутком времени. Например: *Kolumbus hat Amerika entdeckt* [В.А. Жеребков, 1970, с. 96–97]. Подобное понимание связи сближает трактовку перфектности с пониманием актуальности как одной из её разновидностей.

2. Дифференциальные семантические признаки начала и окончания действия рассматриваются не в аспектуальном, а в темпоральном значении. При этом имеется в виду наличие или отсутствие данных признаков в парадигматическом значении временной формы по отношению к моменту речи.

3. В системе временных рядов наблюдаются определённая последовательность и сходство в выражении признака начала действия. Обе временные формы каждого ряда выражают данный признак одинаковым образом. В претеритальном ряду этот признак выражается (знак «+»), в футуральном ряду — не выражается (знак «–»), тогда как в презентном ряду сами формы не указывают на его наличие; он проявляется или не проявляется лишь под влиянием контекста (знак «+/-»).

Привативная оппозиция перфектности/неперфектности распространяется на все временные ряды и является одной из характерных особенностей системы временных форм немецкого языка [Th. Gloning, 2007, с. 302–303].

Среди всех временных рядов презентный ряд отличается тем, что наряду с привативной оппозицией перфектность/неперфектность в нём наблюдаются ещё три привативные оппозиции, основанные на признаках IO (окончание действия), OR (предшествование) и BV (одновременность). В результате обе формы претеритального ряда относятся к прошедшему времени, поскольку выражают признак OR, обе формы футурального ряда представляют будущее время, выражая признак KS (последование), тогда как в презентном ряду только форма *Präsens* выступает как форма настоящего времени благодаря выражению признака BV. Форма *Perfekt*, напротив, вследствие выражения признаков IO и OR должна быть отнесена к группе форм прошедшего времени.

Следует отметить, что признак OR (*предшествование*) в форме *Perfekt* обладает иным семантическим содержанием, чем в форме *Plusquamperfekt*. Это различие обусловлено функциями, которые выполняет момент речи по отношению к данным временным формам. По отношению к претеритальному и футуральному рядам момент речи выполняет исключительно функцию разграничения.

Именно благодаря этой функции момента речи на временной оси выделяются три основные временные зоны — прошедшее, настоящее и будущее, каждая из которых образует собственную ось ориентации (*Orientierungssachse*). Для настоящего времени такая ось совпадает с моментом речи. На наш взгляд, немецкие исследователи К. Матцель и Б. Ульвестад наиболее удачно представили данное явление с помощью схемы, отражающей взаимосвязь трёх временных точек (трёх временных параметров): *Sprechzeit*, *Betrachtzeit* и *Aktionszeit* [K. Matzel, B. Ulvestad, 2002, с. 299–300]:

Präsens	Sprz.	Perfekt	Sprz.
	Betz.		Betz.
	Aktz.		Aktz.


При сопоставлении взаимного расположения *Sprechzeit* и *Betrachtzeit* (момента речи и оси ориентации) в формах *Perfekt* и *Präsens* становится очевидно, что они совпадают во времени. Именно этим *Präsens* и *Perfekt* принципиально отличаются от временных форм других рядов: обозначаемое ими действие посредством оси ориентации непосредственно связано с моментом речи.

Форма *Präsens* выражает действие, совпадающее с моментом речи и являющееся актуальным для данного момента. Форма *Perfekt*, в свою очередь, обозначает действие, предшествующее моменту речи, однако его результат остаётся связанным с этим моментом во временном отношении. В современной германистике подобная разновидность актуальности рассматривается как результат действия, возникающий вследствие совпадения оси ориентации и момента речи (*Überkoppelung*) [2005, с. 72–73] и подробно анализируется в работах Г. Гревендорфа [G. Grewendorf, 2004, с. 230].

В этом случае момент речи выполняет функцию временного ориентира для презентного ряда. Данная функция одинаково распространяется как на форму *Präsens*, так и на форму *Perfekt*, что

определяет совершенно особое положение Perfekt среди остальных форм прошедшего времени [Р. Klotz, 2006, с. 119].

Иное соотношение между моментом речи (Sprechzeit), осью ориентации (Betrachtzeit) и временем действия (Aktionszeit) наблюдается в формах Präteritum и Plusquamperfekt:



В данном случае момент речи и ось ориентации прошедшего времени не совпадают, а момент речи выполняет лишь функцию временной границы по отношению к претеритальному ряду. Поэтому можно согласиться с точкой зрения, согласно которой Präteritum и Plusquamperfekt представляют собой две формы прошедшего времени, дистанцированные от момента речи, тогда как Perfekt является формой, непосредственно связанной с ним.

Результаты исследования и их анализ.

1. Претеритальный ряд

Из приведённой выше таблицы отчётливо видно, что значения временных форм данного ряда характеризуются высокой степенью семантической близости. В этой связи профессор Е.И. Шендельс справедливо отмечал, что потенциальная основа нейтрализации уже заложена в самой оппозиции: противопоставленные члены, обладая общими признаками, находятся в отношениях тесного семантического родства [Е.И. Шендельс, 1964, с. 34].

Сопоставление дифференциальных семантических признаков Plusquamperfekt и Präteritum показывает, что обе формы совпадают по признакам IB, IO и OR и противопоставляются лишь по признаку перфектности. Данный признак выражен в форме Plusquamperfekt, тогда как в форме Präteritum он отсутствует.

Однако формы Präteritum, образованные от инхотативных (предельных) глаголов, а также конструкции типа fort sein, um sein, zu Ende sein, durch sein в соответствующем контексте способны приобретать значение перфектности. Например:

Diese Augen, welche Tausend Dinge erblickten, die kein anderer wahrnahm, das Nächste, Greifbare sahen sie nicht (L. Feuchtwanger, *Narrenweisheit*, 121);

Als sie wirklich kam, begriff ich nicht, dass sie es war (H. Böll, *Und sagte kein einziges Wort*, 72);

Als sie fort war, kam Frau Zalewski aus ihrem Salon (E. M. Remarque, *Drei Kameraden*, 49).

Сближение значения Präteritum со значением Plusquamperfekt обусловлено как контекстом, так и типом придаточного предложения. Однако решающим фактором выступает лексическое значение глагола, реализующего соответствующую временную форму. По выражению Е.И. Шендельс, речь идёт о внутренней лексической обусловленности (*внутренней лексической связи*) [1964].

В подобных случаях форма Präteritum, сохраняя своё морфологическое оформление, функционирует как аналитическая временная форма и приобретает признак перфектности. Такой тип нейтрализации оппозиции получил в лингвистике название акцессия (от лат. *accedo* — «приближаться», «присоединяться») [В.-М. Эк, 2006, с. 112].

Использование простых временных форм в древненемецком языке в функциях аналитических конструкций позволяет объяснить, почему и в современном немецком языке такие формы, как Präteritum и Präsens, в определённом контексте способны приобретать значения, не свойственные их основному грамматическому значению. Данный факт отражает закономерности исторического развития системы временных форм немецкого языка.

В современном немецком языке простые и аналитические временные формы находятся между собой в отношениях оппозиции [W. Kürschner, 1997, с. 168–169].

Переход значений Plusquamperfekt и Präteritum может происходить и в том случае, когда форма Plusquamperfekt утрачивает признак перфектности. Как известно, дифференциальный семантический признак перфектности обычно рассматривается как единство двух субсем — предшествования и связанности (актуальности результата).

При парадигматическом анализе данные субсем, как правило, не разграничиваются. Однако при синтагматическом анализе игнорировать такое разграничение невозможно. Например:

„Na, hoffentlich, habe ich nichts vergessen,“ - sagte sie und war im Begriff, die abgetragene Ledermappe, die sie an die magere Brust gepresst hatte, auf den Tisch zu legen (B. Uhse, *Die Patrioten*, 206).

В данном случае значение Plusquamperfekt сближается со значением Präteritum, поскольку актуальность результата утрачивается. Вместе с тем, в отличие от Präteritum, в форме Plusquamperfekt отчётливо сохраняется признак предшествования по отношению к точке отсчёта данного временного ряда.

При ослаблении признака предшествования нередко возникает иной вариант употребления. Например:

Er war stehengeblieben, wartete, bis sie dicht an ihn herangetreten war (B. Uhse, *Die Patrioten*, 11);

Keine halbe Stunde, nachdem er sich von Maria getrennt hatte, war er Thea Borneman begegnet (B. Uhse, *Die Patrioten*, 95);

Auf der abwechslungsreichen Fahrt waren die Eindrücke zu stark geworden, er hatte die Augen geschlossen (L. Frank, *Mathilde*, 74).

На данную особенность функционирования Plusquamperfekt обращали внимание и другие германисты. Они отмечают, что даже при ослаблении значения предшествования полного совпадения семантики Präteritum и Plusquamperfekt не происходит, поскольку Plusquamperfekt обозначает завершённое действие, которое обусловило возникновение определённого состояния в прошлом.

Именно значение завершённости в ряде случаев делает употребление Plusquamperfekt предпочтительнее по сравнению с Präteritum [J. Ballweg, 2007, с. 90]. Проведённый нами анализ также подтверждает данный вывод. Действительно, дифференциальный семантический признак перфектности, присущий форме Plusquamperfekt, не подвергается полной нейтрализации. Если ослабевает субсема предшествования, сохраняется субсема связанности, то есть значение актуальности результата. И, наоборот, при ослаблении субсемы связанности продолжает сохраняться субсема предшествования.

Следовательно, дифференциальный семантический признак перфектности, характерный для формы Plusquamperfekt, никогда не исчезает полностью. Данный тип нейтрализации оппозиции противопоставленных членов получил название оmissia (от лат. *omissio* — «опущение», «утрата») [В.-М. Ек, 2006, с. 114].

Таким образом, акцессия и оmissia представляют собой два основных способа нейтрализации парадигматической оппозиции временных форм немецкого языка. В результате нейтрализации обе временные формы становятся контекстуальными синонимами:

- вариантное значение Plusquamperfekt $\approx$ парадигматическому значению Präteritum;
- вариантное значение Präteritum $\approx$ парадигматическому значению Plusquamperfekt.

Сопоставительное изучение двух способов нейтрализации в претеритальном ряду позволяет сделать следующий вывод. Контекст способствует приобретению временной формой нового значения или дополнительного семантического признака, однако он не способен полностью устранить тот дифференциальный семантический признак, который изначально присущ данной временной форме и составляет часть её парадигматического значения.

Теоретически такое сближение возможно в случаях нейтрализации значения завершённости действия и признака перфектности, поскольку этому не препятствует семантический признак предшествования моменту речи. Форма Präsens нередко обозначает действие, начавшееся до момента речи и продолжающееся в момент речи. Поскольку значение предшествования входит и в состав дифференциального семантического признака перфектности, его нейтрализация осуществляется за счёт утраты субсемы связанности (актуальности результата) [Е.И. Шендельс, 1966, с. 105].

При этом действие, выраженное формой Perfekt, не должно обозначать ни результативность, ни отрицание результата.

В следующем примере лексические средства *lange* и *immer* способствуют тому, что форма Perfekt выражает длительное действие, охватывающее значительный временной промежуток — от прошлого к настоящему. Иными словами, речь идёт о действии, синхронном с любым моментом прошлого и настоящего. В данном случае значение Perfekt совпадает с общевременным значением Präsens:

Solange ich erinnern kann, habe ich immer eine Abneigung gegen körperliche Züchtigung gehabt (H. Böll, *Und sagte kein einziges Wort*, 37).

Сопоставим этот пример с примером, приведённым в работе В. Флемига:

Galilei, ich habe dich immer als einen schlauen Mann gekannt (B. Brecht, *Das Leben des Galilei*, 31).

По мнению В. Флемига, и в данном случае форма Perfekt приобретает общевременное значение (*allgemeine Bedeutung*) [W. Flämig, 2003, с. 46].

Следует отметить, что подобные примеры встречаются сравнительно редко. Известно, что форма Präsens способна выражать неопределённое, обобщённое или общехронологическое значение

[Н. Haider, 1993, с. 120]. В свою очередь, функция обозначения действия, предшествующего такому обобщённому настоящему и одновременно сохраняющего для него актуальность, переходит к форме Perfekt. Например: *man darf kein Schloss aufbrechen, was ein anderer zugeschlossen hat* (Th. Fontane, *Effi Briest*, 57).

Wer für den Strick geboren ist, kann im Wasser nicht umkommen (там же).

В приведённых примерах прослеживается характерная закономерность. Подобно общевременному значению Präsens, форма Perfekt выражает обобщённую характеристику личности или типичное действие субъекта. Вместе с тем Perfekt сохраняет своё основное значение перфектности, то есть сочетание признаков предшествования и связанности с последующим действием.

Обсуждение. Футуральный ряд. Как известно, в современном немецком языке форма Futur II употребляется крайне редко [R. Hiersche, 1999, с. 234] и в большинстве случаев заменяется формой Perfekt. В свою очередь, футуральный Präsens свободно конкурирует с формой Futur I. Несмотря на это, нам удалось выявить случаи семантического сближения форм Futur I и Futur II.

Подобно претеритальному и презентному рядам, в футуральном ряду временная форма, не обладающая признаком перфектности, под воздействием контекста или лексической семантики глагола может приобретать данный признак. В футуральном ряду такой формой является Futur I. Например, в следующем контексте Futur I, образованный от предельного глагола, выполняет именно такую функцию:

Er wollte Bilfingers Material ergänzen; denn der Tag wird kommen, da dieses Material mehr als nur historisches Interesse haben wird (L. Feuchtwanger, *Die Geschwister Oppermann*, 29).

Под влиянием аспектуальных средств контекста даже форма Futur I, образованная от неопредельного глагола, способна, подобно Futur II, обозначать завершённое действие:

Mathilde dachte: „Unbefasslich, dass es in kürzer Zeit die Sprache lernen wird, die der Mensch im Laufe von Jahrmillionen schuf“ (L. Frank, *Mathilde*, 87).

Сопоставление трёх временных рядов показывает, что формы Präteritum, Präsens и Futur I, являющиеся центральными (опорными) формами своих временных рядов, обладают сходной способностью к семантическому сближению с противопоставленным членом оппозиции. Всем этим формам свойственно явление акцессии [В.-М. Эк, 2006, с. 114–115].

Форма Futur I представляет собой аналитическую конструкцию, появившуюся в немецком языке позднее других временных форм. Её место и функционирование в системе времён, аналогичное положениям Präteritum и Präsens, свидетельствуют о внутренней гармоничности и системной соразмерности немецкой временной системы [Duden, 1998, с. 24–25].

Рассмотрим теперь противопоставленный член данной оппозиции. Анализ показывает, что в определённых условиях Futur II по своему значению сближается с Futur I, то есть процесс семантической адаптации осуществляется в направлении Futur I. При этом в форме Futur II ослабляется значение предшествования, однако сохраняются значения завершённости и связанности результата. Как было показано выше, подобные значения в определённых контекстах могут быть характерны и для Futur I.

Сравним следующие примеры: *Sagt sie ja, so wird sie ihren Platz gefunden haben, sie wird sich nett installieren können...* (Th. Mann, *Buddenbrooks*, 170).

„Sachte, sachte, Gustav“, sagte er. – „Es wird sich eine Lösung finden.“ (L. Feuchtwanger, *Die Geschwister Oppermann*, 64).

Особенно отчётливо значение завершённости действия проявляется в следующем примере:

Wenn er das zweihundertmal gedacht hat, wird er eingeschlafen sein (L. Feuchtwanger, *Die Geschwister Oppermann*, 136).

Именно это значение позволяет использовать Futur II и при обозначении действия, относящегося к прошлому:

.... er wartete ab, bis sie es genügend gewälzt haben wird hinter ihrer eckigen Stirn (L. Feuchtwanger, *Die Geschwister Oppermann*, 75).

Как видно из приведённых примеров, в данных случаях Futur II не выражает значения предшествования, а обозначает действие, которое рассматривается как последующее по отношению к определённой точке отсчёта.

Вместе с тем значение перфектности включает ещё одну важную субсему — связанность, или актуальность результата, которая сохраняется в форме Futur II в виде значения завершённости и результативности. Следовательно, дифференциальный семантический признак перфектности в форме

Futur II полностью не исчезает. Этой форме неизменно присущ тот смысловой оттенок, который В.А. Жеребков характеризует как «eine deutlich ausgeprägte Nuance der Vollendung» [1998, с. 10].

Именно поэтому в тех случаях, когда необходимо подчеркнуть завершённость и результативность действия, в современном немецком языке выбирается форма Futur II, несмотря на её относительно низкую частотность по сравнению с Futur I [Ю.Л. Левитов, 1970, с. 10–11; К. Matzel, B. Ulvestad, 2002, с. 284–285].

При употреблении в относительном значении Futur II семантически сближается с Perfekt, употреблённым также в относительном значении. Это особенно наглядно проявляется в следующем контексте:

Wenn du es geschafft hast, werde ich nicht mehr bei dir sein, hatte sie einmal gesagt.... Du wirst schaffen! – sagte sie leise. Aber wenn du es geschafft haben wirst, werde ich nicht mehr bei dir sein (H. Fallada, *Wolf unter Wölfen*, 55).

В данном примере Х. Фаллада использует две различные грамматические формы глагола в сходных контекстуальных условиях для передачи одного и того же грамматического содержания. Тем самым отчётливо проявляются синонимические отношения между Futur II и Perfekt, употреблёнными в относительном временном значении.

Переход Perfekt в сферу будущего времени осуществляется под влиянием синтаксических средств, а также при участии форм Futur I, футурального Präsens, Imperativ и обстоятельств времени. Типичным примером подобного употребления является предложение: „*Übermorgen habe ich die Inventur abgeschlossen*“.

Рассматриваемое явление грамматической синонимии связано и с другими процессами, происходящими в системе современного немецкого языка, в частности с возрастанием роли контекста как лингвистической категории, определяющей значение грамматических форм [В.Ю. Меликян, 1999, с. 43–44].

Функциональная дифференциация формы Futur II, объективно реализующаяся в речевом тексте под воздействием различных факторов [Е.В. Милосердова, 1999, с. 40–41], основывается на взаимодействии её парадигматического и синтагматического значений.

Форма Futur II выполняет две основные функции. Первая представляет собой её относительно-временную функцию, реализующуюся на основе парадигматического значения. Вторая — модальная функция, которая не ограничивается выражением предположения, а охватывает широкий круг модальных значений [Ф.Я. Михалков, 1968, с. 6–7].

Ishonchlilik va asoslilik. Tasnif tartibining ishonchliligini mustahkamlash maqsadida barcha noaniq holatlar, ya'ni transformatsiya turiga birlashtirilishi noaniq bo'lgan holatlar, kamida 48 soatlik tanaffusdan so'ng tadqiqotchi tomonidan mustaqil ikkinchi ko'rib chiqishdan o'tkazildi; bu korpus stilistikasi metodologiyasida tavsiya etilgan standart amaliyotga mos keladi [11]. Ikkinchi kodlovchining yo'qligi tadqiqotning cheklovi sifatida tan olinadi; biroq har bir transformatsiya turining aniq operatsionlashtirilishi, besh bosqichli aniqlash protokoli, chekka holatlar uchun qaror qabul qilish matritsasi va qat'iy tayanch korpusning qo'llanilishi identifikatsiya va tasnif qarorlarida subyektiv o'zgaruvchanlikni minimallashtirishga xizmat qildi.

Natijalar. Tohir Malikning "Iblis devori" qissasining korpus tahlili natijasida jami 40 ta frazeologik transformatsiya aniqlandi. Aniqlangan birliklar beshta asosiy turga ajratildi (1-jadval).

1-jadval.

"Iblis devori" qissasida frazeologik transformatsiyalar taqsimoti

Transformatsiya turi	Soni	Foizi (%)
Kengaytirish	10	25,0
Semantik yangilanish	10	25,0
Almashtirish	8	20,0
Qisqartirish	6	15,0
Kontaminatsiya	6	15,0
Jami	40	100,0

Natijalar shuni ko'rsatdiki, kengaytirish va semantik yangilanish eng ko'p uchraydigan transformatsiyalar bo'lib, har biri umumiy holatlarning 25 % ini tashkil etdi. Undan keyin almashtirish (20 %), qisqartirish va kontaminatsiya (har biri 15 %) qayd etildi. Bu holat muallifning frazeologik birliklarni asosan ma'noni chuqurlashtirish va badiiy ta'sirni kuchaytirish maqsadida qo'llaganini ko'rsatadi.

Kengaytirish. Kengaytirish transformatsiyasida frazeologik birlik tarkibiga qo'shimcha leksik komponentlar kiritilib, uning emotsional-ekspressiv ta'siri kuchaytirilgan. Ayniqsa "sho'rini quritmoq" iborasi turli kontekstlarda kengaytirilgan shaklda qo'llanib, shaxsiy baxtsizlik ma'nosidan ijtimoiy va axloqiy mazmunga rivojlantirilgan. Shuningdek, "to'rga tushmoq" iborasining "sayyodning to'riga tushgan kabutarlar kabi" shakli obrazlilikni sezilarli darajada kuchaytiradi.

Semantik yangilanish. Semantik yangilanishlarda frazeologik birlikning tashqi shakli saqlangan bo'lsa-da, uning mazmuni yangi kontekst orqali boyitilgan. Masalan, "devor" leksemasi qissada oddiy jismoniy to'siq emas, balki inson qalblarini ajratadigan ma'naviy to'siq ramzi sifatida talqin etiladi. Xuddi shuningdek, "bomba" obrazi oiladagi ziddiyat va ruhiy tahdidning metaforasiga aylantirilgan.

Almashtirish. Almashtirish transformatsiyalarida ayrim komponentlar boshqa leksemalar bilan almashtirilib, yangi uslubiy va emotsional bo'yoq hosil qilingan. Jumladan, "sovuq nafas qilmoq" birikmasi

oddiy qarg'ash ma'nosidan ko'ra kuchliroq salbiy ruhiy ta'sirni ifodalasa, "shaytonning siydigi" birikmasi ichimlikni diniy-axloqiy nuqtai nazardan keskin baholashga xizmat qiladi.

Qisqartirish. Qisqartirish transformatsiyalarida frazeologik birlikning ayrim komponentlari tushirib qoldirilgan bo'lsa-da, uning asosiy ma'nosi saqlanib qolgan. Masalan, "Basharang qiyshiq bo'lsa, ko'zgudan o'pkalama" maqolining qisqartirilgan qo'llanishlari hamda "Yer yutkur" shakli o'quvchining oldingi til tajribasiga tayanib, kuchli ifodaviy ta'sir hosil qiladi.

Kontaminatsiya. Kontaminatsiya natijasida ikki mustaqil frazeologik birlik qo'shilib, yangi obraz va ma'no yuzaga kelgan. "Mehr-oqibatning suvini iblis quritdi" kabi misollar oilaviy munosabatlarning yemirilishini diniy-falsafiy mazmun bilan uyg'unlashtiradi. Shuningdek, "tilidan tomgan bir tomchi zahar" birikmasi salbiy nutqning kuchini giperbolik tarzda ifodalaydi.

Umuman, aniqlangan 40 ta frazeologik transformatsiya qissada uchta asosiy uslubiy vazifani bajaradi: qahramonlar nutqini individuallashtirish, asarning yetakchi g'oyalarini obrazli ifodalash hamda badiiy ta'sirchanlikni kuchaytirish. Natijalar Tohir Malik ijodida frazeologik transformatsiyalar tasodifiy hodisa emas, balki muallifning badiiy uslubini shakllantiruvchi muhim lingvopoetik vosita ekanini ko'rsatadi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot zamonaviy o'zbek adabiyotida, xususan, Tohir Malik ijodida frazeologik transformatsiyalarning o'rganilmagan qirralarini ochib berishga bag'ishlandi. "Iblis devori" qissasi asosida olib borilgan korpusga tayangan tahlil quyidagi ilmiy xulosalarga kelish imkonini berdi:

Tipologik tasdiq: O'zbek adabiy matnlarida ham Yevropa va slavyan tilshunosligida ishlab chiqilgan asosiy transformatsiya turlari (kengaytirish, semantik yangilanish, almashtirish, qisqartirish va kontaminatsiya) muvaffaqiyatli qo'llanilishi va ularning turkiy tillar strukturasiga moslashuvi empirik jihatdan isbotlandi. Uslubiy ustuvorlik: Qissada kengaytirish (25%) va semantik yangilanish (25%) turlarining yetakchilik qilishi muallifning badiiy niyati shunchaki shakl o'zgartirish emas, balki iboralar orqali o'quvchida chuqur emotsional va falsafiy rezonans uyg'otishga qaratilganini ko'rsatdi.

Metodologik ahamiyat: Resurs jihatidan cheklangan adabiy tillar sharoitida AntConc dasturi yordamida amalga oshirilgan korpusga tayangan yondashuv (KWIC qidiruvi va 5 bosqichli tahlil protokoli) badiiy matnlardagi idiomatik ijodkorlikni o'rganishda ishonchli va takrorlanuvchi metodologik baza bo'lib xizmat qilishini ko'rsatdi. Ushbu ish kelgusida O'rta Osiyo adabiyotida frazeologik transformatsiyalarni qiyosiy o'rganish, shuningdek, o'zbek tili uchun raqamli gumanitar fanlar yo'nalishidagi corpus – aided tadqiqotlarni kengaytirish uchun boshlang'ich baza vazifasini bajaradi.

ADABIYOTLAR:

1. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – М.: Высшая школа, 1984. – 336 с.
2. Третьякова Т.П. Английская фразеология: стилистический аспект. – СПб.: Изд-во Санкт-Петербургского университета, 2001. – 224 с.
3. Чаплик В.В. Трансформация фразеологических единиц в художественном дискурсе // Вестник Санкт-Петербургского университета. Серия 9: Филология. Востоковедение. Журналистика. – 2015. – № 3. – С. 45–54.
4. McEnery T., Hardie A. Corpus Linguistics: Method, Theory and Practice. – Cambridge: Cambridge University Press, 2011. – 294 p.
5. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик лугати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 379 б.
6. Малик Т. Иблис девори: қисса ва ҳикоялар. – Тошкент: Шарқ, 2008. – 384 б.
7. Кунин А.В. Фразеология современного английского языка. – М.: Флинта: Наука, 1996. – 381 с.
8. Naciscione A. Stylistic Use of Phraseology in Discourse. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 2010. – 292 p.
9. Ўзбек тилининг изоҳли лугати: 5 жилдли. – Ж. 1–5. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2006–2008.
10. Biber D., Conrad S., Reppen R. Corpus Linguistics: Investigating Language Structure and Use. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998. – 300 p.
11. Baker P. Using Corpora in Discourse Analysis. – London: Continuum, 2006. – 198 p.
12. Anthony L. AntConc (Version 4.2.0) [Computer software]. – Tokyo: Waseda University, 2023. – Available at: <https://www.laurenceanthony.net/software>.

**BAUERNREGELN TIZIMI VA NEMIS-O‘ZBEK PAREMIOLOGIK LAKUNA HODISASI:
QIYOSIY-LINGVOKULTUROLOGIK TAHLIL**

Xaitova Gulshan Baxodirovna,

Buxoro davlat universiteti

Nemis va fransuz filologiyasi kafedrasida o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada nemis tilining paremiologik fondidagi Bauernregeln – dehqon qoidalari yoki xalq meteorologiyasi maqollari – kichik tizimi hamda uning o‘zbek tiliga o‘girilganda yuzaga keladigan lakuna, ya‘ni ekvivalentsizlik hodisasi lingvokulturologik nuqtayi nazardan ko‘rib chiqiladi. Ish davomida bizni, avvalambor, ikkita savol qiziqtirdi: nega aynan kalendar-diniy komponentga ega paremiyalar tarjimada eng ko‘p qiyinchilik tug‘diradi va bunday hollarda tarjimon amalda qanday yo‘l tutishi mumkin. Shu maqsadda qiyosiy-tipologik, konseptual va komponent tahlil metodlaridan foydalanildi, material sifatida esa nemis tilidagi Bauernregeln to‘plamlari va o‘zbek maqollari lug‘atlaridan tanlab olingan yuzga yaqin paremiya birligi jalb etildi. Tahlil shuni ko‘rsatdiki, avliyolar kalendariga va o‘rta Yevropa iqlim xususiyatlariga tayangan nemis meteorologik maqollarining aksariyati o‘zbek tilida to‘liq lisoniy muqobilga ega emas; bunday holatlarda izohli, ya‘ni tushuntirish yo‘li bilan tarjima qilish amalda yagona ishonchli yechim bo‘lib chiqadi, biroq alohida hollarda funksional analog tanlash ham mumkinligi kuzatildi. Olingan natijalar nemis filologiyasi, tarjimashunoslik va chet tili o‘qitish metodikasi sohalarida qo‘llanilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: Bauernregeln, lakuna, paremiologiya, lingvokulturologiya, tarjima strategiyalari, qishloq xo‘jaligi maqollari, izohli tarjima, madaniy kod, ekvivalentlik turlari, avliyolar kalendari, nemis tili, o‘zbek tili, qiyosiy tilshunoslik.

**БАУЭРНРЕГЕЛЬНСКАЯ СИСТЕМА И ЯВЛЕНИЕ НЕМЕЦКО-УЗБЕКСКОЙ
ПАРЕМИОЛОГИЧЕСКОЙ ЛАКУНЫ: СРАВНИТЕЛЬНО-
ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ**

Аннотация. В статье в лингвокультурологическом ключе рассматривается немецкая паремнологическая подсистема Bauernregeln – крестьянские приметы о погоде – и явление лакунарности, возникающее при их передаче на узбекский язык. Работу направляли два вопроса: почему именно пословицы с календарно-религиозным компонентом оказываются наиболее трудными для перевода, и как в таких случаях действовать переводчику на практике. Использованы сравнительно-типологический, концептуальный и компонентный анализ; материалом послужили около ста паремий из немецких сборников Bauernregeln и узбекских словарей пословиц. Анализ показал, что большинство немецких метеорологических пословиц, связанных с календарём святых и центральноевропейским климатом, не имеют полного языкового соответствия в узбекском языке; в таких случаях описательный перевод оказывается на практике единственным надёжным решением, хотя в отдельных случаях возможен и подбор функционального аналога. Результаты могут быть полезны в немецкой филологии, переводоведении и методике преподавания иностранного языка.

Ключевые слова: Bauernregeln, лакуна, паремнология, лингвокультурология, стратегии перевода, сельскохозяйственные пословицы, описательный перевод, культурный код, типы эквивалентности, календарь святых, немецкий язык, узбекский язык.

**BAUERNREGELN SYSTEM AND GERMAN-UZBEK PAREMIOLOGICAL GAP
PHENOMENON: COMPARATIVE-LINGUOCULTUROLOGICAL ANALYSIS**

Abstract. This article looks at Bauernregeln – the German peasant weather-rule proverbs – and at the lacunae that appear once such units are carried over into Uzbek. Two questions guided the work: why proverbs built around a calendar-religious component turn out to be the hardest to translate, and what a translator can realistically do about it. The study drew on comparative-typological, conceptual, and componential analysis, working from roughly a hundred proverb units gathered from German Bauernregeln collections and Uzbek proverb dictionaries. The analysis suggests that most German weather proverbs tied to the calendar of saints and to Central European climate patterns simply have no full linguistic counterpart in Uzbek; in such cases descriptive translation turns out, in practice, to be the only dependable option,

although a functional analogue can occasionally be found instead. The findings should be of some use in German philology, translation studies, and foreign-language teaching methodology.

Key words: *Bauernregeln, lacuna, paremiology, linguoculturology, translation strategies, agricultural proverbs, descriptive translation, cultural code, types of equivalence, calendar of saints, German language, Uzbek language.*

Kirish. Har qanday xalqning paremiologik fondi uning dunyoqarashi, tarixiy tajribasi va qadriyatlar tizimini siqib-siqib joylashtirilgan lisoniy shaklda o'zida mujassam etadi. Nemis tilida bu fondning alohida, o'ziga xos qatlamini Bauernregeln – dehqon qoidalari yoki xalq meteorologiyasi maqollari – tashkil etadi. Bunday paremiyalar o'rta asrlardan buyon shakllanib kelgan bo'lib, odatda muayyan kalendar sanasi yoki avliyo nomi bilan bog'liq holda ob-havo va hosil haqidagi bashoratlarni ifodalaydi. O'zbek tilida ham mavsumiy-agrar xarakterdagi maqollar yetarlicha ko'p, biroq ularning tizimligi Bauernregelndagidek diniy kalendariga emas, balki Markaziy Osiyoning o'ziga xos iqlim sharoiti va Navro'z bilan bog'liq an'analarga tayanadi. Aynan shu nuqtada ikki til o'rtasida tarjima nazariyasida "lacuna" deb ataluvchi hodisa yuzaga keladi: bir tilda mavjud paremiologik birlik ikkinchi tilda hech qanday to'g'ridan-to'g'ri muqobilga ega bo'lmay qoladi.

Rostini aytganda, mavzuning o'zi ancha vaqtdan buyon e'tiborimni tortib kelgan – negaki, nemis-o'zbek til juftligida paremiologik lakuna hodisasi alohida tadqiqot predmeti sifatida deyarli o'rganilmagan, holbuki, bu ikki tilning agrar-madaniy asosi tubdan farq qiladi. Bundan tashqari, so'nggi yillarda O'zbekistonda nemis tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishning ortishi, gid-tarjimonlar va til o'qituvchilari sonining ko'payishi bunday "lisoniy bo'shliqlar"ni ilmiy jihatdan izohlab berishni amaliy zaruratga aylantirmoqda: ko'p hollarda tarjimon o'zi tushunmagan narsani o'quvchiga ham tushuntira olmaydi. Uchinchidan, lakuna paremiyalarini tarjima qilish – nafaqat lisoniy, balki chuqur madaniyatshunoslik bilimini talab qiladigan, ancha nozik va ko'p jihatdan ijodiy vazifa hisoblanadi.

Shularni hisobga olib, ishning maqsadini quyidagicha belgiladik: Bauernregeln tizimining lingvokulturologik tabiatini ochib berish, uning o'zbek tilida nima uchun va qay tarzda lakuna hosil qilishini aniqlash, hamda bunday birliklarni tarjima qilishning amalda eng maqbul yo'llarini asoslash. Vazifalar sifatida quyidagilarni belgiladik: (1) Bauernregelnning janr xususiyatlarini tavsiflash; (2) lakuna turlarini va ularning kelib chiqish sabablarini tasniflash; (3) mavjud tarjima strategiyalarini sinab ko'rish va ularning samaradorligini baholash.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Bauernregeln, ya'ni dehqon qoidalari, nemis xalq og'zaki ijodining muhim qismidir. Ular asosan tabiat hodisalari, qishloq xo'jaligi va mevsimiy o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lib, xalqning tajribalari va kuzatishlarini o'z ichiga oladi. Nemis tilidagi bu maqollar ko'pincha kulgili va o'rinli bo'lib, xalqning madaniyati va an'alarini aks ettiradi.

O'zbek paremiologiyasi ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. O'zbek xalq maqollari ko'pincha hayotiy tajribalarni, axloqiy qadriyatlarni va milliy ruhiyatni ifodalaydi. O'zbek tilidagi maqollar xalqning tarixiy va madaniy rivojlanishini, shuningdek, tabiat bilan aloqasini aks ettiradi.

Nemis va o'zbek paremiologik tizimlari o'rtasida qiyosiy tahlil o'tkazish, ularning o'zaro farqlari va o'xshashliklarini aniqlash imkonini beradi. Misol uchun, nemis Bauernregeln'lari ko'pincha aniq meteorologik hodisalarga asoslanadi, bu esa ularning amaliy ahamiyatini oshiradi. O'zbek maqollari esa ko'proq falsafiy va axloqiy ma'nolarni o'z ichiga olishi bilan ajralib turadi.

Adabiyotlarda ko'rsatilishicha, lakuna hodisasi – bu til va madaniyatlar o'rtasidagi tafovutlarni anglatadi. Nemis va o'zbek tillaridagi ayrim tushunchalar va qadriyatlar bir-biriga mos kelmasligi mumkin, bu esa tarjima jarayonida qiyinchiliklar tug'diradi. Masalan, nemis tilida "Gemütlichkeit" so'zi o'zbek tilida to'liq ifodalanmaydi, chunki bu so'z nemis madaniyatida maxsus ahamiyatga ega bo'lgan tushunchani anglatadi.

Shuningdek, qiyosiy-lingvokulturologik tahlil orqali, ikki madaniyat o'rtasidagi o'xshashliklar va farqlarni aniqlash mumkin. Bu jarayon orqali biz nafaqat tilning strukturasini, balki madaniyatlarning umumiy va maxsus jihatlarini ham o'rganamiz.

Natijada, nemis Bauernregeln tizimi va o'zbek maqollari o'rtasidagi qiyosiy tahlil, tilshunoslik va madaniyatshunoslik sohalarida yangi bilimlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu tadqiqotlar xalqning urf-odatlarini, an'anaviy bilimlari va tabiat bilan aloqasini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot materiali sifatida nemis tilidagi Bauernregeln janriga oid ikkita yirik to'plam (Wander va Beyer nashrlari) hamda o'zbek xalq maqollarining izohli lug'ati (Shomaqsudov, Shorahmedov) tanlandi. Ushbu manbalardan qishloq xo'jaligi, ob-havo va hosil mavzusiga bevosita aloqador bo'lgan taxminan bir yuzga yaqin paremiya birligi ajratib olindi. Tanlangan material ustida uch bosqichli tahlil o'tkazildi: birinchi bosqichda har bir paremiyaning kalendar-diniy, meteorologik va poetik

komponentlari ajratildi (komponent tahlil); ikkinchi bosqichda nemis va o'zbek birliklari mazmuniy jihatdan qiyoslandi va ularning mos kelish darajasi (to'liq, qisman ekvivalent yoki lakuna) belgilandi (qiyosiy-tipologik tahlil); uchinchi bosqichda lakuna sifatida belgilangan birliklar uchun mumkin bo'lgan tarjima variantlari sinovdan o'tkazildi va ularning matn ichidagi tabiiyligi baholandi (konseptual-tarjimashunoslik tahlili). Shuni alohida qayd etish lozimki, "to'liq ekvivalent", "qisman ekvivalent" va "lacuna" toifalariga ajratishda faqat lug'aviy mos kelish emas, balki paremiyaning madaniy-pragmatik yuki ham hisobga olindi – chunki, ko'p hollarda, so'zma-so'z mos keladigan birlik matn ichida butunlay boshqacha taassurot qoldirishi mumkin.

Olingan natijalar va ularning tahlili.

1. Bauernregelning tarixiy-lingvokulturologik ildizlari

Bauernregeln – bu ma'lum kalendar sanasi yoki diniy bayram kunidagi ob-havoning keyingi davr ob-havosiga ta'siri haqidagi xalq kuzatuvlariga asoslangan paremiyalar tizimidir. Bunday birliklarga, masalan, "Lichtmess" (2-fevral) yoki "Siebenschläfertag" (27-iyun) kabi sanalar bilan bog'liq maqollarni kiritish mumkin: "Wie das Wetter am Siebenschläfer, so bleibt's noch sieben Wochen nachher" ("Yetti uxlovchi kunidagi ob-havo qanday bo'lsa, undan keyingi yetti hafta ham shunday bo'ladi"). Bunday paremiyalar XVI asrdan boshlab yozib olina boshlagan va bugungi kunda ham nemis qishloq turmush tarzida, hatto, ommaviy axborot vositalari va meteorologik dasturlarda ham hazil-mutoyiba tarzida qo'llanilmoqda. Bauernregelnni boshqa german tillari (masalan, dan tili) paremiyalari bilan qiyoslagan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hatto qardosh german xalqlari o'rtasida ham bunday paremiyalarning to'liq mos kelish darajasi past bo'lib, ular ko'proq mahalliy-lokal ahamiyatga ega [1].

Bizningcha, Bauernregelning eng muhim xususiyati – uning nemis dehqonchilik madaniyati bilan xristian-katolik kalendarining chambarchas bog'liqligidir: deyarli har bir paremiya orqasida ma'lum bir avliyoning nomi yoki cherkov bayrami turadi. Bu esa, o'z navbatida, Bauernregelnni oddiy xalq maqolidan ajratib turuvchi muhim belgi hisoblanadi – chunki oddiy maqol umuminsoniy hikmatni ifodalasa, Bauernregeln aniq bir sana va joy bilan bog'liq amaliy-bashoratiy vazifani bajaradi [2].

2. Janr sifatidagi tarkibiy xususiyatlari

Tahlil shuni ko'rsatdiki, Bauernregeln uch qatlamli tuzilishga ega: (a) kalendar-diniy komponent – avliyo nomi yoki bayram sanasi; (b) meteorologik-bashoratiy komponent – ob-havo yoki hosil haqidagi xulosa; (c) ritmik-poetik shakl – qofiya, alliteratsiya va ko'pincha ikki qatorli tuzilish (masalan, "Ist's zu Maria Lichtmess klar, gib't's noch ein hartes Jahr fur wahr"). Ushbu uch komponentning birgalikda ishlashi, ya'ni bashoratning aynan qofiyalangan, yodda qolarli shaklda berilishi – Bauernregelga o'ziga xos mnemonik va hatto marosim-ijro xarakteri baxsh etadi, bu esa uni faqat mazmun emas, balki shakl jihatidan ham tarjima qilishni murakkablashtiradi: tarjimon nafaqat ma'noni, balki qofiya va ritmni ham saqlashga urinishi mumkin, biroq bu deyarli har doim mazmun hisobiga amalga oshadi.

3. Lakuna hodisasi: turlari va kelib chiqish sabablari

O'tkazilgan qiyosiy tahlil natijasida biz lakunalarni ikki asosiy turga ajratishni maqsadga muvofiq deb topdik: to'liq lacuna – paremiyaning na mazmuni, na kalendar asosi o'zbek tilida hech qanday muqobilga ega bo'lmagan holatlar (masalan, aynan avliyo kuni bilan bog'liq bashoratlar); qisman lakuna – meteorologik xulosa umumiy tarzda tushunarli bo'lsa-da, uning kalendar-diniy asosi begona bo'lib qoladigan [3]. Bizning kuzatishimizcha, to'liq lakunalar aynan diniy-kalendar komponentga ega birliklarning aksariyat qismini tashkil etadi, negaki o'zbek dehqonchilik an'anasi katolik-protestant avliyolar tizimiga emas, balki Navro'z, Hut oyi kabi mutlaqo boshqa xronologik-madaniy mezonlarga tayanadi.

Bundan tashqari, lakunaning yana bir – kamroq e'tirof etiladigan – sababi geografik-iqlimiy tafovutdir: o'rta Yevropaning mo'tadil, nam iqlimiga xos bo'lgan hodisalar (masalan, uzoq davom etuvchi yomg'irli davrlar yoki qish o'rtasidagi erish) Markaziy Osiyoning kontinental-quruq iqlim sharoitida umuman kuzatilmaydi, shu sababli tegishli paremiya na tarjimada, na tushuntirishda tabiiy jaranglay olmaydi – o'quvchi uchun u sof abstrakt, hayotiy asosga ega bo'lmagan gap bo'lib qolaveradi.

4. Tarjima strategiyalari va ularning samaradorligi

Sinovdan o'tkazilgan bir necha strategiya orasida quyidagilar nisbatan barqaror natija berdi. Birinchidan, izohli (deskriptiv) tarjima – paremiyaning so'zma-so'z shaklidan voz kechib, uning ma'nosi va madaniy konteksti nasriy shaklda tushuntiriladi; bu usul, bizning kuzatishimizcha, to'liq lakuna hollarida amalda yagona ishonchli yechim bo'lib chiqdi. Ikkinchidan, funksional analog qidirish – kalendar-diniy komponentni tashlab, faqat meteorologik xulosani saqlab qolish; bu usul matnni tabiiyroq qildi, biroq paremiyaning o'ziga xos madaniy hidini yo'qotish xavfini tug'dirdi, shu sababli uni faqat ma'no muhimroq bo'lgan, badiiy vazifa ikkinchi darajali bo'lgan matnlarda qo'llash maqsadga muvofiqdir [4]. Uchinchidan, kalka + izoh (transliteratsiya va qavs ichida qisqa tushuntirish) usuli ilmiy-tarjimashunoslik matnlarida, xususan lug'atlarda, o'zini yaxshi oqladi, biroq badiiy tarjimada matnni og'irlashtirib yuborishi mumkin.

Amaliy nuqtayi nazardan, bu natijalar gid-tarjimonlar tayyorlash kurslarida va nemis tilini chet til sifatida o'qitish metodikasida bevosita qo'llanilishi mumkin: talabaga nafaqat paremiyaning tarjimasi, balki uning ortida turgan kalendar-diniy tizim ham qisqacha tushuntirilishi kerak, aks holda tarjima o'quvchi uchun ma'nosiz, hatto g'alati tuyulishi mumkin.

Muhokama. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, paremiologik lakuna faqat lug'aviy emas, balki chuqur madaniy-kalendar hodisadir va uni faqat lisoniy vositalar bilan to'ldirib bo'lmaydi – bu yerda gap ko'proq madaniyatlararo tushunish darajasida boradi. Shu bilan birga, tan olish kerakki, tadqiqotimiz nisbatan cheklangan hajmdagi materialga asoslangan, shuning uchun olingan xulosalarni butun Bauernregeln korpusiga avtomatik yoyish ehtiyotkorlik talab qiladi. Kelgusi tadqiqotlarda bu masalani kengroq statistik-korpus tahlili asosida, shuningdek, boshqa turkiy tillar materialida ham tekshirish foydali bo'lar edi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Bauernregeln – nemis paremiologik fondining diniy-marosim kalendari bilan chambarchas bog'liq, o'ziga xos janr ekanligi tasdiqlandi. Uning o'zbek tilida lakuna hosil qilishi, avvalambor, ikki sabab – diniy-kalendar tizimlaridagi tafovut va geografik-iqlimiy farq – bilan izohlanadi. Bunday lakuna birliklarini tarjima qilishda izohli tarjima usuli amalda eng ishonchli yechim sifatida asoslandi, funksional analog esa faqat cheklangan holatlarda tavsiya etiladi. Tadqiqot natijalari qiyosiy paremiologiya, tarjimashunoslik va nemis tilini chet til sifatida o'qitish amaliyoti uchun ma'lum nazariy-metodik ahamiyat kasb etadi, deb o'ylaymiz.

ADABIYOTLAR:

1. Jarosz, J. (2018). *Deutsche und dänische Bauernregeln mit onymischen Komponenten im Vergleich*. In: *Studien zur Medien- und Kulturlinguistik*. Verfügbar unter: <https://www.researchgate.net/publication/331640620>
2. Eshonqulov, O.S. (2026). *Theoretical and methodological foundations for the comparative study of German and Uzbek proverbs*. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 13(3), 298–300. <https://www.ijmrd.in/index.php/ijmrd/article/view/5294>
3. Abbasova, N.G. (2024). *Language lacunas and methods of their elimination in intercultural dialogue*. *Path of Science*, 10(10). <https://pathofscience.org/index.php/ps/article/view/3392>
4. Wander, K.F.W. (1867–1880). *Deutsches Sprichwörter-Lexikon* (Bde. 1–5). Leipzig: Brockhaus.
5. Beyer, R. (2002). *Bauernregeln und Wetterprognosen*. Leipzig: Edition Leipzig.
6. Mieder, W. (2004). *Proverbs: A Handbook*. Westport, CT: Greenwood Press.
7. Shomaqsudov, Sh., Shorahmedov, Sh. (1990). *Hikmatnoma: o'zbek maqollarining izohli lug'ati*. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi.
8. Wikipedia contributors. (2026). *Untranslatability*. <https://en.wikipedia.org/wiki/Untranslatable>

ЯПОН ТИЛИДАГИ ～てください ДИРЕКТИВ КОНСТРУКЦИЯСИДА ҲУРМАТ ШАКЛИ ВА ПРАГМАТИК ЮМШАТИШНИНГ ЎЗARO МУНОСАБАТИ

Халмурзаева Надира Ташмурзаевна,
Тошкент давлат шарқишунослик университети доценти,
филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD),
Тошкент, Ўзбекистон
nadira_xalmurzaeva@tsuos.uz
nodira.tashmirzaevna@gmail.com
ORCID: 0009-0003-6652-7454

Аннотация. Мақолада япон тилидаги ～てください директив конструкциясида грамматик ҳурмат шакли ва прагматик юмшатишнинг ўзаро муносабати таҳлил қилинади. Материал NHK WORLD-JAPANнинг Easy Japanese for Work: しごとのにほんご таълимий дастуридаги иш мулоқоти диалогларидан шакллантирилган ишчи корпусга асосланади. Контекстуал-прагматик ва дискурсив таҳлилда иштирокчилар мақоми, адресат танлови, сабабни изоҳлаш, миннатдорлик, ㇿ якуний юкламаси ҳамда шошилинчлик мезонлари ҳисобга олинди. Натижалар ください компоненти ҳурмат муносабатини сақлашини, аммо юмшатишнинг амалий даражаси контекст билан белгиланишини кўрсатди. Мақомий асимметрия ва касбий зарурат кучайганда ҳурмат шакли сақланган ҳолда директив босим ортиши аниқланди. Натижалар кейинги тадқиқотларда табиий спонтан мулоқот материаллари асосида текширилиши мумкин. Бу натижа конструкцияни грамматик шакл ва дискурсив шароит бирлигида талқин қилиш заруратини асослайди.

Калит сўзлар: директив нутқ акти, ～てください конструкцияси, ҳурмат шакли, прагматик юмшатиш, кейго, адресатга қолдирилган танлов имконияти, мақомий асимметрия, япон иш мулоқоти, дискурсив контекст.

СООТНОШЕНИЕ ФОРМЫ ВЕЖЛИВОСТИ И ПРАГМАТИЧЕСКОГО СМЯГЧЕНИЯ В ЯПОНСКОЙ ДИРЕКТИВНОЙ КОНСТРУКЦИИ ～てください

Аннотация. В статье анализируется соотношение грамматической формы уважения и прагматического смягчения в японской директивной конструкции ～てください. Материалом служит рабочий корпус, сформированный из диалогов профессионального общения образовательной программы NHK WORLD-JAPAN Easy Japanese for Work: しごとのにほんご. Контекстуально-прагматический и дискурсивный анализ учитывает статус участников, свободу выбора адресата, объяснение причины, выражение благодарности, конечную частицу ㇿ и коммуникативную срочность. Установлено, что компонент ください поддерживает уважительное отношение к адресату, тогда как фактическая степень смягчения определяется контекстом. При усилении статусной асимметрии и профессиональной необходимости директивное давление возрастает, несмотря на сохранение уважительной грамматической формы. Результаты могут быть в дальнейшем проверены на материале спонтанного делового общения. Они подтверждают необходимость анализа конструкции в единстве грамматических и дискурсивных факторов.

Ключевые слова: директивный речевой акт, конструкция ～てください, форма уважения, прагматическое смягчение, кэйго, свобода выбора, оставленная адресату, статусная асимметрия, японская профессиональная коммуникация, дискурсивный контекст.

THE RELATIONSHIP BETWEEN RESPECTFUL FORM AND PRAGMATIC MITIGATION IN THE JAPANESE DIRECTIVE CONSTRUCTION ～てください

Abstract. The article examines grammatical respect and pragmatic mitigation in the Japanese directive construction ～てください. The material is a working corpus compiled from workplace dialogues in NHK WORLD-JAPAN's educational program Easy Japanese for Work: しごとのにほんご. Contextual-pragmatic and discourse analysis considers participant status, the addressee's freedom of choice, reasoning, gratitude, the sentence-final particle ㇿ, and urgency. The findings show that ください maintains a

respectful orientation, whereas mitigation remains context-dependent. As status asymmetry and professional necessity increase, directive pressure may intensify despite the unchanged respectful form. The findings could be further tested against spontaneous business-communication data. They support analyzing the construction through interacting grammatical and discourse factors.

Keywords: *directive speech act, ~てください construction, respectful form, pragmatic mitigation, keigo, choice available to the addressee, status asymmetry, Japanese workplace communication, discourse context.*

Кириш. Директив нутқ актларида сўзловчи адресатни муайян ҳаракатни бажаришга йўналтиради. Бироқ ҳаракатга ундашнинг коммуникатив кучи фақат буйруқ ёки илтимосни ифодаловчи грамматик шакл билан белгиланмайди. Нутқий вазият, иштирокчиларнинг ўзаро мақоми, талаб қилинаётган ҳаракатнинг кимнинг манфаатига қаратилгани ва адресатга қолдирилаётган танлов имконияти бир хил шаклнинг турлича прагматик қиймат касб этишига олиб келади. Шунинг учун япон тилидаги ~てください конструкциясини фақат «хурмат шаклидаги илтимос» сифатида тавсифлаш унинг иш мулоқотидаги вазифаларини тўлиқ очиб бермайди [1].

~てください феълнинг ~て шаклига ください компонентини қўшиш орқали ҳосил бўлади ва адресатдан муайян ҳаракатни бажаришни сўраш ёки унга кўрсатма беришда қўлланади [2]. Бу ерда ください адресатдан ҳаракатни сўзловчи ёки муайян коммуникатив вазият манфаати учун амалга оширишни сўрашга хизмат қилади. Конструкция адресатдан ҳаракатни очик талаб қилиш имконини берса-да, адресатга нисбатан ҳурмат муносабатини сақлайди. Мазкур икки хусусият – ҳаракатни бевосита ифодалаш ва адресатга ҳурмат муносабатини белгилаш – бир вақтда мавжуд бўлиши мумкин.

Прагматик адабиётда ҳурмат шаклини автоматик равишда юмшатиш билан тенглаштириш танқид қилинади. Директивлар адресатнинг ҳаракат эркинлигига дахл қилувчи нутқий ҳаракатлар бўлгани учун, уларни юмшатиш шахслараро муносабатни сақлашнинг муҳим воситаси ҳисобланади [3]. Япон тилида ҳурмат ва оддий шакллардан фойдаланишда бир сўзловчининг ўзида ҳам вазиятга боғлиқ вариативлик кузатилиши лисоний шаклни ижтимоий мақомга механик боғлаб бўлмаслигини кўрсатади [4]. Япон компаниясидаги институционал мулоқот таҳлили эса ҳурмат воситалари нафақат хушмуомалаликни, балки иштирокчиларнинг касбий роллари ва институционал идентиклигини ҳам индекслашини асослайди [5]. Демак, ҳурмат шакли адресатга муносабатни меъёрлаштириши мумкин, аммо директивнинг бажарилиш кутилмасини ўз-ўзидан пасайтирмайди.

Муаллифнинг аввалги тадқиқотларида япон ишбилармонлик мулоқотида савол шакли орқали вокеланадиган билвосита директивлар ҳамда нутқий босимни камайтирувчи турғун ифодалар ўрганилган [6; 7]. Ушбу мақола мазкур ишлардан фарқли равишда билвосита савол конструкцияларини эмас, нисбатан бевосита ~てください шаклини марказга қўяди. Тадқиқотнинг мақсади ушбу конструкциядаги грамматик ҳурмат белгиси билан прагматик юмшатиш даражаси ўртасидаги муносабатни иш мулоқоти контекстида аниқлашдан иборат. Тадқиқот саволи қуйидагича қўйилади: бир хил ~てください шакли қандай шароитларда юмшатишган илтимос ёки ҳамкорликка асосланган кўрсатма сифатида, қандай шароитларда эса бажарилиши кутилган касбий топшириқ сифатида талқин қилинади?

Материал ва методлар. Тадқиқот объекти япон тилидаги ~てください директив конструкциясининг иш мулоқотида қўлланилишидир. Тадқиқот предмети эса конструкциядаги ҳурмат шакли ва прагматик юмшатиш даражасининг қатор омиллар – мақомий муносабат, адресатга қолдирилган танлов имконияти, сабабни изоҳлаш, миннатдорлик ифодаси, якуний юклама ҳамда коммуникатив шошилинчлик – таъсирида қандай ўзгаришини камраб олади.

Эмпирик материал NHK WORLD-JAPANнинг Easy Japanese for Work: しごとにはんご таълимий дастуридаги диалоглардан шакллантирилди [8]. Дастур иш жойидаги типик мулоқот вазиятларини хорижлик япон тили ўрганувчиларига тушунтириш учун сценарийлаштирилган. Шу сабабли материал табиий спонтан суҳбат корпуси эмас, балки муайян коммуникатив вазифаларни равшан намоиш этувчи педагогик диалоглар тўпламидир. Материал танлашда дастурнинг 27, 28, 30 ҳамда 36–48-диалогларидан иборат жами 16 та диалог кўриб чиқилди. Улар орасидан ~てください конструкцияси қатнашган ва ҳурмат шакли билан прагматик юмшатиш муносабатини турли даражада намоён этувчи бешта контекст мақсадли танланди. Танлаш мезонлари иштирокчилар мақоми, ҳаракатдан манфаатдор томон, юмшатувчи дискурсив воситалар, касбий зарурат ва адресат танловининг чекланиш даражасидан иборат бўлди. Танланган бешта контекст корпусдаги ~てくだ

さい кўлланишларининг статистик тахсимотини эмас, ҳурмат шакли ва прагматик юмшатиш ўртасидаги турли муносабат моделларини сифат жиҳатидан намоиш этиш мақсадида ажратилди. Матнда [8, 38-диалог] кўринишидаги ҳаволада биринчи ракам адабиётлар рўйхатидаги манбани, иккинчи қисм эса дастурдаги диалог рақамини билдиради.

Таҳлилда контекстуал-прагматик, функционал ва дискурсив усуллар бирлаштирилди. Ҳар бир реплика алоҳида гап сифатида эмас, ундан олдинги ва кейинги нутқий ҳаракатлар билан боғлиқ кетма-кетликда кўриб чиқилди. «Ҳурмат шакли» деганда *ください* орқали адресатга нисбатан ифодаланадиган грамматик-коммуникатив муносабат, «прагматик юмшатиш» деганда эса директивнинг адресат мустақиллиги ва шахслараро муносабатга таъсирини камайтирувчи контекстуал воситалар тушунилади. Юмшатиш даражаси миқдорий шкала эмас, мисолларни ўзаро қиёслашга хизмат қилувчи нисбий сифат кўрсаткичи сифатида баҳоланди. Уни белгилашда адресатнинг рад этиш имконияти, ҳаракат кимнинг манфаатига қаратилгани, сабабни изоҳлаш хусусияти, муносабатни кўллаб-қувватловчи воситалар ва коммуникатив шошиличликнинг ўзаро нисбати ҳисобга олинди.

Натижалар ва уларнинг таҳлили.

1. Сабабни изоҳлаш ва ҳаракатни сўзловчи зиммасига олиш. 38-диалогда раҳбар Аундан бошқа ходимнинг тугалланмаган ишини бажаришни сўрайди. Аун вазифани қабул қилганидан кейин унинг ҳамкасби Вадага ёрдам беришни таклиф қилади. Вада дастлаб иш унга топширилганини айтиб рад этади, Аун эса муддат яқинлашганини асос қилиб, ишни вақтинча ўзига қолдиришни сўрайди:

納期が迫っていますので、今日のところは私に任せてください。

Nōki ga sematte imasu node, kyō no tokoro wa watashi ni makasete kudasai.

«Топшириш муддати яқинлашгани учун бугунча ишни менга қолдиринг» [8, 38-диалог]

Бу репликада *〜*ので сабабни олдиндан тушунтириб, талабнинг шахсий хоҳиш эмас, муддат билан боғлиқ эканини кўрсатади. Муҳими, сўзловчи адресатдан қўшимча меҳнат талаб қилмайди; аксинча, вазифани ўз зиммасига олишни сўрайди. Шу боис *任せてください* формал жиҳатдан директив бўлса-да, ҳаракат натижаси адресат манфаатига ҳам хизмат қилади ва адресатга қолдирилган танлов имконияти нисбатан сақланган. Бу ҳолда ҳурмат шакли ва прагматик юмшатиш бир йўналишда ишлайди: *ください* муносабат регистрини сақласа, сабабни изоҳлаш ва сўзловчининг ҳаракатни ўзи бажариши директив босимни камайтиради.

2. Миннатдорлик ва *ね* орқали муносабатни юмшатиш. 42-диалогда ходим телефон орқали чизмадаги камчилик учун узр сўрайди ва уни тезкор текширишини айтади. Кейин у ҳамкасбидан зарур ўлчамларни аниқлаб, назоратчига хабар беради. Назоратчи ахборотни қабул қилгач, ижобий баҳолаш ва миннатдорликдан сўнг янги чизмани юборишни сўрайди:

了解。助かったよ、ありがとう。新しい図面、送ってくださいね。

Ryōkai. Tasukatta yo, arigatō. Atarashii zumen, okutte kudasai ne.

«Тушунарли. Ёрдам бердингиз, раҳмат. Янги чизмани юборинг» [8, 42-диалог]

42-диалогдаги реплика прагматик юмшатиш билан амалий мажбурийликнинг бир вақтда мавжуд бўлишига яққол мисол бўла олади: директивдан олдинги *助かったよ* ва *ありがとう* адресатнинг амалга оширган ҳаракатини ижобий баҳолаб, келгуси топширикни ҳамкорлик давоми сифатида тақдим этади, *ね* якуний юкламаси эса мустақил ҳурмат кўрсаткичи бўлмай, сўзловчининг адресат билан умумий тушунишни тасдиқлашга интилишини ва кўрсатмани кескин яқунламаслигини билдиради. Шунга қарамай, янги чизмани юбориш иш жараёнини давом эттириш учун зарур бўлгани боис, муносабатга таъсир юмшатирилган тақдирда ҳам адресатнинг ҳаракатни бажармаслик имконияти кенг эмас.

3. Мақомий асимметриядаги институционал ахборот сўрови. 45-диалогда раҳбар ходимларнинг кунлик иш режасини аниқлайди. Реплика грамматик жиҳатдан ахборот сўраш шаклида бўлса-да, унинг институционал вазифаси раҳбарнинг иш жараёнини назорат қилиши билан белгиланади:

では佐藤さん、今日の作業予定を教えてください。

Dewa Satō-san, kyō no sagyō yotei o oshiete kudasai

«Сато-сан, бугунги иш режангизни маълум қилинг» [8, 45-диалог]

教えてください конструкцияси оддий мулоқотда илтимос сифатида талкин қилиниши мумкин.

Ушбу вазиятда эса сўзловчи раҳбар, адресат ходим бўлиб, сўралаётган маълумот шахсий қизиқиш эмас, ишни ташкил этишга хизмат қилади. Сато-сан мурожаат шакли ва *ください* адресатга нисбатан ҳурмат муносабатини сақлайди, аммо ходим учун жавоб бермаслик одатий танлов эмас. Шунинг учун реплика «юмшатирилган илтимос»дан кўра ҳурмат шаклида ифодаланган институционал ахборот

сўрови сифатида тавсифланади. Мақомий асимметрия грамматик ҳурматни йўқотмайди, лекин директивнинг бажарилиш кутилмасини кучайтиради.

4. Сабаблар ва касбий хавфсизликка асосланган вазифа. 46-диалогда автомобил таъмири жараёнида ҳамкасб мижоз билмаган қўшимча носозликни аниқлайди. У қўшимча таъмир қилиш зарурлигини хавфсизлик билан асослаб, бу ҳақда мижозга хабар беришни сўрайди:

このままお客様が知らずに乗り続けると危険です。追加で修理をした方がいいので、お客様に伝えてください。

Kono mama okyakusama ga shirazu ni noritsuzukeru to kiken desu. Tsuika de shūri o shita hō ga ii node, okyakusama ni tsutaete kudasai.

«Мижоз шу ҳолатни билмай машинани ҳайдашда давом этса, хавфли. Қўшимча таъмир қилиш маъкул, шунинг учун бу ҳақда мижозга хабар беринг» [8, 46-диалог]

Бу ерда ~ので вазифанинг сабабини очиқ кўрсатади, олдинги 危険です жумласи эса ҳаракатни кечиктирмаслик заруратини кучайтиради. Иштирокчилар ҳамкасб сифатида берилган бўлса ҳам, талаб шахсий хоҳишдан эмас, касбий масъулият ва мижоз хавфсизлигидан келиб чиқади. Шунга кўра ёзганини муносабат жихатидан ҳурматли ва сабабланган, аммо адресатнинг рад этиш имконияти чекланган. Сабабни изоҳлаш бу контекстда фақат юмшатиш эмас, топшириқнинг институционал қонунийлигини асослаш вазифасини ҳам бажаради.

5. Шошилишчилик шароитида юмшатишнинг заифлашиши. 30-диалогда ресторанда буюртмалар кўпайиб, биринчи таом (前菜) ва десертни бир вақтда тайёрлаш зарурати юзага келади. Зал ходими ошхонадаги ишнинг тезлаштирилишини талаб қилади:

大至急仕上げてください！ワンさん、デザートもそろそろですから！

Daishikyū shiagete kudasai! Wan-san, dezāto mo sorosoro desu kara!

«Иложи борица тезроқ тайёрлаб беринг! Ван-сан, десерт бериш вақти ҳам яқинлашди!» [8, 30-диалог]

ください сақлангани учун реплика грамматик-коммуникатив жихатдан адресатга ҳурмат муносабатини сақлайди. Лекин 大至急 лексик кучайтиргичи, ундов интонацияси ва мижознинг кутиши ҳаракатни зудлик билан бажариш талабини биринчи ўринга олиб чиқади. ですから сабабни тушунтирса-да, бу тушунтириш адресатга рад этиш имкониятини кенгайтирмайди; аксинча, шошилишчиликни асослайди. Шу тариқа мазкур мисол ҳурмат шакли мавжудлиги прагматик юмшатишнинг юқори даражасини кафолатламаслигини очиқ кўрсатади.

1-жадвал.

～てください конструкциясида ҳурмат шакли ва юмшатишнинг контекстуал нисбати

Диалог рақами	Муносабат	Юмшатувчи восита	Прагматик вазифа	Адресат танлови	Юмшатиш даражаси
Sh.Safarov ta'kidlaganidek, til va tafakkur o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, konseptlar insonning kognitiv faoliyati mahsuli hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, muhabbat konsepti ham mavhum mental birlik sifatida insonning bilimlari, hissiyotlari va ijtimoiy tajribasini aks ettiradi. U nafaqat individual kechinma, balki ezgulik, insonparvarlik va ijtimoiy munosabatlarni shakllantiruvchi muhim ma'naviy qadriyat sifatida namoyon bo'ladi [4].

Tadqiqotda tavsifiy, konseptual, lingvofalsafiy, lingvokognitiv hamda qiyosiy-tipologik tahlil metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, muhabbat konseptining mazmuniy tuzilishi, ontologik, aksiologik va gnoseologik xususiyatlarini aniqlashda lingvomadaniy tahlil metodlari qo'llanildi.

Muhokama va natijalar. Ushbu tadqiqot natijalari "muhabbat" konseptining lingvofalsafiy jihatdan ko'p qatlamli, dinamik va aksiologik mazmunga ega konseptual birlik ekanligini tasdiqladi. Tahlillar natijasida konseptning ontologik, aksiologik, gnoseologik va lingvomadaniy komponentlari o'zaro uzviy bog'liqlikda faoliyat yuritishi aniqlandi. Olingan natijalar muhabbatni nafaqat emotsional hodisa, balki insonning dunyoni anglash va baholash tizimini shakllantiruvchi konsept sifatida talqin qilish imkonini berdi.

Lingvofalsafiy tahlil shuni ko'rsatdiki, muhabbat konsepti inson mavjudligining fundamental kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Ontologik nuqtai nazardan u shaxsning biologik, ijtimoiy va ma'naviy mavjudligini yagona tizimda birlashtiruvchi hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Muhabbat insonning o'zini, boshqalarni va borliqni idrok etish jarayonida shakllanadigan murakkab konseptual modeldir. Abu Ali Ibn Sino o'zining "Muhabbat to'g'risidagi risola"sida muhabbatni barcha substantsiyalarga xos va ularning mavjudligining sababchisi sifatida qaraydi. Ibn Sino ta'kidlashicha "[Alloh] tomonidan boshqariladigan barcha substantsiyalar tabiatan o'zining kamolotiga intiladi, bu individual yaxshilik bo'lib, Sof yaxshilikning individual substansiyasidan kelib chiqadi va tabiatan u o'ziga xos kamchiliklardan, ya'ni yomonlikdan qochadi. Shunday ekan, [oliy tamoyil bilan] boshqariladigan mavjud barcha narsalar tug'ma muhabbatga ega ekanligi ayon bo'ladi" [10].

Tahlil natijalari asosida muhabbat konseptining ontologik tuzilishi quyidagi komponentlardan tashkil topishi aniqlandi: mavjudlik (muhabbat inson borlig'ining tabiiy shakli sifatida namoyon bo'ladi), munosabat (shaxs va jamiyat o'rtasidagi ijtimoiy aloqalarni shakllantiradi), ma'naviylik (axloqiy kamolot va ruhiy yetuklikning muhim omili hisoblanadi), dinamiklik (hayot davomida mazmunan boyib boradigan konseptual tizimdir). Mazkur natijalar muhabbatni faqat hissiyot emas, balki inson borlig'ining konseptual asoslaridan biri sifatida talqin qilish zarurligini ko'rsatadi.

Tahlillar muhabbat konseptining asosiy mazmuni umuminsoniy qadriyatlar tizimi bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatdi. Konseptlarning aksiologik xususiyatlarini o'rganish insonning dunyoga, uning obyektlariga, hodisalariga, munosabatlarga baho berishi bilan bog'liq bo'ladi. Aksiologik jihatdan muhabbat ezgulik, mehr, sadoqat, vafo, insonparvarlik va mas'uliyat kabi qadriyatlarining markaziy konsepti hisoblanadi. Insonning hayotiy qadriyatlari tizimida muhabbat tushunchasiga juda yuqori o'rin berilganligi maqollar mazmunida o'z ifodasini topgan. *Love is a touchstone of virtue* (muhabbat yaxshi fazilatlar

namunasi); *Love covers many infirmities* (muhabbat kamchiliklarni yashiradi); *Sevgisi bo'lsa birovning, kulguga to'lar o'tovi*; *Muhabbat – dil mevasi*; *Sevgi – umrning ta'mi* kabi maqollarda muhabbat hayotning asl mohiyati sifatida tasvirlangan qadriyatdir[9]. Muhabbat konseptining aksiologik modeli quyidagi ko'rinishda umumlashtirildi.

1-jadval.

Muhabbat konseptining aksiologik modeli

Aksiologik kategoriya	Konseptdagi ifodasi
Ezgulik	Insonlar o'rtasidagi ijobiy munosabatlarning asosi
Mehr	G'amxo'rlik va insoniy yaqinlikni ifodalaydi
Sadoqat	Barqaror ijtimoiy munosabatlarning negizi
Vafo	Axloqiy majburiyat va ishonch belgisi
Fidoyilik	O'z manfaatidan voz kechish orqali namoyon bo'ladi

Y.V.Lobkova o'z tadqiqot ishida obyektiv va subyektiv komponentlarni o'z ichiga olgan muhabbatning *emotional* (baxtli, baxtsiz, azobli, achchiq, shirin muhabbat), *axloqiy* (samimiy, soxta, chin, aldangan muhabbat) va *estetik* (ideal, dramatik, go'zal, romantik, fojiali muhabbat) baholashlarini aniqladi [8].

Natijalar muhabbat konseptining qadriyatlar tizimidagi markaziy o'rnini tasdiqlaydi hamda uning axloqiy-me'yoriy mazmunini yoritadi.

Lingvofalsafiy tahlil muhabbat konseptining inson bilimlari tizimidagi o'rnini aniqlash imkonini berdi. Tadqiqot davomida muhabbat insonning borliq haqidagi tasavvurlarini shakllantiruvchi konseptual model sifatida namoyon bo'lishi kuzatildi. Muhabbat orqali shaxs *o'zining ijtimoiy mavqeini anglaydi, axloqiy me'yorlarni o'zlashtiradi, boshqa insonlarni baholaydi, madaniy qadriyatlarni qabul qiladi, hayot mazmunini belgilaydi*. Natijalar muhabbat konsepti bilimlarni kategoriyalash jarayonida faol ishtirok etuvchi kognitiv birlik ekanligini ko'rsatdi.

Muhabbat qadimdan falsafa, psixologiya, adabiyot, din va tilshunoslikning eng muhim tadqiqot obyektlaridan biri bo'lib kelgan. Qadimgi yunon faylasuflari muhabbatni inson kamoloti bilan bog'lagan bo'lsalar, sharq mutafakkirlari uni ruhiy poklanish va komillikka eltuvchi kuch sifatida talqin qilganlar. "Sharq va G'arb axloq qoidalarini qiyoslashdan maqsad har ikkala yurt vakillaridagi qarashlar insonning kamolot sari intilishiga, inson kabi faoliyat olib borishiga hamda hayotni sevib yashashga o'rgatadi" [2]. Darhaqiqat, kishilik jamiyati tarixida yuksak axloqiy fazilatlar sohibi bo'lgan olim va adiblar o'z qarashlarida u yoki bu taraflama "muhabbat" tushunchasining aynan o'zi yoki shu tushunchaga yaqin bo'lgan aksiologik qadriyatlarni tarannum etgan. Jumladan, Dekart shaxsiy his-tuyg'ularni jilovlash (axloq), his-tuyg'ularni boshqara olmaslik (axloqsizlik), Ibn Sino iffat, sadoqat, saxiylik, qat'iyat, L.Tolstoy ezgulik va muhabbatni ulug'lash axloqi, Dostoyevskiy vijdon, insonga muhabbat, insonni ulug'lash axloqi kabi qarashlarni ilgari surgan [9]. Natijalar shuni ko'rsatadiki, har ikkala falsafiy maktab muhabbatni umuminsoniy hodisa sifatida tan olsa-da, uning mazmuni turli madaniy qadriyatlar asosida shakllanadi.

Zamonaviy kognitiv tilshunoslik esa muhabbatni inson ongida shakllangan murakkab konseptual model sifatida izohlaydi. Ushbu konsept insonning hissiy tajribasi, ijtimoiy munosabatlari, axloqiy qarashlari va madaniy qadriyatlarini yagona tizimga birlashtiradi.

"Muhabbat" konsepti barcha millat tillarida mavjud bo'lsa-da, bu tushuncha har bir madaniyatda o'ziga xos xususiyatga ega. Muhabbat yoki sevgi kuchli shaxsiy yoqtirish hissidir. Taniqli o'zbek yozuvchisi Tohir Malik o'zining "Odamiylik mulki" asarining "Sevgan suyganiga etar itoat" bobini ishq-muhabbat ta'rifi, uning turlari va qalbdagi jilosiga bag'ishlagan. Yozuvchining fikricha, "bugungi kunda ishq-muhabbat deyilganda ko'proq yigit va qiz orasidagi tuyg'u tushuniladi. Holbuki, ishq va muhabbatning qamrovi ancha kengdir. Avvallari "ishq" deyilganda ko'proq bandaning Yaratganga muhabbati tushunilgan va qadim adabiyotda bu o'z aksini go'zal hollarda topgan. Yana ota-onaga muhabbat, odamlarning o'zaro muhabbatlari (buni "hurmat" ham deb ataymiz), ona zaminga, ona Vatanga muhabbat, kasb-koriga muhabbat, farzandlarga muhabbat" [10]. Darhaqiqat, muhabbat faqatgina ikki kishi o'rtasidagi ishq bo'libgina qolmay, balki insonning o'z yaqin kishilari, xalqi va Vatanga bo'lgan muhabbati hamda "tasavvufda Allohga yetishish ("haqiqatga erishish")ning asosiy vositasi" sifatida ham tushuniladi [11]. "Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy, So'fi Olloyor va shu kabi shoirlar she'rlarida insonni bu dunyoga emas, Allohga Muhabbat qo'yishga chaqiradi. Yassaviy fikricha, kishi butun hayotini Allohga, ilohiy Muhabbatga bag'ishlash kerak, hayotning mohiyati Alloh – "haqiqat"ga erishishdir. Allohdan o'zgaga bo'lgan Muhabbat solihlar nazarida majoziy Muhabbat sanalgan. Tasavvufona bitilgan g'azal va she'rlarda majoziy Muhabbat orqali haqiqiy Muhabbat tarannum etiladi" [9]. Ibn Sino inson sevgisini, jinsga bo'lgan muhabbatni ruhning ilohiy ishqga ko'tarilishi va uning iloh bilan birlashishi jarayonida ijobiy rol o'ynashiga bog'laydi [6].

Lingvomadaniy tahlil natijasida muhabbat konseptining milliy-madaniy jihatdan shartlanganligi aniqlandi. O'zbek madaniyatida muhabbat quyidagi qadriyatlar bilan bog'liq: ota-onaga hurmat; oilaparvarlik; sadoqat; hayo; sabr; mehr-oqibat; diniy e'tiqod. Ingliz madaniyatida esa: individual erkinlik; romantik munosabat; shaxsiy tanlov; tenglik; mustaqillik; o'zini namoyon qilish. Mazkur farqlar konseptning milliy dunyoqarash va madaniy tajriba ta'sirida shakllanishini tasdiqlaydi. Olingan natijalarni umumlashtirish asosida muhabbat konseptining integrallashgan modeli ishlab chiqildi.

Muhabbat konsepti = Ontologik komponent + Aksiologik komponent + Gnoseologik komponent + Emotsional komponent + Lingvomadaniy komponent

Ushbu model konseptning ko'p o'lchovli tabiatini aks ettirib, uning inson tafakkuri va madaniyatidagi markaziy o'rini ko'rsatadi. Muhabbat konsepti til tizimida nafaqat semantik birlik, balki shaxsning qadriyatlar tizimini, ijtimoiy tajribasini va dunyo haqidagi bilimlarini integratsiyalovchi murakkab konseptual tuzilma sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalari "muhabbat" konseptining lingvofalsafiy jihatdan ko'p qatlamli va murakkab konseptual birlik ekanligini tasdiqladi. Tahlillar ushbu konseptning nafaqat emotsional holatni, balki insonning borliqni anglash, qadriyatlarni shakllantirish va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish jarayonlarini ham aks ettirishini ko'rsatdi. Muhabbat konsepti ontologik, aksiologik va gnoseologik jihatlarning o'zaro uyg'unligi asosida shakllanuvchi dinamik bilimlar tizimi sifatida namoyon bo'ldi.

Shuningdek, tadqiqot davomida ishlab chiqilgan integrallashgan lingvofalsafiy model konseptning ontologik, aksiologik, gnoseologik, emotsional va lingvomadaniy komponentlarini yagona tizimda birlashtirish imkonini berdi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari "muhabbat" konseptining lingvofalsafiy jihatdan ko'p qatlamli va murakkab konseptual birlik ekanligini tasdiqladi. Tahlillar muhabbatning nafaqat emotsional holatni ifodalovchi til birligi, balki insonning borliqni anglash, qadriyatlarni shakllantirish va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda muhim o'rin tutuvchi universal konsept ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqotda konseptning ontologik, aksiologik va gnoseologik komponentlari tizimli ravishda yoritilib, uning integrallashgan lingvofalsafiy modeli ishlab chiqildi. Olingan natijalar konseptologiya, kognitiv tilshunoslik va lingvofalsafa sohalarini nazariy jihatdan boyitadi hamda oliy ta'lim va keyingi ilmiy tadqiqotlarda metodologik asos sifatida xizmat qilishi mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Bobojonova Sh. O'zbek tili "Ma'naviyat" leksik-semantik kategoriyasining "Axloq" umumiy semali atov birliklari tizimi. *filol. fan. bo'yicha fals. dokt. (PhD) ... diss.* – Qarshi, 2022. – 125 b.
2. Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By.* – Chicago: University of Chicago Press, 2003. – 276 p.
3. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. *M harfi.* – Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. – B. 907.
4. Safarov Sh. *Kognitiv tilshunoslik.* – Jizzax: Sangzor, 2006. – 211 b.
5. Tadiyeva M. F. *Ingliz va o'zbek tillarida Love/Muhabbat konseptining reprezentatsiyasi.* – Toshkent: Grand Kondor Print, 2025. – 212 b.
6. Tohir Malik. *Odamiylik mulki (I- qism)* <http://uzsmart.ru/kutubxona/asarlar/3358-odamiylik-mulki-i-qism-tohir-malik.html>.
7. Аскольдов С. А. *Цит. по: Журавлёва З. И. Концепт в лингвокультурологии // II Международная научная конференция «Язык и культура».* – М.: Институт иностранных языков, 2003. – С. 261–262.
8. Лобкова Е. В. *Образ-концепт «Любовь» в русской языковой картине мира: дис. ... канд. филол. наук.* – Омск, 2005. – 194 с.
9. Маслова В. А. *Когнитивная лингвистика: учеб. пособие.* – Минск: ТетраСистемс, 2004. – 256 с.
10. Серебряков С. Б. *Трактат Ибн Сины (Авиценны) о любви.* – Тбилиси: Мецниереба, 1976. – 203 с.
11. Степанов Ю. С. *Константы: Словарь русской культуры.* – 3-е изд. – М.: Академический Проект, 2004. – 992 с.

INGLIZ VA O‘ZBEK LINGVOMADANIYATIDA ENANTIOSEMIYALARNING AKS
ETISHI

Hafizov Sarvar Boborajab o‘g‘li,

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Xorijiy til va adabiyoti quyi kurslar kafedrası o‘qituvchisi

sarvarhafizov4@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0000-1299-205X>

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi enantiosemiyalar lingvomadaniy jihatdan qiyosiy tadqiq etilgan. Enantiosemiya bir leksema yoki frazeologik birlik doirasida qarama-qarshi ma’nolarning birlashishi hodisasi sifatida ko‘rib chiqilib, uning paydo bo‘lishida tarixiy, ijtimoiy va psixologik omillarning roli ochib berilgan. Tadqiqotda jahon, rus, ingliz va o‘zbek tilshunolarining ishlari tayanilgan. Maqolada William Shakespeare, Charles Dickens, Mark Twain, Abdulla Qodiriy, Cholpon va Alisher Navoiy kabi yozuvchilarning asarlaridan olingan aniq adabiy misollar tahlil qilingan. Ingliz tilida huquqiy-pragmatik enantiosemiyalar ustun bo‘lsa, o‘zbek tilida grammatik va subyektiv-baholiy enantiosemiyalar kuchli ekanligi aniqlangan. Qiyosiy tahlil natijasida ikki til madaniyatidagi farqlar (individualizm va kollektivizm, understatement va kontekstual ironiya, huquqiy aniqlik va nutq ifodaviyligi) ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: enantiosemiya, contronym, autoantonym, lingvomadaniyat, semantik siljish, qiyosiy tadqiqot.

ОТРАЖЕНИЕ ЭНАНТИОСЕМИЙ В АНГЛИЙСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ
ЛИНГВОКУЛЬТУРАХ

Аннотация. В данной статье проводится сравнительное лингвокультурологическое исследование энантиосемий в английском и узбекском языках. Энантиосемия рассматривается как явление объединения противоположных значений в рамках одной лексемы или фразеологической единицы, при этом раскрывается роль исторических, социальных и психологических факторов в процессе её возникновения. В исследовании используются научные труды отечественных и зарубежных лингвистов, посвящённые изучению данного феномена. В статье анализируются конкретные литературные примеры из произведений таких авторов, как Уильям Шекспир, Чарльз Диккенс, Марк Твен, Абдулла Кадыри, Чулпан и Алишер Навои. Установлено, что в английском языке преобладают юридико-прагматические энантиосемии, тогда как в узбекском языке более выражены грамматические и субъективно-оценочные виды энантиосемии. В результате сравнительного анализа научно обоснованы различия между двумя лингвокультурами, включая особенности индивидуализма и коллективизма, явления understatement и контекстуальной иронии, а также правовой точности и выразительности речевого поведения.

Ключевые слова: энантиосемия, контроним, автоантоним, лингвокультура, семантический сдвиг, сравнительное исследование.

THE REFLECTION OF ENANTIOSEMY IN ENGLISH AND UZBEK LINGUOCULTURES

Abstract. This article presents a comparative linguocultural study of enantiosemy in the English and Uzbek languages. Enantiosemy is considered as a phenomenon involving the combination of opposite meanings within a single lexeme or phraseological unit, and the role of historical, social, and psychological factors in its emergence is revealed. The study is based on the works of international, Russian, English, and Uzbek linguists. The article analyzes specific literary examples taken from the works of such writers as William Shakespeare, Charles Dickens, Mark Twain, Abdulla Qodiriy, Cholpon, and Alisher Navoi. The research demonstrates that legal-pragmatic enantiosemy is more prevalent in English, whereas grammatical and subjective-evaluative types of enantiosemy are more prominent in Uzbek. The comparative analysis provides a scientific explanation of cultural differences between the two linguocultures, including individualism and collectivism, understatement and contextual irony, as well as legal precision and expressive speech patterns.

Keywords: enantiosemy, contronym, autoantonym, linguoculture, semantic shift, comparative study.

Kirish. Enantiosemiya tilshunoslikda bir leksema yoki frazeologik birlik doirasida qarama-qarshi ma'nolarning birlashuvini bildiruvchi hodisa bo'lib, polisemiyaning maxsus turi hisoblanadi. Bu fenomen tilning dialektik tabiatini, inson ongining qarama-qarshiliklarni birlashtirish qobiliyatini hamda madaniyatning tarixiy va ijtimoiy rivojini aks ettiradi. Ingliz tilida contronym, autoantonym yoki Janus word deb ataluvchi bu hodisa deyarli barcha tillarda uchraydi, ammo uning namoyon bo'lishi va chastotasi har bir tilning lingvomadaniy xususiyatlariga bog'liq. Mazkur maqola ingliz va o'zbek tillaridagi enantiosemiyalarni lingvomadaniy jihatdan qiyosiy tahlil qilish, ularning paydo bo'lishida tarixiy, ijtimoiy va psixologik omillarning rolini ochib berishga qaratilgan. Tadqiqot oldingi ilmiy ishlar asosida amalga oshirilib, badiiy adabiyotdan olingan konkret misollar orqali asoslanadi. Maqolada qiyosiy jadvallar keltirilib, tillardagi o'xshashlik va farqlar chuqur tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Enantiosemiya hodisasini o'rganish antik davrdan boshlanadi. Geraklitning dialektika qarashlari va Platonning qarama-qarshiliklar haqidagi fikrlari bu fenomenning falsafiy asosini tashkil etadi. Jahon tilshunosligida bu mavzuni birinchi marta chex-rus filologi V.I. Shertsl (Shersl) 1883–1884 yillarda “О словах с противоположными значениями (или о так называемой энантиосемии)” asarida ilmiy jihatdan ko'rib chiqqan.

Rus tilshunosligida L.A. Novikov enantiosemiyani antonimiya bilan bog'liq maxsus hodisa sifatida, V.N. Proxorova, L.V. Minayeva, L.E. Bessonova va V.V. Vinogradov ta'siridagi olimlar uni polisemiyaning maxsus turi deb talqin etishgan. Ba'zi tadqiqotchilar (A.A. Nechayev, N.N. Efimova) uni homonimiya doirasiga kiritishga moyil bo'lgan bo'lsa, ko'pchilik uni polisemiyaning muntazam ko'rinishi deb hisoblaydi. S.V. Ogneva enantiosemiyaning tarixiy va tipologik jihatlarini, I. Povstyanaya esa ingliz tili o'qitishdagi ahamiyatini o'rgangan.

Ingliz tilshunosligida H. Kajberuny ingliz tilidagi yondashuvlarni umumlashtirib, Yevropa va rus olimlarining qarashlarini qiyoslagan. V. Ozyumenko huquqiy ingliz tilidagi enantiosemiyalarni (sanction, tenant, lease) chuqur tahlil qilib, tarjima va o'qitishdagi muammolarni ko'rsatgan. A. Klegr, A. Böhmerová va boshqa yevropalik olimlar enantiosemiyani polisemiyaning chegaralari nuqtai nazaridan tadqiq etgan.

O'zbek tilshunosligida bu mavzu nisbatan yangi bo'lib, N. Mahmudov, Y. Odilov va boshqalar asos solgan. Yorqinjon Odilov enantiosemiyani nominativ va subyektiv-baholiy, leksik, frazeologik va grammatik turlarga ajratib, o'zbek tilidagi ko'plab misollarni ilmiy jihatdan asoslagan (“O'zbek tilida leksik va frazeologik enantiosemiya”, 2015; “O'zbek tili enantiosemik so'zlarining izohli lug'ati”, 2014). N.I. Murodova va J. Jumabayeva ingliz, rus va o'zbek tillaridagi kontseptual enantiosemiyani kognitiv jihatdan tadqiq etgan.

Enantiosemiya nafaqat leksik hodisa, balki til va madaniyatning chuqur dialektik bog'lanishini aks ettiruvchi universal kognitiv mexanizm hisoblanadi. Jahon tilshunosligidagi bahslar (polisemiya yoki antonimiya doirasi)ga qaramay, bu hodisa inson tafakkurining ambivalensiyasini va madaniy kontekstning kuchini namoyon etadi. O'zbek tilidagi tadqiqotlarning kamchiligi shundaki, ular ko'pincha deskriptiv xarakterga ega bo'lib, qiyosiy lingvomadaniy tahlil yetarli emas. Shu bois mazkur maqola ingliz va o'zbek tillaridagi o'xshashlik va farqlarga alohida e'tibor qaratadi[1].

Muhokama va natijalar. Enantiosemiya paydo bo'lishining asosiy mexanizmlari semantik siljish (metonimiya va metafora), ijtimoiy baholashning o'zgarishi (amelioratsiya va peyoratsiya), kontekstual qarama-qarshilik hamda tarixiy-madaniy omillar hisoblanadi. Psixologik jihatdan bu hodisa inson ongining ambivalensiyasini, ironiya va antiphrasis orqali ifodalanadigan ong osti qarama-qarshiliklarini namoyon etadi. Ingliz va o'zbek tillaridagi misollar bu mexanizmlarni badiiy adabiyotda aniq ko'rsatadi[2].

Ingliz tilidagi enantiosemiyalar ko'pincha huquqiy va pragmatik kontekstlarda kuchli namoyon bo'ladi. Quyidagi jadvalda ingliz tilidagi asosiy misollar keltirilgan:

1-jadval. Ingliz tilidagi tanlangan enantiosemiyalar

So'z	Ijobiy / bir ma'no	Salbiy / qarama-qarshi ma'no	Adabiy misol
Cleave	Yopishmoq, birlashmoq	Ajratmoq, bo'lmoq	Shakespeare, “Hamlet”
Sanction	Tasdiqlamoq, ruxsat bermoq	Jarima qo'llamoq, taqiqlamoq	Dickens, “A Tale of Two Cities”
Dust	Changini tozalamoq	Chang sepmoq	Twain, “Huckleberry Finn”
Fast	Tez	Qattiq o'rnatilgan, harakatsiz	Turli matnlar
Rent	Ijaraga olmoq	Ijaraga bermoq	Huquqiy matnlar

William Shakespearenig “Hamlet” asarida cleave so'zi “ajratmoq” va “yopishmoq” ma'nolarida ishlatilib, qahramonning ichki qarama-qarshiliklarini ta'kidlaydi. Charles Dickensning “A Tale of Two Cities” romanida *sanction* so'zi inqilobiy voqealar tasvirida huquqiy va siyosiy kontekstda ikki ma'noni

birlashtirib, zulm va qonuniylik ramzini yaratadi. Mark Twainning “The Adventures of Huckleberry Finn” asarida *dust* soʻzi kundalik hayot tasvirlarida ijtimoiy ambivalensiyani aks ettiradi.

Ushbu misollar ingliz tilidagi enantiosemiyalarning nafaqat leksik, balki chuqur lingvomadaniy va psixologik mazmunini ochib beradi. Shakespearenin “Hamlet” asarida *cleave* soʻzining ikki qarama-qarshi maʼnosi (“yopishmoq, sadoqat bilan birlashmoq” va “ajratmoq, boʻlmoq”) orqali asosiy qahramonning ruhiy iztiroblari, oilaviy rishtalar va siyosiy majburiyatlar oʻrtasidagi ichki ziddiyatlarni yorqin ifodalaydi. Bu esa ingliz adabiyoti uchun xos boʻlgan inson ruhiyatining murakkabligini va qarama-qarshiliklarni bir vaqtda his qilish qobiliyatini namoyon etadi [3].

Dickensning “A Tale of Two Cities” romanida *sanction* soʻzi Fransiya inqilobi fonida huquqiy va siyosiy kontekstda ishlatilgan holda, bir tomondan davlatning rasmiy tasdiqi (qonuniylik), ikkinchi tomondan esa repressiya va zoʻravonlik ramzi sifatida koʻrinadi. Muallif bu orqali jamiyatdagi hokimiyatning ikki tomonlama tabiatini, qonun nomidan amalga oshiriladigan zoʻravonlikni tanqid qiladi. Mark Twain esa “The Adventures of Huckleberry Finn” asarida *dust* soʻzining (“changini tozalamoq” va “chang sepmoq”) oddiy kundalik hayot tasvirlari orqali irqiy va ijtimoiy tengsizlikka asoslangan Amerika jamiyatidagi chuqur ambivalensiyani ochib beradi.

Bu adabiy misollar ingliz tilidagi enantiosemiyalarning tarixiy ildizlari Eski ingliz (Old English) davridan boshlanib, keyinchalik norman-fransuz tillarining kuchli taʼsirida shakllanganligini koʻrsatadi. Koʻp enantiosemiyalar tilga turli qatlamlardan kirib, vaqt oʻtishi bilan semantik siljish (metonimiya va metafora) natijasida qarama-qarshi maʼnolarni oʻzida mujassam etgan. Ijtimoiy omillar jihatidan ingliz jamiyatining huquqiy tizimga asoslanganligi, mulkiy munosabatlarning murakkabligi va individualizm madaniyati enantiosemiyalarning huquqiy terminologiyada (masalan, *tenant*, *lease*, *sanction*) keng tarqalishiga sabab boʻlgan. Bunday soʻzlar huquqiy hujjatlarda aniqlik talab etilishi bilan birga, turli talqinlarga yoʻl ochib, tarjima va huquqiy amaliyotda qoʻshimcha qiyinchiliklar tugʻdiradi[4].

Psixologik jihatdan esa ingliz mentalitetiga xos “understatement” (voqeani ataylab kamaytirib koʻrsatish), iroaniya va hazil tuygʻusi enantiosemiyalarni nutqning juda samarali vositasiga aylantiradi. Inson ongining ambivalens tabiatini (qarama-qarshiliklarni bir vaqtda qabul qilish) aks ettiruvchi bu hodisa adabiyotda ichki konfliktlarni chuqurlashtirish, ijtimoiy tanqidni yumshoqroq ifodalash va oʻquvchida fikrlash maydonini kengaytirish uchun muvaffaqiyatli qoʻllaniladi. Natijada, enantiosemiya ingliz lingvomadaniyatida nafaqat til hodisasi, balki madaniy va psixologik oʻziga xoslikning muhim koʻrinishi sifatida namoyon boʻladi.

Oʻzbek tilida enantiosemiyalar leksik, grammatik va frazeologik darajalarda boy namoyon boʻladi hamda koʻproq subyektiv-baholiy va kontekstual xususiyatga ega.

2-jadval. Oʻzbek tilidagi tanlangan enantiosemiyalar

Soʻz / birlik	Bir maʼno	Qarama-qarshi maʼno	Adabiy misol
Toʻy	Bayram, quvonch	Tugash, umidsizlik (“toʻy tarqamoq”)	A. Qodiriy, “Oʻtgan kunlar”
Boxtar	Sharq	Gʻarb	A. Navoiy, “Sabʼai sayyor”
Tushmoq (ga/dan)	Harakat boshlanishi	Harakat tugashi	Ch. Cholpon, “Kecha va kunduz”
Jazolamoq	Jazo berish	Ironik: mukofotlash	Oʻ. Hoshimov, “Daftar hoshiyasidagi bitiklar”
Chiqmoq (ga/dan)	Tashqariga chiqish	Ichkaridan chiqish	Turli asarlar

Abdulla Qodiriy “Oʻtgan kunlar” romanida *toʻy* soʻzi nafaqat oilaviy bayram va quvonch ramzi sifatida, balki butun bir ijtimoiy va madaniy hodisa timsoli sifatida ishlatiladi. Romanda *toʻy* tasvirlari orqali oʻzbek oilasining anʼanaviy qadriyatlari, ijtimoiy mavqei va insoniy umidlari yorqin ifodalanadi. Biroq boshqa epizodlarda “toʻy tarqamoq” iborasi orqali bu soʻzning enantiosemik maʼnosi yaqqol namoyon boʻladi: bayramning tugashi, umidsizlik, rejalarining barbod boʻlishi va hayotiy umidlarning soʻnishi maʼnolarini bildiradi. Muallif bu orqali oʻzbek jamiyatidagi ijtimoiy oʻzgarishlar, oilaviy va shaxsiy dramalarni chuqur ochib beradi [5].

Alisher Navoiyning “Sabʼai sayyor” asarida *boxtar* soʻzi “sharq” va “gʻarb” maʼnolarida bir vaqtda qoʻllanilgan holda, falsafiy va tasavvufiy qarama-qarshiliklarni yorqin ifodalaydi. Bu soʻzning enantiosemik ishlatilishi nafaqat geografik yoʻnalishlarni, balki insoniyatning ruhiy va axloqiy ikki tomonlamaligini, yaxshilik va yomonlik, yaqinlik va uzoqlik, maʼrifat va jaholat oʻrtasidagi abadiy ziddiyatni ramziy jihatdan ochib beradi. Navoiy kabi buyuk mutafakkirning asarida bunday til vositasi orqali Sharq falsafasining dialektik tabiatini koʻrish mumkin.

Cholponning “Kecha va kunduz” romanida grammatik enantiosemiyaning yorqin namunasi sifatida *ga tushmoq* va *dan tushmoq* iboralarini keltiriladi. Bir tomondan, “musofirxonalarga tushmoq” iborasi harakatning boshlanishi, yangi muhitga kirish va hayotiy bosqichning boshlanishini bildirsa, ikkinchi tomondan “lavozimdan tushmoq” yoki “deriktirlikdan tushmoq” kabi ifodalar mavqening yo‘qolishi, holatning tugashi va pasayish ma’nolarini anglatadi. Bu grammatik enantiosemiya orqali yozuvchi o‘zbek jamiyatidagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar, inqilobiy davrning inson taqdiriga ta’sirini va hayotning doimiy o‘zgaruvchanligini ifodalaydi[6].

O‘tkir Hoshimovning “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” va boshqa asarlarida *jazolamoq* so‘zi ironik ma’noda ishlatilib, enantiosemiyaning subyektiv-baholiy turini yaqqol namoyon etadi. So‘zning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’nosi (“jazo berish”) o‘rniga muallif uni ko‘pincha “mukofotlamoq”, “tarbiyalamoq” yoki “yaxshilik qilmoq” ma’nolarida qo‘llaydi. Bu ironik ishlatish orqali yozuvchi o‘zbek nutqidagi noaniqlik, kontekstga bog‘liqlik va Sharq mentalitetiga xos yumshoq tanqid usulini ko‘rsatadi.

Ushbu misollar o‘zbek tilidagi enantiosemiyalarning nafaqat leksik va grammatik, balki chuqur lingvomadaniy va psixologik xususiyatlarini ochib beradi. O‘zbek lingvomadaniyatida enantiosemiya ko‘pincha kontekstual va subyektiv-baholiy tusga ega bo‘lib, kollektiv jamiyat, oilaviy qadriyatlar, falsafiy tafakkur va ironik nutq madaniyati bilan chambarchas bog‘liq. Bu hodisa tilning moslashuvchanligini, Sharq mentalitetidagi noaniqlik va ko‘p ma’nolilikni saqlash qobiliyatini hamda inson hayotidagi qarama-qarshiliklarni bir vaqtda ifodalash imkoniyatini namoyon etadi[7].

3-jadval. Ingliz va o‘zbek tillaridagi enantiosemiyalarning qiyosiy tahlili

Jihat	Ingliz tili	O‘zbek tili	Umumiy / Farq
Asosiy mexanizm	Metonimiya, huquqiy siljish	Kontekstual baholash, grammatik o‘zgarish	Umumiy: kontekst
Tarqalishi	Huquqiy va pragmatik ustun	Grammatik va subyektiv-baholiy kuchli	Farq: madaniy
Adabiyotdagi roli	Ichki konflikt va ijtimoiy tanqid	Falsafiy va oilaviy murakkablik	Farq: mentalitet
Tarixiy omil	Eski ingliz + fransuz olinma so‘zlar	Turk-meros + islom + sovet ta’siri	Umumiy: tarixiy siljish
Psixologik omil	Individualizm, understatement	Kollektivizm, ironiya va noaniqlik	Farq: Sharq-G‘arb

Ingliz va o‘zbek tillarida enantiosemiyalar umumiy semantik mexanizmlarga — asosan metonimiya, metafora va kontekstual siljishga — asoslangan bo‘lsa-da, ularning namoyon bo‘lish shakllari, chastotasi va funksional yuklamasida sezilarli lingvomadaniy farqlar kuzatiladi. Bu farqlar ikki xalqning tarixiy tajribasi, ijtimoiy tuzilishi va milliy mentalitetining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi.

Ingliz tilida huquqiy va pragmatik enantiosemiyalar ustun mavqega ega. Bu holat ingliz jamiyatining uzoq muddatli huquqiy an‘analari, mulkiy munosabatlarning murakkabligi, shuningdek, individualizm madaniyati bilan chambarchas bog‘liq. Huquqiy terminlar doirasida (*sanction, tenant, lease, bond*) enantiosemiyaning mavjudligi bir tomondan aniqlik talabini kuchaytirsa, ikkinchi tomondan esa turli talqinlarga yo‘l ochadi. William Shakespeare va Charles Dickens asarlarida enantiosemiya asosiy qahramonlarning ichki konfliktlarini chuqurlashtirish va ijtimoiy tanqidni samarali ifodalash vositasi sifatida xizmat qiladi. Mualliflar bu til vositasi orqali jamiyatdagi ikki tomonlama standartlar, hokimiyatning ambivalens tabiati va inson ruhiyatidagi ziddiyatlarni yorqin ochib berishadi[8].

O‘zbek tilida esa grammatik va subyektiv-baholiy enantiosemiyalar ancha kuchli rivojlangan. Abdulla Qodiriy, Cholpon va Alisher Navoiy asarlarida bu hodisa oilaviy munosabatlar, falsafiy qarashlar va ijtimoiy jarayonlarning murakkabligini ifodalashda muhim rol o‘ynaydi. *To‘y, boxtar, ga tushmoq/dan tushmoq, jazolamoq* kabi birliklar nafaqat ma’noning ikki tomonlamaligini, balki Sharq dunyoqarashidagi dialektik tafakkurni ham aks ettiradi. Bu yerda enantiosemiya ko‘pincha kontekstga bog‘liq bo‘lib, gapiruvchining intonatsiyasi, subyektiv bahosi va vaziyatga moslashuvchanligi orqali faollashadi.

Ushbu farqlar ikki madaniyatning tub xususiyatlarini yaqqol ko‘rsatadi. Ingliz lingvomadaniyatida enantiosemiya ko‘pincha “aniqlik muammosi”ni keltirib chiqaradi va huquqiy-hujjat aylanishida qo‘shimcha talqin talab etadi. O‘zbek lingvomadaniyatida esa u nutqning ifodaviyligi, obrazlilik va ironik boyligini oshiradi, kontekstual moslashuvchanlikni ta’minlaydi. Tarjima jarayonida bunday birliklar katta qiyinchilik tug‘diradi, chunki kontekstdan tashqari holda so‘zning bir ma’nosi ustunlik qilishi yoki butunlay yo‘qolishi mumkin, bu esa original matnning pragmatik va emotsional kuchini susaytiradi [9].


Tarixiy omillar nuqtayi nazaridan ingliz tilidagi enantiosemiyalar Eski ingliz tilining ichki resurslari va XI asrdan keyingi roman-fransuz tillarining kuchli qatlamlashuvi natijasida shakllangan. O'zbek tilida esa qadimiy turkiy meros, islom madaniyati (arab va fors tillari ta'siri) hamda XX asrning murakkab ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlari (sovet davri va mustaqillik) enantiosemiyalarning rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatgan.

Ijtimoiy jihatdan ingliz jamiyatining individualizm va shaxsiy huquqlarga asoslangan tuzilishi enantiosemiyalarning huquqiy-pragmatik yo'nalishini kuchaytirgan bo'lsa, o'zbek jamiyatining kollektivizm, oilaviy va jamoaviy qadriyatlar ustunligi grammatik va baholiy enantiosemiyalarni rivojlantirgan. Psixologik nuqtai nazardan G'arb mentalitetiga xos understatement (kamaytirib ko'rsatish) va iroaniya Sharq mentalitetidagi kontekstual moslashuvchanlik, antiphrasis va noaniq ifodalar madaniyati bilan keskin farqlanadi.

Xulosa. Enantiosemiya tilning statik emas, dinamik tizim ekanligini isbotlaydi. U inson ongining dialektik tabiatini va madaniyatning tarixiy-iqtisodiy sharoitlarga moslashuvchanligini namoyon etadi. Globallashuv sharoitida ingliz va o'zbek tillaridagi enantiosemiyalarning qiyosiy tadqiqi tarjima, xorijiy tillarni o'qitish va interkultural kommunikatsiya uchun muhim amaliy ahamiyatga ega. Kelgusida korpus lingvistikasi va kognitiv usullar yordamida chuqurroq tadqiqotlar olib borish zarur.

ADABIYOTLAR:

1. Dickens C. *A tale of two cities*. London: Chapman & Hall; 1859.
2. Kajberuny H, Hakobyan T. *Different approaches to enantiosemy in English*. // *Armenian Folia Anglistika*. 2020;16(1). – P. 51-65.
3. Khursanov N.I. *Ecolinguistics in the Anthropocentric Paradigm: Research Object and Purpose*. In *Conferences 2025 Dec 12 (Vol. 1, No. 8, pp. 780-783)*.
4. Murodova N.I., Djumabayeva J. *Conceptual enantiosemy in English, Russian and Uzbek*. SSRN Electron J. 2019.
5. Navoiy A. *Sab' ai sayyor*. – Toshkent: Fan, 1990.
6. Odilov Y.R. *Enantiosemic features of the words in the Uzbek language*. *Türk Dünyası Dil ve Edebiyat Dergisi*. 2015;40. – P. 173-81.
7. Odilov Y.R. *Grammatical enantiosemy in the Uzbek language*. *Int J Stud Engl Lang Lit*. 2015;3(11). – P. 1-7.
8. Odilov Y.R. *O'zbek tilida leksik va frazeologik enantiosemiya*. – Toshkent: Tafakkur, 2015.
9. Ozyumenko V. *Enantiosemy in legal English*. In: *INTESS Proceedings*; 2019.
10. Прохорова В.Н. *Енантиосемия в современном русском языке*. // *Вопросы русского языкознания*. 1976; 1. – P. 24-36.
11. Qodiriy A. *O'tgan kunlar*. – Toshkent: Fan, 1926.
12. Shakespeare W. *Hamlet*. London: Folio Edition, 1603.
13. Traugott E.C. *Semantic change*. In: *The Cambridge handbook of English historical linguistics*. Cambridge: Cambridge University Press; 2017. – P. 1-25.
14. Xursanov N.I. (2025) *Dramatik diskurs: kognitiv, pragmatik, lingvokulturologik tavsif*. Monografiya. – T.: "Existentium-print" nashriyoti. – 250 b.
15. Новиков Л.А. *Антонимия в русском языке: семантический анализ противоположности в лексике*. Москва: Изд-во Московского университета, 1973.



**"SCIENTIFIC REPORTS
OF BUKHARA STATE
UNIVERSITY"**

The journal was composed
in the Editorial and
Publishing Department of
Bukhara State University.

Editorial address:

Bukhara, 200117
Bukhara State University, main
building, 2nd floor, room 219.
Editorial and Publishing
Department.
[https://buxdu.uz/32-buxoro-
davlat-universiteti-ilmiy-
axboroti/131/131-buxoro-davlat-
universiteti-ilmiy-axboroti/](https://buxdu.uz/32-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/131/131-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/)
e-mail:
nashriyot_buxdu@buxdu.uz

Printing was permitted
29.08.2026 y. Paper format
60x84,1/8. Printed in express
printing method. Conditional
printing plate – 35,30.
Circulation 70. Order № 30.
Price is negotiable.

Published in the printing house
"BUKHARAHAMD PRINT" LLC
Address: Bukhara, Hofiz tanish
Bukhari street, 190 B-house